



# SALOHİYAT = MEZON



# 11

*Ilmiy maqolalar to'plami*

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKULTETI**

**MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT  
ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI KAFEDRASI**

**ILMIY MAQOLALAR**

**TO'PLAMI**

***«SALOHIYAT MEZONI»***

**11-SON**



**NAMANGAN-2017**

Mazkur maqolalar to'plami Namangan Davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasining 2017 yil 10 apreldagi 7-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

**Mas'ul muharrir: katta o'qituvchi B. Tillayev**

Talapov B. t. f. n. , dotsent  
Mamatov O. f. f. n. , dotsent  
Qozoqov T. t. f. n. , dotsent  
Isaqova Z. f. f. n. , dotsent  
Po'latov D. s. f. n. , dotsent  
Karimova F. f. f. n. , dotsent  
Sidiqov Q. f. f. n. , dotsent  
Topildiyev O. t. f. n. , katta o'qituvchi  
Ziyabayeva S. o'qituvchi  
Zamilyeva R. katta o'qituvchi  
Abdullayev A. katta o'qituvchi  
Akayeva M. yu. f. n. , dotsent  
Umarov J. katta o'qituvchi  
Qodirova D. o'qituvchi  
Matkarimova B. o'qituvchi  
Sarimsaqova D. o'qituvchi  
Gaffarova D. o'qituvchi  
Mirzahmedov X. katta o'qituvchi

Ilmiy to'plam Namangan Davlat universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2017 yil 18 aprel kungi 3-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.

© **Namangan davlat universiteti, 2017 yil**



## **Davlat hokimiyati mahalliy organlari faoliyatini demokratishtirish jarayonlari**

*B. A. Talapov,  
Nam DU, Milliy g'oya, ma'naviyat  
asoslari va huquq ta'limi kafedrasl  
mudiri t.f.n., dotsent*

Jahon amaliyoti va mamlakatimiz miqiyosida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayoni shuni ko'rsatadiki, demokratik qadriyatlar va qarashlar o'zi - o'zidan hokimiyat organlari va uning rahbarlari, xodimlari faoliyatida shakllanmaydi, xatto eng demokratik Konstitutsiya va qonunlarning mavjud bo'lishi ham ularni jamiyatda to'g'ridan – to'g'ri qaror toptira olmaydi.

Shuning uchun ham Respublikamiz birinchi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlagandek: “Tepadani turib, maxsus farmon yoki dekret bilan jamiyatda adolat va demokratiyani o'rnatib bo'lmaydi. Bu barchaning birdek ishtiroki, birinchi navbatda peshqadam ziyolilarimiz, turli siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari namoyondalarining, mas'ul xizmatchilarimizning g'ayrati, jasorati, aql-zakovati bilan ro'yobga chiqadigan murakkab ishdir” [1. 244b] Darhaqiqat demokratiyani chekkadan keltirib bo'lmaydi, u xalqning turmush tarzi, mentaliteti, dunyoqarashi, uning siyosiy-tarixiy tajribalari, qadriyat va an'analari bilan hamohang ravishda shakllanadi. Zero, “bu boradagi eng muhim va og'ir masalalardan biri shuki, demokratik tamoyillarni joriy etishda asrlar sinovidan o'tgan, bugungi hayotimiz talablariga xizmat qiladigan, tanlab-saralab olingan milliy qadriyatlar va umumbashariy tajribalarni tabiiy ravishda uyg'unlashtira olishimiz lozim” [2. 244b].

Mustaqillik yillarida davlat hokimiyati mahalliy organlari tashkiliy, siyosiy-huquqiy mavqeini mustahkamlandi, ularni jamiyatni demokratishtirishga qo'shayotgan hissalari va jamiyat siyosiy hayotidagi faolligi yilga-yilga oshib bormoqda.

Mamlakatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligi amalga oshirilayotgan davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish borasidagi keng ko'lamlil islohotlar natijasida kengaymoqda. Yangicha sharoitlarda mehnatkashlar manfaatlarini ifodalovchilar sifatidagi boshqaruv idoralari bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar orasidagi o'zaro munosabatlar yangicha printsiplarga, ko'proq o'zaro foydali asosdagi iqtisodiy manfaatlar printsiplariga asoslanadi. ” [6. 58b]. Demak, iqtisodiy manfaatdorlik, xo'jalik sub'ektlarining huquqlarini kengayishi, shartnomaviy munosabatlarning qo'llanishi joylarda demokratik boshqarishga olib keladi.

Ayni vaqtda, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoev xalq bilan o'zining saylov oldi uchrashuvlarida va 2016 yil 25 sentyabrda tashkil etilgan Bosh vazirning internet tarmog'idagi elektron qabulxonasiga fuqarolarimizdan minglab kelib tushgan ariza, shikoyat va takliflarni chuqur o'rganish natijasida davlat hokimiyati mahalliy organlari faoliyatida qator kamchilik va muammolar borligi haqida quyidagilarni ta'kidlaydi: “Hayotning o'zi va xalqning talablari bizning

oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Bu o'rinda asosiy muammo, mening nazaramda, quyidagilardan iborat: **Birinchi**dan, ayrim idoralar va ularning rahbarlari real hayotdan va xalq ehtiyojlaridan ma'lum darajada uzilib qolmoqda.

**Ikkinchi**dan, tarmoq va xududlarni rivojlantirish kontseptsiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda yuzaki yondashuvga yo'l qo'yilmoqda.

Va nihoyat **uchinchi** asosiy kamchilik – ko'pchilik rahbarlarning murakkab muammolarni kabinetdan chiqmasdan, iqtisodiyot tarmoqlari, har bir korxonadagi, shahar va tumanlardagi, ayniqsa qishloq joylardagi ishlar qanday ahvolda ekanini chuqur o'rganmasdan hal etishga odatlanib qolganligi bilan bog'liq." [7. 10b].

Shu boisdan ham, Xarakterlar Strategiyasida "Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishda davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini davlat boshqaruvining markazlashtirishdan chiqarish" masalasiga alohida e'tibor beriladi. Darhaqiqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi islohotlar samarasini ta'minlash, ko'p jihatdan markazlashgan boshqaruvdagi asosiy vazifalarni joylarga, viloyat, tuman va shaharlardagi davlat hokimiyati organlariga o'tkazishga bog'liq. Zero, boshqaruv vazifalarining asosiy qismini, markazdan viloyatlarga, viloyatlardan shahar va tumanlardagi davlat hokimiyati va boshqaruv idoralariga o'tishni ta'minlash va shu tariqa bu bosqich asta-sekin o'zini o'zi boshqarish jamoatchilik tashkilotlariga ham yetib borishini nazarda tutadi. Demak, markaziy boshqaruv idoralarining asosiy iqtisodiy, ma'naviy-madaniy va ijtimoiy-tarbiyaviy sohadagi vazifalari mahalliy hokimiyatlarga asta-sekin o'tkazilishi, shu tariqa davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etadigan sub'ektlar doirasi kengaytirilishi zarur. Bu fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy yo'lidir. Fuqarolik jamiyatida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari umummilliy manfaatlariga daxldor eng muhim vazifalarnigina amalga oshiradi. Mudofaa, davlat xavfsizligi, tashqi siyosat, pul-moliya va soliq tizimini shakllantirish, qonunchilikni rivojlantirish shular jumlasidandir. Biroq bu markazlashgan boshqaruvdan mutlaq voz kechish kerak degan fikrga olib kelmaydi. Davlat mavjud ekan u mudom markazlashgan boshqaruvga ehtiyoj sezadi. Bu o'rinda gap davlat boshqaruvini demokratlashtirish, boshqarish sub'ektlarining doiralarini kengaytirish va faollashtirish ustida ketishi mumkin.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari jamiyatimiz hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib, ildiz otib bormoqda. Bu jarayonlar kishilar va boshqa ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi aloqalarga ta'sir etmay qolmaydi, biroq u egoizm, korporativ manfaatlariga xizmat qilish, hatto boshqalarning huquqlarini paymol qiluvchi hollarni keltirib chiqarishi, natijada demokratiyani emas, balki oligarxiyani, teng huquqlikni emas zo'raonlikni yuzaga keltirishi ham mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan taraqqiyotning o'zbek modeli va davlat hokimiyati mahalliy organlarining faoliyatini takomillashtirish aynan ana shunday noxush xolatlarni oldin olishga qaratilganligi bilan xarakterlidir. **Bunday siyosat natijasida, sobiq ittifoq xududidagi boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, O'zbekistonda daromadlar darajasi bo'yicha aholining keskin tabaqalanishi mavjud emas. Eng ko'p va eng kam daromad oladigan aholi**

o'rtasidagi farq 2000 yildagi 53, 3 barobardan bugungi kunda 7, 8 barobarga tushdi. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning mezoni hisoblangan bu ko'rsatkich xalqaro me'yorlarga ko'ra 10 barobar qilib belgilangan. [8. 2b].

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoev davlat idoralari, uning rahbarlarini joylarga chiqib odamlarning dardini eshitish, ular bilan ochiq muloqotda bo'lish, og'irini yengil qilish zarurligini qayta- qayta takrorladilar. Bu esa aholining davlat va jamiyatga ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi, deb uqtirdilar va "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari halqimizga xizmat qilishi kerak", degan dolzarb vazifani barcha bo'g'in rahbarlari oldidiga qo'ydilar. (9. 16 b. )

Davlat hokimiyati mahalliy organlari tizimi faoliyatida 2017 yildan boshlab barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berish tizimi joriy etilishi, har bir tuman va shaharda "Xalq qabulxonalari" ning tashkil etilishi shaklan va mazmunan yangi amaliyot ekanligini qayd etish lozim. Oradan qisqa vaqt o'tgan bo'lsada, joylarda yangi tashkil etilgan xalq qabulhonalari o'zining ijobiy natijasini ko'rsatmoqda.

Shu o'rinda davlat hokimiyati mahalliy organlari faoliyatidagi mavjud bir muammo xususida to'xtalish o'rinlidir. Chunonchi, hozirda xalq deputatlari kengashlari hokimlarga bo'ysunadi. Amaldagi qonunlarda tuman va shahar hokimi o'z vakolatlarini yagona boshqaruv tamoyillarida amalga oshiradi va o'zi boshqarayotgan organlar qarorlari va harakatlari uchun shaxsiy javobgardir, deb belgilab qo'yilgan. Bunday holat, muallif fikricha, xalq vakillarining siyosiy va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga to'liq imkon bermaydi, ularni hokimning yakka rahbarligi ostida ishlashga majbur qiladi va o'z demokratik mohiyatini yo'qotadi. Haqiqatan ham mahalliy hokimiyat organlari huquqiy mustaqil bo'lgan siyosiy partiyalar va nodavlat tashkilotlarini o'ziga bo'ysundirish, ularni funktsiyalariga kirmaydigan ishlarga jalb etishga urinishlari uchrab turibdi. Bu esa demokratik institutlarning shakllanishiga ham, faoliyatiga ham xalaqit beradi. Shu boisdan davlat rahbari Sh. M. Mirziyoev tomonidan kelgusida mazkur amaliyotga barham berilishi alohida qayd etildi. "Kelgusida biz mahalliy hokimlarni bevosita xalq tomonidan saylash masalasi haqida ham o'ylab, muhokama qilib ko'rishimiz kerak. Har bir xudud o'z rahbarini o'zi saylasa, rahbarlarning xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatini keskin oshirishga erishish mumkin." (10. 19b)

Bugun davlat hokimiyati mahalliy organlarini zamonaviy, demokratik tafakkurga va boshqarish usullariga ega yosh kadrlar bilan to'ldirish dolzarb masalalardan biridir. Eng avvalo, bizning ongu tafakkurimizga, ma'naviyatimizga kishan bo'lib turgan eski asoratlardan xoli bo'lgan zamonning ilg'or talablariga javob beridigan g'ayrat-shijoatli, mard, insof-diyonatli yoshlarimizning hal qiluvchi vazifalarga kelishi uchun yo'lni keng ochib berish kerak. Birinchi galda sog'lom fikrlovchi, shu aziz Vatan qismatini o'z shaxsiy qismati deb biladigan, mamlakatning ertasi uchun bor mas'uliyatni zimmasiga olishga qodir, jafokash xalqimiz uchun, demokratiya va adolat uchun o'zini baxshida etadigan, fidoyi, izlanuvchi yosh avlodning boshini qovushtirish, uning maqsad va intilishlariga qanot berish zarur. Shu bilan birga, davlat xizmati institutini isloh etish, davlat xizmatchilarining moddiy va ijtimoiy ta'minoti,

ularning kasbiy tayyorgarligini tubdan takomillashtirish, bu sohaga yanigcha fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, vatanparvar kadrlarni jalb etish bo'yicha tizim yaratilishi ko'zda tutilmoqda. (11. 19b)

Demokratik taraqqiyot butun jamiyat izlanishlarining, xalq mehnatining pirovard natijasi bo'ladi. Davlat hokimiyati organlari, institutlari ushbu izlanishlarni tezlashtirishi ham, ularga to'siq bo'lishi ham mumkin. Demokratik taraqqiyot butun insoniyatning, taraqqiyparvar kuchlarning istagi, irodasi, ifodasi, hayotiy maqsadiga aylangan ekan ushbu global voqelikdan O'zbekiston Respublikasi va uning xalqi ham chekkada qola olmaydi. Bizda demokratiyani hayot tarziga aylantirishga qodir huquqiy institutlar va mexanizmlar ham, xalqni demokratik taraqqiyotga bo'lgan intilishini amalda qo'llab-quvvatlovchi siyosiy institutlar ham tashkil etilgan. Hozirgi vazifa ushbu mexanizmlar va institutlarni ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga yanada samaraliroq xizmat qilishini ta'minlashdir. Zero, Prezident Sh. M. Mirziyoev rahbarligida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarning mohiyati ham mavjud mexanizmlar va institutlarning modernizatsiyalashayotgan ijtimoiy hayot talablariga muvofiq faol ishlashiga erishishga qaratilgandir.

### **Jamiyat manaviyatida - milliy qadryatlar ahamiyati**

*A. Nasrullayev,*

*Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: T. Qozoqov*

“Butun umrini iymon va etiqod, vatanparvarlik va insonparvarlik, poklik va xalollik, ilm va marifat, adolat va diyonat yo'lida fido etgan zotlarning mo'tabar xoklari makon topgan zamingina muqaddasdir. Agar shunday insonlar bo'lmasa, ular daxosini nafasi sezilib turmasa, xar qanday zamin oddiy tuproq bo'lib qolaveradi” I. A. Karimov.

Jamiyat manaviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilishning milliy va axloqiy qadryat xamda ananalarining muqaddas dinimizning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Har bir xalq, har qaysi mamlakat o'zining betakror tarixiga ega. Shuningdek O'zbekistonning o'zbek xalqining tarixi ham juda boy. Mustaqqillik yillarida boy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu yillarda buyuk shaxslarning xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorliklar majmuasi jamiyat majmuasini yuksaltirishga, milliy ong va milliy g'ururni yanada kamol toptirish hamda xalqimiz yoshlarimiz ongiga milliy mafkuramiz asoslarini singdirishga, dunyo xalqlariga o'zbek davlatchiligining ildizlari baquvat ekanini namoyish etishga xizmat qilmoqda. Asrlar davomida shakllangan milliy qadryatlar urf-odat, ananalar xalqimizni betimsol boyligi, istiqolning mustaxkam poydevori, porloq istiqolning kafolotidir. Ajdodlarimizni orzu umidlari intilishlari va boy tafakkurini o'zida mujassam etgan bebaxo boyligni asrash va uni ulg'ayib kelayotgan navqiron avlodning ongiga chuqur singdirish zarurdir. Xalqimizda yoshlarda o'zining aqlu zakovatiga, intellektual saloxiyatiga yaratuvchilik kuchiga, manaviyatiga

ishonch bo'lsa, ularni xech qanday salbiy tasir etuvchi kuchlar yenga olmaydi. Islom Karimov aytganlaridek " Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson, takror aytaman irodali insondir. Kim bo'lishidan qat'iy nazar jamiyatning xar bir azosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa bunday odamlarni yo'ldan urish, xar xil aqidalar tasiriga tortish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi".

### **Xalq diplomatiyasi yangi bosqichida**

*B. A. Talapov,  
Nam DU, Milliy g'oya, ma'naviyat  
asoslari va huquq ta'limi  
kafedrası mudiri t. f. n. , dotsent*

Jahonda kechayotgan keng miqiyosdagi globallashuv sharoitida xalq diplomatiyasining xalqaro munosabatlardagi, tinchlik va xavfsizlik ta'minlash, xalqlar o'rtasida barcha sohalaridagi o'zaro aloqalarni mustahkamlashdagi roli va o'rni muntazaam oshirib bormoqda. Ayni vaqtda mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilari o'rtasida "xalq diplomatiyasi" tushunchasini talqin qilishda, hozirga qadar yagona yondashuv shakllanmagan. Bizning fikrimizcha, xalq diplomatiyasi xalqning, fuqarolik jamiyatining xalqaro munosabatlarda va davlatning tashqi siyosatini amalga oshirishda faol ishtirokini aks ettiradi. Xalq diplomatiyasi bu - davlatning diplomatik funksiyasini amalga oshirishga ko'maklashishga qaratilgan bir guruh faol insonlar, shaxs, jamoat va nodavlat tashkilotlaridan tomonidan amalga oshiriladigan erkin ijtimoiy faoliyatdir. Keng ma'noda xalq diplomatiyasi tushunchasi orqali xalqlar o'rtasidagi uzluksiz muloqot, bir-birini tushunish, o'zaro ta'sir va madaniyatlarni boyitish tushuniladi.

Bugungi xalqaro munosabatlardagi muhim o'zgarishlaridan biri shuki, xalq ommasi, jamoatchilik va ularning tashkilot va birlashmalari tinchlikni saqlash, umumiy xavfsizlikni mustahkamlash, xalqlar o'rtasida ijtimoiy-siyosiy, madaniy munosabatlarini yanada rivojlantirish jarayonlarida keng ishtirok etmoqda. Xalq vakillari va jamoatchilik tomonidan tinchlikni mustaqamlash bo'yicha qimmatli takliflar va tashabbuslar bildirilmoqda. Xalq diplomatiyasiga munosabat o'zgarimoqda, uning xalqaro munosabatlarning muhim omili sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi xalq diplomatiyasi tarkibiy va mazmun jihatdan kengayib, boyib bormoqda, u xalqning turli toifalarini o'z atrofiga birlashtiradi. Yurtimizda bu aloqlarni amalga oshirishda xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy aloqalar jamiyati, xotin-qizlar, yoshlar, kasaba uyushmalari, ijodiy va boshqa ko'plab tashkilotlar xalq diplomatiyasining faol ishtirokchilari sifatida ishtirok etishmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalq diplomatiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi IY – bobi, 17- moddasida belgilab berilgan tamoyillarga: davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid



qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanib amalga oshirilayotgan davlat diplomatiyasini mazmunan boyitishga va samaradorligini ta'minlashga ko'maklashib kelmoqda.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasi o'zining geosiyosiy joylashuvi va Markaziy Osiyodagi integratsion jarayonlarni yanada chuqurlashtirish zaruriyatidan, mamlakatimiz milliy manfaatlaridan kelib chiqib, xududdagi yaqin qo'shni davlatlar bilan xalqaro aloqalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning birinchi davlat tashrifini qo'shni Turkmaniston davlatiga amalga oshirildi. Ushbu tashrifga tayyorgarlik arafasida gorizontaloqalar – xalq diplomatiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Chunonchi, O'zbekistonning Buxoro va Xorazm viloyati delegatsiyasi 2017 yil 4-5 fevralida Turmanistonning Lebap va Toshouz viloyatlarida bo'lishdi.<sup>2</sup> So'ngi vaqtda birinchi marta davlat delegatsiyasi tarkibida Turkmanistonga yaqin qo'shni bo'lgan viloyatlarning hokimlari ishtirok etishdi. Bu esa xududiy jihatdan o'zaro bog'langan viloyatlar aholisi o'rtasida do'stona va o'zaro manfaatli aloqalarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekistonning xalqaro munosabatlarida qo'llanilayotgan ushbu amaliyot qo'shni Qozog'iston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi bilan bo'lgan aloqlarda ham amalga oshirildi. 2016 yilning dekabr oyida Toshkent shahar hokimi rahbarligidagi O'zbekiston delegatsiyasining Olmaotaga tashrifi buyurdi. Ular tashrif chog'ida shahar ma'muriyati, kompaniyalar va banklar vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazdilar. 2017 yilning yanvarida Qizilo'rda viloyati hokimi Krimbek Kuserbaev rahbarligidagi delegatsiya mamlakatimizning Navoi viloyatiga keldi. Delegatsiya a'zolari "Ayteke BI" va "Chashma me'moriy majmualari va "Navoiy" erkin industrial –iqtisodiy zonasidagi yirik sanoat korxonalarida bo'lishdi. Bu faktlar ikki qo'shni xalq vakillari orasida o'zaro manfaatli aloqalar erkin rivojlantirilayotganligining ravshan isbotidir. Ayni vaqtda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston xududida istiqomat qilayotgan yuz minglab qozoq millatiga mansub insonlar o'z qadriyat va an'alarini hamda o'ziga xosligini rivojlantirish maqsadida qozoq madaniyat markazlari, teatrlari, folklor va estrada guruhlari faoliyat yuritib kelmoqda. Bugun mamlakatimizda respublika ahamiyatiga ega bo'lgan qozoq tilida "Nurlıy jol" gazetasi nashr etilmoqda. 386 ta maktabda qozoq tili o'qitilmoqda, ulardan 164 tasida ta'lim qozoq tilida yuritiladi<sup>3</sup>.

Xalq diplomatiyasi doirasidagi aloqalar O'zbekiston va Rossiya munosabatlarida ham rivojlanib bormoqda. Shu yilning fevral oyida Novosibirsk

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?fact\\_id=20596](http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?fact_id=20596)

<sup>2</sup> [www.Gazeta.uz](http://www.Gazeta.uz). Turkmenistan.

<sup>3</sup> Nurjanova G. O'zbekiston va Qozog'iston – Markaziy Osiyo lokomotivlari, Qishloq hayoti gazetasi, 2017 yil, 18 mart

<sup>3</sup> Nurjanova G. O'zbekiston va Qozog'iston – Markaziy Osiyo lokomotivlari, Qishloq hayoti gazetasi, 2017 yil, 18 mart.

oblasti delegatsiyasi mamlakatimizda bo'lib, 2017-2019 yillarda "O'zgroekспорт -Sibir" savdo uyi orqali Sibir federal okrugiga yil davomida meva va sabzavot mahsulotlarini yetkazib berishni tashkil etish to'g'risidagi bitimni imzoladilar. Ayni vaqtda joriy yilning boshida Toshkent, Samarqand, Namangan va Andijon viloyatlari delegatsiyalari Rossiyaning 8 ta sub'ektiga tashrif buyurib, ishbilarmon doiralarning V2V(business-to-business) shaklida uchrashuvlar o'tkazdilar. <sup>4</sup> Xususan, Namangan viloyati hokimi Xayrullo Bozorov va Chelyabinsk viloyati gubernatori Boris Dubrovskiy ikki xudud o'rtasida iqtisodiy va gumanitar aloqalar, turizm, tibbiyot, madaniyat va ta'limni rivojlantirish bo'yicha memorandum imzolashdi. <sup>5</sup> Ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi madaniy –gumanitar sohada ham kengayib bormoqda. Masalan, Toshkentda M. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, G. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, I. Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz universiteti filiallari muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritmoqda. <sup>6</sup>

Xalq diplomatiyasining hozirgi faoliyatining qisqacha tahlili quyidagi nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalar qilishga imkon beradi:

- xalq diplomatiyasining sotsial asosi keng qamrovli bo'lib, aholining barcha toifalarini o'z ichiga oladi;

- uning faoliyat yo'nalishlari turli xudud, mintaqa va davlatlardagi xalqlarning gorizontal aloqalarini o'z ichiga olib, sho'rolar davrida talqin qilinganidek, faqat xalqlarning xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy aloqlaridangina iborat bo'lmay, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy - gumanitar, xalqaro miqyosda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash kabi yo'nalishlarni qamrab oladi;

- bugungi kunda xalq diplomatiyasi faoliyatga yangicha mazmun bag'ishlayotgan yo'nalish – ishbilarmonlar va tadbirkorlar, biznes sohasi vakillarining o'zaro uchrashuvlari, tajriba almashishlari, o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishlaridir.

- xalq diplomatiyasini amalga oshiradigan jamoat va nodavlat tashkilotlarining faoliyati va tashabbuskorligini yanada jonlantirish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [http://www. lex. uz /pages/getpage.aspx?lact\\_id=20596](http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=20596)

2. www. Gazeta. uz. Turkmenistan

3. Nurjanova G. O'zbekiston va Qozog'iston – Markaziy Osiyo lokomotivlari, Qishloq hayoti gazetasi, 2017 yil, 18 mart

4. Nurjanova G. Strategik sherik va ittifoqchilik munosabatlarini rivojlantirish yo'lida, Qishloq hayoti gazetasi, 2017 yil, 4 aprel

5. Hamkorlik yo'lga qo'yildi, Namangan haqiqati, 2017 yil 1 aprel

<sup>4</sup> Nurjanova G. Strategik sherik va ittifoqchilik munosabatlarini rivojlantirish yo'lida, Qishloq hayoti gazetasi, 2017 yil, 4 aprel'

<sup>5</sup> Hamkorlik yo'lga qo'yildi, Namangan haqiqati, 2017 yil 1 aprel'

<sup>6</sup> O'sha joyda.

## **Globalashuv sharoitida milliy kadriyatlarining asrashni uslub va vositalari**

*Axmadjonova N.*

*Nam DU 2-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: T. Qozoqov*

Bugungi kunda aksariyat rivojlangan davlatlarning mafkurasi umuminsoniy kadriyatlar demokratik tamoyillarga asoslanadi. Ulardatinchlik va tarakkuiyot, inson xak-xukuklari va erkinligi, milliy va diniy totuvlik goyalari ustuvordir. Shu bilan birga mafkuraviy vositalar orkali uz ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va xarakatlar xam yuk emas. Aslida axborot soxasidagi globalashuv insoniyat uchun, insonlarni uzaro mulokoti uchun, ilm fan va madaniy boyliklarni uzlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratiladigan jarayon. Lekin zararli okimlar bundan uz garazli maksadlari yulida foydalanib yoshlarni irodasidan, ong shuuridan maxrum kilib uz ta'sirlarini kursatmokdalar. Davlatimizda mustakillikdan sung tarixiy xotira, milliy an'ana va kadriyatlar tiklandi. Xozirgi sharoitda millatimizning asriy an'ana va urf-odatlarini, uzligimizning asosiy xususiyatlarini mujassamlashtirib, jamiyatimiz, mamlakatimiz uz oldiga kuygan vazifalarini anik bajarmogimiz lozim. Xalkimizning asriy an'analari, mukaddas dinimizning insonparvarlik moxiyatiga, milliy kadriyatlarimizga xos, uzligimizga mos rivojlanish yulidan yurmogimiz lozim. Bunda:

-Axolini siyosiy faolligini oshirish

-Milliy va umumbashariy kadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish

-Karama-karshi kuchlar va xarakatlar urtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish

-Maxalliy xokimiyat va fukarolarni uz-uzini boshkarish organlarining faoliyat darajasini yanada kengaytirish

-Iste'dodli, izlanuvchan, chukur bilimli, yuksak malakali, sadokatli yosh kadrlar tanlash va joy-joyiga kuyish

-Uzligimizni chukurroq anglash, milliy urf-odat, an'ana, kadriyatlarini asrash, avaylash va avlodlar ongiga singdirish kabi uslublarni amalga oshirish, bajarish kerak.

### **Bugungi kun globalashuv davrida milliy ma'naviyat**

*Sotvoldiyev Bobur,*

*Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: O. Mamatov*

XIX asrning oxiri XXI asrning boshlaridagi xalqaro vaziyat globalashuv jarayonlarining nihoyatda chuqurlashib ketganligi bilan xarakterlanadi. Masalaning muhim va dolzarb jihati shundan iboratki, hozirgi zamon globalashuv jarayonlari insoniyat uchun keltirib chiqarayotgan oqibatlar mohiyatini tezda tushunib anglash oson kechmayapti. Bugun globalashuv o'zining qamrovi, ta'sir kuchi, tobora ommaviy tus olishi bilan kam taraqqiy qilgan va endi taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlar

xalqlarini milliy ma'naviyatiga tajovuz qilmoqda, ularning zaminlarini yemirmoqda va istiqbolda "ommaviy madaniyat" ta'sirida ularning barbod bo'lishiga zamin tayyorlamoqda.

Bu tajovuz nafaqat ommaviy axborot vositalari televidenie, internet yoki uyali telefonlar vositasida, shuningdek insonlarning hayot kechirishi va turmushi uchun zarur bo'lgan iqtisodiyot vositasida ham amalga oshirilmoqda. Gohida globallashuvning ta'sirida sodir bo'layotgan integratsiyalashuv natijasida mamlakatlar iqtisodiyotidagi ijobiy siljishlarning odamlarning moddiy sharoitida o'z ifodasini topayotganligi ko'rsatkichi ta'sirida milliy ma'naviyatning zaiflashuv jarayoni sezilmayapti. Globallashuvning milliy ma'naviyatni yemirish, urf-odat, an'ana, qadriyatlarining xiralashuviga o'tkazayotgan ta'sirida ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Globallashuv davriga kelib esa taraqqiyot borasida o'zgacha qarash voqea hodisalarni makon va zamondan ajratmagan xolda, sinxron tarzda talqin etish tamoyili ko'zga tashlana boshladi.

Globallashuvning vujudga kelishida savdo va ishlab chiqarish, iqtisodiy, moliyaviy aloqalarning dunyo miqyosida g'oyat kuchayishi, tezlashishi zamin bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yana bir sabab – dunyo miqyosida urbanizatsiyaning kuchayishi ham globallashuv jarayonini tezlashtirdi. Jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda shahar aholisining iqtisodiy faol qismi ertalab ishga, yoshlar o'qishga borib, kechqurun xonadonlariga qaytadi, bo'sh vaqtini ham qariyb bir xil - televizor oldida o'tkazadi. Hatto ishda va ko'chada kiyadigan kiyimlarining turi, ro'zg'orda ishlatadigan buyumlar ham aytarli bir xil. Bularning barchasi turli xalqlarning psixologiyasida, tafakkur tarzida, hordiq va maishatga, iste'molga, hayotga munosabatida mushtarak qarashlar paydo bolishiga olib keldi, "ommaviy madaniyatning tarqalishiga zamin yaratdi. Natijada dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida hordiq va ko'ngilochar "mahsulotlar ishlab chiqaradigan industriya shakllandi.

"Globallashuv tushunchasi (lot. Globus — shar, Yer sayyorasi ma'nosini anglatadi) yangi umumsayyoraviy tartibot, tamadduniy bosqich mazmun-mohiyati, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarning keng tarqalishi, informatsion-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfning ortib borishini ifoda etadigan global jarayon. Ya'ni jamiyat hayotining barcha sohalari - iqtisodiyot, siyosat, mafkura, madaniyat, hatto shaxsiy turmush tarzini qamrab olgan globallashuv jarayoni bilan bog'lanmoqda.

Bugungi kunda internet tarmog'ida to'qqiz mingdan ortiq o'z joniga qasd qilishni targ'ib etuvchi, to'rt mingdan ortiq erotik mazmundagi saytlar ishlab turibdi. Global tarmoqdagi mavjud resurslarning o'n ikki foizi pornografik mazmundadir. Ularga yoshlarni qiziqishi juda katta.

Dunyoda globallashuv jarayoni davom etayotgan, ta'im-tarbiyada axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalasi nihoyatda dolzarb masala bo'lib turgan sharoitda yoshlarga bu imkoniyatlardan

foydalanishni ta'qiqlab qo'yishni iloji yo'q. Biroq, bir vaqtning o'zida "ommaviy madaniyat" va turli yot g'oyalarga qarshi kurash olib borish, bu sohadagi ishlar samaradorligini yanada oshirish talab qilinmoqda.

## **Globallashuv jarayonining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri**

*F. Nabijonov,*

*Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: O. Mamatov*

Hozirgi kunda hayotimizni texnika vositalarisiz tasavvur eta olmaymiz. Ayni paytda texnika vositalari jadal rivojlangan davrda yashamoqdamiz. Texnika vositalarining bunday tarzda tez sur'atlar bilan rivojlanishi axborot ko'lamining kengayishiga va uni tez tarqalishiga olib kelmoqda. Bunday holat globallashuv jarayonini yuzaga keltirmoqda. Globallashuv atamasini ayni davrda ko'p foydalanilayotgan bo'lsada, bu atamani dastlab XX asrning 80-yillarida iqtisodiy sohada o'zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik T. Levitt tomonidan qo'llanilgan. Aslida, globallashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli darajada va ko'rinishlarda mavjud bo'lgan va hozirgi davrga kelib bu jarayonning avj olishi ro'y bermoqda. Globallashuv jarayoni hozirda hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelmoqda. Shu xususda Yurtboshimiz shunday fikr bildirgan: "Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana biron yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma'lum ma'noda haqiqat, rasional mag'iz bor. Chunki ularning har biri o'zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi-alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda". Globallashuv jarayonidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Ezgulik yo'lidagi harakatlar davlatni va jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan bo'lsa, yovuzlikni maqsad qilgan taraqqiyot mahsulisi esa buning tamomila aksidir. Bu haqida hind olimi Mahatma Gandi o'zining quyidagi fikrini bildirgan: "Xonamni shamollatish uchun derazamni ochsam, toza havo bilan birgalikda chang-g'ubor ham kiradi. Lekin derazani yopib qo'ya olmayman, chunki menga toza havo kerak". Bu jarayonni cheklab bo'lmaydi. Tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi globallashuv jarayoni ham ijobiy va salbiy holatlarni yuzaga keltirmoqda. Globallashuv jarayoni barcha sohalarda bo'lgani kabi ma'naviyatga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Internet saytlarida aniq, ishonchli ma'lumotlar bilan birgalikda yoshlarning ongini zaharlashga qaratilgan, ularning ruhiyatida agressivlik, tajovvuzkorlik kabi kayfiyatlarni uyg'otadigan turli yot g'oyalarning, mentalitetimizga xos bo'lmagan odatlar tarqatilayotgani kishini ogohlikka chorlaydi. Yurtboshimiz Islom Karimov bu xususida, - "Bugungi kunda

insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamonda eng katta xavf - insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan urushlar ko'p narsani hal qiladi", - degan edi. Axborot xuruji, aslida, o'z manfaatlarini dunyo bo'ylab yoyishning eng ma'qul usulidir. Shu o'rinda aytish kerakki, haqiqatda yurtboshimiz ta'kidlaganidek, bugungi kunda axborot omili yadroviy poligonlardan ham dahshatli omilga aylanib bormoqda. Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyasiz bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan ziyon keltirishi mumkin. Jumladan, ma'naviy tahdidlarning bir ko'rinishi bo'lgan "ommaviy madaniyat" niqobidagi tazyiqlarning yoshlar ongiga ta'siri mamlakat taraqqiyoti uchun ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarning turli internet klublarida o'tirishlari va pornografik saytlarga kirishlari, mobil telefonlardan noto'g'ri foydalanib, milliylikka to'g'ri kelmaydigan film va suratlar olib yurishlari, bularning barchasi inson ma'naviy kamolotiga yetarli darajada zarar keltiradi. Bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash lozim. Ularning ongida milliy qadryatlarimizni, milliy mentalitetni yuksak darajada shakllantirib, ularni qalbida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg'ulari qurshovida tarbiyalash kerak bo'ladi. Toki ular vatanga xizmat qiluvchi, o'zining sohasini yetuk mutaxassisi bo'lishsin.

### **Oilada o'smir tarbiyasi**

*A. G'aniyev*

*Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Ibragimov*

Ota-onalar tomonidan o'smirlarga tarbiyaviy ta'sir qo'llanilganda, ularning mustaqilliklari, faolliklari, tashabbuskorligi, o'z-o'zini boshqara olishlarini nazarda tutish talab eiladi. Mana shundagina o'smir ma'suliyatdan bosh tortmaydi, unda oiladagi zamonaviy mexnatga burch xissi, o'zaro yordamlashishga intilish, birdamlik, kerak bo'lgan paytda bo'ysunish odatlari tarkib topadi. O'smir uchun katta kishilarning hatti-harakatlari, xususan, ota-onalarining shaxsiy namunalari muxim ahamiyatga ega. Aytish joizki, uning qalbidan xech bir narsa ota-onaning ibratidek kuchli va mustaxkam o'rin egallamaydi. Ota-onalar o'smirlarni nafaqat so'zlari bilan, balki xatti xarakatlari bilan xam tarbiyalaydilar. Ayrim tasodifiy xatolar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar o'smirlarning xatti xarakatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'smirlarda faoliyatning u yoki bu turiga qarab qobiliyatlar tarkib topa boshlaydi. Buning sababi shuki, o'smirlik yoshida chuqur, ta'sirchan, barqaror qiziqishlar yuzaga keladi, atrofga ongli munosabatta bo'lish xissi tarkib topadi, mustaqil, ijodiy tafakkur taraqqiy etadi. Ota-onalarning vazifasi ana shu qobiliyatlarni o'stirish,

faollik bilan tarkib toptirish uchun qulay shart-sharoit yaratib berishdir. O'smirlik yoshida psixologik jixatdan eng muxim xisoblangan yangi xislatlarning tarkib topishi – ularda o'ziga xos kattalik xissining vujudga kelishida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, oilada ota-ona, aka-opalar o'z pand-nasixatlari, amaliy xatti xarakatlari, bajarayotgan ishlari, ishbilarmonlik, tadbirkorlik faoliyatlari orqali o'smirda iqtisodiy tushunchalar, bilimlar, o'z ishiga ma'suliyat bilan qarash va tejamkorlikni shakllantiradi. O'smir yoshlarda xushyorlik, chidamlilik, chaqqonlik, o'z muammolarini mustaqil, to'g'ri xal qila bilish, uzoqni ko'ra olish, odamlar bilan muomila qilish madaniyati shakllana boshlaydi. O'smirlarning ma'lum kasb –hunar sirlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ota-onalar yoki katta yoshli oila a'zolari tomonidan ularning kundalik faoliyatlarini bevosita kuzatish, bilim olishlarini nazorat qilish, sinf raxbarlari, fan o'qituvchilari bilan suxbatlashishlari asosida aniqlanadi, muayyan soxaga qiziqishi, moilligi, xatti-xarakatlarini kuzatish orqali anglashlari mumkin. Ota-onalar, oila kattalari va ustozlar tomonidan o'zlarining kasblari to'g'risida qilingan qiziqarli xikoyalarning tinglash, ularning faoliyatlarini kuzatish o'smirlarda kasbiy qiziqishlarni shakllantiradi. Bu o'rinda kasb hunar turlari, o'ziga xosligi oilaviy byudjetni shakllantirishdagi o'rni to'g'risida o'smirlarga batafsil ma'lumotlarni berish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, ota-onaning o'smir yoshlarga o'ziga xos usullarda yondashuvi kelajakda ularning oilada va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishlarida ko'maklashadi. Bir so'z bilan aytganda ota-ona bola uchun sirdosh, maslahatchi va do'st bolmog'I lozim. Shundagina, o'smirda oilaning eng yaqin azosi sifatida o'z orzu-istaklarini bayon etish, ular asosida ikkilanmasdan porloq kelajagini yarata olish imkoniyati yaratiladi.

## **Jamiyatimiz hayotida Milliy g'oyaning o'rni**

*S. Vohidov,*

*Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: T. Qozoqov*

Vatanimiz mustaqilligini qo'lga kiritgach mustaqillikning ma'naviy asoslarini mustaxkamlash, milliy qadryatlarimizni an'ana va urf odatlarimizni asrab avaylashga katta e'tibor berildi. Xalqimiz ayniqsa biz yosh avlod qalbiga ona yurtga muxabbat, istiqlolga sadoqat tuyg'ularini singdirish borasida chuqur islohatlar olib borilmoqda, , Milliy g'oya va mafkuramizni'' xalqimiz ongida chuqur singdirishga aloxida e'tibor berilmoqda. Shu munosabat bilan Muxtarom 1-Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning, , Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy marifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida''g i 2006-yil 25-avgustdagi PQ 451-sonli qarori e'tiborga molikdir. Chunki xalqaro maydonda mafkuraviy g'oyaviy kurashlar kuchayib boryotgan hozirgi murakkab davrda ma'naviy-marifiy ishlarni hozirgi zamon talablariga mos ravishda tashkil etish yoshlarimizni turli xil mafkuraviy xurujlardan himoya qilish yurtdoshlarimizning yon atrofda yuz beryotgan voqealarga daxldorlik xissini

oshirish tinch va osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borishimiz zarur.

Ushbu qarorga ko'ra Respublika Ma'naviy va ma'rifat kengashida , , Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi" tashkil etildi. Ushbu markazning asosiy vazifalari belgilab berildi. Asosiy maqsadlaridan biri : Xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy va milliy qadriyatlarini, diniy qarashlar va hayotiy udumlariga yoshlarni ongini zaxarlab ma'naviy jihatdan qaram etishga qaratilgan mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali ilmiy dasturlarni ishlab chiqish kabi bir qator masalalar belgilangan.

Milliy g'oya va mafkura yuksak manaviy taraqqiyotimizning tayanchi ekani to'g'risida I. A. Karimovning , , Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida yanada rivojlantirildi. Bu asarda Odamzot uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boyluk bu ma'naviy boyluk ekanini keng qamrovli fikir xulosalar orqali tahlil etib berilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joyizki Muxtaram birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning ushbu gaplarini keltirib o'tmoqchiman: "Bizning eng ulug' maqsadimiz eng ulug' g'oyamiz shuki O'zbekistonning bitta yo'li bor: mustaqillikni mustaxkamlab, mamlakatimizni xar tomonlama yuksaltirib yorug' va erkin xayot sari olg'a yurishimiz zarur. Mafkuramiz o'z tutgan yo'limiz bor" Biz milliylikimizni saqlab o'z milliy g'oya va mafkuramiz yo'lida bir tanu- bir jon bo'lsak bu taraqqiyotimiz tayanchi bo'lib xizmat qilishi shubxasizdir.

### **Jamiyat ma'naviy rivojida tarixiy xotiraning o'rni**

*M. Olimjonov,*

*Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Ibragimov*

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilishning milliy va ahloqiy qadriyat hamda an'analarning muqaddas dinimizning o'rni va axamiyati beqiyosdir. Har bir xalq, har qaysi mamlakat o'zining betakror tarixiga ega. Shuningdek, O'zbekistonning o'zbek xalqining tarixi ham juda boy. Mustaqillik yillarida boy me'rosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu yillarda buyuk shaxslarning xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorliklar majmuasi jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy g'ururni yanada kamol toptirish hamda xalqimiz yoshlarimiz ongiga milliy mafkuramiz asoslarini singdirishga, dunyo xalqlariga o'zbek davlatchiligining ildizlari baquvat ekanini namoyish etishga xizmat qilmoqda. Asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar urf-odat, an'analar xalqimizni betimsol boyligi, istiqlolning mustaxkam poydevori, porloq istiqlolning kafolatidir. Ajdodlarimizni orzu umidlari intilishlari va boy tafakkurini o'zida mujassam etgan bebaho boylukni asrash va uni ulg'ayib kelayotgan navqiron avlodning ongiga chuqur singdirish zarurdir. Xalqimizda yoshlarda o'zining aqlu zakovatiga, intellektual salohiyatiga yaratuvchilik kuchiga, ma'naviyatiga ishonch bo'lsa, ularni xech qanday salbiy ta'sir etuvchi kuchlar yenga olmaydi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom



Abdugʻanievich Karimov aytganlaridek “Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson, takror aytaman irodali insondir. Kim boʻlishidan qatʼiy nazar jamiyatning har bir azosi oʻz oʻtmishini yaxshi bilsa bunday odamlarni yoʻldan urish, har xil aqidalar tasiriga tortish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka oʻrgatadi, irodasini mustahkamlaydi”.

## **Tarixiy meros va milliy madaniyatni asrash muammolari**

*Z. Soxibjonov,*

*Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: T. Qozoqov*

Yillar oʻtkinchi, hayot abadiy. Inson yulovchi, insoniyat, millat bokiyydir. Milliy anʼanalar xalk utmishi, buguni, kelajagini mustaxkam boglab turuvchi ezgu kadriyatlaridir. Xayotimizning kaysi soxasini olmang, milliyligimiz kurinib turadi yaʼni milliy meʼmorchilik, milliy adabiyot, milliy turmush tarzi, milliy musika, milliy liboslar, milliy taomlar, milliy xunarmandchilik, milliy munosabatlar, milliy mexmondustlik, milliy ism va tarbiya, milliy odob, milliy kurash, bularni sanab tugatish kiyin. Mustakillik xalkimizning asriy urf-odatlarini, anʼanalariga erkinlik beribgina kolmay, koʻplarini tikladi. Tarixiy merosimiz bulgan kadamjolar, dorbozlar sanʼati, muzeylari, navruz bayramlari kabilarni asrash, bu milliy madaniyatimizni asrash, yosh avlodlar ongiga singdirish oila, maxalla orkali bajarilishi kerak.

Milliy urf-odat. anʼanalarimizni uziga xos fazilati juda kup. Oxirgi paytda maxallalarda Ramazon va Kurbon xayitlari kunlarida elga osh berib, muxtoj oilalarga muruvvat kursatish, xaj safariga otlanganlarni xar jixatdan kullab-kuvvatlash kayta tiklangan kutlug anʼanalarimizdandir. Madaniyat va madaniy maʼrifiy ishlar mafkurani shakllantirish va xalkimiz ongiga singdirishda kata axamiyatga ega. Bunga kutubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va sarolar, istiroxat boglari, muzeylar va boshka muassasalar faoliyatidan keng foydalanish kishilar dunyokarashini yuksaltiradigan madaniy tadbirlar ishlab chikish, amalga oshirish lozim.

Zamonlardan zamonlarga, ajdodlardan avlodlarga moddiy, madaniy, maʼrifiy, ruxiy boyliklar, ajoyib anʼanalar meros bulib utadi. Maʼlumki uzbek xalki jaxon xalklari, jumladan turkiy xalklar orasida kadimiy, madaniy xalklardandir.

Kishilarni tarixan shakllangan, oiladan keyingi birligi bu maxalladir. Maxalla degani qadimiy va anʼanaviy urf-odatlarimiz, tuy-maraka, turli marosimlarimizning oltin beshigi, rivojlanish joyi deganidir. Maxallamiz barkaror ekan milliy urf-odatlarimiz yashaydi. Xalkimiz uzbek xalki sifatida saklanib koladi.

I. A. Karimov aytganlaridek «Biz xalkni nomi bilan emas, balki madaniyati, maʼnaviyati orkali bilamiz, tarixini tag-tomirigacha nazar tashlaymiz».

## Huquqiy davlatda – qonunchilik va qonuniylik mohiyati

*Valiyeva Guljahon,*

*Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Ibragimov*

O'zbekiston mustaqillik tufayli o'zining milliy parlamentiga ega bo'ldi. Milliy parlament bu mustaqillik mevasidir. Ya'ni huquqiy demokratik davlat qurish uchun ilk qadam bo'ldi. 2005-yildan mamlakatimizda Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat ikki palatali parlament tizimiga o'tildi va samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu islohot qonunlarni yanada samarali bo'lishiga zamin yaratdi. Huquqiy davlat bilan qonuniylik tushunchalari bir-biriga chambarchas bog'liq tushunchalar hisoblanadi. Chunki qonun ustuvorligisiz huquqiy davlatni, huquq ustuvor bo'lmagan davlatda esa qonuniylikni shakllantirib bo'lmaydi. **“Qonunning ustuvorligi – huquqiy davlat faoliyat ko'rsatishining zaruriy shartidir”<sup>7</sup>**

Huquqiy davlat albatta Konstitutsiya va qonunning ustuvorligiga asoslanadi.

Bizda qonunning birinchi asosiy manbayi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Yurtimizda qabul qilinayotgan qonun va qonun osti hujjatlari Konstitutsiyamizga zid bo'lmashligi kerak. Agarda zid bo'lsa ushbu qonun tugatilishi, amalda tadbiq etilmasligi lozim. Qonuniylik huquqning mavjudligi, jamiyatda chinakam demokratik muhit va huquqiy rejimning o'rnatilganidan dalolat beradi.

Mamlakatda barcha yuridik va jismoniy shaxslarning amaldagi normativ – huquqiy hujjatlarga aniq va doimo rioya etilishi bu albatta huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Huquqiy davlat barpo etish uchun ham, qonuniylikni shakllantirish uchun ham, eng avvalo aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatiga ahamiyat berish lozim. Qachonki aholi qabul qilingan qonunni mazmun – mohiyatini to'g'ri va yaxshi anglab yetsa va uni tafakkur qila olsagina o'sha normativ huquqiy hujjatga ixtiyoriy ravishda amal qiladi. Qonun qachon hayotiy kuchga ega bo'ladi? Qachonki qonun real hayotni hisobga olgan holda qabul qilingan bo'lsa. Ya'ni Vatan manfaatlarini va xalq irodasiga tayangan holda qonun qabul qilinsa, hayotda ham o'z ijrosini topadi.


Qabul qilingan qonunni to'g'ri anglab unga rioya etsa bu huquqiy madaniyatga turtki bo'ladi. Huquqiy madaniyat yuksak darajada bo'lganda esa qonuniylik mustahkamlanadi.

Qonuniylik ya'ni qonun ustuvor bo'lganda esa huquqiy davlat shakllanadi.

Bu ketma–ketlik natijasida biz huquqiy davlatda – qonuniylikni mohiyatini anglab olishimiz mumkin.

O'zbekistonda huquqiy davlat qurish yo'lidagi islohotlarning o'ziga xos ahamiyati va xususiyati shundaki, bu islohotlar ham boy tarixiy madaniyatga, qadriyat va an'analarimizga, ham jahonning taraqqiyot yo'lidagi amaliy tajribasiga

<sup>7</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T. O'zbekiston, 1993 yil, 63-b



tajribalariga asoslangan holda amalga oshirilayotganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan Sohibqiron **Amir Temur** takidlaganidek: **“Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi”**<sup>8</sup>.

Biz huquqiy demokratik davlat barpo etishda albatta boy tarixiy merosimizga ham tayanmog'imiz lozim.

Rivojlangan xorijiy mamalakatlarining parlament sohasidaga tajribasini o'rgangan holda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini faoliyatini takomillashtirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Masalan rivojlangan xorijiy mamlakatlarda qabul qilingan qonunlar chuqur o'rganib chiqilib, ijobiy jihatlari milliy qonunchiligimizga mos ravishda tatbiq etilmoqda.

Nafaqat, huquqiy davlat qurish yo'lida bir qancha rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganib chiqib hayotga tatbiq etmoqdamiz balki, tarixiy merosimiz ya'ni Amir Temurning markazlashgan davlatining xususiyatlarini o'rganib chiqib ko'plab jihatlari hayotga tatbiq etmoqdamiz.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlar umummajburiy xususiyatga ega bo'lib, barchaning qonun oldida tengligi bilan xarakterlanadi. Qonun ijrosi bilan kuchli bo'ladi. Qonunlarning ijrosini ta'minlamog' uchun qonunlarni barcha bilmog'i lozim. O'zbekistonni huquqiy davlat sifatida shakllantirishda barcha sohalarida islohotlar olib borilmoqda. Ya'ni hokimiyat vakolatlari bo'linish prinsipiga asoslangan, sud ham mustaqil hokimiyat sifatida shakllangan, Kosntitutsiyaning mavjudligi, barcha qabul qilingan qonunlar Konstitutsiyaga zid bo'lmagan tartibda qabul qilinadi, qonunlar albatta barcha uchun umummajburiy xarakterga ega hisoblanadi. Bu elementlarning barchasi huquqiy davlatning belgilari hisoblanadi.

Qonuniylik mustahkamlash uchun qabul qilinayotgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiyaga zid bo'lmashligini taqozo etmoqda. Agar qonunlar qanchalik takomillashsa ijtimoiy hayot talablari qanchalik to'la aks ettirilsa ular kishilar ongiga shunchalik chuqur ta'sir etadi hamda fuqarolarning bu huquqiy normalarni o'z ixtiyorlari bilan amalga oshirishlariga sabab bo'ladi.

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamoyatini qurishdek ezgu niyatlar yo'lida dadil va ilg'or harakatlanayotgan mamlakatimiz aholisining mehnat shijoatiga hech qachon ko'z tegmasin!

## **Milliy qadriyatlarga oid qarashlarni shakllantirishda bolalar o'yin folklori na'munalaridan foydalanish**

*L. Xoliqov,*

*Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Ibragimov*

Tarbiyaning eng o'tkir qurollaridan biri xalkning o'tmish madaniy merosi, qadriyatlari, azaliy udumlari hamda buyuk farzandlarining hayot yo'lidir.

<sup>8</sup> Amir Temur. "Temur tuzuklari". T., Fan. 1992, 9-b

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diyonat, iymon, mehnatga muhabbat, burch va sadoqat, milliy musiqa san'atimizga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda o'zbek bolalar folklori namunalari muhim ahamiyatga egadir.

Kichik qalb egalari ota-onasiga cheksiz hurmat, odoblilik, sabr-qanoatli bo'lish, donolik va zukkolik, mardlik va botirlik, hushyorlik va sergaklik, milliy g'urur, xalq an'analarini chuqur bilish va kadrlay olish, olov, suv, yer, ko'kning qadriga yetish, mustaqil ozod va obod Vatanini ardoqlash kabi insoniy fazilatlarni o'rgatishda milliy musika san'atining noyob janrlaridan folklor san'ati o'z salohiyatiga egadir. Bunda albatta o'zbek bolalar o'yinlarining ahamiyati yuksakdir. Mustaqilikka erishganimizdan so'ng toptalgan milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash imkoni tug'ildi. Milliy an'analar, bayramlar, udum hamda marosimlar tiklanib, xalqning ma'naviy yuksalishida ilmiy ta'lim-tarbiya tizimining rivoj topishida muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari ham milliy bayramlarimiz, milliy liboslarimiz, milliy taomlarimiz haqida o'z xulosalariga ega. Davrdan davrga, avloddan avlodga, bobodan otaga, otadan bolaga o'tib kelgan o'zbek bolalar o'yinlarida tarbiya vositasining nozik qirralari yashiringan.

O'zbek bolalar o'yinlarining yosh avlod, shu jumladan boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish ular uchun ulkan axloqiy va jismoniy yetuklikka chorlaydi. O'zbek o'yinlarini xalq ijod qiladi, demak ular xalqning bebaho oltin merosi. O'quvchilarga o'yinlarning mazmun-mohiyati, qoidalarini o'rgatayotganda o'yinlarning juda qadimiyligini aytish, ularning turlari ko'pligini ta'kidlash lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'tkaziladigan har bir o'yin sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, bolaning miyasini dam oldirish uchun ajratilgan vaqtda, tabiat qo'ynidagi kichik sayohatlar uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Biroq barcha pedagoglar ham milliy o'yinlardan foydalanishmaydi, hatto og'zaki holda ham tanishtirmaydilar. Bolalar o'z bilganlaricha o'yin tashkil etib, chopib, koptok o'ynab vaqtlarini o'tkazadilar, yerga yiqilib, oyok yoki qo'llarini lat yeyish holati ham yuz berishi kuzatiladi. Agarda har bir pedagog reja asosida, maxsus tayyorgarlik bilan o'yinlarni tashkil etsa, bola ongi o'sadi, tafakkuri kengayadi, xotira va diqqati tiniqlashadi, irodasi mustahkamlanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'g'il bolalar uchun, "Chavandoz", "Oq suyak", "Oq tayoq", "Tepa kurash", "Soqqa", "Qulok cho'zma", "Eshak mindi" kabi qiz bolalar uchun esa "Durra", "Chori chamber", "TortishmachaK", "Balqon-balqon", "G'oz-g'oz", "Lappak", "Ona boshi" o'yinlarini o'rganish mumkin.

Epchillik, chakkonlik, ko'pchilik musobaqasi sifatida harakatli o'yinlarni o'rgatish kifoya. Masalan, "Aylanma darra", "Sichqon mushuk", "Cho'pon o'yini" kabi o'yinlarni o'rgatish orqali ularda inoklik, o'rtoqlik, do'stlik, hamkorlik, hamjihatlik kabi milliy insoniy fazilatlar vujudga keladi. Ko'pincha foydalaniladigan to'p yordamida o'ynaladigan "Poda to'p", "To'p devor", "To'p o'yin", "Bekki", "Uch tosh", "Besh tosh" tayoq yordamida "Chillak" kabilar ham ularda mardlik, jasurlik va epchillikni namoyon etadi. Bu o'yinlar ham juda qadimiy bo'lib, odamlarning tabiatda hayvonlar jangini tomosha qilish orqali vujudga kelgan. Keyinchalik esa hayvonlarni ushlab, maxsus urishtirganlar.

Natijada bedana urushtirish, xo'roz urushtirish, qo'chqor urushtirish, it urushtirish qabilar paydo bo'lgan.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tabiat ko'yniga sayrga chiqqanda yoki sinf xonasida bolalarni doira shaklida terib o'rtada xo'roz urushtirish, bedana urushtirish, qo'chqor urushtirish kabi o'yinlarni tashkil etishlari lozim. Bunda ishtirokchilar albatta o'g'il bolalardan iborat bo'ladi.

Bolalarga yana qiziqarliroq bo'lgan o'yinlardan biri "Raqsli o'yinlar"dir. Asosan, raqsli yoki pantomimali xarakatlar asosida ijro etilib, ularga "Besh karsak", "Cho'pon o'yin", "Xo'sh-xo'sh", "Lanka-lak" va boshqalar kiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, vositali o'yinlar ko'pincha sof holda, ya'ni turli yoshlilar yoki turli jinsdagi kishilar ham o'ynashi mumkin.

Bolalarning maxsus o'yinlari ham borki, ularning paydo bo'lishiga aynan o'z'lari sabab bo'lganlar. Agar bolalar o'yinda halol o'ynasa keyinchalik hayotda ham halol bo'ladilar. Yoki bola o'yiniga qarab, uni qanday inson bo'lib yetishishini aytish mumkin.

Demak, o'zbek bolalar o'yinlari ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari qalbiga chuqur ta'sir etishi, shu bilan birga fan va musiqa, o'qish, ashula jismoniy tarbiya darslari bevosita va bilvosita uyg'unlashgani bilan ham farqlanadi.

### **Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida aholi daromadlarini oshirish yo'nalishlari**

*O. Abdullayev,  
Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Sarimsaqov*

O'zbekistonda barcha islohotlar bevosita va bilvosita aholiga munosib turmush farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash vositalari ham iqtisodiy rivojlanishga mos o'zgarib va takomillashib bormoqda. Jumladan, miqdori muntazam oshirib borilayotgan ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqa va boshqa pul to'lovlari aholi daromadlarini asossiz tabaqalanishining oldini olmoqda. Shu bilan birga ommaviy ishsizlikni oldini olish, inflyatsiya darajasini cheklash tadbirlari, qishloq xo'jaligidagi islohotlar va tadbirkorlikning barcha turlarini rivojlantirish aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, "Aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda istemol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlar ham izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu esa el-yurtimizning farovonligini yuksaltirish, aholining xarid qobiliyatini oshirishni ko'zda tutadigan eng muhim ustuvor maqsadlarimizga to'la mos keladi"<sup>1</sup>. Shuningdek, "...so'nggi yillarda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – B.-10-11.

miqdorini oshirish, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkularini kamaytirish, inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida aholining yalpi va real daromadlari sezilarli ravishda oshdi, uning xarid qobiliyati barqaror sur'atlarda o'sib bormoqda"<sup>2</sup>. Jumladan, 2009 yilda 2000 yilga nisbatan o'rtacha ish haqi 28, 5 barobar, pensiyalarning o'rtacha miqdori 18 barobar, aholi jon boshiga nisbatan pul daromadlari esa 12 barobar oshdi.

Aholi daromadlarini tadqiq etish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy muammolari va iqtisodiyotning tegishli tarmoqlar tarkibini takomillashtirishni taqozo etadi. Shuningdek, bu ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatni mustahkamlash negizida aholi daromadlarini oshirish yo'llarini ko'rsatib berishi lozim.

Ko'plab tadqiqotlarda aholi daromadlari darajasini baholashning takomillashgan uslubi ishlab chiqilmagan. Xususan, aholi daromadlari va xarid qobiliyati singari qismlarini aniqlash bilan cheklaniladi. Aholi daromadlarining tabaqalanishi shaxsning intellektual va jismoniy qobiliyatlari, bilim va kasbga tayyorgarlikdagi farqlar, o'rindoshlik asosida ishlash imkoniyatlari, qiyin sharoitlarda og'ir mehnat qilish va tavakkalchilik kabi xususiyatlar bilan belgilanadi.

Aholi daromadlarini oshirish vazifalari aholining mehnatga layoqatli qismini ish bilan ta'minlash, aholining kam daromadli qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-iqtisodiy majmualarni rivojlantirish kabi muammolarni hal etishni o'z ichiga olishi zarur. Chunki, daromadlarning o'sishini asosiy omillaridan biri yangi sanoat texnologiyalari bilan bog'liq bo'lgan mehnat unumdorligidir.

Shu jihatdan, tarkibiy o'zgarishlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy natijalari yangi ish joylarining tashkil etish, mehnat resurslarini agrar sektordan sanoat hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga o'tishi bilan bog'liq holda aholi real daromadlarining o'sishida o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq.

## **Yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashning zamonaviy uslublari**

*J. Jobboraliyev,*

*Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Ibragimov*

Mafkurasi mustahkam millat — o'z g'oyalarini teran anglagan, ahil, ogoh millat. Ogohlik va fidoiylilik darajasi esa bu ishga qay darajada e'tibor berilganligining ko'rsatkichidir. Chunki o'z qadr-qimmatini anglagan ogoh millatgina kundalik turmush ikir-chikirlaridan yuksaklikka ko'tarilib, buzg'unchi g'oyalarga qarshi buyuk va bunyodkor maqsad atrofida birlashadi. Buning uchun milliy mafkura, e'tiqod ilmiy asosda shakllantirilmog'i,

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – B.-62.

fuqarolarimiz siyosiy, mafkuraviy tahdidlarga qarshi umummilliy kurashga safarbar qilinishi kerak.

Jamiyatning ertasi va kelajagiga ishonchi o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Buning zamirida millat baxt saodati yo'lida, har bir fuqaro manfaatidan kelib chiquvchi maxsus mafkuraviy faoliyat — tarbiya yotadi. Mafkuraviy tarbiya deganda, gap Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «kishilar dunyoqarashini boshqarish haqida emas, balki odamlarning tafakkurini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish» to'g'risida ketmoqda.

Ijtimoiy tarbiya nuqtai nazaridan "targ'ibot" so'zi arabcha rag'batlantirish, kishida, odamlarda u yoki bu narsaga xohish, mayl paydo qilishni anglatadi. Ya'ni targ'ibotning hozirgi talqinini ichki va tashqi mafkuraviy vaziyat, masalalar to'g'risidagi qarash va bilimlarni ommalashtirish, uqtirish orqali ularni g'oyaviy-siyosiy birlashuvga rag'batlantirish deb izohlash mumkin. Tashviqot esa kishini, xalqni milliy g'oya atrofida birlashishga ruhlantirish, orzumand qilish, kuchli mayl, istak hosil qilish demakdir. Sotsiologik, pedagogik-psixologik qonuniyatlar asosiga qurilgan tashviqot g'oya va shiorlarni amaliy kuchga aylantiradi.

Odamlarni u yoki bu maqsadga yo'naltirish, tarbiyalash ikki tomonlama jarayondir. Bunda targ'ibot sub'ektlari (targ'ibotchilar, TV, radio, matbuot, adabiyot va san'at) va targ'ibot ob'ektlari (shaxs, aholi) ishtirok etadi. Targ'ibot va tashviqotning samaradorligi xalq, jamoa ongi va qalbida targ'ibotgacha va targ'ibotdan keyingi darajalar orasidagi farqda bilinadi. Jamoa mafkurasidagi o'zgarishlar (siyosiy sotsiologiya, psixologiya va pedagogikaning ilmiy yutuqlariga asoslangan holda) ilmiy asosda olib borilsa, targ'ibot va tashviqot samarasini, yutuq va kamchiliklarini aniqlash va takomillashtirish mumkin bo'ladi.

O'zbekistondagi targ'ibot-tashviqotning doimiy dolzarb vazifalaridan biri — fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishni ilmiy-uslubiy ta'minlashdan iborat bo'lmog'i kerak. Shuningdek, Prezidentimizning «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblarida «Mustaqillik ma'naviyatini aniq mezonlarda ifoda etish mumkin» degan metodologik xulosa bor. Ya'ni ham har bir shaxsda, jamoada, jamiyatdagi nafaqat ma'naviyatning, balki mafkuraning darajasini qayd qilish va muammoning ilmiy yechimini asoslashga yo'l ochuvchi dasturiy fikr bor. Darhaqiqat, nimaiki bor ekan, u namoyon bo'ladi, nimaiki namoyon bo'lsa, demak, u bordir. Nimaiki namoyon bo'lar ekan, uni qayd qilish, o'lchash mumkin. O'ta murakkab xalqaro mafkuraviy globallashtirish ta'sirida yashayotgan O'zbekistonning siyosiy barqarorligi, mavqei uning ichki, umummilliy mafkuraviy birligiga bog'liq. Mafkuraviy tortishuvlar davom etayotgan hozirgi vaziyatda jamiyatning umummilliy mafkuraviy birligi qandayligini aniq bilmog'imiz zarur.

Ma'naviy buzg'unchilik va g'oyaviy tahdidlarga qarshi qaratilgan mafkuraviy tarbiya samaradorligi eng avvalo jamiyatni mafkuraviy tarbiyalashdan uo'zlangan natija qanday bo'lishi aniq belgilanishiga bog'liq. Natijada O'zbekiston yoshlari, fuqarolarining mafkurasini, ularda muayyan

fazilatlarining qay darajada bo'lishini gumanitar texnologik loyihalash va shakllantirishga imkon tug'iladi.

Milliy mafkura har qanday ilg'or g'oyani o'ziga singdirishi va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olishi harakatdagi mafkuraga aylanmog'i kerak.

## **Bugungi kun globallashuv davrida milliy ma'naviyat**

*B. Kenjayev*

*Milliy g'oya ma'naviyat asoslari  
va huquq ta'limi 2-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Ibragimov*

XIX asrning oxiri XXI asrning boshlaridagi xalqaro vaziyat globallashuv jarayonlarining nihoyatda chuqurlashib ketganligi bilan xarakterlanadi. Masalaning muhim va dolzarb jihati shundan iboratki, hozirgi zamon globallashuv jarayonlari insoniyat uchun keltirib chiqarayotgan oqibatlar mohiyatini tezda tushunib anglash oson kechmayapti. Bugun globallashuv o'zining qamrovi, ta'sir kuchi, tobora ommaviy tus olishi bilan kam taraqqiy qilgan va endi taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlar xalqlarini milliy ma'naviyatiga tajovuz qilmoqda, ularning zaminlarini yemirmoqda va istiqbolda "ommaviy madaniyat" ta'sirida ularning barbod bo'lishiga zamin tayyorlamoqda.

Bu tajovuz nafaqat ommaviy axborot vositalari televidenie, internet yoki uyali telefonlar vositasida, shuningdek insonlarning hayot kechirishi va turmushi uchun zarur bo'lgan iqtisodiyot vositasida ham amalga oshirilmoqda. Gohida globallashuvning ta'sirida sodir bo'layotgan integratsiyalashuv natijasida mamlakatlar iqtisodiyotidagi ijobiy siljishlarning odamlarning moddiy sharoitida o'z ifodasini topayotganligi ko'rsatkichi ta'sirida milliy ma'naviyatning zaiflashuv jarayoni sezilmayapti. Globallashuvning milliy ma'naviyatni yemirish, urf-odat, an'ana, qadriyatlarning xiralashuviga o'tkazayotgan ta'sirida ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Globallashuv davriga kelib esa taraqqiyot borasida o'zgacha qarash voqea hodisalarni makon va zamondan ajratmagan xolda, sinxron tarzda talqin etish tamoyili ko'zga tashlana boshladi.

Globallashuvning vujudga kelishida savdo va ishlab chiqarish, iqtisodiy, moliyaviy aloqalarning dunyo miqyosida g'oyat kuchayishi, tezlashishi zamin bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yana bir sabab – dunyo miqyosida urbanizatsiyaning kuchayishi ham globallashuv jarayonini tezlashtirdi. Jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda shahar aholisining iqtisodiy faol qismi ertalab ishga, yoshlar o'qishga borib, kechqurun xonadonlariga qaytadi, bo'sh vaqtini ham qariyb bir xil - televizor oldida o'tkazadi. Hatto ishda va ko'chada kiyadigan kiyimlarining turi, ro'zg'orda ishlatadigan buyumlar ham aytarlil bir xil. Bularning barchasi turli xalqlarning psixologiyasida, tafakkur tarzida, hordiq va maishatga, iste'molga, hayotga munosabatida mushtarak qarashlar paydo bolishiga olib keldi, "ommaviy madaniyatning tarqalishiga



zamin yaratdi. Natijada dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida hordiq va ko'ngilochar "mahsulotlar ishlab chiqaradigan industriya shakllandi.

Bugungi kunda hayotimizda ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalarida keng qo'llanilayotgan globallashuv tushunchasi ko'plab siyosatchi, faylasuf olimlarni qiziqtirib kelmoqda. Chunki jamiyat taraqqiyoti bevosita ana shu jarayonni to'g'ri anglash bilan bog'liq ekanligi kundan-kunga ravshan bo'lib bormoqda. Globallashuv tushunchasini bilmasdan turib, bu jarayonda ma'naviy tabdidlarga qarshi kurashning mazmuni haqida fikr bildirish mantiqqa ziddir.

"Globallashuv tushunchasi (lot. Globus — shar, Yer sayyorasi ma'nosini anglatadi) yangi umumsayyoraviy tartibot, tamadduniy bosqich mazmun-mohiyati, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarning keng tarqalishi, informatsion-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfning ortib borishini ifoda etadigan global jarayon. Ya'ni jamiyat hayotining barcha sohaları - iqtisodiyot, siyosat, mafkura, madaniyat, hatto shaxsiy turmush tarzini qamrab olgan globallashuv jarayoni bilan bog'lanmoqda.

"Globallashuv" atamasi dastlab amerikalik olim T. Levrtning 1983 yili "Garvard biznes revyu" jurnalida chop etilgan maqolasida tilga otingan edi (u yirik transmilliy korporatsiyalar ishiab chiqaradigan turii-tuman mahsuot bozorlarining birlashuv jarayonini shunday deb atagan edi). 1985 yilda esa taniqli amerikalik olim R. Robertson "Globalization" iborasini ilmiy muomalaga kiritib, bu tushuncha "odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda anglanishi"ni aks ettirib, "dunyoning birlashuvi va kishiJar o'rtasidagi o'zaro aloqalarining kuchayishini" ifoda etadigan jarayon sifatida talqin etadi.

Dunyoda globallashuv jarayoni davom etayotgan, ta'im-tarbiyada axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalasi nihoyatda dolzarb masala bo'lib turgan sharoitda yoshlarga bu imkoniyatlardan foydalanishni ta'qiqlab qo'yishni iloji yo'q. Biroq, bir vaqtning o'zida "ommaviy madaniyat" va turli yot g'oyalarga qarshi kurash olib borish, bu sohadagi ishlar samaradorligini yanada oshirish talab qilinmoqda.

### **Globallashuv jarayonining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri**

*N. Zokirov,*

*Nam DU talabasi.*

*Ilmiy rahbar: T. Qozoqov*

Hozirgi kunda hayotimizni texnika vositalarisiz tasavvur eta olmaymiz. Ayni paytda texnika vositalari jadal rivojlangan davrda yashamoqdamiz. Texnika vositalarining bunday tarzda tez sur'atlar bilan rivojlanishi axborot ko'lamining kengayishiga va uni tez tarqalishiga olib kelmoqda. Bunday holat globallashuv jarayonini yuzaga keltirmoqda. Globallashuv atamasini ayni

davrda ko'p foydalanilayotgan bo'lsada, bu atamani dastlab XX asrning 80-yillarida iqtisodiy sohada o'zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik T. Levitt tomonidan qo'llanilgan.

Aslida, globallashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli darajada va ko'rinishlarda mavjud bo'lgan va hozirgi davrga kelib bu jarayonning avj olishi ro'y bermoqda. Globallashuv jarayoni hozirda hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelmoqda.

Chetdan kirib kelayotgan, mamlakatimiz fuqarolari, ayniqsa, yoshlar ongini individualizm, egotsentrizm g'oyalari bilan zaharlovchi ushbu ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi turishimiz zarur. Bebaho boyligimiz milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat ruhini shakllantirgan holda ma'naviy tahdidlarni oldini olishimiz mumkin. Ya'ni, birinchidan, mamlakat kelajagi hisoblangan yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qila olish; ikkinchidan, ma'naviy tahdidlarni aynan nimaga qaratilganligini har tomonlama anglash; uchinchidan, atrofimizda yuz berayotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmaslik. Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan ziyon keltirishi mumkin. Jumladan, ma'naviy tahdidlarning bir ko'rinishi bo'lgan "ommaviy madaniyat" niqobidagi tazyiqlarning yoshlar ongiga ta'siri mamlakat taraqqiyoti uchun ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarning turli internet klublarida o'tirishlari va pornografik saytlarga kirishlari, mobil telefonlardan noto'g'ri foydalanib, milliylikga to'g'ri kelmaydigan film va suratlar olib yurishlari, ularning barchasi inson ma'naviy kamolotiga yetarli darajada zarar keltiradi. Bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash lozim. Ularning ongida milliy qadriyatlarimizni, milliy mentalitetni yuksak darajada shakllantirib, ularni qalbida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg'ulari qurshovida tarbiyalash kerak bo'ladi. Toki ular vatanga xizmat qiluvchi, o'zining sohasini yetuk mutaxassisi bo'lishsin.

### **Jek london asarlari tarjimalarida milliylikning aks ettirish muammolari**

*Sobirjon Damirjanov,*

*NamDU katta o'qituvchisi*

Til sohibi tarjimada muayyan narsa yoki voqea-hodisaga o'z munosabatini bildirishda tilda qabul qilingan lisoniy an'analardan kelib chiqadi. Tarjima aslyatni qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon. Uni amalga oshirish uchun avvalo ikki tilni mukammal bilish lozim bo'ladi. Tarjimada intuitsiya bilan birgalikda filologik taxlil yonma yon yuradi. Xamonki tilsiz tarjima bo'lmas **ekan**, aslyat tili va tarjima tilining bir-biriga muqobilligini tahminlash **tarjimondan aloxida maxorat ko'rsatishni talab qiladi**. Binobarin, ingliz tilida «To work like a slave» (qulday ishlamoq), «To work like a nigger» (negrday ishlamoq) qiyosiy frazeologik birliklarining paydo bo'lishi til jamoasi hayotiy-

mantiqiy mushohadasi mahsuli sifatida ko'zga tashlansa, mazkur til birliklari ifoda etadigan mazmuniy-uslubiy xususiyatni aks ettiradigan rus va o'zbek tillaridagi taqqoslashviy barkaror lisoniy vositalar tarkibidagi taqqoslash ob'ektlari o'z ekvivalentlarinikidan o'zgacha predmetlar nomlari ekanliklari bilan farq qiladilar. Bunday tafovut, o'z navbatida, tarjimonni chalg'itib, uni xarfxo'rlik sari yetaklashi mumkin. Masalan, og'ir yumushni ado etuvchi shaxs mehnati ingliz tilida obrazli tarzda «qul» yoki «negr» mehnatiga o'xshatilsa, ruschada ot, o'zbek tilida «eshak» mehnatiga taqqoslash qilinadi.

Jek Londonning «Martin Iden» romanida keltirilgan quyidagi misol tarjimalarida har qaysi til imkoniyatlaridan kelib chiqilgani tarjimonlarga asliyatning ma'no va uslubiy vazifalarini o'z tillarida haqqoniy aks ettirish imkoniyatini bergan:

*Asliyatda: But when I've ben worken'like a slave all week, I just get to bowl up.*

*O'zbekcha tarjimasi: Lekin bir hafta mobaynida eshakday ishlaganimdan keyin, bir to'yib ichmasam bo'lmaydi-da.*

Kuzatish qiyosiy frazeologik birliklarni o'zbek tiliga turli-tuman usullar vositasida talqin etish mumkinligini ko'rsatadi.

1. Qiyosiy frazeologik birliklar tarjimada taqqoslash ob'ektlari bir xil semantikaga ega «to'la ekvivalentlari» bilan almashtiriladi. Xalqlarning tabiat va jamiyatdagi ko'pgina narsa, voqea-xodisa xamda xislat-xususiyatlarga nisbatan karashlarining, munosabatlarining aksariyat xollarda bir-birlarinikiga o'xshashligi ularning tillarida ko'pgina narsa va voqea-xodisalarning bir xil timsoliy mazmun kasb etishlariga sabab bo'lgan. Bu xol o'sha narsa hamda voqea-hodisalar tabiatiga - xususiyatlariga, o'taydigan vazifalariga, tashqi ko'rinish va ichki mazmunlariga asoslanadi.

Jahonning ko'pchilik tillarida, jumladan, ingliz, rus va o'zbek tillarida ham, «gul» ijobiy ta'rif ob'ekti bo'lgan ayol kishi yoki qiz bola go'zalligini, uning qalban pokligini timsoliy jonlantirar ekan, bu taqqoslash mazkur tillarda an'anaviy xususiyat kasb etadi. Modomiki, mazkur qiyos tillarda barqarorlik kasb etib, xam semantik, xam uslubiy jihatdan o'zaro mos kelar ekan, tarjimada bunday lisoniy vositalarni o'zaro almashtirishgina ta'rif me'yorining muallif tasvirlagan darajadagi talqinini, tarjimaviy matnning o'zbekona jarangdorligini ta'minlaydi:

*Asliyatda: Do you know how she seems to me? She seems fresh like a flower.*

*O'zbekcha ma'nosi: Fuongni qanday tasavvur etishimni bilasizmi? – Guldek toza.*

Turli tillardagi ko'pgina qiyosiy frazeologik birliklar rang-barang narsa hamda voqea-hodisalarning har xil hayotiy munosabatlar, tasavvur va xususiyatlarga badiiy taqqoslash etilishi asosida vujudga keladi. Masalan, it bilan mushuk, mushuk bilan sichkon, it bilan bo'ri o'rtalaridagi azaliy adovatning barcha xalqlarga birday ma'lum bo'lganligi tufayli ayrim shaxslar o'rtasidagi davomli kelishmovchilikning it bilan mushuk o'rtasidagi munosabatga taqqoslash etilishi asosida xosil bo'lgan frazeologik birlikning xam

asliyatda, xam tarjima tilida uchrashi tabiiy xol bo'lib, tarjima jarayonida mavjud ekvivalentlikdan foydalanish so'zsiz adekvatlikni yuzaga keltiradi. Ushbu lavha tarjimalari bundan guvohlik beradi:

*Asliyatda: It's a most extraordinary thing that you two never can keep from sparring like a cat and dog.*

*O'zbekcha ma'nosi: Tovba, Gallining joniga tegmay hech o'tirolmaysiz-da! It-mushuk-a!..*

Muayyan uslubiy maqsadga erishish niyatida yozuvchilar goxo qiyosiy frazeologik birliklarni biroz o'zgartirgan, yangilagan holda qo'llaydilar. Ekvivalent qiyosiy birliklar yordamiga murojaat qilish jarayonida tarjimonlar ham tilda mavjud an'anaviy vositalarni o'zgacharoq shaklda qo'llash yo'li bilan teng qimmatli ta'sirchanlikni yuzaga keltiradilar. Tarjima tilida kalka vositasida paydo bo'lgan yangi barqaror birikma til me'yorining buzilishi okibatida hosil qilingan vositaday qabul etiladi. Ammo keyinchalik mazkur vosita ko'p martalab qo'llanilishi natijasida til omiliga aylanib, quloqqa erish tuyulmay qo'yadi. Shunday qilib, asliyatda qo'llanilgan qiyosiy frazeologik birliklar tarjima tilida mavjud ekvivalentlari orkali xam, kalka vositasida tarjima tiliga kirib kelgan qiyosiy birikmalar yordamida ham talqin etilishi mumkin. Masalan:

*Asliyatda: It was as plain as day.*

*O'zbekcha tarjimasi: Birpasda xammasi kunday ravshan bo'ldi-qoldi.*

Ayrim o'zaro muqobil ikki til frazeologik birliklarining taqqoslash ob'ektlari barcha holatlarda bir-birlariga mos kelavermaydilar. Birliklar orasida mazmuniy va uslubiy nomuvofiklik yuzaga kelgan paytlarda ayrim malakali tarjimonlar adekvatlikka erishishning xilma-xil usullariga murojaat qilish bilan bir katorada o'z tillarida kontekstual mos lisoniy vositalar qidirib topish yo'li bilan vazifaviy uyg'unlikni vujudga keltiradilar.

Iboralar taqqoslash unsurlari orasidagi mantiqiy nomutanosiblik ifodaning umumiy salbiy oxangi soyasida ko'zga tashlanmaydi. Bu yerda har qaysi tilning uziga xos fikr bayon qilish an'anasi muxim ahamiyat kasb etadi.

Asliyatdagi taqqoslashviy birliklar obrazli asoslariga o'zbek tilida goho takroriy (qip-qizil), ayrim hollarda esa ifoda ma'nosini kuchaytiruvchi aloxida so'zlar (o'lguday, g'irt) muqobil bo'lib keladi:

Ba'zan qiyosiy frazeologik birliklar tarkiblaridagi taqqoslash unsurlari orasidagi mantiqiy boglanish, sub'ektni ob'ekt bilan birlashtirib turadigan belgi va alomatlarning hozirgi davr nuqtai nazaridan ob'ektga xos xakikiy xususiyatlar emasligi tufayli, darhol ko'zga tashlanmaydi. Masalan, rus tilidagi «Pit, kak sapojnik» qiyosiy frazeologik birligi tarkibida etikduzga ichib yuruvchi shaxs timsoli sifatida karalishi, ya'ni etikdo'zga doim mast-alast bo'lib yurish odatining «in'om» etilishi mantiqiy asosdan uzoqday bo'lib tuyuladi.

Chunki xalq nazarida etikdo'zlar doim bejirim kiyinib yuradigan, didi nozik shuxslar, xalol mehnatlari tufayli yaxshi turmush kechiradigan hunarmandlar sifatida gavdalanadi. Ammo birliklarning taqqoslash unsurlari orasidagi **mantlikiy aloqadorlik** turli-tuman yillar, jumladan tarixga nazar tashlash asosida **oydinlashadi: bir umr yamoqchilik** ilib, biri ikki bo'lmay, alamidan doim ichib

juradigan etikdo'zlarni ko'z oldimizga keltirish mazkur birlik taqqoslash unsurlari orasidagi mantiqiy boglanishning oydinlashuviga ko'maklashadi.

Bunday qiyosiy frazeologik birliklarning tarjima tilida ekvivalent yoki muqobil variantlarini topish xiyla mushkul. Ularni kalka usulida o'g'irish xaqida esa so'z bo'lishi mumkin emas, chunki ular odatda o'zlari mansub bo'lgan xalq milliy-tarixiy tushuncha va tasavvurlari asosida vujudga kelgan bo'ladi. Birliklarning ko'proq personajlar nutqida hayajon bilan talaffuz etilib, personajlar nutqiga hissiy-ta'sirchanlik baxsh etishlari tufayli ularning vazifalari aksariyat xollarda ma'no kuchaytiruvchi so'z yordamida talqin etiladi.

Taqqoslash ob'ektlari aloxida leksik birliklardan emas, balki butun boshli frazeologizmlardan tashkil topgan qiyosiy frazeologik birliklar taqqoslash ob'ektlari o'zbek tiliga goxo noqiyosiy frazeologik birliklar yordamida o'g'iriladi.

### **Methodological aspects of story telling teaching by narrative method**

*I. Tojiboyev,  
Senior teacher.*

The author can vary the narrative method depending on what he wants his readers to concentrate on. He can tell the story from the point of view of a character in the story, or from without - as an onlooker.

#### **The author may choose four types of narrators:**

- 1) the main character;
- 2) a minor character;
- 3) the omniscient author;
- 4) the observer-author.

1. When the main character tells his story, the events of the story are presented to the reader through his perception. The author in this case places himself in the position of the main character and tells of things that only the main character saw and felt.

2. When a minor character, who participates in the actions, narrates the story, the events are described through the perception of his character. The author places himself in the position of a minor character and gives this character's version of the events and personages.

3. The author may narrate his story anonymously, analyzing and interpreting the character's motives and feelings. The reader sees what is going on in the minds of all the characters. This type of narration is told by the omniscient (or analytic) author. The omniscient author reproduces the character's thoughts and comments on their actions.

4. The story may be told in such a way that we are given the impression of witnessing the events as they happen - we see the actions and hear the conversations, but we never enter directly into the minds of any of the characters. In this case the reader is guided by the observer-author. The

observer-author merely records the speech and actions of the characters without analyzing them.

2. In every story events are presented from somebody's point of view. Hence, there are two types of narration - 1<sup>st</sup> person and 3<sup>rd</sup> person narration. When told by a character in the story, the story is the first-person narrative. When told by the author, it is the third-person narrative.

If the story is a 1st-person narrative, it is told from the narrator's point of view and the reader gets a biased understanding of the events and the other characters, because he sees them through the perception of the character who narrates. At the same time any story always reveals the author's point of view even if it is implied. The character's and the author's viewpoints may or may not coincide.

When the author shifts the responsibility of telling the story to the 1st-person narrator, he actually provides his reader with two versions of one and the same story:

- 1) the explicitly expressed subjective version (the narrator's version) and
- 2) the implied objective version, which the skilled reader is expected to derive.

The advantage of the first person point of view is that it helps to create special kind of intimacy and there are no significant limitations to it (but the narrator cannot see into the mind of others). The story told by the 1st-person narrator is more confiding. The narrator often uses the informal tone, addresses the reader directly and establishes a personal relationship with him confiding his personal expressions and thoughts.

However, the possibilities of the 1st-person narrator are limited because the narrator is a person, and he can see and hear only what would be possible for a person to see and hear in his situation. He cannot know what other characters do or say.

Sometimes such a narrator misinterprets the events which he cannot fully understand. He relates them and meditates on them from his subjective point of view.

Thus, the first person narrator necessarily assumes a participant role within the fictional context and so adopts a subjective perspective on events.

On the other hand the 3rd person narrator takes up the non-participant role of observer and so adopts an objective point of view. If the story is told by the omniscient author there are no limitations. He is all-seeing and all-knowing. He may get inside his character's minds, add his own analysis of their motives and actions.

The narrative method conditions the language of the story. Thus if the story is told by an omniscient author, the language is always literary. When the story is told by a character, the language becomes a means of characterization (as direct speech always characterizes the speaker). It reflects the narrator's education, occupation, emotional state and his attitude. The social standing of the character is marked by the use of either standard or non-standard lexical units and syntactic structures.

One has to keep in mind that the language of the 1st-person narrative requires careful attention not only because it characterizes the narrator, but also because it is a means of representing the world through the eyes of that character. It therefore reflects his outlook, his pattern of cognition, his psychology. That is why most stories related by the main character are deeply psychological.

2. The narrative method may affect the sequencing (or the choice) of literary representational forms.

**There are the following forms of presentation and literary techniques of the narrative:**

1) **narration proper**, the presentation of an account of events in their development. It is the most dynamic compositional form of the text. Narration organizes the story into the beginning, the middle and the end. The beginning is to introduce the body of narration and to catch the reader's interest, to puzzle him, thus stimulating to go on reading. The beginning only introduces the subject, but doesn't develop it.

The middle of narration gives the development of events which are selected and arranged on the basis of many reasons according to the problems raised, thus forming its plot.

The closing has one essential function - to signal the end of narration. The turn to the beginning is an effective way of ending.

2) **interior monologue**, a rather lengthy piece of the text (half a page and over) dealing with one major topic of the character's thinking, offering reasons for his past, present or future actions, which allows the author (and the readers) to peep into the inner world of the character, to observe his ideas and views in the making. This form of narrative exercises the so-called **stream-of-consciousness technique** which is based on the conception of the prevalence of the subconscious over the conscious; hence the recording of unperceived by senses or intellect emotions. It is especially popular with representatives of modernism and brought into contemporary literature a deeper insight into human psychology. Through SCT the narrator creates the illusion that without his or her interference, readers have direct access to the mental processes of the characters. As a result, the reader sees the fictional world through the "mental window" of the observing consciousness of the characters.

3) **dialogue** where personages express their minds in the form of uttered speech. In their exchange of remarks the participants of the dialogue, while discussing other people and their actions, expose themselves too.

4) **represented (reported) speech** which serves to show either the mental reproduction of a once uttered remark, or the character's thinking. The first case is known as *represented uttered speech*, the second one as *represented inner speech*. The latter is close to the personage's interior speech in essence, but differs from it in form: it is rendered in the third person singular and may have the author's remarks, i. e. it reflects the presence of the author's viewpoint alongside that of the character, while interior speech belongs to the personage

completely, formally too, which is materialized through the first-person pronouns.

**description** supplies the presentation of the atmosphere, the scenery, the details of the appearance of people and other things of the literary work. Its basic types are **objective and subjective**. The objective description is a factual account. It is usually detailed. The subjective description gives only striking details. It focuses on the mood created in the story communicated to the reader.

5) **retardation**, the withholding of information until the appropriate time and the deliberate sustaining of anticipation by means of suspense.

6) **the author's digression** is an insertion which has no immediate relation to the theme. The author wanders away from the subject of the narrative to state his personal view or to make a general statement.

7) **flashback** is a scene of the past inserted into the narrative. Flashbacks present the background information, appear in non-chronological order and may be related to various characters. Many stories are told with flashback techniques in which plot events from earlier times interrupt the story's "current" events.

8) **foreshadowing** is a look towards the future, a remark or hint that prepares the reader for what is to follow.

9) **foreshadowing** is a look towards the future, a remark or hint that prepares the reader for what is to follow.

Organizing the lesson using narrative method you can explain the topic to students more easily and clearly. After the students have read or seen the play, have a recap session where the students can review the play and talk about what they learned and what they liked about it. Once the students have had an opportunity to discuss the play, ask them to write the fable in their own words, or have them rewrite the fable with a different ending.

## **Analyses of stylistic devices used in english literary texts**

*I. Umrzaqov,*

*Teacher of the department of  
English language and literature*

A figure of speech is any way of saying something other than the ordinary way. Figurative language is language using figures of speech<sup>9</sup>. Irony- a subtle of meaning. Here we will analyze some stylistic literary devices used in English language:

### **Simile**

The easiest stylistic device to find is a simile, because you only have to look for the words "as" or "like". A simile is a comparison used to attract the reader's attention and describe something in descriptive terms.

**Example:** "From up here on the fourteenth floor, my brother Charley looks like an insect scurrying among other insects." (from "Sweet Potato Pie," Eugenia Collier)

<sup>9</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Stylistic\\_device](https://en.wikipedia.org/wiki/Stylistic_device)



Example: The beast had eyes as big as baseballs and teeth as long as knives.

Example: She put her hand to the boy's head, which was steaming like a hot train.

### **Metaphor**

A metaphor is similar to a simile but does not use the words "like" or "as" as in a simile. Metaphors can also span over multiple sentences.

Example: "That boy is as fast as a fox. " is a simile but "That boy is a fox!" is a metaphor.

### **Synecdoche**

Synecdoche occurs when a part of something is used to refer to the whole. Many examples of synecdoche are idioms, common to the language.

Example: Workers can be referred to as 'pairs of hands', and a vehicle as one's 'wheels'.

### **Metonymy**

Metonymy is similar to synecdoche, but instead of a part representing the whole, a related object or part of a related object is used to represent the whole. Often it is used to represent the whole of an abstract idea.

Example: The phrase "The king's guns were aimed at the enemy, " using 'guns' to represent infantry.

Example: The word 'crown' may be used metonymically to refer to the king or queen, and at times to the law of the land.

### **Personification**

Giving human or animal characteristics to inanimate objects.

Example: The wind whistled through the trees. (Wind cannot whistle, humans whistle. )

### **Apostrophe**

Similar to 'personification' but direct. The speaker addresses someone absent or dead, or addresses an inanimate or abstract object as if it were human.

### **Characteronym**

This is when the name of a character has a symbolic meaning. For example, in Dickens' Great Expectations, Miss Havisham has a sham, or lives a life full of pretense. In Hawthorne's The Scarlet Letter, Rev. Dimmesdale metaphorically fades away (dims) as the novel progresses, while Chillingworth has a cold (chilled) heart.

### **Symbol**

A symbol may be an object, a person, a situation, an action, a word, or an idea that has literal meaning in the story as well as an alternative identity that represents something else. It is used as an expressive way to depict an idea. The symbol generally conveys an emotional response far beyond what the word, idea, or image itself dictates.

Example: A heart standing for love. (One might say "It broke my heart" rather than "I was really upset")

Example: A sunrise portraying new hope. ("All their fears melted in the face of the newly risen sun. ")

## **Allegory**

An allegory is a story that has a second meaning, usually by endowing characters, objects or events with symbolic significance. The entire story functions symbolically; often a pattern relates each literal item to a corresponding abstract idea or principle. Although the surface story may have its own interest, the author's major interest is in the ulterior meaning.

## **Imagery**

This is when the author invokes sensory details. Often, this is simply to draw a reader more deeply into a story by helping the reader visualize what is being described. However, imagery may also symbolize important ideas in a story.

For example, in Saki's "The Interlopers," two men engaged in a generational feud become trapped beneath a fallen tree in a storm: "Ulrich von Gradwitz found himself stretched on the ground, one arm numb beneath him and the other held almost as helplessly in a tight tangle of forked branches, while both legs were pinned beneath the fallen mass." Readers can not only visualize the scene, but may infer from it that it is actually the feud that has trapped him. Note also the diction used within the imagery: words like "forked" and "fallen" imply a kind of hell that he is trapped in.

## **Paradox**

In literary terminology, a paradox is an apparent contradiction that is nevertheless somehow true. Paradox can take the form of an oxymoron, overstatement or understatement. Paradox can blend into irony.

## **Rhyme**

The repetition of identical or similar sounds, usually accented vowel sounds and succeeding consonant sounds at the end of words, and often at the ends of lines of prose or poetry. For example, in the following lines from a poem by A. E. Housman, the last words of both lines rhyme with each other.

Loveliest of trees, the cherry now  
Is hung with bloom along the bough

## **Alliteration**

Alliteration is the repetition of consonant sounds at the beginning of words.

Example: "... many a man is making friends with death/ Even as I speak, for lack of love alone." (Edna St. Vincent Millay's "Sonnet 30").

Alliteration is used by an author to create emphasis, to add beauty to the writing style, and occasionally to aid in shaping the mood.

## **Assonance**

Similar to alliteration, in which vowel sounds are repeated. They are usually in the middle of a word.

Example: "batter that mattered", "the blue bulging plug."

## **Consonance**

Similar to alliteration, but the consonants are at the ends of words.

Example: "odds and ends", "short and sweet."

## **Rhythm**

It is most important in poetry, but also used in prose for emphasis and aesthetic gain.

Example: The fallibly irrevocable cat met its intrinsic match in the oppositional form of a dog.

### **Onomatopoeia**

This includes words that sound like their meaning, or imitations of sounds.

Example: "The bees were buzzing"

### **Formal structure**

Formal structure refers to the forms of a text. In the first place, a text is either a novel, a drama, a poem, or some other "form" of literature. However, this term can also refer to the length of lines, stanzas, or cantos in poems, as well as sentences, paragraphs, or chapters in prose. Furthermore, such visible structures as dialogue versus narration are also considered part of formal structure.

### **Storyline and plot**

The storyline is the chronological account of events that follow each other in the narrative. Plot includes the storyline, and is more; it includes the way in which elements in the story interact to create complexity, intrigue, and surprise. Plot is often created by having separate threads of storyline interact at critical times and in unpredictable ways, creating unexpected twists and turns in the overall storyline.

### **Plot structure**

Plot structure refers to the configuration of a plot in terms of its exposition, rising action, climax, falling action, and resolution/denouement. For example, Dickens' novel *Great Expectations* is noted for having only a single page of exposition before the rising action begins, while *The Lord of the Rings* by J. R. R. Tolkien has an unusually lengthy falling action. Plot can also be structured by use of devices such as flashbacks, framing and epistolary elements.

## **Language learning strategies**

*Yana Kuchkarova*

Being aware of learning strategies is considered to be essential in education. Even though students' efficiency, as it was shown by several researches, depends on their ability to implement learning strategies in order to achieve higher results in academic life, not much attention is being given to developing the learning skills of the learners in our educational context.

Since the pioneering studies carried out in the mid-seventies (Rubin, 1975; Stern, 1975) there has been an awareness that language learning strategies have the potential to be "an extremely powerful learning tool" (O'Malley, Chamot, Stewner-Manzanares, Kupper, and Russo, 1985, ), "which results in better proficiency and better self confidence" (Oxford, 1990, ).

Awareness has slowly grown of the importance of the strategies used by learners in the language learning process, since ultimately, like the proverbial horse led to water but which must do the drinking itself, even with the best teachers and methods, students are the only ones who can actually do the learning (Griffiths, 2004). As Nyikos and Oxford (1993) put it: "learning begins with the learner".

Even though scholars have been working on the subject for quite a long time now, defining and classifying language learning strategies is not an easy and completed task. There is currently no consensus among scholars on what a learning strategy really means in second language learning or how these strategies differ from other types of learner activities inside or outside of the class. Griffiths (2004) states that learning, teaching and communication strategies are often interlaced in discussions of language learning and are often applied to the same behavior; further, even within the group of activities most often referred to as learning strategies, there is considerable confusion about definitions of specific strategies and about the hierarchic relationship among strategies. Rubin (1975), who was one of the earliest researchers in this field, provided a very broad definition of learning strategies as "the techniques or devices which a learner may use to acquire knowledge". Ellis (1986), on the other hand, views strategies for learning and strategies for using, including communication strategies or "devices for compensating for inadequate resources", as quite different manifestations of a more general phenomenon which he calls learner strategies.

Rigney (in O'Malley et al, 1985) defined learning strategies as being "operations or steps used by a learner that will facilitate the acquisition, storage, retrieval or use of information". Then, Rubin (1981) went on to identify two kinds of learning strategies: those which contribute directly to learning, and those which contribute indirectly to learning. She divided direct learning strategies into six types (clarification/verification, monitoring, memorization, guessing/inductive inferencing, deductive reasoning, practice), and the indirect learning strategies into two types (creating opportunities for practice, production tricks) (Griffiths, 2004).

Expanding the perspective, Oxford (1990) took the process one step further. She used Rigney's definition of language learning strategies as "operations employed by the learner to aid the acquisition, storage, retrieval, and use of information" (Oxford, 1990) as a base. Attempting to redress the perceived problem that many strategy inventories appeared to emphasize cognitive and metacognitive strategies and to ascribe much less importance to affective and social strategies, she classified learning strategies into six groups: memory strategies (which relate to how students remember language), cognitive strategies (which relate to how students think about their learning), compensation strategies (which enable students to make up for limited knowledge), metacognitive strategies (relating to how students manage their own learning), affective strategies (relating to students' feelings) and social strategies (which involve learning by interaction with others). Oxford's grouping

I can conclude that teaching vocabulary can be presented through many ways. The teachers can use different techniques based on the necessities and level of the learners. In addition, in the teaching of vocabulary teacher must have expertise using basic stages by vocabulary teaching techniques that can attract the attention of students to know the material well. Before using the techniques in teaching vocabulary teacher must first check techniques whether they are suitable to use or not, because by using a technique more suited to the material that will be presented, can improve learners' curiosity and enthusiasm in learning. Moreover, it is necessary to teach it to children in a way that enables them to learn the vocabulary they need to communicate with others.

### **Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini shakllantirish**

*Asraev Muxammaddullo*

*Abdullajon o'g'li,*

*TATU Farg'ona filiali assistenti*

O'quv maqsadiga erishilganligini tekshirish uchun ishonchli usul bo'lgandagina, pedagogda uni baholash imkoniyati bo'ladi. Aynan shu bilan, ya'ni aniq qo'yilgan maqsad va maqsadga erishilganligini baholashning ishonchli usul mavjudligi bilan, pedagogik texnologiya an'anaviy pedagogikadan ajralib turadi. O'quv fanlarining an'anaviy o'quv dasturlarda maqsadlar odatda «tushunmoq», «o'zlashtirmoq» kabi fe'llarni qo'llab umumiy ifodalanadi. Aniq qo'yilmagan maqsadlarga erishilganligini baholash imkoniyati bo'lmaydi. Pedagoglar maqsadlarni odatda qo'yidagicha qo'yadilar (M. V. Klarin bo'yicha):

*-O'quv maqsadini o'rganiladigan mazmun orqali aniqlash.* O'quv maqsadini bu usulda qo'yish bilimning fan mazmuniga yo'naltirilganligidan darak beradi. Masalan: beshinchi mavzu mazmunini o'rganing! O'quv maqsadi bunday qo'yilganda, maqsadga erishganligini tekshirish imkoniyati bo'lmaydi!.

*-O'quv maqsadini pedagog faolivati orqali aniqlash.* o'quv maqsadini bu usulda qo'yilganida, pedagog diqqat markaziga o'z faoliyatini qo'yadi. Masalan: talabalarni avtomobilning pnevmatik tormozlarning ishlash printsiplari bilan tanishtirish. Maqsadni ifodalashidan ko'rinib turibdiki, bu maqsad haqiqiy o'qitish natijasi bilan bog'liq emas. O'quv maqsadi bunday qo'yilganida, maqsadga erishganligini baholash umuman hisobga olinmagan.

*-O'quv maqsadlarini talabaning ichki rivojlanish (aqliy, hissiy, shaxsiy...) jarayonlari orqali aniqlash.* Ushbu usulda bir necha fanlar (masalan: umumta'lim fanlari) yoki alohida fan bo'yicha umumlashgan ta'lim maqsadlari aniqlanadi. Masalan: korxonaning moliya faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish. Bu usul bir mavzu yoki mavzuning tayanch tushunchalari doirasiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Bu usulda alohida bir mashg'ulot bo'yicha aniq maqsad qo'yib bo'lmaydi, demak o'qitish natijalarini baholash imkoniyati ham bo'lmaydi.

*-O'quv maqsadini talabalar faolivati asosida belgilash.* O'quv maqsadini bunday qo'yganda, darsni rejalashtirish va aniqligi nazarda tutiladi. Ammo bunda ham eng muhim narsa, kutilajak natija hisobga olinmaydi. Masalan: dars maqsadi – korxonada balans daromadini aniqlash bo'yicha masalalarni yechish. Bu holatda qo'yilgan maqsadga erishishni belgilovchi mexanizm nazarda tutilmagan.

Pedagogik texnologiya negizida aniq qo'yilgan maqsadlarga ketma-ket yo'naltirish, yaxlit o'quv jarayonini qamrab olgan tezkor aloqa va talaba xatti-harakati orqali o'qitish yotadi.

***Talabalar xatti-harakati orqali o'qitish – pedagogik texnologiyalar falsafasining negizidir.***

***Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadlarni qo'yish usuli, bu o'quv maqsadlarining talaba xatti-harakatlari bilan ifodalangan o'quv natijalari orqali shakllantirishdan iboratdir.***

Bunda pedagog yoki boshqa ekspert talaba xatti-harakatini aniq ko'rishi yoki o'lchashi mumkin. Talabalar xatti-harakatlari orqali ifodalangan rejalashtirilgan o'quv natijalarini to'la tashxislash va o'qitishni qayta takrorlanish imkoniyat yaratish uchun, o'quv maqsadlari shundan aniq qo'yilishi kerakki, unga erishilganligini ikkilanmasdan aniqlash mumkin bo'lsin.

Ba'zan ularni identifikatsion o'quv maqsadlari deb ham ataydilar. Maqsadni to'la identifikatsiya qilish g'oyasi asosida, talabalar faoliyatini an'anaviy umumiy qilib emas, balki aniq kuzatiladigan, o'lchamli qilib ifodalash nazarda tutiladi.

***O'quv maqsadi tushunarli, aniq, identifikatsiyaga moyil bo'lishi kerak.***

Identifikatsiyalangan o'quv maqsadini ifodalashda ishlatiladigan fe'llar, o'rgatilgan talaba xatti-harakatini aks ettirishni kerak: - belgilamoq, guruhlar, tuzmoq, ajratmoq, hisoblamoq, isbotlamoq, soddalashtirmoq, qismlarga ajratmoq, taqqoslamoq, tizimga solmoq va boshqalar.

### **Industrial radioxalaqitlar, ularni bartaraf etish usullari**

***X. Musayev, Dasturiy injiniring kafedrasini mudiri, TATU FF.***

***A. Xashimov, Dasturiy injiniring kafedrasini katta o'qituvchisi, TATU FF.***

Industrial radioxalaqitlar — radio to'lqinlarni uzatish uchun mo'ljallanmagan texnik vositalar tomonidan vujudga keladigan radiochastota spektri diapozonidagi elektromagnit tarqatishlardir. Aloqa tarmoqdariga qo'yiluvchi texnik talablar yo'l qo'yib bo'lmaydigan elektromagnit xalaqitlar hosil bo'lishiga olib kelmasligini kafolatlash uchun aloqa tarmoqlarida elektromagnit moslashuvchanlik talablarini ko'rib chiqish kerak. Foydali signallarni simmetrik kuchlanishlari va toklarining darajalari tartibga solinmagan. Axborot texnologiya uskunasi (ATU)da bo'lishi mumkin bo'lgan signallarning simmetrik kuchlanishi va toklarining maksimal yo'l qo'yiluvchi darajalariga qaramay, aloqa portlari, kabellar yoki tarmoqlarining (bo'ylama o'tuvchi so'nishi) elektr simmetriyasiga bog'liq. ATUning foydali signallari yerga nisbatan umumiy simmetrik bo'lmagan qarshilikda yo'l qo'yilmaydigan Industrial radioxalaqitlar (IRX) ko'rinishida namoyon bo'lmashligi kerak.

Industrial radioxalaqitlar radioto'lqinlarni uzatish uchun mo'ljallanmagan texnik vositalar tomonidan vujudga keladigan radiochastota spektri diapozonidagi elektromagnit tarqatishlardir. Aloqa tarmoqdariga qo'yiluvchi texnik talablar yo'l qo'yib bo'lmaydigan elektromagnit xalaqitlar hosil bo'lishiga olib kelmasligini kafolatlash uchun aloqa tarmoqlarida elektromagnit moslashuvchanlik talablarini ko'rib chiqish kerak. Foydali signallarni simmetrik kuchlanishlari va toklarining darajalari tartibga solinmagan. Axborot texnologiya uskunasi (ATU)da bo'lishi mumkin bo'lgan signallarning simmetrik kuchlanishi va toklarining maksimal yo'l qo'yiluvchi darajalariga qaramay, aloqa portlari, kabellar yoki tarmoqlarining (bo'ylama o'tuvchi so'nishi) elektr simmetriyasiga bog'liq. ATUning foydali signallari yerga nisbatan umumiy simmetrik bo'lmagan qarshilikda yo'l qo'yilmaydigan Industrial radioxalaqitlar (IRX) ko'rinishida namoyon bo'lmashligi kerak.

Telekommunikatsiya texnologiyalari uskunalaridan yuzaga keluvchi industrial radioxalaqitlarning ishonchli o'lchashlarini o'tkazish uchun turli xil ko'rinishlardagi lokal tarmoqlardan foydalanilganda lokal foydalanish 10% ortiq imkoniyatli sharoit yaratish va bu darajani kamida 250 ms davomida ushlab

turishi zarur. Sinovlardagi ma'lumotlar almashinuvini haqiqiy sharoitlarga o'xshatish uchun lokal tarmoqda tasodifiy xabarlar (masalan, arxivlashtirilgan va shifrlangan fayllar) va davriy xabarlar (masalan, zichlashtirilmagan grafikli fayllar, xotira ma'lumotlari) uzatishni nazarda tutilishi zarur.

Aloqa portlaridagi Industrial radioxalaqitlar (IRX) kuchlanishlarini o'lchashni o'tkazishda Industrial radioxalaqitlar o'lchagichiga ulanishni ta'minlovchi tarmoqning to'la qarshiligi ekvivalenti (TTKE)dan foydalaniladi, chunki ular to'la umumiy simmetrik bo'lmagan qarshilikning talablariga javob beradi. Agar Industrial radioxalaqitlarning kuchlanishini o'lchash bir simmetrik bo'lmagan juftlikda o'tkazilsa, juft sim uchun mos keluvchi TTKE dan foydalaniladi. O'lchashlar ikki simmetrik juftlikdan tashkil topgan ekranlanmagan kabellarda o'tkazilganda to'rt sim uchun tegishli TTKEdan foydalaniladi. Sinov vaqtini kamaytirish uchun kvazipik detektorli IRX o'lchagichi o'rniga pik detektorli IRX o'lchagichidan foydalanishga ruxsat beriladi. Bahsli holatlarda IRXning kvazipik qiymatlarini o'lchash natijalari ustunlikka ega bo'ladi.

Antenna simmetrik vibrator (dipol)dan iborat bo'lishi zarur. 80 MGts va undan yuqori chastotalarda sozlanuvchi yarim to'liqinli simmetrik vibrator dan foydalaniladi. 80 MGts dan past chastotalarda simmetrik vibrator ishlatiladi, uning o'lchami chastotadagi yarim to'liqin simmetrik vibrator uzunligiga teng. Nurlanuvchi maydonni o'lchash antenna markazi va antennaga yaqin sinov uskunasi (SU)ning chegarasining proyeksiyalari orasidagi masofa aniqlangan. O'lchov masofasiga mos kelgan masofaga o'rnatilgan antennadan foydalanib, amalga oshiriladi. SUning chegarasi SUni o'rab olgan, sodd geometrik shaklni tasvirlovchi faraz qilingan chiziq bilan aniqlanadi. Axborot texnologiya uskunasi (ATU)ning barcha o'lchovchi va ichki tizim kabellari bu chiziq ichida joylashadi. Agar 10 m masofada IRXning maydon kuchlanganligini, begona radioxalaqitlar darajasining yuqoriligi yoki boshqa sabablarga ko'ra o'lchash mumkin bo'lmasa, u holda B sinfli ATUlarining sinovi yaqinroq, masofalarda, masalan, 3mda o'tkaziladi.

O'lchov maydonchasi 30dan 1000 MHz gacha chastotalar polosasida gorizont va vertikal qutblanishda elektromagnit maydoni so'nishini, o'lchash yo'li bilan tekshiriladi. Qabul qiluvchi va uzatuvchi antennalar orasidagi masofa sinov vaqtida IRX maydon kuchlanganligini o'lchash kabi bo'lishi kerak. Axborot tizimi uskunalarning turli xil asosiy bloklari (masalan, raqamli aloqa tarmoqlarining interfeyslari, markaziy protsessorlar, adapterlar platalari va boshqalar)ning imkoniyatlarini oshirish uchun foydalaniluvchi tayyorlanadigan alohida bosmali platalarni yig'ish, ularni o'rnatishda sinaladi, juda bo'lmaganda yig'ishni tayyorlovchining tanlovi bo'yicha asosiy xususiyatga ega bo'lgan bir blokda sinaladi. Bu yig'ishlarni shu bloklarga o'rnatish — mo'ljallangan axborot tizimi uskunalarning asosiy bloklarining elementlari bo'yicha yig'ishning muvofiqligini kafolatlash imkonini beradi.

Aloqa porti, kabeli yoki tarmog'ining bo'ylama o'tishining so'nishi keltiradigan port, kabel yoki tarmoqdagi signallar simmetrik kuchlanishini ma'lum qismi va ushbu me'yorlari o'rnatilgan IRXning umumiy simmetrik



bo'lmagan kuchlanish va toklari o'zgaradi. Keltirilgan IRX atrofga nurlanuvchi radioxalaqitlar manbaidan va minimumgacha cheklanishi kerak. Nominal simmetrik aloqa portida yoki uzatish liniyasi. masalan, o'ralgan juft simlarda hosil bo'luvchi IRXning umumiy simmetrik bo'lmagan kuchlanish va toklari port yoki aloqa liniyasini ekranlashtirish bo'yicha tasvirlardan qat'iy nazar, nazorat qilinishi va cheklanishi kerak. Agar ekranlashtirilgan muhit qo'llanilsa, ekranni o'zining va ekran ulagichlarining kamchiliklari kattagina elektr bir jinsli bo'lmasliklariga olib kelishi mumkin, shu bilan birga, ekran muhitida hosil bo'luvchi IRXning umumiy simmetrik bo'lmagan kuchlanish va toklarining bir qismi ekrandan tashqarida paydo bo'ladi.

### **Pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari**

*X. Musayev, Dasturiy injiniring kafedrası mudiri, TATU FF.*

*A. Qayumov, Dasturiy injiniring kafedrası asisteni, TATU FF.*

Mamlakatimizda mustaqillik bilan boshlangan davr xalqimiz hayotining barcha sohalarida milliy ruhimizga mos va xos bo'lgan islohotlarni amalga oshirish uchun keng istiqbollar ochdi, Endilikda «Respublikani haqiqatdan ham, uning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, xalqning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlar va ko'nikmalarini, mavjud beqiyos tabiiy boyliklarini har tomonlama hisobga olib, yuksaltirish ommaviy bo'lib qoldi. Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek, «Asrlar davomida aqlu-zakovati ila bunyod etgan boy ma'naviyati tufayli xalqimiz mag'rur yashadi, mehnat qildi, doimo hurriyat va erk sari intildi. Ana shu milliy g'urur bugungi istiqbolimizning oltin poydevoridir» [1].

Pedagogika kasbi bir paytning o'zida ham islohatchilik, ham boshqaruvchilik kasbi hisoblanadi. Shaxs kamolotini boshqarish uchun esa kompetent bo'lishi lozim. Shuning uchun o'qituvchini kasbiy kompetentligi tushunchasi uning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi hamda yuksak darajadagi mahoratini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasida «Yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega» ekanligi ko'rsatilgan. Shunga ko'ra bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi tarkibi pedagogik ko'nikmalar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Kasbiy tayyorgarlik modeli umumiydan xususiy ko'nikmalar yo'nalishida belgilanishi maqsadga muvofiq. Ma'lumotlar va voqeilikni nazariy tahlil qila olish ko'nikmasi bilan uzviy bog'liqlikda pedagogik fikrlash va amaliyot yurita olish ko'nikmasi umumiy ko'nikmalar sirasiga kiradi. Bu har ikkala ko'nikmani sezgi, tajriba va nazariy darajalarda ro'y beradigan aniq fikrlashdan mavxumlikka o'tish jarayoni asosini tashkil qiluvchi ko'nikmalar birlashtirib turadi. Tahlilni nazariya darajasigacha yetkaza olish ko'nikmasi – bo'lajak o'qituvchilariga ta'lim berishning muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, o'qituvchining kasbiy xususiyatlar talablariga mosligi pedagogik ko'nikmalarning pedagogik fikirlash va amaliyot yuritish bilan bog'liq jihatlarning mosligini anglatadi. Pedagogik vazifaning umumiylik darajasiga qaramay ilmiy asoslangan tizimini yaratish asosiy muammolardan biri hisoblanadi

Buyuk ma'rifatparvar muallim mohir tadqiqotchi Abdulla Avloniy ta'lim tizimi, o'qitishni takomillashtirish, o'qituvchi malakasini shakllantirish bo'lg'usi o'qituvchilarni tayyorlash muammolariga mutloqo yangicha yondashgan olimdir. U o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlarini, axloqi, odobi, bilimdonligi, ziyoratligi, topqirligi, farosatligi, aql zakovatligi ta'lim va tarbiya uchun asosiy negiz ekanligini ta'kidlab o'tadi. Ayniqsa, uning fikricha, ijodiy izlanish, o'qish va o'qitishning yangi shakl, uslub hamda vositalarini qidirish o'qituvchilarning eng muhim sifatlaridan biridir [2].

Qadimgi Sharq, pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri «Qobusnoma»da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratli gaplar aytilgan bo'lib, ular hozirda ham ma'lum darajada o'z ahamiyatini yo'qotmagan. «Qobusnoma» Kaykovus tomonidan 1082-1083 yillarda yaratilgan bo'lib, 44 bobdan iborat. Uning 7 - boblari so'z odobi haqidadir. Asar muallifning farzandiga qilgan nasihatlarini sifatida yozilgan. U farzandini yoqimli, muloyim, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi: «Yaxshi so'zlashga o'rgan va muloyim so'zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki qanday so'zni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. So'zni o'z joyida so'zla, joyida aytilmagan so'z, agaru yaxshi so'z bo'lsa ham yomon ko'rinadi». «Kishi suxandon va notiq bo'lishi lozim». Har bir notiq o'z nutqi ustida ko'p mashq qilishi, xalq oldida nutq so'zlaganda yoqimli gapirishi, xalqning e'tiborini qozonishi zarur. Xalq, oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq, sening so'z bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar. Har kishining ahvoli o'z so'zi ostida yashiringan bo'ladi». Kaykovus notiq so'zning ma'nolarini har tomonlama o'rgangan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Tajribalardan foydalanish va ilg'or texnologiyalarni qo'llash, zamon talablari asosida bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish qoidalarini hayotta tatbiq etish quyidagilarni nazarda tutadi.

Demak, bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda eng avvalo muomala odobi va aloqa qiladigan odamlar, muassasalar bilan o'z kasbiy vazifasini bajarayotganda sodir bo'ladigan axloqiy munosabatlar majmuidir. Ushbu yondashuv asosida Yevropa pedagoglari muomala odobini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratib ko'rsatadilar:

- o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi muomala;
- o'qituvchi bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi muomala;
- o'qituvchi bilan ota-onalar o'rtasidagi muomala;
- o'qituvchi bilan ta'lim muassasasi rahbarlari o'rtasidagi muomala.

Pedagog kadrlarni tayyorlashda ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishda axborot – metodik ta'minot muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalaridan masofaviy ta'lim tizimi hamda o'qitish vositalaridan samarali foydalanishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda bo'lajak

o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosiy omillardan xisoblanadi. Masofaviy ta'lim tizimi an'anaviy ta'lim tizimini amalga oshirishda muammolarga duch kelingan yoki shart — sharoit ushbu jarayonni taqozo qilganda qo'llaniladi. Bu jarayon ma'lum muhitda ta'lim samaradorligini oshirishga zamonaviy texnologiyalardan etarlicha foydalanishga zamin yaratadi.

### **Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklamaning o'rni, o'ziga xos jihatlari**

*Akaeva Marapat Abduxaliqovna,*

*Nam DU dotsenti, yu. f. n.*

O'zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga o'ta boshlashi bilan xalq xo'jaligidagi monopolizmning bartaraf etilishi, davlatimiz hududida erkin va mustaqil faoliyat olib boruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining yangi shakllarining vujudga kelishi hamda raqobat muhitining shakllanishi reklama ma'lumotlarini to'planishiga sabab bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida reklamaning ob'ektiv zarurat ekanligini isbotlab berdi.

Bozor munosabatlarini chuqurlashtirishning asosiy vazifalaridan biri – bu raqobatbardoshlik muhitini shakllantirishning tizimini barpo etishdir. Bu tizim xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va sof raqobatni shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Kichik va o'rta korxonalarni yirik monopolistik korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan g'irrom raqobatlaridan himoya qiladi va tabiiy monopoliyalar faoliyatini tartibga soladi.

Raqobatbardoshlik muhitini shakllantirish bo'yicha amaliy tizimning asosiy tuzilmasi – bu monopoliyaga qarshi kurash organlari bo'lib, ular tovar ishlab chiqaruvchilar uyushmalari hamda tovarlar, bozorida ahvolni o'zgarishlarni o'rganuvchi muassasalar bilan yaqin hamkorlikda ish yuritadilar.

“Reklama” so'zi lotincha “reklamare” so'zidan olingan bo'lib, “chaqirmoq”, “jar solmoq”, “xabar bermoq” ma'nolarini anglatadi<sup>16</sup>. Mazkur so'zning kelib chiqish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, u Qadimgi Gretsiya va Rimda bozor maydonlarda va aholi to'planadigan boshqa joylarda e'lon ko'rinishidagi axborot sifatida baland va chaqiriqli ovozlarda o'qilgan<sup>17</sup>.

Reklamaga oid normalarni o'rganishning ahamiyati va dolzarbligini quyidagi omillar orqali izohlash mumkin:

**Birinchidan**, reklama axborotini huquqiy tartibga solish, avvalambor, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish uchun zarur yuridik zamin yaratib beradi. Ya'ni, qonun chiqaruvchi tomonidan reklamaning tuzilishiga oid talab va taqiqlarning huquq normalarida mustahkamlab qo'yilishi aynan iste'molchilarning qonuniy manfaatlariga xizmat qiladi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi “Reklama to'g'risida”gi qonunining asosiy vazifalaridan biri sifatida mahsulotning xarakteri, tayyorlanish usuli va joyi, iste'mol xususiyatlari, sifati va boshqa tavsiflari, uni realizatsiya qilish

<sup>16</sup> Predprinimatel'skoe pravo: Uchebnik dlya vuzov / Pod. red. N.M.Korshunova, N.D.Eriashvili. – M.: YuNITI-DANA, Zakon i pravo, 2000. – S. 167.

<sup>17</sup> Pankratov F.G., Bajenov Yu.K., Shaxurin V.G. Osnovy reklamy: Uchebnik. – M.: Izdatel'sko-torgovaya korporatsiya «Dyushkov i K», 2006. – S. 6.

shartlariga ko'ra iste'molchilarni chalg'itadigan yolg'on yoki noaniq ma'lumotlar reklama vositasida tarqatilishining oldini olish belgilab qo'yilgan.

**Ikkinchidan**, reklamaga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish raqobatdosh xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning yuridik xavfsizligini ta'minlaydi va bu orqali mazkur sub'ektlarga moddiy zarar yetkazilishi yoki uning ishchanlik obro'siga putur yetkazilishining oldi olinadi. Bu borada milliy reklama qonunchiligimizdagi noto'g'ri reklama, aksilreklama tushunchalarining belgilanganligi yoki qiyosiy reklamaga qo'yilgan talablarning ifodalanganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Chunki, mazkur masalalarning qonunda belgilanmaganligi reklama munosabatlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning manfaatlariga zarar yetkazishi hamda g'irrom raqobat orqali ularning ishlab chiqarish faoliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin.

**Uchinchidan**, reklamaning huquqiy tartibga solinishi tovar va xizmatlar bozorida tijorat maqsadida tarqatilgan axborotlarning xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki qonun hujjatlariga muvofiq tarzda tayyorlanadigan va tarqatiladigan reklama axborotining haqiqiyliги barcha hollarda tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanib, mazkur talab reklamaning ishonchsiz axborot sifatida tarqatilishiga chek qo'yadi.

Shu nuqta nazardan, reklamaning hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'rni va ahamiyati uning quyidagi ikki muhim jihatida namoyon bo'ladi:

*Birinchi*dan, reklama raqobat muhitining shakllanishiga ko'maklashuvchi iqtisodiy-strategik mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Binobarin, bozor munosabatlari sharoitida raqobatni reklamasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Raqobat xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni muayyan foydani qo'lga kiritish uchun tovar (ish, xizmat)larni ko'proq ishlab chiqarish va sotish bo'yicha o'zaro musobaqalashuvidir. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt qanchalik sifatli va narxi arzon tovar ishlab chiqarmasin, u reklamaning yordamisiz raqobatlasha olmaydi<sup>18</sup>. Chunki iste'molchi faqatgina reklama orqali xo'jalik yurituvchi sub'ekt hamda uning tovari (ishi, xizmati) haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt aynan reklama orqali o'zining imkoniyatlarini iste'molchiga namoyish eta oladi. Reklama xo'jalik yurituvchi sub'ektga raqobatlashish vositasi sifatida xizmat qiladi desa ham bo'ladi. Shuning uchun ham iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda reklamadan keng foydalaniladi<sup>19</sup>. Xususan, davlatimizda ham raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor kon'yukturasi o'rganib chiqish natijasida xaridorgir mahsulotlarni reklama qilishning samarali usullariga erishish mumkin.

Shuningdek, hozirgi kunda ham reklamani televidenie yoki bosma nashrlarda joylashtirish hamda tashqi reklamani joylashtirish juda yuqori

<sup>18</sup> Konkurentnoe pravo Rossiyskoy Federatsii. – M.: Logos, 1999. – S 113-121; Tot'ev K.Yu. Konkurentnoe pravo (pravovoe regulirovanie konkurentsii). – M.: RDL, 2000. – S. 207-226.

<sup>19</sup> Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi. Huquqshunoslik oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik // Mualliflar jamoasi: Ibratov B.I., Nasriev I.I., Burxanxodjaeva X.V. va boshq.: Mas'ul muharrir Otaxonov F.H. / T.: Toshkent Davlat yuridik instituti, 2003. – B. 173-174.

narxlarda amalga oshirilib, bu holat tovar (ishlab chiqarish) xarajatlarining o'sishiga, tovar xarajatlarining o'sishi esa, o'z navbatida, mahsulot tan narxining ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga binoan, davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlikni muhofaza etilishini kafolatlar ekan, bozordagi mavjud munosabatlar natijasida yuzaga kelgan axborotlar oqimini tashkil qiluvchi reklamani huquqiy tartibga solmasdan turib bunday kafolatni ta'minlash mexanizmini yaratish juda mushkuldir. Shuning uchun ham davlatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning ilk bosqichlarida iqtisodiy tUSDagi axborotlar oqimini tartibga soluvchi huquqiy bazani shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yildi.

### **Ma'naviy tarbiyaning uzluksizligi**

*B. B. Ibrahimov,*

*Nam DU katta o'qituvchisi*

Uzluksiz ma'naviy tarbiyaning o'zagini quyidagilar tashkil etadi. Iymonli bo'lish, odamning diyonatli, vijdonli bo'lishidir. „Vijdon pokligi va bedorligi, — deb ta'kidlaydi Prezident I. Karimov, — asrlar, zamonlar osha inson ma'naviyatining tayanch ustunlaridan bo'lib kelmoqda. Jamiyat hayotida adolat va haqiqat, mehr-shafqat, insofu diyonat kabi tushunchalarni qaror toptirishda aynan mana shu omilning o'rni va ta'siri beqiyosdir“.<sup>20</sup>

Vijdoni uyg'oq odam yon-atrofidagi voqealarga, yordam va ko'makka muhtoj insonlarning muammolariga, adolatning toptalishiga befarq qaray olmaydi. Ayniqsa, el-yurt manfaatiga zarar yetkazadigan yovuz hatti-harakatlarga hech qachon loqaydlarcha chetdan jim qarab tur olmaydi, o'z yurti va xalqiga nisbatan xiyonat va sotqinlikni aslo kechira olmaydi. Bunday holatlarni ko'rganda vijdoni qiynaladi, doimo yonib-kuyib yashaydi, qanday qilib bo'lmasin, ularni bartaraf etishga intiladi, bu yo'lda jonini ham fido qilishi mumkin.

Haqiqatan ham, odam bu dunyoda ruhan pok bo'lib, irodasi baquvvat, iymoni butun, vijdoni uyg'oq bo'lib yashamas ekan, inson hayotining qanday ma'nosi qoladi?

Bunday ezgu maqsadlarga esa inson faqat yuksak ma'naviyat, uzluksiz ma'naviy tarbiya orqaligina erishishi mumkin. Vijdon — insonning o'z faoliyatini, qilgan ishlari va belgilagan maqsadlarini ichki ruhiy tahlil eta olish imkoniyatidir.

Bag'ri keng, halol, pok, vijdonli, mehr-oqibatli, el-yurtning g'amu tashvishi bilan yashaydigan kishilarni xalqimiz, aksincha, boshiga ko'taradi va bunday odamlar jamiyat tomonidan qadr-qimmat, hurmat-e'tibor topadi.

Ko'rinadiki, iymonning barcha mezonlari asosida poklik va halollik yotar ekan. Mana shuning uchun ham bizning ota-bobolarimiz poklik va halollikka alohida e'tibor berganlar.

<sup>20</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch: T., Ma'naviyat 2008y. 27- b.

Xulosa o'rnida, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov moddiy va ma'naviy hayotning uyg'unligini bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslagan edi. Shuningdek, *ma'naviylik* va *moddiylik* o'rtasidagi munosabatning keskinlashuvi jamiyat hayotida inqirozga olib kelishi muqarrar ekanini ta'kidlaydi. Inson o'z timsolida ham moddiy, ham ma'naviy xususiyatlarni mujassam etgan noyob xilqat ekanligi, shuning uchun uning ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va xislatlarni oxirigacha anglab yetish va tushunish o'ta murakkab masala ekanligiga alohida e'tibor qaratib, insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishida ma'naviylik va moddiylik muhim omil ekanligi va bular o'zaro uyg'un bo'lgandagina tom ma'nodagi qo'sh qanotga aylanishi, ana shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o'sish-o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'lishini uqtirgan edi. „Moddiy va ma'naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o'zaro bog'lanib, bir-birini to'ldiradi, — deydi Prezidentimiz. — Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o'z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog'liklik asosida rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi“<sup>21</sup>.

Inson ma'naviy olamni his-tuyg'ulari, aql idroki va iroda-ihtiyori yordamida o'zlashtirib boradi. Shaxsning his-tuyg'ularini tarbiyalash, estetik va badiiy didini o'stirish, go'zallikka mehr-uyg'otish insonparvar jamiyatning asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Zero, bugungi kunda har tomonlama yetuk inson deb bilganimiz „b a r k a m o l i n s o n“ — o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, tevarak atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un xolda ko'radigan insonlar tushuniladi. Shuningdek, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb his etadigan, zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, ma'naviy jihatdan yuksak, jismonan baquvvat erkin shaxs bo'lishi bilan bir qatorda tabiat, jamiyat va insoniy go'zallikka befarq bo'lmagan, ulug'vorlikdan tubanlikni, fojeaviylikdan kulgililikni farqiga boradigan yuksak didli shaxslarni shakllantirish, ularda estetik madaniyatni namoyon ettirish muhim masalaga aylanib bormoqda. Ana shunday masalalarni xalq etishda estetik va nafosat falsafasi muhim ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

### “Ommaviy madaniyat”ning salbiy jihatlari

*Z. Xoldorov,*

*NamDU talabasi*

“Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa,

<sup>21</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat. 2008y.

kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamogda”.

### **Islom Karimov**

Madaniyat arabcha soʻzdan olingan boʻlib “madinalik”, “shaharlik” degan maʼnoni anglatadi. Madaniyat – insonning ichki dunyosini koʻrsatadigan koʻzgu. Jamiyatning mahsuli, ijtimoiy hayotning muhim mulki hisoblanadi. Madaniyatsiz jamiyat boʻlmaganidek, madaniyat ham jamiyatdan tashqarida mavjud boʻlmaydi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida madaniyatning oʻziga xos xususiyati shundaki, u insoniyat ajdodlarining mehnati, bilimlari, dunyoqarashini oʻzida aks ettiradi ularni saqlab muntazam boyitib boradi. Madaniyat ijtimoiy hayotning vorisi sifatida qadriyatlarini toʻplaydi, ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi.

“Ommaviy madaniyat” nima oʻzi? U nima uchun paydo boʻldi. “Ommaviy madaniyat” XIX asr oxiri – XX asr boshlarida gʻarbda paydo boʻldi. Bu madaniyat XX asrning ikkinchi yarmida yanada rivojlandi. XXI asrga kelib oʻz rivojining choʻqqisiga chiqdi. “Ommaviy madaniyat”ning bosh maqsadi moddiy boylik orttirishdan iborat. Bu madaniyatning xarakterli jihati shundaki, barcha koʻngilochar mavzular oddiy odamlar uchun moʻljallangan. Natijada axloq normalaridan chekinildi. Odamlar orasiga turli vahshiylik va axloqiy buzuvchiliklar olib kirildi. Bir narsaning ommalashishiga va rivojlanishiga biror vosita turtki boʻladi. Ommaviy madaniyatning rivojiga texnologiyalarning rivojlanishi sabab boʻldi. Bernard Rozenbarg bu hodisaga shunday fikr bildiradi: “ommaviy madaniyatning asosiy sababi – zamonaviy texnika. Na milliy xarakter, na iqtisodiy, na siyosiy tizim bu masalada xal qiluvchi ahamiyatga ega emas.” Jumladan, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi ham taʼsir koʻrsatdi. Ayniqsa, televideniya sohasi XX asrda ommaviy madaniyatni tarqatuvchi mashina boʻlib xizmat qildi. Amerikalik siyosatshunos Patrik Byukenen oʻzining “ Gʻarbnig halokati “ asarida shunday yozadi: “ Urushdan avvalgi Buyuk depressiyani, urush falokatlarini koʻrgan katta avlod, bolalarimiz biz koʻrganni koʻrmasin, deya, yoshlar uchun barcha sharoitni muhayyo qildi. Bu paytda televideniya jamiyat va inson hayotiga, turmushiga, ongiga tobora jadallik bilan kirib kelayotgan davr edi. Bolalar maktabda qancha vaqt oʻtkazsa, televizor oldida ham shuncha oʻtiradigan boʻldi. Bu qancha bolalar va yoshlarga taʼsir oʻtkazishda ota-onalar bilan raqobat qila boshladi. U bolalarning sirdoshi, ittifoqdoshi, ularga tanbeh bermay, domiga oladigan joni yoʻq jonotga aylandi ”.

Globalashuv jarayoni ommaviy madaniyatning rivojlanishiga va tarqalishiga bevosita taʼsir koʻrsatmoqda. Dunyoning bir tomonida boʻlgan yangilik yoki voqea ikkinchi tomoniga bir zumda yetib bormoqda. Globalashuv har bir ijtimoiy sohani kun sayin oʻzgartirmoqda. Ozigina beparvolik tufayli dunyoda boʻlayotgan har qanday voqea va jarayondan orqada qolish mumkin. Hindiston mustaqilligining asoschisi va hind xalqining otasi Moxandas Karamchand Gandi (1869 – 1948) dan “ Globalashuv jarayoniga qanday qaraysiz?” deb soʻrashganda, u shunday javob beradi: “ Men tashqaridagi boʻrondan qoʻrqib, derazamni yopib qoʻya olmayman, chunki menga toza havo

ham kerak. Shu bilan birga toza havo kerak deb derazamni katta ochib ham qo'ya olmayman, chunki uyimni chang-to'zon bosib ketishini ham xohlamayman“. Globallashuvning yana bir salbiy tomoni u har bir xalqning milliy mafkurasini va urf-odatini o'zgartirish qobiliyatiga ega.

“Ommaviy madaniyat” ning yana bir ko'rinishi kitch madaniyati, kitch so'zi nemischa “kitschen“ so'zidan olingan bo'lib saviyasi past, arzon va jo'n asar yaratib sotishni bildiradi. Bunday asarlar haqiqiy san'at asarlaridan keskin farq qiladi, ya'ni bular juda tez yaratiladi va esdan tez chiqib ketadi.

G'arbda “ommaviy madaniyat” “pop-kultura” (“Ommaviy madaniyat”) deb nomlanadi. Buni madaniyat deb atab bo'lmaydi, chunki u asrlar davomida shakllangan qadriyat, urf-odat, madaniyat, an'analarni yo'q qilib yuboradigan og'uga aylandi. Uni “antimadaniyat” deb atasak ham bo'ladi. “Ommaviy madaniyat” namoyondalaridan biri yozuvchi Karl Manning fikricha, atrof – muhitda, maishiy hayotda mavjud barcha narsalar masalan, konserva bankalari, siniq tish cho'tkalari, mashina, vodoprovod kabilarning zanglagan bo'laklari, turli sur'atlar, jurnal – gazeta qiyqimlari ham hayot bag'ridan alohida ajratilib, ularga muayyan tartib berilib, odamlar nazariga tutilsa, bu oddiy chiqindilar arxeologik qazilmalar chog'ida topilgan qadimgi yunonlar davriga xos osori – atiqalarday o'zgacha ahamiyat kasb etib, “san'at, madaniyat namunaalari” qatoridan o'rin olar emish. Keyinchalik g'arb dunyosining o'zidagi faylasuflar, sotsiolog olimlar, “bizga “To'qqizinchi simfoniya” kerak emas” yoki “Monna Liza” ni loyga qorishtiramiz” kabi jaholatparstlikka asoslangan xitoblar “ommaviy madaniyat” tarafdorlari va muhlislarining dasturiy qarashlari negizini tashkil etadi, deb yozib qo'yadilar.

### **Ta'lim jarayonida o'qitishning didaktik vositalaridan foydalanish**

*Musoxon Qambarov,  
Nam DU katta o'qituvchisi*

Didaktika fan sifatida o'z tadqiqot predmeti va metodlari hamda aniq maqsadlariga ega. Didaktika ko'p asrlik tarixiga ega.

Didaktika yosh avlodni «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish» va «qanday o'qitish» kabi savollarga javob beradi. Didaktika, o'z navbatida ayrim o'quv fanlarga oid o'qitish va o'qish metodi va uslublari bilan uzviy bog'liqdir. U o'qitishning barcha fanlarga oid umumiy qonuniyatlarini aniqlab borishi bilan birga, har bir o'quv fanini o'qitish metodlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

“Didaktika” atamasi ilk bor nemis pedagogi Volfgang Ratke tomonidan “Didaktika, yoki ta'lim san'ati” (1613 y. ) deb nomlangan ma'ruzasida qo'llanilgan.

Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marotaba chex pedagogi Yun Amos Komenskiyning “Buyuk didaktika” (1632 y. ) asarida ochib berilgan.

**Didaktik ta'minot quyidagi ko'rsatkichlar bilan baholanadi:**



**1) nazorat topshiriqlari, test savollari bankining mavjudligi;**



2) o'quv fani bo'yicha didaktik materiallarning mavjudligi: audio-video materiallar, kompyuter dasturlari, jadval, slaydlar, tarqatma materiallar.

Demak, didaktik vositalar majmuasiga qo'yilgan pedagogik talablar o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish, talabalarni o'qitish va tarbiyalashdan murakkab vazifani bajarish samaradorligini oshirishga olib kelar ekan.

Ta'lim jarayonida texnik vositalardan foydalanish juda muhim o'rin egallaydi. Ushbu vositalar yordamida mashg'ulotlarni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda olib borish hamda ta'lim oluvchilarning diqqatini jalb etishda keng foydalanish mumkin. Texnik vositalar ma'lumotlarni vizuallashtirishga yordam berib, kerakli tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Ta'lim beruvchilar doska tasvirlari, flipchart tasvirlari va kodoskop slaydlari kabi vizual vositalarni o'zlari ishlab chiqadilar. Shu sababli bunday vositalardan foydalanish qoidalari, ularning afzallik va kamchiliklarini hisobga olish lozim. Quyidagi materiallarda bo'r doska, flipchart, kodoskop, pinbord doskasi va videoproektor kabi texnik vositalardan foydalanish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berilgan.



Bo'r doska eng qadimgi, arzon va boshqalarga nisbatan ko'proq ishlatiladigan vosita hisoblansa kerak.

Mana ko'p yillardirki, u nazariy va amaliy darslarda qo'llaniladigan texnik vosita hisoblanadi. Bugungi televizorlar va kompyuterlar dunyosida doska sinfdagi eng ishonchli va ko'proq qo'llaniladigan o'quv vositasidir.

Doskadan foydalanishni ham rejalashtirib olish zarur. Buning uchun o'tiladigan mavzu bo'yicha doskaga yoziladigan matn va chizmalar tartib bilan rejalashtirib, qog'ozga xomaki varianti ishlab chiqiladi.

#### **Doskadan foydalanishning asosiy qoidalari**



- Barcha yordamchi vositalarni oldindan tayyorlab qo'yish
- Doskaga aniq va orfografik xatolarsiz yozish
- Matn yoki chizmalar oraliqlarini bir xil taqsimlash
- Rangli bo'rlarni didaktik talablarga mos kelgan holatda ishlatish
- Ta'lim oluvchilar bilan doim «ko'z aloqasi»ni saqlab turish
- Faqat bir tomonga emas, barcha ta'lim oluvchilarga qarab gapirish
- O'zlashtirish natijalarini tekshirib turish
- Muhim bo'lgan ma'lumotlarga alohida e'tiborni yordamchi vositalar yordamida qaratish

### **Doskaniing afzalliklari:**

- arzonligi;
- ma'lumotlarni taqdimot qilish uchun qulayligi;
- yozuvlar yozish uchun ishlatilishi;
- asosiy punktlarni tushuntirish uchun foydalanish mumkinligi;
- chizma va grafiklarni chizib ko'rsatish mumkinligi;
- diqqatni jalb qilish uchun foydalanilishi.

### **Doskadan foydalanishdagi kamchiliklar:**

- doskaga diqqat bilan yozish ta'lim beruvchidan doskaga qarashini talab qiladi, buning uchun u ta'lim oluvchilarga teskari o'girilishga majbur bo'ladi;
- doskadagi yozuv (tasvir) saqlanishi mumkin emas va shuning uchun uni qayta qo'llash mumkin emas;
- doskaga yozish ko'p vaqtni talab qiladi.



Flipchart doskaga juda o'xshashligiga qaramasdan, ko'pgina farqlar ham mavjud. Flipchartning eng asosiy qulayligi – bu matnni o'chirmasdan yozib ketaverish imkoniyatining borligi, ya'ni joy etishmasligidan yozilgan yozuvlarni o'chirishga hojat yo'q, faqat yetarlicha qog'oz bo'lishi talab etiladi. Shunday qilib, barcha fikr-mulohazalarni saqlash mumkin, hatto bir necha kundan so'ng bu qog'ozni yana osib qo'yish va munozarani davom ettirish mumkin. Flipchartning boshqa qulayligi, sinfdagi devor yoki doskaga birin-ketin hamma varaqlarini yopishtirish imkoniyati hisoblanadi. Butun guruh ishining natijalarini bir paytda ko'rish, taqqoslash va saqlab qolishning bunga teng boshqa imkoniyati yo'q.

### **Flipchartdan nima maqsadda foydalaniladi?**

- guruhiy bahs-munozaralarning natijalarini saqlash va ularni kelajakdagi tadbirlarda ishlatish uchun;
- jarayonning bosqichlarini ko'rsatish uchun;
- taqdimotni tashkillashtirish uchun;
- turli masalalar bo'yicha asosiy qismlarini ajratib ko'rsatish uchun.

### **Flipchartning afzalliklari:**

- flipchartni kerakli joyga siljitish mumkinligi;
- foydalanishning qulayligi;
- taqdimot uchun foydalanish mumkinligi;

- varaqlarni saqlab qo'yib, kerakli vaqtda undagi ma'lumotlardan takror foydalanish mumkinligi;

- turli rangli markerlardan foydalanish imkoniyati;

- talabalarning diqqatini jalb etish uchun foydalanish mumkinligi.


### **Flipchartning kamchiliklari:**

- yozuv tushunarli bo'lishi kerak, aks holda uni o'qish qiyin bo'ladi;

- xato yozmaslikka harakat qilish kerak, aks holda hamma to'g'rilangan joylar doim ko'rinib turadi;

- varaqlarni nusxalashtirish faqat fotosurat yoki ko'chirib yozish orqali mumkin xolos;

- ko'p flipchart qog'ozlari talab etiladi.



Kodoskop uchun sath (ekran), shuningdek, plyonka-slaydlar kerak. Kodoskop ta'lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi. O'quv jarayonini bu vositasiz tasavvur qilish mumkin emas. Asosiy qulayligi shundaki, slaydlarni kompyuterda yoki shuningdek, qo'lda professional darajada tayyorlash mumkin. Ulardan istalgan vaqtda foydalanish va ish o'rni o'zgarganida boshqa joyga o'tkazish mumkin. Ammo kodoskopning faqat sifati emas (yorug'lik kuchi), balki ishlab chiqilgan slaydlarning sifati ham muhimdir.

Slaydlarni tayyorlash uchun quyidagi materiallar kerak bo'ladi:

- atsetatli qog'oz – sun'iy toladan qilingan tiniq qog'oz;

- alohida qoplamaga ega, nusxalashtirish mumkin bo'lgan slaydlar;

- slaydlarga yozish uchun flomasterlar (doimiy yoki suv bilan o'chirish mumkin bo'lgan);

- slaydlarni tozalash uchun spirt;

- simvulli asboblari (shablonlar, chizg'ich va shu kabilar).

Kodoskopdan foydalanishdan oldin uning bexato ishlashini va tozaligini tekshirish lozim. Slaydlar taqdimot qilinishidan avval tartib bilan mantiqiy ketma-ketlikda tayyorlab qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Taqdimot davomida ekranga emas, balki ta'lim oluvchilarga qarab nutq tezligiga e'tibor bergan holda gapirish kerak. Ta'lim oluvchilar bilan doim «ko'z aloqasi»ni saqlab turish va barcha ta'lim oluvchilarga qarab gapirish lozim.



Slaydlarga ishlov berishda shrift turi va shrift kattaligi bo'yicha qoidalarga rioya qilib, yaxshi o'qilishi mumkin bo'lgan slaydlarni ishlab chiqish kerak. Bundan tashqari slaydlarni tayyorlashda ularning dizayniga ham katta e'tibor berish, ranglarni haddan tashqari ko'p ishlatmaslik lozim.

#### **Kodoskopning qulayliklari:**

- kodoskopni boshqa joyga siljitish mumkinligi;
- foydalanishning qulayligi;
- slaydlarni qo'lda, fotonusxa va kompyuter yordamida tayyorlash mumkin;
- slaydlarning katta guruhga ko'rinarli bo'lishi;
- bir marta tayyorlab, ulardan bir necha bor foydalanish mumkinligi;
- rangli tasvirni qo'llash mumkinligi;
- ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan «ko'z aloqasi»ni doimo saqlab turishi mumkinligi.

#### **Kodoskopning kamchiliklari:**

- kodoskop doska yoki flipchartga qaraganda qimmatroq;
- ko'pincha takrorlanadigan xato: bir slaydga haddan tashqari ko'p ma'lumot yoziladi;
- slayd ustida to'g'rilash ko'pincha murakkab (kodoskop nurida doimo ko'rinadi);
- ranglardan haddan tashqari ko'p foydalanish;
- elektr energiyasini talab qiladi.



“Pinbord” inglizcha so'z bo'lib, (pin-mahkamlash, bord-doska) doskaga mahkamlash degan ma'noni anglatadi.



Qoidaga ko'ra, pinbord doskasi ustiga o'rash qog'ozi tortiladi va qo'shimcha kerakli material sifatida turli rang va shakldagi kartochkalar bo'lishini talab qiladi. Ular pinbord doskasiga ignalar bilan mahkamlanadi. Ishni tugatgandan so'ng kartochkalarni o'rash qog'oziga yopishtirish va ularni navbatdagi tadbirlar uchun qo'llash mumkin. Kartochkalar maxsus rangli flomasterlar yoki markerlar bilan yoziladi. Bu vosita asosan yig'ilishlarda muhim o'rin egallaydi, chunki bu vosita yordamida qarorlar, muammolarni ishlab chiqish va guruhiy bahs-munozaralarni boshqarishni ko'rgazmali qilish mumkin.

#### **Pinbord doskasining afzalliklari:**

- pinbord doskasini siljitish mumkinligi;
- ma'lumotlarni doskaga mustahkamlash imkoniyati;
- kartochkalarni guruhlash imkoniyati;
- turli rangli qog'ozlardan foydalanish mumkinligi.

### **Pinbord doskasining kamchiligi:**

- ko'p qog'oz talab etilishi;
- kartochkadagi yozuvlarning turli-tumanligi.



Videoproektor o'quv jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy vositalardan biri hisoblanadi. Videoproektordan foydalanish uchun kompyuter qurilmalari talab etiladi. Oldindan tayyorlangan o'quv materiallarini kompyuterga ulangan videoproektor orqali maxsus ekranga taqdimot etish mumkin. Kompyuter xotirasidagi yoki kompakt disk va oddiy disketadagi materiallarni videoproektor orqali ta'lim oluvchilarga namoyish qilish mumkin. Videoproektor kodoskop kabi ta'lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi. Asosiy qulayligi shundaki, taqdim etiladigan materiallarni kompyuterda ta'lim beruvchi o'zi tayyorlashi mumkin yoki professional darajada tayyorlangan elektron darsliklardan foydalanish mumkin. O'quv materiallari turli kompyuter dasturlarida, Word, Excel, RowerPoint, CorelDraw dasturlarida tayyorlanishi mumkin.

Videoproektordan foydalanishdan oldin uning bexato ishlashini tekshirish lozim. Taqdimot davomida ekranga emas, balki ta'lim oluvchilarga qarab nutq tezligiga e'tibor bergan holda gapirish kerak. Ta'lim oluvchilar bilan doim «ko'z aloqasi»ni saqlab turish va barcha ta'lim oluvchilarga qarab gapirish lozim.

Materiallarni RowerPoint dasturida tayyorlash qoidalari to'g'risida 2. 2. - bobda ma'lumot berilgan.

### **Videoproektorning qulayliklari:**

- videoprektorni boshqa joyga siljitish mumkinligi;
- materiallarni kompyuter yordamida turli ko'rinishda tayyorlash mumkinligi;
- materialdagi kamchiliklarni tezda tuzatish va takomillashtirib borish imkoniyatining mavjudligi;
- animatsiyalar orqali tasvirlarni "jonlashtirish" va harakatlantirish imkoniyati;
- materiallarning katta guruhga ko'rinarli bo'lishi;
- bir marta tayyorlab, ulardan bir necha bor foydalanish mumkinligi;
- rangli tasvirni qo'llash mumkinligi;

•ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan «ko'z aloqasi»ni doimo saqlab turishi mumkinligi.

#### **Videoproektorning kamchiliklari:**

- videoproektor boshqa vositalarga nisbatan qimmatroq;
- ta'lim beruvchidan kompyuter va videoproektordan foydalanish ko'nikmasining talab etilishi;
- fonni va ranglarni noto'g'ri tanlash oqibatida ko'zning toliqishi;
- animatsiyadan noto'g'ri foydalanish oqibatida berilayotgan mazmunning ikkinchi darajali bo'lib qolishi va "shou" (tomosha)ga aylanib ketishiga olib kelishi;
- elektr energiyasining talab etilishi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, har bir ta'lim vositasi talab darajasida ishlab chiqilib, o'z o'rnida va samarali foydalanilsa, ta'lim jarayonida fanlar mazmuni o'zlashtirishga katta yordam beradi. Ta'lim jarayonidagi eng muhim vositalar yuqorida ta'rif berilgan texnik vositalar hisoblanadi. Bu vositalar dars jarayonini ko'rgazmali qilishga, o'quv materialining o'zlashtirilishini yengillashtirishga va ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Ko'rgazmalilik, tushunarlik va misol-namunalardan foydalanish kabi didaktik tamoyillar bu iboraga javob beradi. Chunki, bu vositalardan foydalanishning mohiyati, ta'lim oluvchilarda bilimlarni ko'rgazmali va imkon qadar real hayotga yaqin holda shakllantirishdan iboratdir.

### **Marg'ilon shahri tarixidan** (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida)

*A. Sharafiddinov, FarDU, tarix  
fanlari nomzodi, dotsent*  
*D. Hasanov, FarDU magistranti*

Podsho Rossiyasi bosqini arafasida Marg'ilon shahri Qo'qon xonligida yirik savdo va hunarmandchilik markazlaridan biri hisoblanar edi. 1865-1866 yillarda Marg'ilon shahrida 20000 aholi yashagan.<sup>22</sup>

Marg'ilon nafaqat Farg'ona vodiysidagi, balki butun Turkiston o'lkasidagi yirik shaharlardan biri bo'lgan. Shahar baland paxsa devorlar bilan o'ralgan bo'lib, juda qulay, go'zal yerda joylashgan edi. Qo'qon xonligi davrida shahar Marg'ilon bekligining markazi edi. 1876 yil Qo'qon xonligi tugatilib, Rossiya imperiyasi tarkibida Farg'ona viloyati tashkil etilgandan keyin Marg'ilon shahri Marg'ilon uezdi tarkibiga kiritildi. Shu vaqtdan boshlab Marg'ilon shahri o'zining ma'muriy markaz sifatidagi ahamiyatini yo'qotdi. Sababi, Marg'ilonga yaqin joyda viloyat markazining qurilishi va unga Yangi Marg'ilon deb nom berilishi bo'ldi. Marg'ilon uezdining markazi ham Yangi Marg'ilon shahri etib belgilandi. Marg'ilon shahri esa eski Marg'ilon deb atala boshlandi.

<sup>22</sup> Voенно-статистический сб. V. III-CPB., 1868-C. 133.

Ta'kidlash lozimki, vodiydagi boshqa shaharlar kabi Marg'ilon shahri aholisi ham Podsho Rossiyasi bosqinidan avval ham ko'p millatli hisoblangan. Shaharda o'zbeklardan tashqari tojiklar, mahalliy yahudiylar, qashg'arlar, qirg'izlar va boshqa xalqlar yashaganlar.

O'rganilayotgan davrda Marg'ilon shahri aholisining o'sish dinamikasi haqida quyidagi jadvaldan bilish mumkin.<sup>23</sup>

Yillar	Aholi soni	Yillar	Aholi soni
1868	20000	1900	42855
1882	26195	1906	46721
1892	34101	1910	47192
1897	36592	1911	49319
1898	36645	1913	49406
1899	39788	1914	60116

Aholining asosiy qismi hunarmandchilik, mayda savdogarlik, yollanma mehnat (mardikorchiilik) bilan shug'ullangan. 30 %ga yaqin aholi dehqonchilik bilan band edi. Marg'ilon hududida ko'plab durodgorchilik, to'quvchilik, temirchilik, etikdo'zlik, tikuvchilik ustaxonalari joylashgan bo'lib, ular mahalliy bozor yoki aholining buyurtmalarini bajarar edi. 160 ga yaqin ipak kolavochi va 890 atrofida ipak to'quvchi korxonalar shoyi atlas tayyorlashar va ularning aksariyat qismi chetga chiqarilar edi. 1911 yilga kelib, hunarmandchilik usulida tayyorlangan 1028000 so'mlik shoyi chetga sotilgan. Shahar aholisining asosiy qismi ipak qurtini ko'paytirib, boqish bilan shug'ullanar edi. Bu sohada ko'proq ayollar mehnatidan foydalanilgan. Masalan, 1901 yilda shaharda 9669 uy bekasidan 1638 tasi (16.9%) ipak qurti boqish bilan shug'ullangan.<sup>24</sup>

Marg'ilon shahri to'rt dahaga bo'lingan bo'lib, ularda 5856 ta xonadon mavjud bo'lgan.

1. Qalandarxona dahasi, unda 1717 ta xonadon;
2. Mashad dahasi, 1264 ta xonadon;
3. Sofulto'da dahasi, 1295 ta xonadon;
4. Toshmozor dahasi, 1580 ta xonadon bo'lgan.<sup>25</sup>

Ta'kidlash kerakki, har bir hudud oqsoqol tomonidan boshqarilar va ular alohida mahallalarga bo'linib, shaharda mahallalar soni 361 tani tashkil etib, mahallalarni ellikboshilar boshqarganlar. Huquqiy munosabatlar esa to'rtta qozi tomonidan amalga oshirilar edi. Shahardagi quyi boshqaruv tizimi garchan ana shunday tartibda olib borilgan bo'lsada, aslida ular ustidan nazorotni Chor

<sup>23</sup> Jadval Obzor Ferganskiy oblasti za 1892, 1897, 1898, 1900, 1906, 1910, 1911, 1913 i 1914 gg. va Rossiya Federatsiyasi MDXT arxivi, 400-fond, 263/916a-ro'yxat,137-ish, 15-varaqlar asosida tuzilgan.

<sup>24</sup> Palen. K.K. Materiali k xarakteristkie narodnogo xozyaystva v Turkestane. Chast I, otd.2.CPB.,1911.-C.160

<sup>25</sup> O'zRMDA, 19-fond, 1-ro'yxat,1170-ish, 112, 114-varaqlar

hokimiyatining politsmeystrlari, uchastka pristavlari va uezd boshlig'i olib borgan va boshqargan.

1913 yilga kelib, Marg'ilon shahri hududi 29 kv. metrni tashkil etgan edi. Aholi istiqomat qiladigan uylarning asosiy qicmini xom g'isht, guvaladan qurilgan, tomi qamish, ba'zida loysuvoq qilib yopilgan, oynasi yo'q, kichik derazalari hovli tomonga qaragan kulbalar tashkil qilar edi. Tor, qing'ir-qiyshiq, dov-daraxtsiz, aksariyat hollarda ariqlari yo'q ko'chalarning umumiy uzunligi 5, 5 km. dan iborat edi.

Marg'ilon shahrida XX asr boshida 25 ta madrasa, 56 ta o'g'il bolalar va 25 ta qizlar uchun boshlang'ich maktablar faoliyat yuritgan. Maktablarda 1245 ta o'g'il bola, 330 ta qiz ta'lim olgan. Bu maktab va madrasalar mahalliy sarmoyadorlar homiyligi, vaqf mulklaridan kelgan daromad hisobidan ta'minlanib, ta'mirlab turilgan.<sup>26</sup>

Marg'ilon shahrida paxta tozalash, yog'-moy va ko'n zavodlari kabi sanoat korxonalari paydo bo'la boshladi. Chunki, viloyatda bo'lgani singari Marg'ilon uezdida ham yangi Amerika navli paxtani ekish maydonlari kengayib bordi. Masalan, 1891 yilda 9639 desyatina yerga Amerika navli paxta ekilgan holda 4116 desyatina yerga mahalliy paxta ekilgan. 1897 yilda mos ravishda 34000 va 5000 desyatini tashkil etgan.<sup>27</sup> Marg'ilon uezdi Farg'ona viloyatida paxta yetishtirish bo'yicha Andijon uezdidan keyin 2-o'rinda turgan.

Marg'ilonida birinchi paxta tozalash zavodi 1888 yilda qurilgan bo'lib, bu zavod Mirmahmud Mirsaidboevga tegishli edi. Zavodda paxtani chigitidan ajratib beruvchi 4 ta dastgoh mavjud bo'lgan.<sup>28</sup>

Marg'ilon uezdida yildan-yilga zavodlar soni ortib bordi. 1892 yilda Marg'ilonida 14 ta paxta tozalash zavodlari bo'lib, ularda 208 nafar ishchi mehnat qilgan. Bu zavodlarda asosan suv dvigatellaridan foydalanilgan.

1893 yilga kelib paxta tozalash zavodlarining soni 15 taga yetgan va bu korxonalarda 286 nafar ishchilar ishlaganlar.

1897 yilga kelib Marg'ilon uezdi bo'yicha paxta tozalash zavodlarining soni 27 taga yetgan edi. Ularning ichida mahalliy zavodchi boylar Madg'oziboy Azizbekov, Saidahmad G'iyosxo'jaevlarga tegishli zavodlar ishlab chiqarish hajmi jihatidan yirik hisoblanar edi.

XIX asrning 80 yillaridan boshlab Farg'ona viloyatida yog'-moy ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari ham vujudga kela boshladi. 1905 yilga kelib Marg'ilon shahrida Marg'ilon (Gorchakova) stantsiyasi yaqinida mahalliy zavodchi boy Saidahmad G'iyosxo'jaev tomonidan yog'-moy zavodi qurib ishga tushirildi. 1908 yilda Farg'ona viloyati bo'yicha yog'-moy zavodlarining soni 13 taga yetdi. 1909 yilda Farg'ona viloyatidagi yog'-moy zavodlari 9500000

<sup>26</sup> Ziyayeva D. O'zbekiston shaharlari XIX asrning II yarmi – XX asr boshlarida. Toshkent, 2003. -93 bet.

<sup>27</sup> Obzor Ferganskoj oblasti za 1891 i 1897 gg. Noviy Margelan, 1894 i 1899. -C.6,7,8.

<sup>28</sup> Shu joyda, za 1897 g. Noviy Margelan, 1899. -C.76.



pud chigitni qayta ishlagan bo'lsa, shundan 4500000 pud Marg'ilon shahri va uezdi zavodlari hisobiga to'g'ri kelgan.<sup>29</sup>

XIX asr boshlariga kelib Marg'ilonda quyidagi sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda edi. 10 ta teri zavodida 30 ta ishchi, 12 ta g'isht zavodida 36 ta ishchi, 402 mahalliy moyjuvozlarda 410 ta ishchi, 13 ta sham tayyorlash korxonalarida 27 ta ishchi ishlamoqda edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, vujudga kelgan sanoat korxonalarining hammasi deyarli yarim kustar xarakteriga ega bo'lib, asosan, bu zavodlar arzon ishchi kuchi yordamida Markaziy Rossiya sanoati uchun xom ashyo tayyorlash maqsadida qurilgan edi. Bu umumiy mustamlaka mamlakatlariga xos bo'lgan taraqqiyot ko'rinishi edi. Chunki, chekka o'lkalarda markazlashgan sanoatning vujudga kelishi va ishchilar sinfining yirik ishlab chiqaruvchi korxonalariga birlashishi, uyushuvi podsho hukumatining manfaatlariga butunlay zid edi.

Korxonalarda texnika xavfsizligi va ishchilar sog'lig'ini saqlashga hech qanday e'tibor berilmagan. Shu sababli ish jarayonida baxtsiz hodisalar tez-tez ro'y berib turgan.

### **Sovetlarning "katta terror" siyosati davrida Farg'ona vodiysidagi diniy ulamolar qismati**

*Ahmadjon Salmonov, FarDU tarix kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi.*

*Dilshodbek Yusupov, FarDU O'zbekiston tarixi magistranti.*

Sovet hokimiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy siyosati sohasidagi ma'muriy-buyruqbozlik tizimini qaror toptirishga qaratilgan keskin o'zgarishlari jamiyatda barcha tabaqalar singari diniy ulamolarga ham katta zarba berdi. Dindorlar va din ahllariga qilingan oshkora tajovuz uzoq vaqt o'zlarini o'nglay olmaydigan darajada salbiy ta'sir qildi. Ayniqsa, 1937-1938 yillardagi ommaviy qatag'onlar davrida diniy ulamolar katta jabr ko'rdilar. Yuqorida ta'kidlangan jarayonlar davomida ma'muriy buyruqbozlik tizimi va shaxsga sig'inishning kuchayishi tufayli barcha ijtimoiy qatlam vakillari singari diniy ulamolarning ham hayoti qattiq iskanja ostida qoldi.

Sovet hokimiyati o'zining salbiy natijalarini bergan islohotlarini o'tkazar ekan, jamiyatda kishilarning islomiy ma'naviyat ta'sirida asrlar osha yashab kelayotgan his-tuyg'ularini oyoq-osti qildi.

Sovet huquq-targ'ibot idoralari tergov jarayonida hech qanday aybi bo'lmagan, o'zining insoniy sha'ni va haq-huquqlarini talab qilib chiqqan diniy ulamolarning ko'pchiligini oliy jazo - otuvga hukm qilgan. Jumladan, 1930 yil 27 oktyabrdagi "uchlik" yig'ilishining 5054-sonli ishida Nosirxonto'ra Kamolxonto'raevning taqdiri bayon qilingan. Unda Nosirxonto'ra

<sup>29</sup> Dehqonov A.Revolutsiyadan oldingi O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarish tarixidan //O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1978, 10 son.-45 bet

Kamolxonto'raev (56 yoshda, tojik, boy, xo'jaligi tugatilgan, mashhur mudarris, Qo'qon muxtoriyati hukumatining sobiq vaziri, Namangan ruhoniya idorasida ham raislik qilgan, 1925-1928 yilgacha sovetlarga qarshi faoliyati uchun surgunda bo'lgan) ishi ko'rib, otuvga hukm qilindi deb yozilgan.<sup>30</sup>

Bu kabi ma'lumotlarni ko'plab keltirish mumkin. Aksilinqilbiy targ'ibot yuritgan, terrorchi, ommaviy chiqishda ishtirok etgan kabi o'nlab ayblar bilan Farg'ona vodiysida yashagan vatandoshlarimiz O'rta Osiyo qamoqxonalarda 1930 yil iyuniga qadar 51 nafar ulamo aynan bosmachilarga sheriklikda, 59 ta ulamo josuslikda, 1 ta ulamo nolegal chegaradan o'tishda va 1 ta ruhoniya soxta pul chiqarishda ayblanib, tergov berishga majbur bo'lgan.<sup>31</sup>

Sovet hokimiyatining jazo idoralari Respublikaning barcha viloyatlari singari Farg'ona vodiysida yashagan musulmon ulamolari hisoblanmish imom, eshon, so'fi, qori, mudarris, mutavalli, shayx kabilarning aniq ro'yxatini olish, ular haqida ma'lumot to'plash, avval kim bo'lgan, nima ishlar bilan shug'ullanganligi haqida ichki ishlar nazorat organlari tomonidan taftish ishlari ham olib borilgan. Farg'ona viloyat xalq sudining 1940 yilda 13 ta diniy ulamolar ishi yuzasidan hukm qilgan qaroriga asosan 8 kishi turli muddatlarga qamoq jazosi belgilanganligi, 5 kishiga esa yengil jazo choralari qo'llanilganligi ta'kidlangan. Ushbu ishni qayta ko'rib chiqish, jazo choralari kuchaytirish, ayniqsa, Qo'qondagi turli masjidlarda imomlik qilgan Obid Mirzoxidov, Yusufboev, Mirzaboy Qoraboev kabilarning 1938-1940 yillardagi faoliyatini chuqurroq o'rganish vazifasi topshirilgan.<sup>32</sup>

Ulamolarni qatag'on qilish omillaridan biri sifatida ularni davlat tomonidan berilayotgan nafaqalardan mahrum qilish vositasi ham qo'llanilgan. Farg'ona viloyat sog'liqni saqlash bo'limi dinga qarshi targ'ibot bo'limining hisobotida 1938-1940 yillarda Marg'ilon shahrida 45 nafar ulamolar davlat hisobidan nafaqa olishi, Qo'qon shahrida ham 50 ga yaqin dindorlar nafaqaxo'rliqi qayd qilinib, ularni davlat nafaqasidan mahrum qilish haqidagi qaror qabul qilingan.<sup>33</sup>

Diniy ulamolar va dindorlarga qarshi kurash, ularning belgilangan soliqlarni o'z vaqtida to'lamaganligi aybi vositasi bilan ham olib borilgan. Bunday ulamolar ishi joylarda Xalq sudlari hukmiga topshirilgan. 1939 yil Farg'ona viloyatining №18 bo'limiga qarashli Xalq sudida 68 nafar diniy ulamolar ishi ko'rib, ularga 79 456 so'mlik soliqni to'lamaganlik aybi yuklatiladi. 1940 yilning birinchi yarmida moliyaviy tashkilotlar tomonidan 61 nafar ulamo 129 586 so'm soliq to'lamaganligi aniqlandi. 1940 yilning 20 iyunida viloyat Xalq sudida 126 kishining ishi ko'rib, ularning barchasi ulamolardir,<sup>34</sup> deb ma'lumot beriladi arxiv hujjatlarida.

1940 yilda respublikaning eng yirik viloyatlaridan biri bo'lgan Farg'onada 3 000 dan ortiq ulamolar ro'yxatga olingan. Ularning ko'pchiligi Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan, Chust, Asaka, Quva kabi shaharlarda yashirin

<sup>30</sup> O'sha asar. -177-b.

<sup>31</sup> O'sha asar. -183-b.

<sup>32</sup> O'zR PDA FVB, 1-fond, 6-ro'yxat, 70-ish, 44-varaq.

<sup>33</sup> O'zR PDA FVB, 1-fond, 6-ro'yxat, 68-ish, 8-varaq.

<sup>34</sup> O'zR PDA FVB, 1-fond, 6-ro'yxat, 68-ish, 8-varaq va orqasi.

yoki ochiq faoliyat olib borayotgan masjid imomlari, muhalla mullalari, qori va otinbibilar bo'lib, soliq yuki tufayli ba'zilar o'z diniy vazifalaridan voz kechib, dehqonchilik yoki hunarmandchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lganlar.

1939 yilda Farg'ona viloyatidagi 316 nafar ulamoga 621 511 so'm soliq solingan bo'lsa, 1940 yilda ulamolarning 367 nafari soliqqa tortilgan va ularning zimmasiga 798 754 so'm to'lashlik majburiyati yuklatilgan.<sup>35</sup>

Ayrim shahar va tumanlarda barcha masjidlar yopib qo'yilganligi sababli aholining dindor qatlami yashirin ravishda uylarida ibodat qilishar edi. Hatto, partiya va sovet organlarida faoliyat olib borayotgan shaxslarning farzandlariga hatna marosimini o'tkazish eskilik sarqiti sifatida tanqid ostiga olindi.<sup>36</sup>

Yuqoridagi voqealarda sovet hokimiyatiga qarshi hech qanday jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan hatoliklar mavjud bo'lmasa ham masalaga siyosiy ruh berilganligini aytib o'tish joiz.

Musulmon ulamolarini qatag'on qilish omillaridan yana biri, hukumat rahbarlarining joylardagi sovet mahalliy boshqaruv idoralari a'zolari tomonidan shaxsiy adovat tufayli ham sodir etildi. Hokimiyatni adolat bilan boshqarmaganligi, poraxo'rliqi, axloqiy buzuvchiligi, ikkiyuzlamachiligi uchun ba'zi diniy ulamolardan tanqidga uchragan mutasaddi rahbarlar vaqti kelganda, bunday ulamolardan o'ch olish holatlari ham uchrab turgan. Diniy ulamolarga yoshlarga diniy ta'lim berib ularni noto'g'ri yo'lga boshlayotganligi, chalg'itayotganligi kabi asossiz ayblar ham qo'yilgan. "Farg'ona viloyat Norin tumanidagi Katta-yoydoq qishlog'ida yashovchi Meliboy xalfa ayni damda hech qerda ishlamasdan, yoshlarni diniy targ'ibot bilan yo'ldan urmoqda, ba'zilardan pul olib tumor qilib bergan. Shuningdek, ko'plab har xil yoshdagi odamlarni uyiga to'plab diniy suhbatlar uyushtirgan. Uni ta'sirida qishloqda ro'za tutuvchilar ko'payib ketgan",<sup>37</sup> – degan aybnomalarni ko'plab uchratishimiz mumkin.

Shuning uchun qatag'onlik siyosati avj olgan 1937-1938 yillarda musulmon bayramlarini o'tkazish, Qur'oni Karim, Xadisi sharifni mutoala qilish, islom dini bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlarini bajarish yashirin ravishda o'tkazilgan. Bunday tadbirlarda, beg'araz yig'inlarda, ma'rakalarda to'planganlar, ulamolar bilan muloqotda bo'lganlar haqida xabar berilsa, ular albatta, aksilinqilobiy tashkilot majlisi ishtirokchisi sifatida hibsga olingan. Ulamolarni jamiyat a'zolari safidan o'chirish, ularni o'zlari yashab turgan joylardan badarg'a qilish, quloqlashtirish vositalari qo'llanilgan.

Ulamolarni kolxozlardan haydash, saylov huquqidan mahrum qilish, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishga majbur qilish kabi chora tadbirlarini qo'llash kabi qatag'onlik siyosati ham qo'llaniladi.

Xullas, XX asr 30-40 yillarida diniy ulamolar "bosmachilik"ka ko'maklashgani, ularni yashirgani, aksilinqilobiy harakatlarda ishtirok etgani, sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibot yuritgani, kolxozlar tuzishga qarshi chiqqani,

<sup>35</sup> O'zR PDA FVB, 1-fond, 6-ro'yxat, 32, 68-i., 15, 39- 40-varaqlar.

<sup>36</sup> O'zR MDA, 837-fond, 32-ro'yxat, 1859-ish, 100-varaq.

<sup>37</sup> O'zR PDA FVB, 1-fond, 6-ro'yxat, 70-ish, 116-varaq.

qo'poruvchilik qilgani, diniy marosimda qatnashib soliq to'lamagani, yashirin tashkilotlarda ishtirokchiligi, diniy marosimlarni boshqargani kabilar ro'kach qilinib, qatag'onlik girdobiga tortildi.

## **Harbiy xizmat tarixidan**

*Saydullayev Azamat,*

*Nam DU 101-guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: katta o'qituvchisi*

*Sh. Abdullayev*

Bizga ma'lum dunyo yaratilibdiki tez-tez urushlar bo'lib turgan. Shuning uchun har bir davlat o'z armiyasini doimiy, zamon ruhiga mos tarzda rivojlantiradi. Dunyodagi birinchi armiya miloddan avvalgi 3- mingyillikda Sargon I davlatida tuzulgan. Unda 5400 nafar jangchi faoliyat olib borgan. Bizga malum XVI-asrda xonliklar davrida harbiy texnikadan ortda qola boshladi. Bundan foydalangan Podsho Imperiyasi yurtimizni egalladi. Endi savol tug'uladi podsho Rossiyasi va Sovet mustamlakachiligi davrida o'zbek o'g'lonlari armiyaga borganmi? 1885-yilda Podsho Rossiyasi butun O'rta Osiyoni zabt etdi. Endilikda O'rta Osiyo jumladan O'zbek o'g'lonlarini armiya xizmatiga jalb qilish haqida fikr mulohazalar boshlandi. Podsho Nikolay II bu masala yuzasidan. O'rta Osiyoga vakil qilib janob Girsni yubordi. Tekshiruvlardan so'ng quyidagi qarorga kelindi. O'rta Osiyo jumladan o'zbek yigitlarini armiyaga chaqirish qaltis ekanligi chunki ayni paytda ruslarga nisbatan agressiv kayfiyatning mavjudligi, bundan tashqari O'rta Osiyo yigitlarini o'qotqar qurollarni ishlatish san'atini egallashi, nohush oqibatlarga olib kelishi mumkinligi tufayli armiyaga chaqirmaslik siyosati olib borilgan. Bu orqali O'rta Osiyo o'g'lonlarining jangovor ruhiyatini butunlay yo'qotish kabi g'arazli niyatlar bor edi. Ammo bu niyat uzoqqa cho'zilmadi, chunki 1914-yilda birinchi jahon urushi boshlandi. Bu urushda podsho imperiyasi Antanta tomonida turib urush olib bordi. Lekin katta talofat ko'rdi. Ahvol og'ir edi, 1916-yil 25-iyun kuni Nikolay II rasmiy farmon berib 19 yoshda 43 yoshgacha bo'lgan Sibir, Kavkaz va Turkiston yigitlarini front ortidagi xizmatlar uchun jalb qilinishi haqida farmon berdi<sup>38</sup>. Bu safarham O'zbek yigitlari jangga emas aksincha mardikorlik ishlariga jalb etildi. Natijada 1-jahon urushi Rossiya imperiyasi uchun mag'lubiyat bilan tugadi. Bu ham yetmagandek davlat to'ntarilishi bo'ldi va hokimiyat Lelin boshchiligidagi kommunistlar qo'lga o'tdi. Ular qaram xalqlarga murojat etib, fuqarolar qo'ynini puch vadalarga to'ldirib tashladi. Mardikorlikka olish jarayonida ham adolatsizlikka yo'l qo'yidilar. Jumladan mardikorlikka olish to'g'risidagi farmonga muvofiq Turkiston hududining Sirdaryo viloyatidan 87000, Samarqandan 38000, Farg'ona vodiysidan esa 50000 kishi olinishi belgilandi. Lekin mardikorlik ro'yhatini tuzishda adolatsizliklarga yo'l qo'yildi. Jumladan boy xonadondan 3-4 erkak bo'lsada pora evaziga mardikorlikka olinmas edi. Ammo bechora

<sup>38</sup>A Muhammadjonov.9-sinf O'zbekiston tarixi Toshkent 2014 y 101-bet

kambag'al oila xonadonidan 1 ta erkak bo'lsa ham mardikorlikka yani frontga majburan olinar edi. Shunday qilib 1939-yil 1-sentabr kuni 2-jahon urushi boshlanadi. Bu paytda O'zbekiston 1922-yil 30-dekabrda tuzilgan SSSR tarkibida edi<sup>39</sup>. Bu safar o'g'lonlarimiz bevosita janglarda ishtirok etdi. Omon Umarov, Kamoljon Turg'unov Zebo G'aniyevalar qaxramonliklar ko'rsatdi. Bu janglarda 1 000 000 dan ortiq o'zbek o'g'lonlari halok bo'ldi. Ularning jasadlari uzoq joylarda kafansiz qolib ketdi. Fashist gazandalariga qarshi urush butun dunyo boshiga katta musibatlarni soldi. Ko'plab janglarda o'zbek o'g'lonlari qaxramonliklar ko'rsatdi. Axir ular yarim asrdan beri tuzukroq harbiy ta'lim ko'rmayotgan edi-ku. Shunday bo'lsada ular isbotladi O'rta Osiyo o'g'lonlari harbiy ta'limsiz ham bemalol dushmanga qarshi mardonavor kurasha oladi. Chunki bizlarga mardlik ota-bobolarimizdan o'tgan bo'lib qon qonimizga singib ketgan. Janglardan oldin "Stalin" nutq so'zlagan edi. O'rtoq musulmonlar uyg'oning yurtigingizga qonxo'r fashistlar bostirib kelyapti, agar ular sizlarni yengsa ortigingizda qolgan onangiz, opa-singillaringiz va yoringizni toptamaydimi? Ona vataningizni ularga qanday berib qo'yasiz degandi. Stalin bilardi musulmon kishisiga o'xshab onasi, ayoli va vatanini o'z jonidan ham ustun qo'yuvchi boshqa hech bir millat yo'qligini. Urush tugadi SSSR g'olib chiqdi. Endilikda O'rta Osiyo yigitlarini armiyaga jalb etish siyosati biroz o'zgardi. Jumladan yigitlarimiz armiyaga 2 yillik xizmatga jalb etildi. Ammo bu makkor rejalarning davomi edi. Chunki armiyaga chaqirilgan yigitlarning ko'pchiligi yurtidan uzoq bo'lgan hududlar Germaniya, Chexoslavakiya, Ukraina va Rossiya kabi hududlarga jo'natildi. U yerda harbiy ta'limni yaxshi egallamasdan qurulish soxasida tekin ishchi kuchi sifatida foydalanish kuchaydi. Til muammosi, vatan sog'inchi oila muhabbatidan yiroqda o'g'lonlarimiz qanday yashagan bo'lishi mumkin. Ha bizning o'g'lonlarimiz barcha sharoitga moslasha oladi. Biroq endilikda turli xil janjallarda ham hamyurtlarimiz janglar olib borishga majbur bo'ldi.

Masalan 1979-1989-yillarda Sovet-Afg'on urushini olaylik. Bu urush yolg'on tuzum yani kommunist uchun bo'lib o'tdi. Bu janglarga aynan O'rta Osiyo o'g'lonlari safarbar etildi. Natijada ko'plab oilalarda armiyaga bo'lgan qarash yomon tomonga o'zgardi. Chunki armiyaga ketgan ko'plab o'zbek yigitlari Afg'onistonda halok bo'layotgan edi. Axir ota-ona uchun eng yomoni o'g'li balog'atga yetib o'ktam yigitga aylanganda, ko'zga ko'rinib qolganda vafot etsa bormi bu eng og'ir dard axir. Ota-ona uchun bundan yomoni bo'lmasa kerak pahlovoni o'lib ketdi, ota-onasi uning to'yini, undan tug'iladigan nevarasini ko'ra olmadi. Endi kim uchun yashaydi ota-ona

Statistik malumotlarga qaraganda 1989-yilning o'zida O'zbekistonga 430ta tobut keldi<sup>40</sup>. Adolat doim g'alaba qozongan. Bu safar ham shunday bo'ldi. 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston ozod, mustaqil respublika deb e'lon qilindi. Bu voqealarni amalga oshishi I. A. Karimovning xizmatlari benihoyat

<sup>39</sup>Q Usmonov O'zbekiston tarixi. Toshkent 2006 y 65-bet

<sup>40</sup>I. Karimov O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent 2012 y53-bet

katta. O'zbekistonning birinchi prezidenti chinakam qahramonlik ko'rsatgan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng armiyada islohatlar o'tkazila boshladi. 1991-yil 25-avgust kuni O'zbekiston hududidagi barcha harbiy muassasalar O'zbekiston tarkibiga o'tkazildi va prezidentga bo'ysindirildi. Armiyani tartibga solish uni yanada rivojlantirish lozim edi. I. A. Karimovning eng katta yutug'i sobiq SSSR parchalangandan so'ng O'zbekiston hududidagi barcha harbiy muassasalar va harbiy qurollarni O'zbekiston hududida saqlab qolgani bo'lgan. Barchaning yodidan 1991-yil Farg'ona voqealari, 1999-yil Toshkent voqealari chiqqani yo'q. O'shanda yurtimizda ko'plab terroristik portlashlar bo'lib o'tgan. Islohotlarga keladigan bo'lsak yigitlarimiz endi uzoq o'lkalarda sarson sargardon bo'lib yurmasdan, harbiy xizmatni bevosita O'zbekistonda o'tay boshladi. Ularga harbiy ta'lim malakali mutaxassislar tomonidan o'rgatildi va natija o'zini oqladi. 2004-yildan O'zbekiston hududida hech qanday qo'poruvchilik harakatlari amalga oshirilmagan. Chegaralarimizning mustahkamligi armiyamiz salohiyatining juda ham baland ekanligidan dalolat beradi. Askarlarimiz eng zamonaviy qurol-yarog'lar bilan qurollangan. Bundan tashqari shartnoma asosida armiyada qolgan yigitlarga barcha sharoitlar yaratilgan. Oilali askarlarga alohida uy, farzandlari uchun maktabgacha ta'lim muassasi va maktablar qurilgan. Oylik maoshlari o'z vaqtida beriladi. Birinchi prezidentimiz I. A. Karimov tashabbusi bilan harbiy xizmat 2003-yildan boshlab 18 oydan 12 oyga tushurildi<sup>41</sup>.

Bugungi kunda O'zbekiston O'rta Osiyodagi yagona o'z hududini terrorizm va diniy ekstremizmdan himoya qila oladigan mamlakatdir. Bu faktlarni AQSh Tashqi Ishlar Vaziri butun dunyoga e'lon qildi. Qo'shni davlatlarimizda bugun ahvol juda yomon, Tojikistonda aholining yashash sharoiti yahshi emas, Qirg'izistonda ham diniy ekstremizim va narkobiznes havfi mavjud. O'zbekiston tangrining nazari tushgan hudud. Shuning uchun tarixda ham biz yashagan hudud barchani o'ziga rom etib kelgan. Har qadamda O'zbekiston tinchligini ko'ra olmaydiganlar ham uchrab turibdi. Birinchi prezidentimiz aynan shu tinchlik uchun harbiy sohaga katta mablag'ni jalb etdi. Xususan Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Urganch shaharlarida harbiy mutaxassislikka tayyorlaydigan litseylar ochildi. Toshkent Ichki Ishlar Akademiyasi, Toshkent Umumqo'shin Qo'mondonlik Komandirligi, Jizzax Harbiy Havo Kuchlari oliy harbiy bilim yurti va Toshkent Axborot texnologiyalar universitetining maxsus fakultetlari 28 yo'nalishda malakali kadrlarni yetkazib bermoqda. Chegaralarimiz daxlsizligi uchun harbiy okruglar tuzuldi. Bular shimoliy-g'arbiy harbiy okrug (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm) bo'lib okrug shtabi Nukus shahrida joylashgan. Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugi (Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo va Surxondaryo) viloyatlari bo'lib okrug shtabi Qarshi shahrida joylashgan. Markaziy harbiy okrug (Samarqand, Jizzax, Sirdaryo) viloyatlari bo'lib okrug shtabi Jizzax shahrida joylashgan. Bugungi kunda Markaziy harbiy okrug tugatilgan. Navbatdagi harbiy okrug Toshkent harbiy okrugi (Toshkent shahri va Toshkent) viloyati bo'lib okrug

<sup>41</sup>Q Usmonov O'zbekiston tarixi. Toshkent 2006 y 190-bet

shtabi Toshkent shahrida joylashgan. Sharqiy harbiy okrug (Andijon, Namangan, Farg`ona) viloyatlari bo`lib okrug shtabi Marg`ilon shahrida joylashgan.

O`zbekiston Respublikasi o`z qurolli kuchlarini tuzishda BMTning huquqiy meyorlarini, YHHTning Xelsinki yakunlovchi akti kabi halqaro hujjatlarning barcha talablariga rioya qildi. 1992-yil 3-iyulda prezident farmoniga muvofiq Mudofa ishlari vazirligi Mudofa vazirligiga aylantirildi. 1993-yil 29-dekabrda Vatan himoyachilari kunini belgilash to`g`risidagi qonuniga binoan 14- yanvar Vatan himoyachilari kuni deb e`lon qilindi. Umuman mustaqillik yillarida prezidentimizning har tomonlama chuqur o`ylangan siyosati bois, mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz dahilsizligini ximoya qilishga qodir, ilham, tezkor, zamonaviy qurol- yarog` va harbiy texnika bilan qurollangan milliy armiyamiz shakllandi. Qurolli kuchlarni boshqarishning yangi tizimi yaratildi, qo`shinlarning tuzilishi va jangovar tarkibi, tashkiliy- shtat qurilishi tubdan o`zgardi.

### **Nemis tilidagi sifatlarning turlanishini o`rgatish muammolari**

*Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi,  
Farg`ona politexnika intituti assistent*

Mark Tven nemis tilini o`rganar ekan, uning qiyinchiliklarini ko`p bor tilga olar edi. Ammo ko`p vaqt o`tmay u nemis tilida shunday shox asarlarni yozdiki, uni hech kim ona tilisi boshqa odam yozgan deb ayta olmaydi. Shunday ekan har qanday tilni o`rganishda qiyinchiliklarga bosh egmay, olg`a yurish masalasi muhimdir. Shunday qiyinchiliklar qatoriga nemis tilidagi sifatlarning otlar bilan birgalikda turlanishi hodisasini ham keltirish mumkin. Xo`sh, bu muammoni qanday hal qilish mumkin. Quyida aynan shu mavzuga doir fikrlarni berib o`tmoqchiman. Men qachonki o`quvchi/talabalarimga sifat qo`shimchalarini o`rgatishga kirishsam, bu mavzuni yaxshi o`zlashtirib olganimdan xursand bo`lib ketaman. Bu mavzu nemis tilini boshlang`ich darajada o`rganishning bir muncha qiyin qismi deb aytilish mumkin. Shu paytgacha bu mavzuni qiyinchiliklarsiz o`rgangan til o`rganuvchini uchratmaganman. Ko`pincha biz o`qituvchilar nemis tili o`rganuvchilarga bu mavzuga doir 3 ta yoki 4 ta jadval beramiz. Til o`rganuvchilarimiz esa bularni yod olishlari kerak. Darsliklarda ham mavzuni o`rganishga doir yaxshi ma`lumotlar deyarli uchramaydi. Ammo bugungi kunga kelib, darsliklarda quruq jadvallarni berishga qarshi fikrlar paydo bo`lyapti. Ularning o`rniga esa turli qiziqarli vositalarni o`ylab topishga harakat qilinmoqda.

O`rta darajadan boshlab esa, darsliklarda oddiygina 3 yoki 4 ta jadval faqat „esga olish“ uchungina keltiriladi. Quyida ham 3 ta shunday jadval keltiriladi, ularga qarab aytingchi, shunday qilib sifatning ot bilan turlanishini o`rganish mumkinmi?

**Jadval 1. Adjektivendungen mit bestimmten Artikel /sifat qo`shimchalarini aniq artikl bilan kelishi:[2. 116]**

	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>f</i>	<i>Pl</i>
Nominativ	e	e	e	en
Akkusativ	en	e	e	en
Dativ	en	en	en	en
Genitiv	en	en	en	en

**Jadval 3: Adjektivendungen ohne Artikel /sifat qo'shimchalarini artiklsiz kelishi:[2. 117]**

	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>f</i>	<i>Pl</i>
Nominativ	er	es	e	e
Akkusativ	en	es	e	e
Dativ	em	em	er	en
Genitiv	en	en	er	er

Aytingchi, bu usul va jadval yordamida sifatlarning turlanishini o'rganib olish osonmi? Mening fikrimcha esa, bu usul juda samarasiz bo'lib, bu yo'l bilan faqat bilimi kuchli, oson o'zlashtiruvchi til o'rganuvchilargina natijaga erishishlari mumkin. Nemis tilini o'rganuvchilar, sifatlarning turlanishini faqatgina yodlab qolmasdan, ularni tushunishni hamda u qanday ishlashini bilishni xoxlashadi. Agar jarayon qay tarzda kechayotganini tushuna olsalar, yodlash ham oson bo'ladi. Buning uchun til o'rganuvchilarga ma'lum printsiplar kerak bo'ladi. Bu printsiplarni 2 tasini ko'rsatib o'tmoqchiman, agar siz ularni tushuna olsangiz keyinchalik siz bilan nemis tilidagi sifatlarning borasida muammolar kam uchraydi. Siz nemis tilidagi otlar hamisha ma'lum bir kelishikda (Nominativ/bosh kelishik; Dativ/jo'nalish kelishigi; Akkusativ /tushum kelishigi) kelishi sizga ma'lum. Nemis tili grammatikasida kelishik qo'shimchasini aniq artikl bilan ko'rsata olishimiz ham ma'lum. Shunga asoslangan holda:

1. Kelishik qo'shimchalari aniq artikllardagi „*t*“ harfini olib qo'ysak hosil bo'ladi: Buni quyidagi jadval asosida ko'rib olishingiz mumkin:[2. 124]



	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>f</i>	<i>Pl</i>
Nominativ:	der	das <sup>e</sup>	die	die
Akkusativ:	den	das <sup>e</sup>	die	die
Dativ:	dem	dem	der	den
Genitiv:	des	des	der	der

Bu kelishik qo'shimchalari sifat bog'lanib kelgan so'zda ham turishi mumkin. Bu holat kuchli turlanish deb ataladi. Kuchli turlanish qo'shimchalari har doim kelishikni ko'rsatib turadi.

Tildagi turli grammatik hodisalarni faqat qoidalar bilangina o'rganib yoki o'rgatib qolmasdan, biroz kreativ yondashish dars samarasiga ijobiy ta'sir qiladi.

## Milliy g'oya fanini o'qitishda samaradorlikini oshirish – bugungi kun talabi

*B. Tillayev*

*Nam DU katta o'qituvchisi*

Bugungi kunda milliy g'oyaga e'tibor, uni aholi, ayniqsa yosh avlod ongiga singdirib borish dolzarb vazifalardan biri bo'lib turibdi. Milliy ma'naviyatimizni va ma'naviy o'zligimizni turli buzg'unchi mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda milliy g'oyadanda kuchliroq va samaraliroq omil yo'q. Chunki, milliy g'oya millatning o'zligini turli tashqi mafkuraviy tazyiqlardan himoyalay oladigan, ularga qarshi dosh bera oladigan ma'naviy asos bo'la oladi.

Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov ta'biri bilan aytganda, erkin fuqaro, ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs ma'naviyatini kamol toptirish bizning bosh milliy g'oyamiz bo'lishi zarur. Milliy g'oya, milliy tafakkurni shakllantirmay, ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish, odamlarning ongini o'zgartirish, ularni umumbashariy maqsadlar sari yo'naltirishdek murakkab ijtimoiy vazifalarni yechish mumkin emas<sup>42</sup>.

Ayni paytda milliy g'oyani yoshlar ongi va qalbiga singdirib borish dolzarb vazifaga aylanganligi bejiz emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida» gi PQ 451-sonli qarorida ta'kidlanganidek, "...xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy hurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish,

<sup>42</sup>.Karimov I.A. Xushyorlikka da'vat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Milliy axborot agentligi muhbirining savollariga javoblari. Toshkent. «O'zbekiston» nashriyoti, 1999 y.

yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoqishda hayotimizga xavf tug'dirish mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi ushbu sohadagi ishlarni, jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining faoliyati va tarkibiy tuzilishini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda"<sup>43</sup>.

Endigi galdagi vazifa – milliy g'oya fanini o'qitish samaradorligini oshirishdir. Chunki, har qanday buzg'unchi g'oya, u qanchalar ko'zga ko'rinmas darajada kichik hajmda bo'lmasin, unga nisbatan beparvolik qilinsa, juda katta ijtimoiy ofatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yoshlar ongida nafaqat mafkuraviy mazmun, balki, ularning turmush tarzidan chuqur o'rin egallagan taqdiridagina moddiy kuchga aylanadi. Buning uchun, o'quvchilarga faqat «Milliy istiqloq g'oyasi; asosiy tushuncha va tamoyillari» fanini o'qitish bilangina cheklanib qolmaslik kerak. Ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan barcha fanlarni o'qitish jarayonida, mutaxassislik fanlari mavzularini, ularda bayon qilinadigan g'oyalarni ham milliy g'oya bilan bog'lib, o'quvchi yoshlarga tushuntirib borish maqsadga muvofiq. Demak, o'quvchi yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirib borishdek o'ta mas'uliyatli ish, nafaqat ijtimoiy fan o'qituvchilarining, balki, barcha mutaxassisliklar bo'yicha dars beruvchi o'qituvchilarning ham vazifasi bo'lmog'i lozim.

Nafaqat ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha, balki boshqa barcha fan mutaxassisliklari bo'yicha chop qilinayotgan darslik, o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarda ham milliy istiqloq g'oyasi aks etishi lozim.

Shu bois dars jarayonlarida interfaol, ta'sirchan usul va vositalar yordamida o'quvchi yoshlarga eng avvalo milliy g'oyaning teran mazmunini, milliy urf-odatlarimizni, buyuk ajdodlarimizning ibratli hayoti va faoliyatini, oila va mahalla tarbiyasi - ma'naviy kamolot poydevori ekanligini o'rgata borib, ularda halollik, poklik, mardlik, sahovat, kamtarlik, insof - diyonat kabi oliyjanob fazilatlarini shakllantirish zarur.

«Milliy g'oya» darslarida o'quvchilar bilimni faollashtirib borish muhim hisoblanadi. O'quvchilarning tanlangan mavzuni puxta o'zlashtirishlariga erishish, ularning mantiqan fikrlash qobiliyatini aniqlash va shu orqali har bir o'quvchining dunyoqarashini kengaytirish, o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini oshirish, guruhdagi har bir o'quvchining o'z fikrini erkin namoyon qilishi uchun imkon tug'dirish, o'quvchilar o'rtasida erkin bahs - munozarani va ularning o'zini o'zi baholashini yo'lga qo'yish, «Milliy g'oya» o'quv faniga ularni yanada qiziqtirish, kengroq jalb etish uchun interfaol o'qitishning «Aqliy hujum», «Sinkveyn», «FSMU», «Charxpalak», «Idrok xaritasi», «Bumerang», «Aql charxi», «Tushunchalar tahlili», «Vendiagramma», «Menyu» va shu kabi bir qator samarali usullarini qo'llagan holda bilimlarni faollashtirib olish maqsadga muvofiq. Bu usullarning har biri o'ziga xos tarzda ijobiy natija berishiga shak-shubha yo'q.

<sup>43</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida» gi qarori //Xalq so'zi gazetasi. 2006 yil 26-avgust soni.

Bundan tashqari o'qituvchi dars jarayonida fanlararo bog'lanishni hosil qilishi, milliy g'oya bilan bir qatorda boshqa ijtimoiy gumanitar fanlarga ham o'quvchilarni qiziqtirib, boshqa fanlarni ham chuqur o'rganishga ehtiyojni hosil qilishi maqsadga muvoliq.

Xulosa qilib aytganda, milliy g'oya va mafkuraviy tarbiya –jamiyat a'zolarini, ayniqsa yoshlarni o'zbekistonning buyuk kelajagini barpo qilishda munosib shaxs, komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. shunday ekan, islom karimov ta'kidlab ko'rsatganlaridek, milliy g'oya va mafkura xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bir bayroq sifatida amal qilishiga erishish bugungi kundagi asosiy vazifamizdir. "bu bayroq butun o'zbekiston xalqining ruhini, g'urur va iftixorini, kerak bo'lsa, qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir. davlatimizning, xalqimizning, el-yurtimizning maqsadi o'zining ulug'vorligi, hayotiyligi va haqqoniyligi bilan hammamizni jalb etadigan bo'lmog'i lozim. toki bu maqsad xalqni xalq, millatni millat qila bilsin, qo'limizda yengilmas bir kuchga aylansin"<sup>44</sup>.

### **Shaxs ma'naviy kamoloti masalasida milliy ziyolilarimizning qarashlari**

*Muqaddas Xojiboyeva,*

*Namangan tibbiyot kolleji o'qituvchisi*

Yoshlar tarbiyasida milliy an'analar, urf-odatlar juda kata ahamiyat kasb etadi. Mafkura, farzandlarni jamiyatga sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z rejalariga erishish uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan. Birinchi Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarlarida axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida bolalarni voyaga etkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etganligi ko'rsatib, shunday yozadila: "Bu masalaga e'tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko'pgina hayotiy misollarda ko'rish mumkin"<sup>45</sup>.

Farzandlar o'z taraqqiyot yo'llarini, maqsadlarini milliy g'oya, milliy mafkura orqali belgilab olishga intilishlariga erishish zarur.

Darhaqiqat, o'zbek halqi mustaqillikka tinch yo'l bilan erishgan bo'lsa-da, istiqloq uchun olib borilgan kurashlarning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Mustaqillik sharofati bilangina bu kurashlar tarixini xolisona o'rganishga imkoniyat yaratildi va milliy tariximiz, ma'naviy boyliklarimizni sinfiy, partiyaviy to'siqlar bilan xalqdan ajratib qo'yishdek illatga barham berildi.

Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek: «... o'zbek olimlarining kuch g'ayratlari bilan tariximizning ko'pdan-ko'p g'oyat muhim sahifalari, eng avvalo,... XIX asr oxiri - XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi»<sup>46</sup>.

<sup>44</sup> Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» nurnali. 1998 yil 2-soni.

<sup>45</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-56 b.

<sup>46</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari.-Toshkent: O'zbekiston, 1997.-140-141 b.

Mustabidxilik davrida hukmron kommunistik mafkura ta'sirida o'tmishimizdagi talaygina tarixiy jarayonlar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar kommunistik, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo'ysundirilgan holda soxtalashtirildi, noto'g'ri talqin etildi.

«... O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur...»<sup>47</sup>-ligini I. A. Karimov, alohida ta'kidlab o'tdi.

Hukmron kommunistik mafkura sharoitida jadidChilikni Turkiston xalqlari tarixida tutgan o'rni inobatga olinmadi va u nufuzli ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida tadqiq etilmadi. Aksincha, uni tor doiradagi ma'lum sinflar, guruhlar manfaati uchun xizmat qiluvchi «millatchilik» g'oyasi va «reaktsion» mafkura sifatida isbotlashga urinildi.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o'lkadagi ijtimoiy adolatsizlik, yerlilarni jaholat botqog'ida, qashshoqlikda qoldirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan mustamlakachilik siyosati, mahalliy halq ilg'or fikrli ziyolilarining tabiiy ravishda noroziligini keltirib chiqarar edi. Turkiston Rossiyaning bevosita mustamlakasi bo'lganligi bois, markaziy hududlardagi siyosiy o'zgarishlar bu yerlarga ham sezilarli ta'sirini o'tkazar edi.

Ilg'or ziyolilar Turkiston metropoliyaning hom-ashyo bazasiga aylanishi bilan birga, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jabhalarda jahon taraqqiyotidan ortda qolayotganligini sezidilar. Vatan taqdiri haqidagi bunday o'ylar ohir-oqibatda mustaqillik uchun kurashning o'ziga hos yo'llarini izlab topishni taqozo etdi. Mavjud vaziyatda, ya'ni kuchli siyosiy-harbiy tayanchga ega bo'lgan mustamlakachi hukumat bilan millat kelajagi yo'lida bellashishning yagona yo'li, halqni dunyoviy ilm-fan bilan qurollantirish, halqaro talablar doirasidagi mutaxassislar tayyorlashdan iborat edi. Bu esa o'z o'rnida jadidchilik harakatining kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Shu o'rinda jadid namoyandalari shaxsiy o'rnak masalasida ham ahamiyatli ishlarni amalga oshirganliklarini alohida ta'kidlab o'tish kerak.

Taraqqiyparvarlar kishilarni fidoyi bo'lishga chorlaganlar, bu borada ham o'rnak ko'rsatganlar. Masalan, bepul ta'lim berish, kishilarni bilimli qili shva hokazo. Lekin bu mashaqqatlar ortida xavf-xatar borligini yaxshi bilsalar ham bu yo'ldan qaytmaganlar.

Bu borada Prezidentimizning quyidagi keltirgan misoli o'rindir: «...Ma'rifatchi fidoyi bo'lishi kerak .... XX asr boshidagi ma'rifatChilik harakati haqida gapirgandim. O'sha harakatning namoyandalari boylik uchun maydonga Chiqishdimi? Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat, Tavallolarga maktab ochganlari, xalqni o'z haq-huquqlarini tanishga da'vat etganlari uchun birov maosh to'laganmi? Birov ularga oylik berganmi? Albatta

<sup>47</sup> Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q □□Muloqot.-1998.-№5.-13 b.

yo'q. Ular o't bilan o'ynashayotganliklarini, istibdodga qarshi kurashayotganlari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilganlar. Bilaturib, ongli ravishda mana shu yo'ldan borganlar. ... Chunki, vijdonlari, iymonlari shunga da'vat etgan. ... Tarixni yaxshi bilmasdan turib, yuksak ma'naviyatga erishish mumkinmi? Albatta, mumkin emas!»<sup>48</sup>.

Shuningdek, jadidlar kishilarni ko'plab xorijiy tillarni bilishga da'vat etganlar. Bu borada ular o'zlari ham ko'plab tillarni bilganlar. Masalan, Ishoqxon Ibrat 13 ta tilni, Sayyid Rizo Alizoda 12 ta tilni yaxshi bilgan<sup>49</sup>.

Jadidlar maishiy turmushni isloh qilish masalasini o'rtaga qo'yganlar. O'zlari ham ibratli maqolalar nashr ettirib, ibratli ishlarni amalga oshirganlar<sup>50</sup>.

Kuz kelib dehqonlar hosilni yig'ishtirib olgach, dabdabalar bilan boshlanadigan to'y marosimlari, ulardagi uloq o'yinlari, isrofgarchiliklar, to'y qiluvchilarning chor-nochor holda bo'lsa ham tomoshalar berishi qattiq tanqid ostiga olinadi. Atoqli adibimiz Cho'lpon o'zining «Sadoyi Farg'ona»dagi maqolalarining birida to'ylardagi isrofgarchilik ilgari bo'lmagani, bu holat so'nggi yillarning mahsuli ekanligini bayon etgan edi: «... Avvallari qandog' yaxshi bo'lsa, so'nggi kunlarda va so'nggi yillarda kundan-kun orqaga qarab qadam qo'ymoqdadir... Ul vaqtlarda bundog' behuda isroflik to'ylar ham bo'lmas edi...»<sup>51</sup>. Cho'lponning ta'kidlashicha, ilgari dehqonlar yoz bo'yi ishlab topgan mablag'larini bola-chaqasi bilan qish ichi eb-ichar edilar, bugun iqtisodiy nochorliklari yoniga isroflik to'ylar ham qo'shildi deb iztirob bilan yozadi.

Farg'ona jadidlaridan Isoqxon Junaydullaxonxo'ja o'g'li Ibrat o'zining maqolalarida to'ylardagi isrofgarchiliklar, ortiqcha sarf-surflar, yoshlarning ilm olishdan ko'ra ko'pkari, ya'ni uloq Chopishga bo'lgan ishqibozliklari haqida o'z mulohazalarini bildiradi. U o'zining «Turkiston viloyatining gazetisi»dagi maqolalarining birida bu xususidagi fikrlarini quyidagicha bayon qiladi: «... Hali ham biz qadimgi, eski aqidamizda ma'lumlarki, siqilib o'z dinimizga harakat qilmay, aqcha topsak xoyu-havas ovloq to'ylarga o'n ming so'm behuda isrof uchun. qaysi ulamo bularga fatvo bergan halol deb? Halol desa bundan zarur halollar bor, ular qolibdur. Hech kimda xalqqa nasihat yo'q, bo'lsa ham quloqqa olmaydilar. Yigitlar esa kuvkari ila yuradurlar...»<sup>52</sup>.

Bu mavzudagi fikrlarini rivojlantirib, xalqni har-xil illatlardan saqlovchi kuch-ilm olish ekanligini ko'rsatadi. U shunday deb yozadi: «... Bu ahvoli ba'dlarni, bu maraz dardni dorusi ilmdur... Ilmsiz kishi, asossiz devor degani. Asossiz devor g'oyatda bee'tibor bo'lur. Ilm o'qung-o'qutung axloqi funun, zamonaga darkorlik ilmlar zarur...»<sup>53</sup>. Ibrat ushbu fikrlari bilan zamona yoshlarini o'z davri dunyoviy bilimlaridan ham to'liq xabardor bo'lishga undaydi.

<sup>48</sup> Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent: Sharq, 1998.-8 b.

<sup>49</sup> Vohidova Komila. Ishoqxon Ibrat //Fan va Turmush.-1995.-№4- 26-27 b.

<sup>50</sup> Qozoqov T. Asrimiz boshidagi marosimlar (hammualliflikda) //Fan va Turmush.- 2000.- № 3.- 26-27 b.

<sup>51</sup> Qozoqov T. Jadidlar to'ylar haqida //Ma'rifat.- 1997.- 16 iyul.

<sup>52</sup> Vohidova Komila. Ishoqxon Ibrat //Fan va Turmush.-1995.-№4-26-27 b.

<sup>53</sup> Qozoqov T. Asrimiz boshidagi marosimlar //Fan va Turmush.- 2000.- № 3.- 26-27 b.

Shunday qilib, jadidlar taraqqiyot yo'lidagi barcha masalalarda shaxsiy o'rnak ko'rsatib ommaga ibrat bo'lganlar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'tmishda o'tgan buyuk allomalarimiz, tarixiy shaxslarimiz Vatan ravnaqi yo'lida kishilar uchun avvalombor shaxsiy o'rnak va namuna ko'rsatganlar. Kishilarni taraqqiyot sari ilhomlantirganlar.

Eng qadimgi davr tarixidan to hozirga qadar bo'lib o'tgan voqealar agar sinchkovlik bilan o'rganilsa, bunga juda ko'p misollarni keltirish mumkin. Shuni yana alohida ta'kidlash joizki, ajdodlar an'anasiga sadoqat ruhida tarbiyalanayotgan bugungi yosh avlod ham ona yurtga sadoqat ko'rsatish borasida ota-bobolar an'anasiga sodiq bo'lib qolmoqdalar. To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Mahmud Torobiyning Vatan ozodligi, millatning hurligi yo'lidagi jonfidolliklariga hamohang tarzda tarbiyalanmoqdalar.

## **Kompyuter jinoyatchiligining zamonaviy muammolari**

*A. M. Qayumov, Dasturiy injiniring kafedrası assistenti, TATU FF.*

Kompyuter jinoyatchiligi statistikasi tahlil etilsa, qayg'uli manzaraga ega bo'lamiz. Yaqin kelajakda jinoiy faoliyatning bu turi daromadi, pul mablag'larining aylanishi va unda ishtirok etuvchi odamlar soni bo'yicha yaqin vaqtlargacha noqonuniy faoliyat orasida daromadligi bilan birinchi o'rinni egallagan noqonuniy biznesning uch turidan o'zib ketishi ehtimoli katta. Bu noqonuniy bizneslar narkotik moddalar, qurol va kam uchraydigan yovvoyi hayvonlar bilan savdo qilish.

Davlat va xususiy kompaniyalar faoliyatining sotsiologik tadqiqi ma'lumotlariga qaraganda XXI asrning dastlabki yillarida iqtisodiy sohadagi jinoyatchilik bank va boshqa tizimlarning axborot-kommunikatsion komplekslariga bo'lishi mumkin bo'lgan g'arazli iqtisodiy harakatlarga qaratilgan bo'ladi.

Kredit-moliya sohasidagi kompyuter jinoyatchiligining soni muttasil o'sib bormoqda. Masalan, onlayn magazinlarida 25%gacha qalloblik to'lov amallari qayd etilgan. Shunga qaramasdan g'arb davlatlarida elektron tijoratning - yuqori daromadli zamonaviy biznesning faol rivojlanishi ko'zga tashlanmoqda. Ma'lumki, bu soha rivojlanishi bilan parallel ravishda „virtual“ qalloblarning ham daromadi oshadi. Qalloblar endi yakka holda harakat qilmaydilar, ular puxtalik bilan tayyorlangan, yaxshi texnik va dasturiy qurollangan jinoiy guruhlar bilan, bank xizmatchilarining o'zlari ishtirokida ishlaydilar.

Xavfsizlik sohasidagi mutaxassislarning ko'rsatishicha, bunday jinoyatchilarning ulushi 70%ni tashkil etadi. „Virtual“ o'g'ri o'zining hamkasbi - oddiy bosqinchiga nisbatan ko'p topadi. Undan tashqari „virtual“ jinoyatchilar uyidan chiqmasdan harakat qiladi. Foydalanishning elektron vositalarini ishlatib qilingan o'g'rilik zararining o'rtacha ko'rsatkichi faqat AQShda bankni qurolli bosqinchilikdan kelgan zararining o'rtacha statistik zararidan 6 - 7 marta katta.

Bank xizmati va moliya amallari sohasidagi turli xil qalloblik natijasida yo'qotishlar 1989- yili 800 mln. dollardan 1997- yili 100 mlrd. dollarga yetgan. Bu ko'rsatkichlar o'sayapti, aslida yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan bir tartibga oshishi mumkin. Chunki ko'p yo'qotishlar aniqlanmaydi yoki e'lon qilinmaydi. o'ziga xos "indamaslik siyosati"ni tizim ma'murlarining o'z tarmog'idan ruxsatsiz foydalanganlik tafsilotini, bu nohush hodisaning takrorlanishidan qo'rqib va o'zining himoya usulini oshkor etmaslik vajida muhokama etishni xohlamasliklari bilan tushunish mumkin.

Kompyuter ishlatiladigan inson faoliyatining boshqa sohalarida ham vaziyat yaxshi emas. Yildan-yilga huquqni muhofaza qiluvchi organlarga kompyuter jinoyatchiligi xususidagi murojaatlar oshib bormoqda.

Barcha mutaxassislar viruslarning tarqalishi bilan bir qatorda tashqi hujumlarning keskin oshganligini e'tirof etmoqdalar. Ko'rinib turibdiki, kompyuter jinoyatchiligi natijasida zarar jiddiy ortmoqda. Ammo kompyuter jinoyatchiligi ko'pincha "virtual" qalloblar tomonidan amalga oshiriladi deyish haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Hozircha kompyuter tarmoqlariga suqilib kirish xavfi har bir o'z usuliga ega bo'lgan xakerlar, krakerlar va kompyuter qaroqchilari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Xakerlar, boshqa kompyuter qaroqchilaridan farqli holda, ba'zida, oldindan, maqtanish maqsadida kompyuter egalariga ularning tizimiga kirish niyatlari borligini bildirib qo'yadilar. Muvaffaqiyatlari xususida Internet saytlarida xabar beradilar. Bunda xaker musobaqalashuv niyatida kirgan kompyuterlariga zarar yetkazmaydi.

Krakerlar (cracker) – "elektron o'g'rilar" o'z manfaatlari maqsadida dasturlarni buzishga ixtisoslashganlar. Buning uchun ular Internet tarmog'i bo'yicha tarqatiluvchi buzishning tayyor dasturlaridan foydalanadilar.

Kompyuter qaroqchilari - raqobat qiluvchi firmalar va hatto ajnabiy maxsus xizmatlar buyurtmasi bo'yicha axborotni o'g'irlovchi firma va kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislaridir. Undan tashqari ular begona bank hisob raqamidan pul mablag'larini o'g'irlash bilan ham shug'ullanadilar.

Ba'zi mutaxassislar jiddiy guruh tashkil qiladilar, chunki bunday jinoiy biznes o'ta daromadlidir. Bu esa tez orada "virtual" jinoyatning zarari jinoyat biznesining an'anaviy xilidagi zarardan bir tartibga (agar ko'p bo'lmasa) oshishiga sabab bo'ladi. Hozircha bunday tahdidni zararsizlantirishning samarali usullari mavjud emas.

## **The effectiveness of debates in english class**

***M. Madrakhimova,  
teacher of Fergana Polytechnic Institute***

As you know debate is an interactive public speaking activity that usually requires a greater degree of organization than other speech tasks. Debates can be held with two or more students, and range from casual to highly structured but it relies on authentic language use and communication toward an audience. The inclusion of these activities in content-based instruction aids in meeting stated

objectives for language, content, and strategy use, and integrates these objectives in meaningful ways.

However debate tasks may cover some or all of these language objectives, depending on the nature of the task. In addition, these activities naturally support content learning goals because the content is the focus of the task. Debates require students to master content and gain conceptual knowledge of a topic as they sort through information and make decisions about what to include in their presentations. Thus, debate reinforces all four language skills. Students will become involved listeners and more effective speakers through their presentations, and they will develop strong reading, writing, and note-taking skills during debate preparation. Students must skim and scan a wide variety of sources during their search for information, and read key materials in depth in order to prepare for debates. There is a strong focus on speaking, and language is the key to delivering a clear, coherent speech. Individual presentations can be used as building blocks for debates, and contribute to this integrated skills practice. Oral presentations have become increasingly required in university classrooms, and students will benefit from the practice of demonstrating knowledge and participating in this type of exchange. Many universities now include an introductory public speaking class as part of their undergraduate requirements, and with communicative language learning there has been an increased emphasis on student presentations and oral participation in classroom lessons. Debate activities push students to develop their public speaking skills and help prepare them for academic work, while boosting their confidence and language learning.

Decades of academic research have proven that the benefits that accrue as a result of engaging in debate are numerous. Debate provides experiences that are conducive to life-changing, cognitive, and presentational skills. In addition, through debate debaters acquire unique educational benefits as they learn and polish skills far beyond what can be learnt in any other setting.

At the very least, debate helps learners to see the power of deploying rational, reasoned arguments and compelling evidence in action. It enables them to elucidate their standpoint through utilizing rhetorical eloquence. It instills in debaters a great sense of poise and confidence. It teaches them the skills of researching, organizing, and presenting information in a compelling fashion.

In general, the benefits of debate include:

- Gaining broad, multi-faceted knowledge cutting across several disciplines outside the learner's normal academic subjects.

- Increasing learners' confidence, poise, and self-esteem.
- Providing an engaging, active, learner-centered activity.
- Improving rigorous higher order and critical thinking skills.
- Enhancing the ability to structure and organize thoughts.
- Enhancing learners' analytical, research and note-taking skills
- Improving learners' ability to form balanced, informed arguments and to use reasoning and evidence.
- Developing effective speech composition and delivery.



- Encouraging teamwork

To sum up we can say that debate can be a valuable inclusion in content-based instruction. You will find that debate is an easy way to integrate content, language, and strategy objectives, and that students develop an increased motivation and engagement with the content. Language skills will improve because students are using language for specific purposes and working toward personal goals. Students develop research skills and synthesize information. Debate empowers students as they make decisions about their learning and display their knowledge in meaningful ways. The degree of teacher control is up to you. Debate can be highly structured or open and flexible. You can develop a specific format and guidelines, walking students through each step, or you can provide a starting point and allow the activities to evolve according to student interest.

### **Yoshlarni tarbiyalashda ta'lim va tarbiya sohasidagi islohotlarning o'rni**

*Topildiev Odiljon Raximjonovich*

*Nam DU dotsenti, t. f. n.*

Buyuk ajdodlarimiz qadimdan ta'lim-tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti deb bilganlar. Shuning uchun ham, mustaqillikning ilk kunlaridanoq Prezident I. A. Karimovning tashabbusi bilan yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlar boshqa sohalar bilan o'zaro bog'langan holda, tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi. Bugungi kunda sog'lom, barkamol kelajak avlod haqida qayg'urish, ularni mustaqil fikrli va yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega. Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining baxtu-saodati va kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida mehnat qiladi. Bilimga chanqoq, iste'dodli yoshlarni Vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash barchaning muqaddas vazifasidir. Bu o'rinda Prezident I. A. Karimovning quyidagi fikrlarini ta'kidlash o'rinli "Biz yoshlarimiz tarbiyasini birovlariga berib qo'ymaymiz"<sup>54</sup>. Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasi faqat maktabda yoki oilada emas, balki butun jamoatchilik oldidagi muhim vazifadir.

Shu bilan birga, 2010 yil 28 iyuldagi "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni, 2011 yil 20 maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori, 2012 yil 24 iyulda qabul qilingan "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 4456-sonli Prezident Farmoni, "Sog'lom

---

<sup>54</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 28 b.

avlod yili”, “Yoshlar yili”, “Barkamol avlod yili”, “Sog’lom bola yili” kabi davlat dasturlari, 2014 yil 6 fevralda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-2124-sonli qaror, 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4732-sonli Prezident Farmoni va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar sog‘lom, ma‘naviyati yuksak, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Ta‘lim-tarbiya islohoti haqida fikr yuritar ekanmiz, uning mazmunini lo‘nda qilib ifoda etish mumkin: bizga bitiruvchilar emas, balki maktab ta‘limi va tarbiyasini ko‘rgan shaxslar kerak. Chunki ular kelajakda yetuk mutaxassis kadr bo‘lib jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladilar. Shuning uchun ta‘lim-tarbiya sohasida belgilangan islohotlarni hayotga tadbiiq etishda va kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda islohotlarni bosqichma-bosqich olib borish tamoyili muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Birinchi bosqich – o‘tish davri bo‘lib, 1997-2001 yillarda kadrlar tayyorlash tizimi salohiyati saqlab qolindi va uning rivojlanishi uchun huquqiy-me‘yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. Bu bosqichda asosan quyidagi vazifalar bajarildi:

- Milliy dastur amalga oshirildi, yangi talablarga javob bera oladigan pedagog kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi;

- Davlat ta‘lim standartlari va yangi dasturlar yaratildi;

- Umumta‘lim maktablari tuzilish jihatidan qayta qurildi;

- O‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi tizimi rivojlandi;

Ikkinchi bosqich – 2001-2005 yillarni o‘z ichiga olib, bunda milliy dasturni keng miqyosda to‘liq amalga oshirishga erishildi. Tabiiyki, tizim faoliyatining samaradorligi oshirildi, mehnat bozorini inobatga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga alohida e‘tibor berildi va kerakli o‘zgartirishlar kiritildi.

Uchinchi bosqich – 2005 va undan keyingi yillarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda to‘plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e‘tiborga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish zarurligi belgilab berildi. Darhaqiqat, bugungi kunda ta‘lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimi sifat bosqichiga alohida e‘tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim darajasi bo‘yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan bir qatorda turadi. Dunyo miqyosida o‘rtacha ta‘lim indeksi ko‘rsatkichi 0, 77 ga teng bo‘lgan holda, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 0, 99 ni tashkil etadi<sup>55</sup>.

Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning yuksak samaralarini jahonning ko‘pgina davlatlari, nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan ham keng e‘tirof etib kelinmoqda. Jumladan,

<sup>55</sup> Subhonov N. Kelajak oldidagi mas‘uliyat: statistik tahlil va ma‘lumotlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 23.

“Jahon intellektual mulk tashkiloti va yetakchi xalqaro biznes-maktablardan biri – “INSEAD” tomonidan 2012 yilda inson kapitalining taraqqiyot darajasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra O'zbekiston 141 mamlakat orasida 53-o'rinni, ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi va ta'lim maqsadlari uchun ajratiladigan mablag'lar bo'yicha esa dunyoda beshinchi o'rinni”<sup>56</sup> egallagani bejizga emas.

O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining 59, 2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratilgani, uning 35 foizini esa ta'lim tizimiga yo'naltirilgani muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Davlat byudjetining ijtimoiy sohaga yo'naltirilganligi, bunda yoshlarning zamonaviy bilim olishi, munosib haq to'lanadigan barqaror ish o'rniga ega bo'lishiga e'tibor qaratilayotgani va ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha belgilangan dolzarb vazifalarni amalga oshirishda islohotlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikadagi mavjud 9739 ta maktabda 4 million 800 ming, 1554 ta kasb-hunar kolleji hamda akademik litseyda 1 million 750 ming nafar o'quvchi, 75 ta oliy o'quv yurtida 424 ming nafar talaba tahsil olmoqda. Bugungi kunda 30, 5 million aholining 8 millionga yaqini bevosita ta'lim sohasida band bo'lib, keyingi 10 yilda mamlakatimizning barcha hududlarida 430 ta zamonaviy maktab binosi qurilgani, 4200 dan oshiq maktab kapital ta'mirdan chiqarilgani, 3200 dan oshiq maktab esa rekonstruksiya qilinib, ularda o'quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratilganligi ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Eng muhimi bunday zamonaviy bilim maskanlarida jonkuyarlik va fidoyilik ko'rsatayotgan murabbiylarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ularning mehnatini munosib rag'batlantirish bo'yicha o'ziga xos yangi tizim joriy etildi.

Demak, amalga oshirilayotgan islohotlar ta'limning umumiy, keng ma'nodagi strategik maksadi barkamol avlodni yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrli qilib tarbiyalashdan iborat ekanligini ko'rsatmoqda. Bu o'rinda quyidagilarga alohida e'tibor berish muhim ahamiyatga ega:

- Ta'lim-tarbiya, ilm-fan, ishlab chiqarish va amaliyotni o'zaro bog'liqligini ta'minlash;

- Ta'lim-tarbiya milliy taraqqiyotning muhim omili ekanligini e'tirof etish;

- Ta'lim-tarbiya usullarini tanlashda o'quv yurtlarining mustaqilligini ta'minlash, o'quvchilarda yuksak ma'naviyat, mustaqil fikr va tafakkurni shakllantirishda ustoz-shogird tizimiga alohida e'tibor berish;

- Ta'lim bosqichlarining davomiyligi, shaxsning o'z iste'dod va qobiliyatiga mos keladigan ta'lim shakllari, o'quv tarbiya maskanlari, ta'lim-tarbiya usullarini tanlashda ota-onalar savodxonligini oshirish.

Xulosa qilinadigan bo'linsa, xilma-xil usullarda olib borilayotgan ta'lim va tarbiya ishlari jismonan sog'lom, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, yangi ming yillikda

<sup>56</sup> Karimov I.A. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy tsivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati // Xalq so'zi, 2014 yil 17 may.

davlatlarning, xalqlarning taqdirini moddiy boylik emas, balki intellektual salohiyati yetuk va yuksak ma'naviyatli yoshlar hal qiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatda ta'lim va tarbiyaning uzluksizligi, uzviylikini ta'minlash borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda

### **Bolalar sportini rivojlantirishning o'ziga-xos xususiyatlari**

*B. Sh. Madaminov, Nam DU  
Jismoniy madaniyat fakulteti  
dotsent, p. f. n.*

*D. A. Mamajonov, Nam DU  
Jismoniy madaniyat fakulteti  
4-kurs talabasi*

*“Sog'lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir”*

*I. A Karimov*

O'zbekiston istiqlolning dastlabki kunlaridan uzoq istiqbolni ko'zlab, farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart, degan ezgu niyatni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ydi. Bu olijanob maqsad yo'lida miqyosi va ahamiyati jihatidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizda bolalarning sog'lom tug'ilishi va sog'lom ulg'ayishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratildi.

Birinci Prezidentimiz tashabbusi bilan uch bosqichli sport o'yinlari – “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” musobaqalari yo'lga qo'yildi. Davlatimizning birinchi prezidenti farmoni bilan 2002-yil oktabr oyida bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi. Natijada yoshlar o'rtasida sportni ommalashtirish, bolalar sportini rivojlantirishning o'ziga xos noyob tizimiga asos solindi.

Bolalarda sportga mehr uyg'otish, o'sib kelayotgan yosh avlod ongida sport bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, ma'naviy va jismoniy kamolotga intilish, ularni salbiy ta'sirdan himoya qilish hamda zararli odatlardan xalos etish, bolalarni barqaror fe'l-atvorli, vataniga muhabbat va o'z mamlakati uchun g'urur – iftixor ruhida tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan bu noyob tizim o'zining yuksak samaralarini bermoqda.

2002 yilda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilgan bo'lsa, hozirgi kunga qadar jamg'arma tomonidan olib borilgan say – harakatlar o'z mevasini o'sha dastlabki yillardanoq berib kelmoqda. Jumladan 2012 yili Germaniyada bo'lib o'tgan suzish buyicha xalkaro musobaqada mamlakatimiz terma jamoasi 9 ta oltin, 9 ta kumush va 6 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Ana shu bellashuvlarda juda faol ishtirok etgan 12 yashar Amirbek Usmonov dunyoning mana-man degan davlatlaridan kelgan tengdoshlarini ortda qoldirib, 5 ta oltin va bitta kumush medalni qo'lga kiritgani, xech shubxasiz, barchamizga chuqur mamnuniyat bag'ishladi.

Eng quvonarlisi, ko'pchilikni xayratda qoldirayotgan bunday yosh chempionlar qizlarimiz orasidan xam ko'plab yetishib chiqmoqda. Misol uchun, Malayziyada o'tkazilgan sinxron suzish musobaqalarida sportchi qizlarimiz 4 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta bronza medalni qo'lga kiritishdi.

Namangan viloyatining o'smirlar va qizlar jamoalari esa vaterpol bo'yicha Malayziyada bo'lib o'tgan xalqaro bellashuvda birinchi o'rnlarni egallashdi.

Bundan tashqari 2005 yilda yurtimizda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlarning 30 %, jumladan, qishloq joylarda 29 % sport bilan shug'ullangan bo'lsa, bu raqamlar 2015 yilda tegishli ravishda 57.2 % va 56 % tashkil etgani qayd etildi. 2005 yilda 43 ta sport turi bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etilgan bo'lsa, 2015-2016 yillarga kelib 59 ta sport turi bo'yicha mashg'ulotlar olib borilgan. Shuningdek, o'sha yili 1 ming 666 nafar sportchimiz, jumladan, 567 nafar qizimiz 165 ta xalqoro musobaqada ishtirok etib, 983 ta medalni qo'lga kiritgan edi. Bundan tashqari xalqaro turnirlardan 25 ta oltin, 13 ta kumush va 17 ta bronza medallariga ega bo'ldilar.

2010-yilda umumta'lim maktablari o'quvchilari xalqaro sport musobaqalarida 420 medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, 2015 – yillarda bu ko'rsatkich qariyb ikki barobar oshdi.

2016 yilni sarhisob qilar ekanmiz, bizning mamlakatimizda sportni kattalar va yoshlar, o'g'illar va qizlar o'rtasida naqadar rivojlanganini va bu rivojlanishning yaqqol isboti Rio De Janeyroda bo'lib o'tgan 31 - yozgi olimpiada o'yinlarida munosib ishtirok etgan o'g'lonlarimizning 4 ta oltin, 2ta kumush va 7 ta bronza medallari misolida ko'rishimiz mumkin.

Jismoniy tarbiya-sog'lom avlod, sog'lom oila, sog'lom jamiyat uchun bolalikdan amaliy harkatdir. Jismoniy mehnat, harakat, o'yinlar sport bilan shug'ullanish, iroda, chidam, intizom tuyg'ularini shakllantiradi. Bola o'z kuch-quvvati, sog'lomligi, qaddi-qomati ixchamligi, nafas harakatlarini sezib turadi, bu bilan faxrlanadi. Bu sifatlar sezilgan holda didini tarbiyalay boradi, bolani go'zallik dunyosiga yetaklaydi. Sportchining har tomonlama uyg'un rivojlangan qaddi-qomati haqiqatdan ham go'zaldir. Jismoniy tarbiya aslida mehnat tarbiyasi bilan uzviy bog'liqdir yoki mehnat bolalarning jismoniy rivojlanishi va takomillashuvining vositalaridan biri hisoblanadi. U o'z imkoniyati darajasidagi huzur bag'ishlovchi mehnat bolada insoniy qadriyatlar tushunchasini o'stiradi. Masalan, ota-onasi yonida ish o'rganib, ularga yordam berayotgan qizaloqning o'z harakatidan nechog'lik mamnun bo'layotganiga e'tibor berganmisiz? Ha, huzurbaxsh mehnat bolaga insoniy olamni tushuntira boradi. Bunday mehnatni og'ir, nafrat uyg'otuvchi mehnatdan farqlash lozim. A. S. Makarenko o'qituvchilar oldida so'zlagan nutqlaridan birida shunday degan edi: "Agar biror kishi mendan pedagogik tajribangiz mohiyatini qisqacha qilib qanday belgilay olasiz, deb so'rsa, shunday javob berardim: insondan iloji boricha ko'p narsani talab qilish kerak, der edim.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish salomatlikni shakllantirish hamda mustahkamlash, mamlakatimizda yetishib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashning ajralmas qismi hisoblanadi. Jismoniy madaniyat va sport bolalar hamda o'smirlarda ko'pgina fazilatlar, shu jumladan

ularning jismonan baquvvat bo'lishi, harakat ko'nikmalari hamda jismoniy xususiyatlari takomiliga yetishi, organizmning zaxira kuchlari, ish qobiliyati, ko'pgina kasalliklarga nisbatan qarshilik kuchining oshishiga yordam beradi.

Bolalarni jismoniy tarbiyalash vazifalari sog'ligini mustahkamlash, o'quvchilarni chiniqtirish, ularning to'g'ri jismoniy rivoji va yuqori aqliy ish qobiliyatini saqlab turishiga ko'maklashish. Jismoniy xususiyatlarini tarbiyalash (chaqqonlik, kuchlilik, tezlik, bardoshlilik, qayishqoqlik) va hayotiy zarur harakat ko'nikmalarini: yurish, yugurish, sakrash, otish, tirmashib chiqish, oshib o'tish, safda yurishga tayyorgarlik, qomatni rostdash, muvozanatni saqlashga doir mashqlar, harakatlar aniqligi va muvofiqligi, ritm hamda sur'at sezgisi, jamoa bo'lib harakat qilish ko'nikmalari orqali o'quvchilarni "Barkamol avlod uchun" me'yoriy talablarini bajarishga tayyorlashni shakllantirish. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus bilimlardan xabardor qilish va tashkiliy ko'nikmalarni, shuningdek shaxsiy hamda jamoat gigienasi ko'nikmalarini, madaniy xulq-atvor odatlarini singdirish, jismoniy barkamollikka yetishish maqsadida mustaqil mashq qilishni bilish. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish jarayonida o'quvchilarda o'zi hamda jamiyat uchun zarur bo'lgan iroda ko'nikmalari: maqsadga intilish, tashabbuskorlik, dovyuraklik, matonatlilik, intizomlilik, chidamlilik, sarosimaga tushmaslik, shuningdek birodarlik, do'stlik va jamoa bo'lib harakat qilish xususiyatlarini shakllantirishni talab qiladi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki yuqorida aytib o'tilgan bolalar jismoniy tarbiyasining maqsad, vazifalari va bu borada qilingan ishlar, shu bilan birga, bolalar sporti yurtimizda nafaqat katta ijtimoiy, umummilliy harakatga aylanishi, balki o'zbekistonimizning har tomonlama taraqqiyotga erishishi, rivojlangan zamonaviy demokratik mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olishi yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilayotganligi bolalar sportining alohida hususiyatlarini belgilab beradi.

## **Konstitutsiyaviy islohotlarning inson va jamiyat hayotida tutgan o'rni**

*Ergashev Donyor,*

*Nam DU 1-kurs talabasi*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng inson, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Buning natijasida mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ko'plab qonunlar qabul qilindi. Shunday qonunlardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqilligini asosini tashkil etuvchi Konstitutsiyasidir. Bu esa O'zbekiston Respublikasini xalqaro munosabatlarning to'laqonli sub'yekti ekanligini tasdiqladi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganidek: "Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro'-e'tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni

millat sifatida dunyoga tanitadigan qomusnomadir<sup>57</sup>. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan to hozirgi kunga qadar jamiyat va davlat manfaatlarini mustahkamlashga qaratilgan qonunchilik sohasida ko'plab islohotlarni amalga oshirmoqda. Bunday islohotlardan avvalo parlament sohasidagi islohotlarni ko'rsatishimiz mumkin. Mustaqillikning dastabki yillarida parlamentimiz bir palatali bo'lgan bo'lsa, 2002 yil 27 yanvardagi referendum natijasiga ko'ra, parlamentimiz bir palatalidan ikki palatali tizimga o'tdi. Bu holat qonun ijodkorligini yanada rivojlanishga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi<sup>58</sup>, deb keltirib o'tilgan. Buning asosida esa O'zbekiston Respublikasida inson manfaatlarini mustahkamlash va uning yashash huquqini e'lon qiluvchi va mustahkamlovchi xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalaridan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, jinoiy jazoni liberallashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida 2005 yil 1 avgustdan "O'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi<sup>59</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni ham butun dunyoga O'zbekiston Respublikasida inson hayoti, uning huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat ekanligini yana bir bor isbotladi. Shu o'rinda islohotlar natijasida fuqarolarning saylov qonunchiligi ham rivojlandi. Unga ko'ra, fuqarolar davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita va bilvosita qatnashishlarini ta'minlandi, bu esa fuqarolarning huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyatining oshishiga olib keladi.

Yurtboshimiz aytganlaridek: "Saylovlar – bu mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy normalarning nechog'lik demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvdagi ishtirokining asosiy shakli bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir"<sup>60</sup>. Shu o'rinda Respublikamiz ijtimoiy hayotini tubdan isloh etishda jamoat birlashmalarining rolini kuchaytirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi va o'z navbatida esa jamoat birlashmasi tarmog'i hisoblangan siyosiy partiyalar rolini yanada kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega albatta. Prezidentimiz I. A. Karimov shunday degan edi: "Modomiki, biz demokratik jamiyat qurmoqchi ekanmiz, jamiyatimizda albatta ko'ppartiyavilik tizimi bo'lishi kerak. Ko'ppartiyavilik, avvalo, jamiyatimizda o'z manfaatlari va qarashlariga ega bo'lgan har qaysi ijtimoiy qatlam va

<sup>57</sup> Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. 2 – tom. – T.: O'zbekiston. 1996. – B. 93.

<sup>58</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. –T.: O'zbekiston. 2008. – B.60.

<sup>59</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi farmoni.// Xalq so'zi. 2005 yil 2 avgust.

<sup>60</sup> Karimov I. A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – B.35.

guruhning maqsadi va intilishlarini to'liq aks ettirish uchun kerak"<sup>61</sup>. Bu esa jamiyat taraqqiyotga ulkan hissa qo'shadigan omil hisoblanib, fuqarolarning jamiyat hayotida to'laqonli va faol qatnashishi uchun asos bolib xizmat qiladi.

Yana shunday islohotlardan biri jamiyat hayoti uchun muhim bo'lgan sud-huquq sohasini isloh etish ishlari ham amalga oshirilmoqda. Bunday isloh etish fuqarolarga va jamiyatning boshqa a'zolariga o'zlarining huquqlari va erkinliklari buzilganda sud orqali himoyalashning huquqiy institutlari joriy etilib, ushbu institutlar asosida fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning asosiy omiliga aylandi. Sudlar faoliyatini takomillashtirish asosida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi, Jinoyat protsessual kodeksiga hamda Ma'muriy javobgarlik kodeksiga 2001 yilda "Jinoiy jazoni liberallashtirish munosabati bilan o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi ham ulkan ahamiyatga ega albatta. Mazkur qonunga ko'ra, jinoyatlarning tasnifi o'zgartirildi. Buning natijasida og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyatlarning qariyb 75 foizni ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi"<sup>62</sup>.

Bunday islohotlardan ko'rish mumkinki, O'zbekiston bugungi kunda huquqiy-demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida sobitqadamlik bilan bormoqda. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kelajakda qonun ustuvor bo'lgan jamiyatning a'zosi bo'lishlari va o'zlarining huquqlari, erkinliklarini himoya qila olish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

### **Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda milliy o'yinlarning pedagogik asosi**

*F. Ubaydullayeva*

*Nam DU BT 48-2014 –guruh talabasi*

Kelajagimiz egalari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama komil insonlar qilib tarbiyalash asosan o'qituvchilarga bog'liqdir.

Respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Shu sababdan ham bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri bu ularni garmonik rivojlantirishdir.

Shu boisdan ham biz tomonimizdan tanlangan "Boshlang'ich sinflarda xalq o'yinlarining o'rganish orqali milliy g'ururni o'stirish usullari" bugungi kundagi dolzarb va asosiy mavzularidan biri bo'lib hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, milliy xalq o'yinlari asosida yurtimizda juda ko'p ommaviy va nufuzli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu o'rinda xalq milliy o'yinlari Respublika musobaqalari ( 1991 – 1994, Forish ), olimpiadalari ( 1994 – 1996, Forish ), "Alpomish o'yinlari" Respublika

<sup>61</sup> Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilashb mamlakatni modonizatsiya va islox etishdir. – T.: O'zbekiston, 1995. – B.12.

<sup>62</sup> Karimov I. A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – B.20.



festivallari ( 1998 - Termiz , 2000 - Farg'ona ), "Ayollar" yiliga bag'ishlab o'tkazilgan To'maris Respublika festivallari ( 1999 - Jizzax, 2001- Shaxrisabz, 2003- Namangan ) va shu mavzular asosida o'tkazilgan Respublika ilmiy nazariy va amaliy anjumanlari mohiyat jihatidan e'tiborga sazovordir.

Xalq milliy o'yinlarini o'rganish va ularni yirik tadbir hamda anjuman sifatida o'tkazishda Respublika hukumatining qator qarorlari, ayniqsa "Alpomish" dostonining yaratilishiga 1000 yil to'lishini nishonlash to'g'risidagi qarori ( 1998 - fevral ) muhim ahamiyat kasb etdi. Bunda Alpomish va Barchinoy ramziy timsolida ma'naviy va jismoniy kamolot tarbiyasini izchil o'rganish, ularni hayotda qo'llash hamda ommalashtirish masalalari dolzarb vazifalardan biri qilib qo'yildi.

E'tirof etish kerakki, xalq milliy o'yinlarining asoslari, ularning mohiyatlari faqat "Alpomish" dostonidagina emas, balki "To'maris afsonalari", "Qirq qiz", «Rustamhon», "Kuntug'mish", "Tohir va Zuhra", "Go'ro'g'li" turkumidagi o'nlab xalq og'zaki ijodi durdonalarida ham mazmun topgan.

Xalq milliy harakatli o'yinlarini to'plash, ularni ommalashtirishda taniqli olimlar T. S. Usmonxo'jaev, F. Xo'jaev, A. Sh. Qosimov, F. N. Nasriddinov, O. O. Po'latov kabilarning hissalarida juda kattadir. Shular asosida qator "Harakatli o'yinlar" kitoblari o'quvchi yoshlar va omma orasida keng qo'llanilib kelayotganligini, harakatli o'yinlarning mohiyatlari qanchalik zarur va aziz ekanligining dalilidir.

Bunday o'yinlardan saralanib olingan "Bo'ron", "Mindi", "Soldi", "To'qqiz tosh" kabi hozirgi kunda umum maktab o'quvchilari, kasb - xunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari talabalarining jismoniy tarbiya darslari, aholi istiqomat joylarida tashkil etilayotgan ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlari va hatto "Alpomish" o'yinlari Respublika festivallari, "To'maris" o'yinlari Respublika festivallari shuningdek "Umid nihollari", «Barkamol avlod» sport o'yinlari, talabalarining Universiadalari dasturlariga kiritilganligi bir olam quvonch, desa bo'ladi.

Xalq milliy o'yinlarni orqali mustaqil fikrlash o'tkazishda bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olish bilan birgalikda o'yinlarni birin-ketinligiga ham ahamiyat berish lozim.

Xalq harakatli o'yinlarni tanlashda maktab sharoitini, o'quvchilarni jismoniy tayyorgarligini hisobga olinsa ularda qiziqish ortadi hamda emotsional holatini yaxshilanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan tadqiqot ishlaridan ayon bo'ldiki, xalq harakatli o'yinlarni tuzilgan reja asosida o'z vaqtida va muntazam o'tkazilishi natijasida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi, tayyorgarligi hamda harakat faolligi yaxshilanishi aniqlanadi.

Xalq harakatli o'yinlari bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarni reja asosida tashkil qilish va uni oldindan loyihalashtirish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mustaqillik yillarida milliy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, kelajak avlodga bekamu ko'st yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda unutilib ketayotgan xalq og'zaki ijodi namunalari, an'ana va urf-odatlar, milliy o'yinlar qayta tiklanayotir.

-o'quvchilarga faqatgina tayyor bilimlar taqdim etilmasdan ularni izlanishga mustaqil fikrlashga undaladi;

-o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib turli o'ynlar asosida olib boriladi;

boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan xalq milliy o'yinlarini orqali mustaqil fikrkashga o'rgatishning samaradorligini oshirishni o'tkazish:

- xalq milliy o'yinlarini orqali mustaqil fikrkashga o'rgatishning samaradorligini oshirish harakatli o'yinlarni o'tkazishda o'rgatish metodlaridan samarali foydalanish;

- jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik oshiriladi;

- harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishda o'quvchilarining yosh xususiyatlari inobatga olinsa, ta'lim - tarbiya ishlari samarali bo'ladi.

-aniq maqsadlarga erishiladi;

Xalq o'yinlari azaldan ajdodlarimiz madaniy hayotining ajralmas qismi sifatida e'zozlanadi. Aksariyat o'yinlarning ildizlari juda qadimiy bo'lib, ular asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishga, ongu tafakkuri va his-tuyg'ularini teranlashtirishga xizmat qilgan. O'yinlarda xalqning turmush tarzi, mehnati, yutuqlari o'z aksini topadi. Shu bois ular yosh avlodlarni tarbiyalashda "hayot maktabi" vazifasini o'tagan.

## **Yagona jinoyat tushunchasi va turlari**

*J. Umarov*

*Nam DU katta o'qituvchisi*

Ma'lumki, yagona jinoyat oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. O'z navbatida oddiy yagona jinoyat formal tarkibli va moddiy tarkibli jinoyatlarga guruhlanadi. Formal tarkibli oddiy yagona jinoyatda bir ob'ektga bir qilmish(harakat yoki harakatsizlik) orqali aybning bir shakli bilan tajavvuz qilinishini kuzatamiz.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 140-moddasida belgilangan haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash jinoyatlari bunga misol bo'la oladi.

Moddiy tarkibli oddiy yagona jinoyatlarda ham jinoyat qonunchiligi bilan qo'riqlanadigan bir ob'ektga tajovvuz qaratiladi, aybning bir shakli va bitta huquqiy oqibat kelib chiqishi bilan ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 104-moddasi 3-qismi «D» bandida ko'rsatilgan jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatida yuqorida ta'kidlangan jinoyat turining belgilari mavjudligiga guvoh bo'lamiz.

Yagona murakkab jinoyatlar esa, tarkibli, ko'p ob'ektki, aralash ayb shaklli, muqobil, davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarga bo'linadi.

Murakkab tarkibli yagona jinoyatlar ikki yoki undan ortiq qilmishning birligidan iborat mustaqil oddiy jinoyatni ifodalaydi, ya'ni jinoyatlarning ideal yig'indisi - majmui hisoblanadi.

Bu jinoyatlar turli usullarda shakllanadi. Ikkita mustaqil jinoyat oddiy jinoyat tarkibini hosil qiladi. Bosqinchilik jinoyati tushunchasini olib qarasak, talonchilik va tan jarohati yetkazish yoki shunday jarohat yetkazishning real havfi mavjud bo'lgan shahsning sog'lig'iga qarshi jinoyatlarning birlashuvidan hosil bo'lganini ko'ramiz.

Ba'zi jinoyatlarda bir (bir necha ) mustaqil jinoyat boshqa jinoyatga uning majburiy belgisi sifatida qo'shilib ketish holatlari bo'ladi. Masalan, Jinoyat Kodeksining 277-moddasida mustahkamlangan bezorilik jinoyatini tahlil qilsak, bunda bezorilik, ya'ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urush – do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o'zganing mulkiga shikast yetkazish yohud nobud qilish, ancha zarar yetkazish bilangina sodir etilsagina, jinoyat tarkibi yuzaga keladi.

Yagona murakkab jinoyat hosil bo'lishining yana bir usulida bir mustaqil oddiy jinoyatni malakalash belgisi sifatida boshqa jinoyat uning tarkibiga kirib ketadi.

Talonchilik, ta'magirlik kabi jinoyatlarda zo'rlik ishlatish jinoyati, ularning malakalash belgisi hisoblanadi.

Muqobil tarkibli jinoyatlarda muntazam ravishda bir nechta qilmishlarni sodir etish yagona va oddiy jinoyat tarkibini beradi. Bunga misol qonunga xilof ravishda giyohvandlik yoki psixotrop moddalarni tayyorlash, sotib olish, saqlash, tashish jinoyati misol bo'la oladi. (J. K. ning 273-276-moddalari).

Bundan tashqari yagona jinoyat tarkibini beruvchi davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar ham mavjud. Umumiy qasd bilan olingan va yagona maqsadga yo'naltirilgan jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi bir-biriga o'xshash bir necha jinoiy qilmishlardan iborat bo'lgan jinoyat davomli jinoyat hisoblanadi.

Vazifalarni uzoq vaqt moboynida bajarmaslikdan iborat bo'lib, bir jinoyatning uzluksiz tarkibini tashkil etgan jinoyat uzoqqa cho'zilgan jinoyat deb topiladi.

Aliment to'lashdan bosh tortish, ozodlikdan mahrum etish joyidan qochish, harbiy xizmatdan bo'yin tovlash jinoyatlari uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar turiga kiradi.

## **Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy huquqlari**

*F. Temirov, NamDU talabasi*

*Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi J. Umarov*

Jamiyat hayotida oila asosiy o'rinni egallaydi. Oila va jamiyat bir-biriga chambarchas va uzviy bog'liq bo'lib, jamiyatning o'zi ham oilalardan tashkil topadi. Oila ham o'z navbatida jamiyat bag'rida vujudga keladi, rivojlanadi. Ayni paytda oilaning jamiyatda o'z vazifalari mavjud. Ular oilaning avlod yaratish, farzandlarni tarbiyalash, ularni kamolga yetkazish, oiladagi iqtisodiy muammolarni hal etish, oila a'zolarining dam olishini va salomatligini tiklash, tabiatga, jamiyatga bo'lgan o'zaro munosabatlarni shakllantirishdan iborat. Voyaga yetmagan bolalar deyilganda o'n sakkiz yoshga to'lmagan bolalar tushuniladi. Amaldagi qonunlar bilan belgilangan bolalarning huquqlari ularning

tug'ilishi bilan vujudga keladi. Ularning muomala layoqati Fuqarolik kodeksining 22-moddasi va Oila kodeksining tegishli -moddalarini bilan belgilanadi.

Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lishi va ularni amalga oshirishi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach, to'liq hajmda vujudga keladi. Oila kodeksida bolalar huquqi bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiyasi»da ifodalangan atamalardan foydalanilgan. Qonunchilikda foydalanilgan "bolalarning shaxsiy huquqlari" yig'ma xususiyatga ega bo'lib, turlicha mazmuni ifodalaydigan bir xil bo'lmagan maqsadlarni nazarda tutadi. Voyaga yetmaganlarning shaxsiy huquqlari quyidagi birinchi darajali va mustaqil shaxsiy huquqlarga bo'lish mumkin: oilada yashash va tarbiyalanish huquqi; ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqi; o'zini himoya qilishga bo'lgan huquqi; o'z fikrini erkin ifoda etish huquqi; ism, ota ismi va familiya olish huquqi.

Sanab o'tilgan huquqlarning har biri bolaga davlat tomonidan berilgan bo'lib, oilada tarbiyalanishi, o'zini himoya qilishi uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega. Oila kodeksi bu huquqlarni 11bobda belgilagan bo'lib, davlat o'z navbatida, birinchidan, ularning ahamiyatini ko'rsatadi, ikkinchidan, ularning amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ammo shuni ham bilmoq kerakki, voyaga yetmaganlarning har qanday shaxsiy huquqlari o'z mazmuniga ega bo'lib kodeksning tegishli -moddalarida aniq ifodalangan. Oila kodeksining 65-moddasida belgilanganidek, bolaning yashash va tarbiyalanish huquqi, avvalo, bola o'z ota-onasi bilan birga yashash mumkinligini anglatadi. Fuqarolik kodeksining 21-moddasiga binoan, o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlarning (kichik yoshdagi bolalarning) yoki vasiylikda bo'lgan fuqarolarning qonuniy vakillari ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari yashaydigan joy voyaga yetmaganlar yoki vasiylikda bo'lgan fuqarolarning yashash joyi hisoblanadi. Tabiiyki, ulardan katta bo'lgan yoshdagi voyaga yetmagan bolalar ham ular bilan birga yashaydilar. Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi o'z ota-onasini bilish huquqi bilan mustahkam bog'liqdir. Bu haqda "Bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiya"ning 7-moddasida to'g'ridan to'g'ri belgilab qo'yilgan. Bunday holat voyaga yetmagan bolaning huquqi sud tartibida otalik belgilanayotgan vaqtda (qo'shimcha shart bilan) inobatga olinishi mumkin. Oila kodeksi 66-moddasining 1 qismiga binoan, bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega, ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota-onaning boshqa boshqa yashashi bunga ta'sir etmaydi.

Ota va ona alohida yashayotgan bo'lsalar, u holda bola ularning har biri bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-ona turli davlatlarda yashayotgan bo'lsalar, bola ular bilan ko'rishish huquqiga ega. Oila kodeksi 66-moddasining 3-qismida favqulodda vaziyatlarga tushib qolgan bolaning uchrashish huquqlini umulga oshirish muammosi masalasiga alohida to'xtab o'tiladi. Oila kodeksi favqulodda

vaziyatlarga tushib qolgan bolani ushlab turish, qamoqqa olish, hibsga olish, uning davolash muassasasida bo'lishi va boshqa hollarni nazarda tutadi. Bu sanab o'tilgan hollar mutlaq bo'lib hisoblanmaydi. Har qanday holatda ham bu favqulodda holatlar voyaga yetmagan bolani tashqi dunyodan, oiladan, ota-onadan, yaqin qarindoshlardan ajratilganligi bilan bog'liqdir. Ular bilan uchrashishdek unga berilgan huquq nafaqat o'z mazmuni bo'yicha insonparvarlik, shu bilan birga tarbiyalash, zarur hollarda esa qayta tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksining 37-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan mahkumlar yaqin qarindoshlari bilan har oyda bir marta muddati uch soatgacha bo'lgan qisqa muddatli uchrashishi mumkin. Oila kodeksining 67-moddasiga binoan, bola o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega. Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), amaldagi qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, u o'z huquq va majburiyatlarini, shu jumladan himoyaga bo'lgan huquqini mustaqil amalga oshirishga haqlidir. Oila kodeksi bolaning himoyaga bo'lgan huquqini belgilab, yanada kengroq yangilik olib kirdi. Oila kodeksining 69-moddasiga binoan, bola ism, ota ismi va familiya olish huquqiga ega. Bolaga ism ota-onaning kelishuviga binoan, ota ismi esa atasining ismi bo'yicha beriladi. Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga ko'ra belgilanadi. Ota-ona turli familiyalarda bo'lsalar, ota-onaning kelishuviga binoan bolaga atasining yoki onasining familiyasi beriladi. Ota-onaning xohishiga ko'ra bolaga ota yoki ona tomonidan milliy an'analarga ko'ra boboning ismi bo'yicha familiya berilishi mumkin. Ota-ona o'rtasida bolaning ismi va (yoki) familiyasi bo'yicha kelishuv bo'lmaganda, kelib chiqqan nizo vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

## **Tadbirkorlik faoliyati uchun soliq undirishning huquqiy asoslari**

*M. Sirochiddinov, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi J. Umarov*

Tadbirkorlik faoliyatida soliq va soliqqa tortish eng muhim masalalardan hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning iqtisodiy vositalardan, xususan, soliqlardan davlat va tadbirkorlik sub'ektlari manfaatini ko'zlab samarali foydalanishini taqozo etadi. Soliqlar qadimiy moliyaviy vositalardan bo'lib, davlat bilan birga vujudga kelgan va davlat idoralari faoliyatini ta'minlash, davlat oldida turgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar manbai bo'lib xizmat qilib kelgan. Soliqlardan iqtisodiyotda bozor munosabatlarini qaror toptirishda eng muqim moliyaviy vosita sifatida keng foydalaniladi. Binobarin, tadbirkorlikning ustuvor yo'nalishlarini rag'batlantirish, muhim ijtimoiy muammolarni yechish uchun mablag'lar zarur. Shuning uchun soliqlar, roli va ahamiyati tobora oshmoqda.

Davlat soliqlar orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiradi, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga yordam beradi, mahsulotlar, ishlar xizmatlarning hajmi ko'payishiga sharoit yaratadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining turmush darajasini yaxshilash, iste'mol bozorini barqarorlashtirish, O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan jahon hamjamiyatiga qo'shilishi yuzasidan muhim qadamlar qo'yildi. Bu borada davlatning soliq siyosati, soliqlarning roli katta ahamiyatga ega bo'ldi. Iqtisodiy munosabatlar davrida soliqlar, yig'implar va bojxona to'lovlarini o'z vaqtida hamda to'la amalga oshirish respublika byudjetini vujudga keltirishda muhim rol o'ynaydi.

Jahon hamjamiyati bizning mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni e'tibor bilan kuzatmoqda. Ushbu islohotlarning olib borilishi soliq siyosatini olib borilishiga, davlat soliq xizmati organlarini tashkillantirilishi va faoliyat ko'rsatishiga ham chambarchas bog'liqdir. Barchamizga ayonki, soliqlar davlat va mahalliy byudjetlarni to'ldirishda asosiy manba hisoblanadi. Soliqlar xo'jalik faoliyatining barcha yo'nalishlarini o'ziga jalb qilish bilan birga, ular har bir sohaga va korxonaga alohida munosabatni ta'minlashi kerak. Men o'ylaymanki, soliqlarning oshirilishi na davlatga, na jamiyatga foyda keltirmasligini biz to'liq anglab olishimiz lozim. Soliqlar daromadning bir qismini qamrab olishidan tashqari, ular har tomonlama xalq xo'jaligi va aholiga kerakli bo'lgan mahsulot va tovarlarni ko'proq va yaxshiroq ishlab chiqaraman, degan tashkilotlar va fuqarolarni rag'batlantirishi lozim».

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, bu sohadagi islohotlarning asosiy maqsadi, soliqlarni ixchamlashtirish, ularni osonlashtirish va rag'batlantirish kuchini oshirishdan iborat.

Birinchi tamoyil – korxonalaridan soliqlar yukini kamaytirib borish, ularga ishlab chiqarishni rivojlantirish, investitsiyalarga ega bo'lish, yangi texnologiyalar o'rnatish, korxonalarni texnik jihatdan qayta jihozlash, kadrlar malakasini oshirish imkoniyatlariga ega bo'lishlari uchun real shart-sharoit yaratish.

Ikkinchi tamoyil – soliqlarni korxonalar va tashkilotlarning daromadlaridan emas, balki ularning foydalaridan olishga to'la o'tish. Islohotlarning birinchi bosqichida (1996 yilgacha) bunday soliq joriy etish uchun huquqiy va ijtimoiy sharoitlar yetishmas edi, ular hozir tayyorlangan. Shuningdek, hozir foydani soliqlardan yashirib qolish kabi illatga qarshi alohida ma'muriy choralar ishlab chiqilganligi ham bunday tamoyilni qo'llashga sharoit tug'dirmoqda.

Uchinchi tamoyil – davlat va mahalliy soliqlar o'rtasida optimal (maqsadga muvofiq) mutanosiblik o'rnatish, mahalliy soliqlar ahamiyatini oshirish, davlat byudjetidan mahalliy soliqlar tomon burilish qilish. Gap shundaki, Prezidentimizning ko'rsatishicha, islohotlar davomida mikroiqtisodiyotni rivojlantirishga, korxonalar, hududiy tarmoqlar iqtisodiyotini ko'tarishga ustuvorlik baxsh etish ko'zda tutilmoqda. Bunday sharoitda mahalliy soliqlar ahamiyatining ortishi o'z-o'zidan ma'lum.

To'rtinchi tamoyil – korxonalarni iqtisodiy kuchaytirish orqali ularning daromadlaridan hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yechishda hissasini oshirib borish. Bunday tamoyil korxonalar, tadbirkorlar, ishbilurmonlar, barchu

sohibkorlarning o'z qishlog'i, shahari, tumani, viloyati, sohasini rivojlantirishlari uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Soliqlarning vujudga kelish tarixi insoniyat tarixining tarkibiy qismi bo'lib, ming yillar avval paydo bo'lgan. Qadimgi Bobil davlatida amal qilgan Xamurapi qonunlari yoki Qadimgi Hindistonning Manu qonunlarimi, Xitoy, Yunoniston yoki Turon, Rim imperiyasi qonunlarimi, baribir ularning barchasida boj-xiroj, soliqlar to'plash, davlat xazinasini hisob-kitobi kabi masalalar o'z aksini topgan. Chunki moliya sohasida, soliq-boj sohasida to'g'ri siyosat yuritilishi jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, samarali soliq siyosati yuritish har bir davlat uchun muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekistonning yagona soliq tizimining huquqiy asoslari yaratilgan. Soliqlar bozor iqtisodiyoti tizimida alohida o'rin tutadi. Zero, ular iqtisodiyotni me'yorlashtirish, boshqarish va rag'batlantiruvchi vosita vazifasini o'taydi. Soliqlar davlat va mahalliy byudjetlar daromadining asosiy moliyaviy manbai, davlat boshqarish, uning mudofaasini, xavfsizligini ta'minlashning, halqni ijtimoiy himoya qilishning (nafaqalar, bepul ta'lim berish, malakasini oshirish, kasbga yo'naltirish, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiyalash, sport ishlarini moliyalash, axolining turli toifalariga har xil darajada imtiyozlar berish va h. k. ) pul manbaidir. Boshqacha aytganda, soliqlar bozor munosabatlarining asosiy bo'g'ini yoki yetakchi unsuridir. Davlat o'zining iqtisodiy siyosatini asosan soliqlar yordamida olib boradi va soliqlar to'g'risidagi qonunlar orkali yurgizadi. Soliqlar tadbirkorlik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda mustaqillik yillarida soliqlar ikkilamchi iqtisodiy institutdan davlatning korxonalar, tashkilot, muassasa va fuqarolarning xo'jalik faoliyatiga ta'sir qilishning iqtisodiy vositasiga aylandi. Soliq tartibiga rioya qilish, soliq savotligi, davlat va fuqaro o'rtalaridagi munosabatlarning soliq madaniyati, bu munosabatlarning garmonizatsiyalashi yangi mentalitetni tashkillantirilishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlat xazinasini so'zsiz to'ldirilishi kafolatidir.

#### **4-sinf o'qish darsligida o'zbek xalqining milliy merosini o'rgatish metodlari**

*M. To'raboyeva*

*Nam DU BTM kafedrasi o'qituvchisi*

4-sinf o'qish darsligining "Ulug'lardan o'rganmoqda – oqillik" bo'limida Hadislardan naqlar, hisob ilmidagi yangilik. Kitobga ixlos. Mirkarim Osim, Ibn Sinoning shogirdlari "Asotirlar va rivoyatlar", Ibn Sino bobo – ulashar davo (o'gitlar) Po'lat Mo'min, elim deb, yurtim deb yashagan inson. Bo'ribov Ahmedov, Sohibqiron Temur bobo. (Hikoyat), Amir Temur o'gitlari, Donolarning donosi. Po'lat Mo'min, Navoiy hikmatlari, Zahiriddin Muhammad Bobur. Xayriddin Sulton, Sayilda. Mirzo Karim, Ilm. Hoji Abdurazzoq Yunus, Hotami Toyi. Sa'diy Sheroziylar ajdodlarimiz milliy merosini o'rganishda namuna bo'la oladi.

“Ajdodlarimiz – faxrimiz” bo‘limida esa, To‘maris. (Hikoya). Sodiqov Najmiddin. Kubro. (Rivoyat), Sulton Mahmud va Beruniy (Rivoyat), Tanbeh. (Rivoyat). Xondamir, Navoiy bobomlar (She‘r), T. Adashboev Hidi, tilimi va mazasidan. (Rivoyat), Rivoyat. (Rivoyat)lar keng yoritib berilgan.

### **O‘qitishning noan‘anaviy modellari**

Bu modellarni shartli ravishda 3 ga ajratish mumkin.

- hamkorlikda o‘rganish modeli
- modellashtirish
- o‘rganishning tadqiqot modeli.

Bu modellar asosan o‘quvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib ularni boshqacha qilib markazda o‘quvchi turgan ta‘lim modellari deb ham atashadi.

Modellashtirish – real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan xodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko‘rinishini (modelini) sinfxonada yaratish va ularda o‘quvchilarni shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta‘lim olishini ko‘zda tutuvchi metod.

Hamkorlikda o‘rganish modeli – o‘quvchilarni mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta‘lim olishini ko‘zda tutadigan metod.

O‘rganishning tadqiqot modeli – o‘quvchilarni muayyan muammoni yechishga yo‘naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko‘zda tutuvchi metod.

An‘anaviy (ta‘lim jarayoni markazida o‘qituvchi bo‘lgan) metodlarning

#### **Afzalliklari**

- Ma‘lum ko‘nikmalarga ega bo‘lgan va aniq ma‘lum tushunchalarni, fanni o‘rganishda foydali.
- O‘qituvchi tomonidan o‘qitish jarayonini va o‘qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi.
- Vaqtdan unumli foydalanish.
- Aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

Haqiqatan ham, an‘anaviy ta‘lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan noan‘anaviy ta‘lim jarayoni bilan taqqoslaganda ular o‘rtasidagi farq aniq ko‘zga tashlanadi.

### **Kuchli davlatdan- kuchli fuqarolik jamiyati sari borishning o‘ziga xos ijobiy tomonlari**

*Abrorjon Mamadaliyev*

*NamDU qoshidagi Akademik litsey*

*“Milliy g‘oya , ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi” fani o‘qituvchisi*

Ma‘umki O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilanoq o‘ziga xos va mos yo‘lni tanlab rivojlanishni barcha davlatlar uchun xos bo‘lgan tadrijiy yo‘lini tanladi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi O‘z oldiga demokratik , huquqiy, bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad qilib qo‘ydi.

Fuqarolik jamiyati deganda avvalo fuqarolarning huquqlari, manfaatlari, orzu istaklari va irodasi ifoda etilib barcha davlat idoralari va korxonalari xalq



manfaatlarini yanii fuqarolarga xizmat qiladi ya'ni birinchi o'rinda fuqarolarning manfaatlarini ustun turuvchi faqat ular uchun xizmat qiluvchi jamiyat tushuniladi. Eng avvalo shuni alohida ta'kidlash joizki demokratik jamiyat qurishda demokratik prinsiplarni ta'minlash uning huquqiy asoslarini yaratishdan boshlanishi lozib deb bilamaan. O'zbekiston Respublikasida demokratik jamiyat qurishning ilk huquqiy shakllari bo'lmish 1991- yil qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonunda shuningdek, bosh qomusimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham huquqiy davlatchiligimiz asoslarini yaratish haqidagi normalar o'z aksini topgan. Qolaversa O'zbekiston Respublikasining boshqa qator qonunlarida demokratik jamiyat, uning shartlari, unga erishish yo'llari batafsil va atroflicha yoritib berilgan.

O'zbekiston taraqqiyotining bosh yo'li jamiyatni demokrat-lashtirish, adolatli, ochiq fuqarolik jamiyati qurishdan iboratdir. Demokratik jamiyat qurish bobida hanuna davlat uchun tayyor qolipva andozalar yo'q. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov dunyoda bir-biriga o'xshagan ikkita inson bo'lmaganidek, bir-biriga aynan o'xshagan ikki davlat ham yo'q deganida haqlidir. To'g'ri, demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari bor:

- ✓ insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi va uni amalga oshirishi;
- ✓ ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi;
- ✓ davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi;
- ✓ davlat hokimiyat organla-rining saylab qo'yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishi va boshqalar.

O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda ana shu tamoyillarga, umumjahon sivilizatsiyasiga asoslandi. Shuningdek, xalqimizning necha ming yillik tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining hosilini, milliy davlatchiligimiz negizlarini, buyuk madaniyatimiz tomirlarini, ma'naviy merosimiz ildizla-rini, milliy xususiyatlarimiz va boy an'alarimizni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etish yo'lidan bormoqda.

Demokratik jarayonning individualizm falsafasiga tayanuvchi, inqilobiy o'zgarishlarga moyil g'arb namunasi O'zbekistonga unchalik to'g'ri kelavermaydi. Sharq falsafasi va islom dini ta'limotlarini aks ettiruvchi hamjihatlik g'oyasi va jamoatchilik fikrining ustuvorligiga tayanuvchi sharqona demokratik qadriyatlar O'zbekiston uchun asos qilib olindi. O'zbekistonda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilmasdan, odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasi va sur'atlari bir-biriga qanchalik mutanosib ekanligi hisobga olinmoqda.

O'zbekiston yangi jamiyat qurishda adolat va haqiqat g'oyasiga asoslanmoqda. Respublikamizda odamlar o'z qobiliyati va ehti-yqillarini to'la namoyon qilish va amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan dastlabki teng imkoniyatlarni, shu jarayonni vujudga keltiradigan huquqiy mexanizmni yaratishga katta e'tibor berildi. Negaki, busiz adolatli jamiyat qurib bo'lmaydi. Ana shunday imkoniyatlar yaratilgandan keyingina, har bir insonning taqdiri,

**turmushi, jamiyatdagi o'rni uning o'ziga, salohiyatiga, mehnat qilish istagi, oqil-u uddaburonligiga bog'liq bo'ladi.**

Qolaversa demokratik jamiyat qurishda yoshlarni huquqiy savodxonligini oshirish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlari huquqiy fuqarolik jamiyati qurishning muhim sharti hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yoshlarni huquqiy ongini yuksaltirish barcha o'quv yurtlarida, maktabgacha ta'limmuassasalarida hamda maktablarda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va huquqi haqidagi bolalarbob bilimni o'rgatish huquqga oid fanlardan imtihonlar joriy etish, shu bilan birgalikda ilm dargohida odil sudlov, prokuratura, ichki ishlar organlarining ishtajribasi yuzasidan uchrashuv va muloqotlar tashkil etish huquqiy ongni rivojlantirishga ko'mak bergan bo'lar edi.

Qonun hujjatlarini targ'ib qilish, va ularni keng jamotchilikka tushuntirish, shuningdek aholining huquqiy tafakkurini oshirish maqsadida adliya organlari va muassasalari tomonidan 2008-yilning I-choragida 11 mingdan ortiq marotaba huquqiy targ'ibot ishlari amalga oshirilgan bo'lsa, 2009- yilning I-choragida 14 -mingdan ortiq huquqiy targ'ibot ishlari amalga oshirildi. Ushbu tadbirlarning 2179 tasi ommaviy axborot vositalari orqali olib borildi. 517 tasi teleko'rsatuvlarni, 628 tasi radioeshittirishlarni, 943 tasi gazetalar, 91 tasi jurnallarda bosilgan maqolalarni tashkil etadi. Bunday misollarni juda ko'plab keltirsa bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi" ham aynan aholini ongini oshirish, huquqiy savodxonligini oshirish, sud huquq tizimini takomillashtirish, aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sifatini yana ham yuksak sifatga ko'tarish va albatta demokratik jamiyatni yana ham adolatli qaror toptirish yo'lidagi qadam bo'ldi. Davlatni rivojlanishida revolutsiya bilan emas balki evolutsion yo'l ijobiiy natija berganidek biz ham bundagi 5 ta ustivor yo'nalishni belgilangan davr mobaynida bosqichma – bosqich amalga oshirsak bundan ham ko'zlangan maqsad albatta o'zini samarasini beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish o'rinliki, kuchli fuqarolik jamiyati va kuchli huquqiy davlatchilik asoslarini yaratishning imkoni hayotdagi barcha sohalarni bir xilda, o'zaro mutanosiblikda rivojlantirish bilangina imkoni bo'ladi. Aynan kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari odimlab borishimizda ham quyidagi 4 ta mehanizm davlatda qoladi, qolgan barchasi o'zini-o'zi boshqarish organlariga ya'ni xalqning o'ziga o'tkazib boriladi bunda xalqning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki kengayib boradi lekin shuni ayish joizki, shunga qaramay demokratik davlatning fuqarolik jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati saqlanib qoladi. Davlat o'zining mudofasini, soliq siyosatini, moliya (pul) munosabatlarini va tashqi siyosatini o'zida saqlab qoladi va qolgan sohalardagi boshqaruvda xalqning o'zi bosh bo'lib harakat qiladi. Davlat butun bir jamiyatning va xalqning iroda va erki sifatida gavdalanadi. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatida jamiyat a'zolari ongli ravishda davlatga bo'ysunadilar va uni taraqqiyoti uchun har doimgidan ko'p va sidqidildan xizmat qilib jon

kuydiradilar. Bunday jamiyatda doimo qonun ustivor bo'ldi, xalqning manfaati va inson huquqlari doimiy ravishda birinchi o'rinda turadi.

## **Amir Temur davlatining to'liq shakillanishida harbiy qo'shin va uning ahamiyati**

*Ergashev Donyor,  
Nam DU I-kurs talabasi*

Amir Temur mo'g'ul hukmdorlari bilan bo'lgan janglarda g'alaba qozongandan keyin. Amir Temurning raqibi qolmadi. Uning tashqi dushmanlari, jumladan, Sharqdagi jetelar ham quvildilar. "Temur tuzuklari" da keltirilishicha, Jete lashkari amirlari ustidan g'alaba qozonganidan keyin, saltanat da'vosi bilan xuruj etilganligim haqida Turonzaminda xabar tarqaladi. Shunda men adolat bilan hukmronlik qilishga azmu jazm etdim. Saltanatimni mustahkamlash uchun, to'plagan xazinamdagi naqd pullar va (qimmatbaxo) buyumlarni sipohga taqsimlab berishga va dastavval Qahlaqa qalasini olishga qaror qildim deb yozadi<sup>63</sup>. Temur endi nomigagina bo'lgan o'yinchoq podshohning hokimiyatiga xotima yasab, Movarounnahr tojini sharaf bilan kiyishni o'ylashga haqli edi. Ammo bu a'lo sharafga, taomil bo'yicha, millat majlisi — qurultoyning saylovi orqali erishishni xohladi. Chingizxondan keyin, necha asrdak so'ng Temurga nasib qilgan bu nodir qaysarlik (tsezarlik) xayolini Sharqqa xos marosimgina amalga oshira olar edi. Bu maqsad uchun Balxda yig'ilgan qurultoyda qadimgi Chig'atoy xoligining ham buyuk to'ralari, Temurning yoshligidagi quroldoshlari va avvalgi dushmanlari hozir bo'lgan edilar. Ular orasida amir shayx Muhammad, Bayon Sulduziy, amir Oljoytu, amir Kayxisrav Xattaloni, amir Dovud Dug'lat, Amir Sorbug'oy Jaloyir, amir Joqu barlos, amir Zinda Hashm va boshqa mo'tabar to'ralar bor edi. Temur qadimgi turk odatiga binoan oq kigiz ustiga o'tqazilib, yuqori ko'tarildi. Temurning piri Said Baraka duoyi fotiha qilganidan keyin u Movarounnahrning amiri deb e'lon qilindi<sup>64</sup>. Sharafuddin Ali Yazdiyning ma'lumotiga ko'ra bu qurultoylarda mamlakat va davlatning xo'jalik sohalaridagi hamda harbiy ahvol haqidagi eng muhim masalalar muhokama etdilar, mamlakat va davlat uchun zaruriy hisoblangan ishlarni bajarishda birlashib harakat qilishga qaratilgan qarorlar qabul qilinir, tadbirlar belgilanar edi<sup>65</sup>. Sohibqiron Amir Temur 1370 yildan 1402 yilgacha Xuroson, eron, Iroq, Ozarbijon, Gurjiston, Armaniston, Armaniston, Hindiston, Oltin O'rda va Turkiya bilan jang qilib, Karl Marks ta'dbiri bilan aytgan, saltanat hududi sharqda – Xitoy devoriga qadar, shimolda – Moskvaga, g'arbda – O'rta yer dengiziga, janubda esa Misr chegaralariga qadar kengaytirdi. Buning uchun 18 marta jang qilishiga to'g'ri kelgan, deyiladi. Biroq Fasih Xovafiyning "Mujmali Fasihiy" asarida voqiiy qilinsa, Amir Temur 1370 yildan to umrining

<sup>63</sup> "Temur tuzuklari". – T.: 2011. –B.35.

<sup>64</sup> Xerman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi. – T, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. – B.24.

<sup>65</sup> Mo'minov I.M. Amir Temur O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. – T, "Fan", ikkinchi nashri. 1993. – B.11.

oxirigacha 30 martadan ko'proq harbiy yurishlar qilganligi ma'lum bo'ladi<sup>66</sup>. Amir Temurning armiyasi o'nlik, yuzlik, minglik bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning har biriga harbiy boshliqlar rahbarlik qilgan. Odatda, harbiy boshliqlar rahbarlik qilayotgan bo'linmalar soniga qarab bir-birlariga, kichigi katta qismiga bo'ysunar edi<sup>67</sup>.

Shu bilan birgalikda harbiy harakatlar davrida asosiy qo'shindan tashqari yana to'rtta guruhdan iborat bo'lgan bo'linma tashkil etilgan. Bulardan:

birinchisi – pontonchilar ko'chma ko'priklar qurish ishlari bilan shug'ullangan.

ikkinchisi – naftandozlar gregorian yoki yunon olovini otuvchilar.

uchinchisi – qamal qilish mashinalarini va tosh otuvchi qurollar uchun ishlashni biladigan jangchilar.

to'rtinchisi – tog'larda olib boriladigan janglar uchun tik qiyalikka chiqqan oldadigan, tog'lik yerlarda bo'ladigan janglarga ko'nikkan, tog' aholisidan tashkil topgan maxsus piyoda qismdan iborat bo'linmalar tashkil etgan<sup>68</sup>.

Amir Temur barpo etgan armiyaning tuzilishi Chingizxon tuzgan qo'shin tizimi va tuzilishiga ma'lum darajada yaqin bo'lsa-da, biroq quydagi muhim jihatlari bilan farqlanar edi.

1. Chingiziyalar qo'shini yapi majburiyat asosida harbiy xizmatga chaqiriladigan xalq lashkaridan iborat bo'lgan holada, Amir Temur armiyasi ummumxalq harakteriga ega emas edi.

2. Chingizxon davrida qo'shin asosini ko'chmanchi omma tashkil qilgan edi. Amir Temur qo'shiniga oliy bosh qo'mondon ko'rsatgan aniq talabga binoan chorvador qatori kosibchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan mashg'ul o'troq aholidan ham sezilarli miqdorda asrar olingan.

3. Amir Temur qo'shinida harbiy kuchlarning asosini tashkil qiluvchi otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalardan tuzilgan qismlar ham anchagina bo'lgan. Ma'lumki, Chingizxon qo'shini, zabt etilgan mamlakatlar aholisidan majburiy tartibda tuzilgan hasharni hisobga olmaganda, piyoda askarlarga ega bo'lamagan.

4. Amir Temur sharqda birinchilarda bo'lib o'z armiyasiga o't sochar quroll, ya'ni to'p-ra'din olib kiradi.

5. Amir Temur tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus harbiy qismlarni tashkil qiladi.

6. Amir Temur jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga bo'linib joylashtirish tartibni joriy etadi.

Amir Temur armiyasida ayollardan tuzilgan bo'linmalar bo'lib, ular jang chog'i erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalari ko'rsatgan<sup>69</sup>.

<sup>66</sup> Fayziev T. Temuriylar shajarasi. – T.: 1995. –B.13.

<sup>67</sup> Mo'minov I. M. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. – T., Fan, 1993 – B. 20.

<sup>68</sup> Ivanin M. Ikki Buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. – T.: 1994. – B. 130.

<sup>69</sup> Dadaboev H. Amir Temurning harbiy mahorati. –T.: 1996. –B. 5.

Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni qayd etish mumkinki, Amir Temur o'z davrining yuksak harbiy mahorat va jangovarlik qobiliyat egasi hisoblangan. Ko'plab davlatlarni egallashda, markazlashgan davlat tuzishda, boshqa davlatlarni adolatli siyosat bilan boshqarishda Amir Temurning muntazam armiyasi muhim ahamiyat kasb etgan. Bu esa Amir Temur hukmronlik qilayotgan barcha hududlarda yagona hokimiyat o'rnatishning asosi bo'lib xizmat qilgan.

## **Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga vasiy va homiy belgilashning huquqiy asoslari**

*D. Yusubjonov,  
NamDU talabasi*

*Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi J. Umarov*

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida, Bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiyada "... barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar", deb belgilanadi. Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanishi, o'z ota-onasini bilishi, ularning g'amxo'rlikidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega. Biz ushbu maqolada ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni himoya qiluvchi organlar va ularni himoya qilish usullari xususida to'xtalib o'tmoqchimiz. Birinchi navbatda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lishga quyidagi omillar sabab bo'lishi mumkin:

**Ota-ona vafot etganda.** Ma'lumki, bolani tarbiyalash ota-ona vazifasidir. Bola o'z ota-onasidan tarbiya olish huquqini davlat ota-onasi vafot etib qarovsiz qolgan bolaga vasiy yoki homiy tayinlash orqali ta'minlaydi. Ota-onasi sud qarori bilan ota-onalik huquqidan mahrum etilganida yoki ularning ota-onalik huquqi cheklanganda. Oila kodeksining 79-moddasida ota-ona (ulardan biri)ning ota-onalik huquqidan mahrum qilishi asoslari ko'rsatilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

- ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlasa. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishicha, ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganlik ota-onalik burchlarini uzluksiz ravishda bajarmaslik, o'z bolalariga qanday bo'lmasin g'amxo'rlik qilmaslikni anglatadi. Tabiiyki, bunday harakat (harakatsizlik) bolani halokatga olib kelishi mumkin;

- uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'uruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa. Bu holat "tug'uruqxona va bolalarni davolash profilaktoriyasi va o'quv-tarbiya muassasasi komissiyalari tomonidan tegishli tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim";

- ota-onalik huquqini suiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan, jismoniy kuch ishlatasa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa. Ota-onalik huquqini suiste'mol qilish deganda, bu huquqlardan bolalarning manfaatlariga zid ravishda foydalanishni, masalan, o'qishga, jamoat topshiriqlarini bajarishga to'sqinlik qilishni, tilanchilikka undashni; uni spirtlik

ichimliklar va narkotik moddalar iste'mol qilishga undashni, jinoyat qilishda, jinoiy yo'l bilan daromad topishda voyaga yetmaganni jalb qilishni tushunmoq kerak.

- muttasil ichiklikbozlik yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsa. Bunday asos bilan ota-onalik huquqidan mahrum qilish javobgarni muomalaga layoqati cheklangan deb tanilganidan qat'iy nazar amalga oshirilishi mumkin;

- o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini) ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa.

Ota-onalik huquqini cheklanishi esa sud tomonidan bolaning manfaatlari hisobga olingan holda, ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilinmay turib, bola ota-onadan yoki ularning biridan olinishi to'g'risida hal qiluv qarori chiqarilishi bilan amalga oshiriladi. Oila qonunchiligiga binoan, agar ota-onalik huquqi cheklangandan so'ng o'z hulq-atvorini o'zgartirmasa, vasiylik va homiylik organi sud tomonidan mahrum qilish to'g'risida da'vo taqdim etadi.

**Ota-onasi kasal bo'lganda.** Ushbu sabab ota-ona qaramog'idan bo'lishning ob'ektiv sababi hisoblanadi (ota-ona vafoti, ozodlikdan mahrum qilish kabi). Og'ir dardga chalingan ota-ona farzandining tarbiyasi bilan shug'ullanishga imkon topmagach, bolaning hayoti, sog'lig'ti uchun xavf tug'ila boshlaydi. "Bunday hollarda vasiylik va homiylik organi bolaning ota-onasi tomonidan ko'rsatilgan shaxsni vasiy yoki homiy etib tayinlashi lozim". Bu fikrga qo'shilgan holda, shuni ham aytib o'tmoqchimizki, kasal bo'lib qolgan ota-ona jismonan bolasiga g'amxo'rlik qila olmaydi. Boshqa jihatdan esa, o'z harakatlari oqibatlarini to'liq anglab yetadi va kimlar farzandiga munosib tarbiya bera olishini biladi.

**Ota-onasi sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilganda.** Bunday hollarda ota-onaning o'ziga homiylik tayinlanishi lozim bo'ladi. Bolalar ota-onalaridan olinib, vasiylik va homiylik organining qaramog'iga topshiriladi, chunki ota-ona ixtiyorida qoldirish bola uchun xavfli bo'lishi mumkin. Ota-onasi olti oydan ortiq muddat bo'lmagan hollarda, agar bu bolalarning manfaatlari uchun zarur bo'lsa. "Bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiyaga va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan, bola o'z ota-onasi bilan birga yashash va ularning g'amxo'rligidan foydalanish huquqiga egadir. Ammo hayotda ba'zi sabablarga ko'ra bola ota-onasi g'amxo'rligidan ma'lum muddatga mahrum bo'lib qolishi mumkin. Odatda, vasiylik va homiylik qisqa muddatga emas, balki bola ma'lum yoshga yetgunga qadar tayinlanadi. Ushbu holat umumiy qoidadan mustasno bo'lib, bolaga nisbatan qisqa muddatga uning ota-onasi qaytgunga qadar – muddatga vasiy va homiy tayinlanishini nazarda tutadi. Lekin ota-ona bolalarini qarindoshlari yoki boshqa yaqin kishilari ixtiyoriga qoldirsalar, bolalarga vasiylik yoki homiylik tayinlash shart emas.

Ota-ona bedarak yo'qolganda. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 33-moddasiga binoan, agar fuqaroning qaerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishi mumkin.

Bolalarning oilalarda tarbiyalanishining katta ahamiyatga ega ekanligi tufayli tarbiya berishning farzandlikka olish va vasiylik (homyilik) tuyinish

shakllari keng tarqalgan. Biroq, farzandlikka olish uchun bir necha shartlar mavjud bo'lganligi bois, uni amalga oshirish murakkabroq kechadi. Ba'zi hollarda, esa (ota-onalarning vaqtincha boladan uzoqda bo'lishi) bolalarni joylashtirishning bunday shaklini tanlash maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bolalar tarbiyasi uchun qonun yoki maxsus hujjat bilan ma'sul shaxs bo'lishi talab qilinarkan, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hamda hali bolalar muassasalariga joylashtirilmagan bolalarga vasiy ( homiy) tayinlanishi lozim bo'ladi. Vasiy (homiy) tayinlanishi bilan ushbu shaxsga bola tarbiyasi bo'yicha huquq va majburiyatlar beriladi. Ko'rinib turganidek, vasiylik (homiylik) bolalarni oilada tarbiyalashning eng qulay shaklidir. Ba'zan esa bolani vasiylik (homiylik)ka olgan shaxslar bilan bola o'rtasida juda yaqin munosabatlar paydo bo'lib, vasiy (qomiy) bolani farzandlikka olgan hollar ham uchrab turadi. Demak, ota-ona o'z bolasiga tarbiya berish kabi vazifasini bajara olmasa yoki bajarmasa vasiylik va homiylik organlari bu bolaga nisbatan vasiylik (homiylik) belgilab, uning oilada tarbiyalanishini ta'minlab berishi lozim. Vasiylik va homiylik fuqarolik huquqi instituti sifatida namoyon bo'lganda ham muhim ahamiyatga ega. Ba'zan fuqarolik-huquqiy munosabatida ishtirok etishi lozim bo'lgan ayrim fuqarolar to'la muomala layoqati yoshiga yetgan bo'lsalar-da, o'zlarida mavjud bo'lgan ba'zi bir aqliy va ruhiy kamchiliklar tufayli muomalaga layoqatsiz bo'ladilar. Shuning uchun bunday shaxslar fuqarolik-huquqiy munosabatda ishtirok etadigan bo'lsalar, o'zlarining hatti-harakatlarini lozim darajada yurita olmaydilar, chunki ular normal harakat qila olmaydilar, o'z ishlari yuzasidan munosib hisob bera olmaydilar, shuningdek manfaatlariga ziyon yetkazilayotganligini anglay olmaydilar. Bunday hollarda ularga nisbatan boshqalarning g'amxo'rlik qilishi kerak bo'ladi. Bunday fuqarolar ustidan tegishli nazorat olib borish, ularga yordam berish va vasiylik qilish uchun maxsus kishilar hamda muassasalar jalb qilinadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, birinchidan, bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish ota-onaga (ulardan biriga) bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra (ruhiyatning buzilishi yoki boshqa surunkali kasallik, og'ir holatlarni boshdan kechirish va boshqalar) bola uchun xavfli bo'lsa, ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi. Ikkinchidan, bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish oqibatida ota-onaning hulq-atvori bola uchun xavf tug'dirsa, ota-onani (ulardan birini) ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun esa yetarli asoslar aniqlanmagan taqdirda ham ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi.

## **Shaxsning ma'naviy kamoloti va mafkuraviy kurash**

***B. B. Ibrahimov, Nam DU katta o'qituvchisi***

***I. Karimov, Nam DU tarix yo'nalishi***

***3-bosqich talabasi***

Mutaxassislarning fikricha, "globallashuv" milliy va mintaqaviy muammolarning umumjahon muammolariga o'sib o'tishi va yangi xo'jalik, ijtimoiy va tabiiy-biologik global muhitning shakllanishidir. Bu atama aslida

iqtisodiy va xo'jalik tuzilmalarining transformatsiyasi bo'lib, yaxlit va yagona jahon geoiqtisodiy voqeligiga aylanishini nazarda tutadi. Ammo globallashuvning sohalari kengayib, ular nafaqat iqtisodiy, balki ilmiy-texnik, axloqiy-etik qadriyatlar, xalqaro xavfsizlik va barqarorlikka yangi tahdidlar (xalqaro terrorizm, transmilliy jinoyatchilik, ommaviy qirg'in vositalarining global tarqalishi) va boshqalarni ham o'z ichiga olmoqda.

Bugungi globallashuv ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, siyosiy va boshqa munosabat hamda aloqalar umumjahon xarakteriga ega bo'lishini ko'zda tutadi. Shuningdek, alohida davlatlar va davlatlararo hamkorlik darajasini ortib borishi sifatida ham tushuniladi. Globallashuvning hozirgi zamon jarayonlari uchun xarakterli xususiyatlari ijtimoiy aloqalarning faoliyat sohalari bo'lgan texnologik, tashkiliy, ma'muriy, huquqiy, ma'naviy, g'oyaviy-mafkuraviy va boshqalarga ham tarqalishi hamda o'zaro aloqalar o'rnatishning ko'psonli zamonaviy kommunikatsiya va yangi axborot texnologiyalari orqali doimiy ravishda jadallashib borishi hisoblanadi.

Ayni paytda dunyoda ma'naviy, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi oqibatida ma'naviy va mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etib bormoqda. Bu jarayon tahlil qilinganida ma'naviyat sohasidagi globallashuv insoniyat yaratgan ma'naviy-madaniy boyliklarning dunyo xalqlariga yetib borishi, boshqalarning madaniy yutuqlaridan bahramand bo'lish, san'at, adabiyot kabi soqalarda yangilikka intilish, ijodkorlik kabi jihatlarni o'stirishi mumkin. Xullas globallashuv ta'sirida ma'naviy-madaniy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari baynalmilallashib, universallashib bormoqda.

Millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishidagi beqarorlik salbiy hodisalarni ham keltirib chiqarmoqda. Ular xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm va narkobiznes kabi hodisalardir. Biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli mafkuraviy markazlarning ma'naviy bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda. "Bunday uzoqni ko'zlaydigan, aniq maqsadlarga ega bo'lgan turli xuruj va g'arazli intilishlar xorijiy markazlar tomonidan katta kuch va mablag' sarflanayotgan harakatlar va bu kabi xavf-xatarlar bizga qanday zararli oqibatlar olib kelishidan ogoh bo'lishimiz darkor".

Bu jarayonning eng muhim xususiyatlaridan biri turli mamlakatlar xalqlarini ma'naviy va mafkuraviy zabt etish maqsadining g'oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan uyg'unlashib ketganidir. Ma'naviyat sohasidagi globallashuv-axloqsizlik, tubanlik va yovuzlikni targ'ib qiladigan vositalarning ham keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Ma'naviy va g'oyaviy-mafkuraviy tazyiq va tajovuzlarning oldini olish uchun esa har bir millat, davlat o'zining ma'naviy daxlsizligini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni ko'rishi zarur. Ana shunday tadbirlar izchil amalga oshirilganda ma'naviyat sohasidagi jarayonlarning globallashuvi turli qarashlardagi muayyan farqlardan qat'iy nazar, umuminsoniy



qadriyatlar, tinchlik g'oyalariga sodiqlikning kamol topishiga sharoit yaratadi, umuminsoniy tsivilizatsiya taraqqiyotining muhim omiliga aylanadi.

Iqtisodiy globallashuv bilan ma'naviy globallashuv o'zaro bog'liq jarayonlar bo'lib, turli tovarlar, xizmatlarning katta tezlikda jahon bo'ylab tarqalishi, an'ana, marosim, urf-odatlar, musiqa va raqsdagi rusumlarning ham shunday tez tarqalishi bilan birgalikda kechmoqda. Globallashuv keltiradigan qulayliklardan foydalanish uchun ham uni chuqur o'rganish, foydali va zararli jihatlarini atroflicha tahlil qilish zarur. Globallashuvni to'la va chuqur o'rganmay turib uning imkoniyatlaridan foydalanish ham, zararli oqibatlaridan saqlanish ham qiyin.

O'zbekistonga nisbatan mavjud bo'lgan tahdidlar-terrorizm, ekstremizm va diniy fundamentalizm, narkoagressiya, mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion tajovuzlar, ekologik xavf-xatarlar, ma'naviy buzg'unchilik, "rangli inqiloblar", "demokratiya" va "inson huquqlari" niqobi ostidagi xurujlar, geosiyosiy va geoiqtisodiy ekspansiya kabi turlarini yaxshi bilamiz, lekin ular davr o'zgarishi bilan turli ko'rinish va pardalarga o'ralib takomillashib bormoqda. Ammo oxirgi yillarda ma'naviyatimizga yana bir mafkuraviy xavf-xatar "ommaviy madaniyat" tahdid solmoqda. "Biz bugun yurtimizda yangi hayot barpo etar ekanmiz bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni kommunistik mafkura va ahloq normalaridan voz kechilgandan so'ng, jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo'lishi kerak".

Odatda har biri kishida ma'naviyatga qarshi bunday tahdidlar-haqiqatmi yoki sun'iy o'ylab topilganmi, chindan bormi yoki "dushman" obrazini yo'q yerdan yaratib o'rgangan mafkurachilarning to'qimasimi. degan, savollar tug'ilishi tabiiy hol albatta. Bunday vaziyatni ayrim kimsalar nazarida jiddiy xatar yo'qdek, hamma narsa zamoning zayliga qarab ketayotgandek baholaydilar. Bunday kishilar ushbu vaziyatga ko'nikib qolgan yoki vaziyatni anglamaydigan johil bo'lsalar, yana bir toifa borki, bular ma'naviy buzuqlik va axloqsizlikni-yangilik va erkinlik deb talqin va targ'ib qilmoqchi bo'ladi. Aynan mana shunday kishilar ma'naviy tahdidlarning qurboniga aylanib qoladilar.

Shunday qilib, hozirga paytga kelib axborot tizimi butun jahonni qamrab oldi. Internet, uyali telefon aloqasi, radio va televidenie, boshqa ommaviy axborot vositalari umumjahon miqyosida keng tarqaldi. Xalqlar, mintaqalar, qit'alararo aloqalar jadallashdi. Insoniyatning muvaffaqiyatlari ham, kulfatlari ham global xarakter kasb etdi. Ushbu jarayonlardan o'zbek xalqi ham chetda qolmay jahonga integratsiyalashuv jarayonini boshidan kechirmoqda. Shu bilan birga ko'plab ma'naviy sohadagi tahdidlarning nishoniga aylanib qolmoqda. Bunday vaziyatda quyidagicha yo'l tutish maqsadga muvofiqdir:

-mafkuraviy sohadagi har qanday yangilik, o'zgarishlarni kuzatib borish, ularning mazmun-mohiyatini, maqsad muddaolarini aniq bilib borish;

-jamiyatning turli qatlamlarida, ayniqsa yoshlar ongida milliy ma'naviyat, qadriyatlarimizning tobora chuqur ildiz otishiga zamin yaratish, ularni

qiziqtirish, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, bora-bora ma'naviy yuksak kishilar qilib tarbiyalashni doimiy va uzluksiz tarzda olib borish;

-milliy mafkuraning g'oyalarini hayotga tadbqiq qilish, ularning samaradorligini oshirib borish kabilar.

## **Reklama (tijorat reklamasi) tushunchasi, mohiyati, turlari**

*Akaeva Marapat Abduxalikovna,*

*Nam DU katta o'qituvchisi*

“Reklama” so’zi lotincha “reklamare” so’zidan olingan bo’lib, “chaqirmoq”, “jar solmoq”, “xabar bermoq” ma’nolarini anglatadi<sup>70</sup>. Mazkur so’zning kelib chiqish tarixiga e’tibor beradigan bo’lsak, u Qadimgi Gretsiya va Rimda bozor maydonlarda va aholi to’planadigan boshqa joylarda e’lon ko’rinishidagi axborot sifatida baland va chaqiriqli ovozlarda o’qilgan<sup>71</sup>.

Reklama alohida faoliyat turini bildiruvchi termin sifatida XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab qo’llanila boshladi. Reklama tushunchasini aniq tarzda tavsiflash murakkab bo’lib, reklama munosabatlari chuqurlasha borgani sari va uning ishtirokchilari tajribaga ega bo’lib borgani sari reklama tushunchasi va bu boradagi qarashlar ham kengayib boraveradi.

Bizningcha, reklama tushunchasini uch xil nuqtai nazardagi yondashuvlar orqali o’rganish mazkur tushuncha doirasini yanada aniqlashtirishni osonlashtiradi:

*Reklama tushunchasiga sotsial (ijtimoiy) yondashuv.* Reklama tushunchasiga va jarayoniga sotsial-psixologik jihatdan yondashish davlatimizda ilk marotaba L. I. Karimova tomonidan ilgari surilib, mazkur yondashuvga ko’ra, reklama – bu ishlab chiqaruvchi bilan iste’molchini bevosita bog’lab turuvchi, shuningdek, jamiyatning rivojlanishiga shart-sharoit yaratuvchi muhim bo’g’in sifatida ta’riflanuvchi sotsial-psixologik hodisadir<sup>72</sup>.

*Reklama tushunchasiga huquqiy yondashuv.* Reklama tushunchasiga huquqiy yondashuv reklama tushunchasiga qonunda berilgan ta’rifdan kelib chiqadi. O’zbekiston Respublikasi “Reklama to’g’risida”gi Qonunining 4-moddasiga binoan, reklama deganda bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik yoki jismoniy shaxslar, mahsulot, shu jumladan, tovar belgisi, xizmat ko’rsatish belgisi va texnologiyalar to’g’risida har qanday shaklda va har qanday vositalar yordamida qonun hujjatlariga muvofiq tarqatiladigan maxsus axborot tushuniladi. O’zbek olimlaridan biri A. Nuriddinova va rus olimi V. F. Yakovleva ham xuddi shunga o’xshash ta’rifni

<sup>70</sup> Predprinimatel’skoe pravo: Uchebnik dlya vuzov / Pod. red. N.M.Korshunova, N.D.Eriashvili. – M.: YuNITI-DANA, Zakon i pravo, 2000. – S. 167.

<sup>71</sup> Pankratov F.G., Bajenov Yu.K., Shaxurin V.G. Osnovy reklamy: Uchebnik. – M.: Izdatel’sko-torgovaya korporatsiya «Dyushkov i K», 2006. – S. 6.

<sup>72</sup> Karimova L. Sotsial’naya psixologiya i reklama: Uchebnoe posobie dlya vuzov / Pod. red. V.M.Karimovoy. – T.: Izdatel’sko-poligraficheskiy tvorcheskiiy dom im. G Gulyama, 2004. – S. 5.

keltirib o'tadi: "Reklama foyda olish maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, ularning tovar (ish, xizmat)lari, tovar (ish, xizmat) belgilari hamda tovarlarni ishlab chiqarish texnologiyalari to'g'risida tarqatiladigan maxsus axborotdir." <sup>73</sup> B. Toshevning fikriga ko'ra esa, reklama bevosita yoki bilvosita foyda olish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar yoki mahsulotlar yoxud xizmatlar to'g'risida tarqatiladigan axborotdir.

Reklamani yo'naltirilgan maqsadiga ko'ra quyidagi turga bo'lib o'rganish mumkin:

a) Tijorat reklamasi – yuridik yoki jismoniy shaxslar, tovar, ish va xizmatlarga qiziqishni shakllantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi foyda olish maqsadida tarqatilgan axborotdir.

6) Ijtimoiy reklama – ijtimoiy hayotdagi voqealarni yoritishga mo'ljallangan, shuningdek, xayriya maqsadini ko'zlovchi reklama. Bu borada U. F. Arens va K. L. Bove kabi olimlar tijorat maqsadini ko'zlamaydigan har qanday reklamani ijtimoiy reklama deb hisoblaydilar <sup>74</sup>. Biroq, ularning fikrlaridagi kamchilik shundaki, ular siyosiy reklamani ijtimoiy reklamadan ajrata olmaganlar. Davlatimizda ijtimoiy reklama o'ziga xos o'rin egallab, Toshkent shahrida reklama bo'yicha o'tkazilgan Parlament nazoratiga ko'ra, ijtimoiy reklama tarqatiladigan reklamaning 23 %ini tashkil etishi aniqlandi. Bu esa birinchi ijtimoiy reklama joylashtirilgan 1997 yilga nisbatan 25 baravar ko'pdir. <sup>75</sup>

b) Siyosiy reklama – davlatdagi siyosiy voqealarni, ya'ni saylovlar jarayoni, nomzodlarga ovoz berishni targ'ib qilishga qaratilgan, shuningdek, siyosiy partiyalarning va jamoat birlashmalarining manfaatlarini aks ettiruvchi va (yoki) ularni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan axborot.

Reklamanning yuqorida ko'rsatilgan turlari ichidan tijorat reklamasi asosiy o'rinni egallab, hattoki davlatimiz qonunchiligi reklama deganda tijorat reklamasi tushunchasiga ta'rif berib o'tgan. Mazkur reklama bozor munosabatlarida raqobatga kirishgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning foyda olishga yo'naltirilgan faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lganligi uchun ham "tijorat reklamasi" degan nom olgan.

Shuningdek, B. Toshev reklamanning mazmuniga ko'ra quyidagi turlarini ko'rsatib o'tadi:

*Ijtimoiy reklama* deb, foyda olish uchun mo'ljallanmagan, biron-bir ijtimoiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, jamiyatni xabardor qiladigan, voqea va hodisalar haqida xabar beradigan axborotlarga aytiladi. Ijtimoiy reklama tadbirkorlik huquqining ob'ekti hisoblanmaydi. Ijtimoiy reklama to'g'risidagi qoidalar "Reklama to'g'risida"gi qonunning 16-moddasida berilgan.

<sup>73</sup> Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi. Huquqshunoslik oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik // Mualliflar jamoasi: Ibratov B.I., Nasriev I.I., Burxanxodjaeva X.V. va boshq.: Mas'ul muharrir Otaxonov F.H. / T.: Toshkent Davlat yuridik instituti, 2003. – B. 174; Komercheskoe pravo. Chast' 2. / Pod. red. V.F.Popandopulo. - M.: Yurist', 2002. - S. 358.

<sup>74</sup> Bove K.L., Arens U.F. Sovremennaya reklama. – Tol'yatti: Dovgan', 1995. – S. 610.

<sup>75</sup> Reklamami yo' husnbuzar // Xalq so'zi, 2006 yil, 10 iyun'. – B. 2.

*Tezkor reklama* deb, tayyorlangan mahsulot (xizmat, ish) haqida bir vaqtning o'zida bir necha hudud va bozorda o'z mijozlariga ega bo'lish uchun ko'plab miqdor va vositalarda tarqatiladigan yangi axborotlarga aytiladi.

*Qiyosiy reklama* deb, raqobatchiga yoki u tomondan taqdim etilayotgan biror mahsulotga bevosita yoki bilvosita aynanlashtiriladigan reklamaga aytiladi. "Reklama to'g'risida"gi qonunning 15-moddasiga ko'ra, mahsulotning xususiyatlari xolisona taqqoslansa, agar bunda reklama foydalanuvchilarni chalg'itmasa, reklama beruvchi bilan raqobatchining shaxsi yoki reklama beruvchining va raqobatchining tovar belgilari, firma nomi, mahsuloti aralashib ketmasa, shuningdek, raqobatchining ishchanlik obro'sini yoki uning tovar belgisini, firma nomini, mahsuloti yoki faoliyatini badnom etmasa, qiyosiy reklamaga yo'l qo'yiladi.

Shuningdek, milliy qonunchiligimizda ishonchsiz reklama doirasiga kiruvchi xatti-harakatlar nazarda tutilmagan bo'lib, bu borada "Reklamani joylashtirish to'g'risidagi Nizom"ning 16-bandida ishonchsiz reklamaning taqiqlanishi belgilangan, xolos. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonunida ishonchsiz reklama tushunchasi va uning doirasi alohida mustahkamlanishi lozim deb hisoblaymiz.

### **Yoshlarda globallashuv sharoitida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning dolzarbligi**

*Umarov Jumaboy*

*Nam DU katta o'qituvchisi*

Globallashuv sharoitida jamiyatni axborotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kunda bir insonning o'zi minglab axborot qabul qilish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, yoshlarimizga xos axborotga chanqoqlikni inobatga oladigan bo'lsak, mazkur axborotlarning ichida to'g'ri yoki noto'g'risini ajratib olishda ularning hayotiy tajribasi yetarli emasligi, ba'zan pand berib qo'yishi mumkin. Bundan, axborotning ko'rinmas ta'sirini bilganlar esa, yoshlar qabul qiladigan axborotdan g'araz maqsadlarda foydalanishga xarakat qilishlari extimoldan xoli emas. Axborot orqali yoshlar ongiga xuruj qilish, davlatlarga nisbatan ochiqdan ochiq axborot urushini olib borish yildan yilga kuchayib bormoqda. Bunga qarshi kurashishning samarali yo'li har bir yoshning ongida axborotga nisbatan immunitetni shakllantirishdir.

"Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi"<sup>76</sup> – deb birinchi Prezidentimiz bejiz ta'kidlamaganliklarini hozirda jahonda yuz berayotgan mafkuraviy kurashlar tasdiqlab turibdi.

<sup>76</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008 B. 117.

Ayni vaqtda “ommaviy madaniyat” deb nom olgan, kishilarni axloqsizlik va ma’naviyatsizlik sari yetaklovchi salbiy holatga, o’z munosabatlarini bildirib, jamiyat a’zolarini, jumladan yoshlarimizni hushyorlikka chorlagan edilar.

Globallashuv sharoitida muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tizimni zaiflashtirish va buzishga yo’naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi mafkuraviy tajovuzlar keskinlashmoqda. Bunday tajovuzga qo’l urayotgan yovuz kuchlar o’z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo’lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklaridan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanishga urinmoqdalar.

Globallashuv sharoitida yosh avlodni turli xil yot g’oyalar ta’siridan asrab-avaylash bugungi kunning muhim va dolzarb muammosi sanaladi.

Avvalom bor yosh avlodni Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ta’lim berish milliy ma’naviyatimizni, qadriyatlarimizni asrashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bugungi yoshlarimizning aksariyati asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qiladilar. Biroq, internetning ijobiy jihatlari bilan birga, salbiy tomonlari ham mavjudligini e’tibordan chetda qoldirib bo’lmaydi. Zero, kompyuter mutaxassislari internetni kompossez yurib bo’lmaydigan o’rmonga bejiz qiyoslashmagan.

Yoshlarimiz axborot globallashuvi zamonida “Internet” tarmog’idan turli ma’lumot va tasvirlarni ko’rish, o’qish imkoniyatiga ega. Bu bir tomondan ijobiy holat bo’lsa, ikkinchi tomondan yoshlar ongiga salbiy ta’sir o’tkazishi, ularni ahloqiy jihatdan tubanlashuviga, zararli g’oyalar ta’siriga tushib qolishlariga sabab bo’lishi mumkin. G’arbdagi turli markazlar “ommaviy madaniyat” niqobi ostida har xil g’oyaviy zararli saviyasi past, ma’naviy tubanlikka yetaklovchi, animatsion va badiiy filmlar, rok-n – roll, pop, metallist yo’nalishlaridagi quloqni qomatga keltiruvchi, sharqona ahloq-odobga xilof bo’lgan musiqa mahsulotlarini yoshlarimiz e’tiboriga havola qilmoqdalar.

Ma’naviy tahdidlardan yoshlar axloqini himoya qilish yo’lining eng samarali usuli yoshlarda axloqiy immunitetni hosil qilish xisoblanadi. Bunday immunitet yoshlar axloqida ideal darajadagi sifat va fazilatlarni shakllantirishni taqozo etadi. Bunda, albatta axborot vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur.

Yoshlarda mafkuraviy immunitetni hosil qilish, ularda ona Vatanga muhabbat, o’z yurtiga sadoqat xislatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar, eng avvalo Vatanga sadoqatli, urf-odat va qadriyatlarimizga e’tiqodli qilib tarbiyalansa, shunga mos ravishda ta’lim berilsagina, har qanday buzg’unchi axborotlarga nisbatan o’z axborot immunitetlarini unga qarshi qo’yadigan bo’la oladilar.

Dunyo axborot makonida ba’zi qudratli davlatlar hukmronlik qilishga intiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa ko’proq o’zini himoya qilishga majbur bo’ladi. Aks holda, o’sha mamlakat katta ma’naviy zarar ko’rishi hech gap emas. Bunday ma’naviy tahdidlarning oldini olish uchun eng samarali

yo'llardan biri – axborot iste'molchilarida, ayniqsa, hali ongi to'la shakllanib ulgurmagani yoshlarda kuchli mafkuraviy immunitet hosil qilish va uni muttasil rivojlantirib borish zarur. Xorijiy radiolar orqali qilinadigan axborot hujumidan himoyalaniş uchun eng samarali yo'l – mahalliy OAVdan unumli foydalanishdir. Ya'ni, axborot xurujlariga qarshi milliy gazeta, radio va televideniemizdan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Oilada sog'lom turmush tarzining qaror topishi oilaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish, bilimli, aql-zakovatli barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Sog'lom oilalar axloqsizlik, e'tiqodsizlik, aqidaparastlik, xoinlik, g'iyohvandlik kabi illatlarni oldini olishga, ularni paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka o'z hissalarini qo'shadilar.

Umuman olganda oilada amalga oshiriladigan tarbiyaning mazmunini farzandlarda o'z ota-onasidan, oilasi, ajdodlari, tug'ilib o'sgan o'lkasi, vatani, millati, xalqi, tili, dini, an'analaridan g'ururlanishi hissini uyg'otishdan iborat.

Hozirga vaqtda g'oyaviy kurash va mafkuraviy tahdidlar o'sib bormoqda. Bu holatda milliy mafkuraviy xavfsizlikka qarshi tayziqning avj olishi nafaqat yuzaga kelayotgan tahdidlarni anglash, balki ularning oldini olish uchun amaliy faoliyatlarni kuchaytirishni ham taqozo etadi. Bu borada, ayniqsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirish muxim ahamiyat kasb etadi. Mafkuraviy immunitet millatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan intellektual salohiyatning mavjudligi, unga ehtiyojning ortib borishi va har qanday tashqi tahdidlarga qarshi tura oladigan, ulardan kuchli hamda ustun bo'lgan milliy mafkuraviy imkoniyatdir.

Shuningdek, milliy mafkuraga kuch va qudrat bag'ishlay oladigan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manbalarni to'g'ri aniqlab olish hamda ularni amaliyotga tadbiiq etish bugungi kunda ta'lim va tarbiyaning ustivor vazifalaridan hisoblanishi lozim.

Yosh avlodni "axborot xuruji" kabi tashqi ta'sirlardan doimo asrash va ular qalbida "mafkuraviy immunitet"ni oshirgan holda Vatanga sadoqatli qilib kamolga yetkazish uchun yurtimizda juda katta ma'naviy zamin mavjud. Eng muhimi, ulug'vor ildizlaridan quvvat olgan nihollar misol barkamol avlodning ana shu ulug' zaminda chinakam kamol topa olishidir.

Zero, yoshlarimiz buyuk ajdodlarimizning munosib davomchilari bo'lishlari uchun bizning respublikamizda barcha imkoniyatlar va shart sharoitlar yaratilgan.

### **O'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish**

*A. Xoliqov,*

*Ilmiy rahbar: B. Tillayev*

Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda milliy g'oyani o'qitishning ahamiyati katta. O'quvchi (talabalar)ga milliy go'yani o'qitishda ta'limining eng muhim vositalaridan biri o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdir.

O'quvchi-talabalarning jonli bilish faoliyati uchun quyidagilar xosdir:

- bilimga va o`quv maqsadlariga bo`lgan chuqur, har tomonlama qiziqish;
- aqliy, jismoniy va intellektual kuchlarni faol namoyon qilish;
- diqqat, xotira, iroda va boshqa ruhiy sifatlarni to`plash;

Bilish faolligi jarayonida quyidagi 4 sath ajratiladi:

• reproduktiv faollik. Bunda tayyor bilimlarni egallashga tayyorgarlik, qizg`in qayta ishlash faoliyati amal qiladi;

• applikativ faollik – unga qizg`in tanlov-yaratish faoliyatiga tayyorlik xarakterlidir;

• izohlashdagi faollik – ma`no-mazmuni qizg`in izohlash, tushuntirish va ochib berishga tayyorlik;

• produktiv (samarali) faollik – unga yangilikni qizg`in ijod qilishga tayyorlik xarakterlidir.

Bilish faolligi rivojlanishi bir necha bosqichlarni o`z ichiga oladi:

• mustaqil xatti-harakatlarga intilishda namoyon bo`ladigan amaliy faoliyatdagi faollik;

• o`rganilayotgan hodisalarning mohiyati va tamoyillarini qo`lga kiritishdagi intilish;

• ijodiy faollik (oliy bosqich) bo`lib, u sabab-qibat bog`lanishdan, ijodiy fikrlarning haqqoniyligiga, uning hayotiy va bilish qimmatiga ishonch hosil qilishdan tarkib topadi.

Aql rivojlanishining xarakterli xislatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

• atrof-muhitga faol munosabatda bo`lish;

• o`ziga ma`lumlar chegarasidan chiqishga intilishi;

• nazariy va amaliy maqsadlarda bilimlarini oshirish va ularni ijodiy qo`llashning doimiy zaruriyati;

• kuzatuvchanlik, hodisalar va faktlarning eng mohiyatli jihatlarini va aloqalarini ajrata olish qobiliyati;

• muammolarni ratsional hal qilish uchun zarur bo`lgan vazifalar va vositalar o`rtasidagi aloqalarni ta`minlovchi harakatlar va izlanishlarning izchilligi;

• ishdagi aniqlilik va natijalarni qo`lga kiritishdagi ishonchlilikni ta`minlovchi intizomlilik;

• aqliy kenglik – bu aqliy faoliyat va xotira rivoji izchilligiga asoslangan hosila sifatidir;

• keng ilmiy axborotlarga asoslanish qobiliyati;

• keng ilmiy ufq, texnik va komp'yuter vositalaridan foydalanish malakasi;

• real voqelik jarayonlarini to`xtovsiz aks ettiruvchi tushunchalarni o`zlashtirish va foydalanishga moyillik;

• aqliy faoliyatning dinamikligi;

• mustaqillik va ijodiy karakter.

Rivojlangan aqlning eng oliy shakli ijodiy tafakkurdir. U insonning bilish bosqichi va ob`ektiv voqelikni aks ettirish jarayonining oliy shaklidir. Ijodiy tafakkur faollikning va kishining mustaqil faoliyatining oliy shakli sifatida

ijtimoiy ahamiyat va betakrorlik kasb etadi. U ijodiy javob talab qilanadigan masalaning qo'yilishi; muammoni ko'ra olishi; oldindan qo'yilgan gipoteza va masalani echish yo'llari va usullarini aniqlash uchun zarur bo'lgan bilimlarni safarbar qilish; maxsus kuzatuvlar va eksperimentlar, tug'ilgan fikrlarni ifodalashni aks ettiradi.

### **Milliy ma'naviy tiklanishda milliy qadriyatlarining o'рни**

*Olimov Dostonbek,*

*NamDU talabasi*

Xalqimizning madaniy-ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la, oqilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodning vazifasidir. Gap o'tmish madaniy-ma'naviy boyliklariga ega bo'lishdagina emas, balki uni chuqur egallab, yangi yuksak bosqichga ko'tara bilishdadir.

Qadriyat tushunchasi hayotning o'zi kabi keng qamrovli bo'lib, u har bir xalq ming yilar davomida hayotning turli sohalari bo'yicha sayqallab to'plagan tajribalaridir. Axloqiy qadriyatlar, harbiy qadriyatlar, davlatchilik qadriyatlari - bularning hammasi bir butun holda halqning dunyoviy qiyofasini o'ziga xos tarzda belgilaydi. Darhaqiqat, O'zbekistonning kuch - qudrati manbai - xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligi, ulug' ajdod-larimizning avlodlarga o'tayotgan ma'naviy merosining kuchliligida, fuqarolarimizning el - yurtga, ona-zaminga bitmas-tuganmas mehrida, milliy g'ururidadir.

Hozirgi paytda taraqqiyotimiz taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Aqliy zakovat, ruhiy, ma'naviy kamolot, insofu diyonat, muruvvat, mehr-oqibat - bulan ma'rifatli, ma'naviyatli insonning asosiy fazilatlaridir.

Milliy qadriyatlar ustida fikr yuritganda yana bir muhim masalani alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi. Ma'lumki, qadimiy urf-odatimizga ko'ra, o'zbek oilalarida, ayniqsa, ko'p bolali xonadonlarda yoshlar bolaligidanoq mehnat quchog'ida tarbiyalanadi, mehnatda chiniqadi. Dalada, uy-joyda ota-onaga yordam berib, mehnat qilib, hali hech bir bola mayib bo'lgan emas. Aksincha, mehnat qilgan bola chiniqqan, oq-qorani tanigan, ota-onasining qadriga yetgan. Mehnat qilib murakkab hayot yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan har qanday to'siq va qiyinchiliklarni sabr-toqat bilan yengib o'tishga o'rgangan.

Milliy qadriyatlarimizda **bilim va bilimdonlik** juda ulug'lanadi. Bilim va zakovatning qadr-qimmati, jamiyat taraqqiyoti, shaxsning madaniy-ma'naviy, axloqiy kamoloti uchun ahamiyati haqida qanchadan-qancha kitoblar bitilganini, rivoyatlar aytilganini, maqollar to'qilganini hammamiz juda yaxshi bilamiz. Bilim eng katta boylik ekanligi, dunyoda undan qadriroq narsa yo'qligi to'g'risida Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", "Ro'shnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat", Alisher Navoiyning "Xamsa" kabi mashhur asarlarida bir-biridan muhim, bir-biridan sermazzmun fikrlar bayon etilgan.

Bizning madaniyatimiz va tariximizda insonni ilm asoslarini bilib olishga da'vat etmagan, bilimning xosiyati haqida kuyib-yonib so'zlamagan birona shoir va yozuvchi, birona olim bo'lmagan. Buning uchun loqaqal Muhammad



ibn Muso al-Xorazmiyning, Abu Nasr Forobiyning, Ahmad Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning muborak nomlarini eslashning o'zi kifoya qiladi. Ularning qalamlariga mansub bo'lgan asarlarning har biri insoniyat uchun missiz boylik, bitmas-tuganmas xazinalar konidir.

O'zlarining aql-idroklari, tafakkur quvvati, zehn-zakovati, buyuk kashfiyotlari, ilm-fani bilan dunyoni hozirgacha lol qoldirib kelayotgan buyuk mutafakkirlari, fuzaloyu ulamolari benihoya ko'pligi bilan o'zbek xalqi har qancha faxrlansa, iftixor qilsa, boshini baland ko'tarib g'ururlanib yursa arziydi! O'zbeklar nasl-nasabi, o'tmishi nihoyatda ulug' va baquvvat, ildizi juda chuqur, qadimiy xalqlardan biridir. Biz tarix maydonida kuni kecha paydo bo'lgan xalq emasmiz.

**«Tarbiya, - deyiladi muqaddas «Avesto»da, - hayotning eng muhim tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim».** Bugungi tahlikali davrda agar **ota-onaning o'zi** tarbiyalangan, milliy-ma'naviy qadriyatlardan xabardor va unga qat'iy amal qiladigan bo'lsagina, ular tarbiyalayotgan farzandda milliy xususiyatlarni ko'rish mumkin. Onaning o'zi «zamonaviy»man deb yarimyalang'och kiyinsa, behayo so'zlarni odat qilgan bo'lsa, spirtli ichimliklarni iste'mol qilib tursa, yengiltaklik ko'chasida yurgan bo'lsa yoki bunday qusurlarga ota ruju qo'ygan bo'lsa, ular tarbiyalayotgan farzandda qanday qilib ma'naviy kemtiklik bo'lmaydi, deya olamiz. **«Farzandlar tarbiyasidagi fazilatlar va nuqsonlar sababchisi bolaning o'zi emas, balki, uning ota-onalaridir»**, deganda nechog'li haq edi, o'zbek mumtoz adabiyotining namoyandalaridan biri Yusuf Xos Hojib. Zero, millat, mamlakat ma'naviy taraqqiyoti oiladan boshlanar ekan, Prezidentning quyidagi fikri uni yana bir bor isbotlab beradi: **«...Oila sog'lom ekan-jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan-mamlakat barqarordir»<sup>1</sup>.**

Haqiqatan, inson tarbiyasi, uning ma'naviy kamolati oilada tarkib topa boradi. Axir «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deb bejiz aytishmaydi. Aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash, har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlarini va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olami tashkil etadi. Shunday ekan, oiladagi muhitni yaxshilash, har tomonlama mustahkam oilalarni ko'paytirish oldimizda turgan muhim vazifa.

## **Lacuna in Uzbek and German languages**

*Khasanova Ozodakhon*

*German teacher of Polytechnic*

*institute of Fergana*

Lacuna is a gap or place where something is missing, e. g. in a manuscript or a line of argument (literary)<sup>77</sup>. This term come from Latin and means “hole”, “lacus” und “pond” in English. In the Middle 17<sup>th</sup> century was appeared this term as linguistic term. It means in Uzbek language “bo'shliq” or “teshik”. But

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 58-b.

<sup>77</sup> Encarta DVD Premium. Dictionary

we could not find this word in Uzbek glossary dictionary. It means this word is neologism for Uzbek language. There are lexical, grammar and semantic lacunas, also ethnic lacunas in every languages. I want to describe in my article grammar lacunas in Uzbek and German language. Learning semantic and grammar lacunas in two languages help teachers to teach foreign languages. For example, learning lexical lacunas is important for translating and grammar lacunas is as important for making right sentences.

There are many words in German language as every language, which don't exist in another language. For example in German language we can read "nicht mehr durstig sein". It means in Uzbek language "chanqog`i bosilmoq". But we can't describe this word as one word. This word has not equivalent as words "nicht mehr hungrig=satt". It means "to`q bo`lmoq" in Uzbek language, and in German language has an another equivalent for this word as "satt", it means in Uzbek language "to`q". These examples are for one language. Now I want to give some examples in Uzbek and German languages. When we don't know these lexical lacunas, we cannot translate or understand the text. We can translate the national holiday of Germans into Uzbek language, but in German language has not our holiday terms. For example, the word "Ostern" is translated into Uzbek language as "pasxa", but national holiday of Uzbek people as "Navruz" isn't translated into German language. There are many examples for traditional words, that Uzbek people have many traditions. Words as "Beshik to`y", "Hatna to`y" or "Fotixa to`yi" are not translated into German language.

Now we can speak about grammar lacunas. There are many grammar lacunas in Uzbek and in German grammar. One of most popular problems grammar lacunas are definite and indefinite article in German language and in Uzbek language. We know that in Uzbek language is not existed definite and indefinite article. Uzbek pupils have problems at translating and making sentences. For example, **der** for masculine, **die** for feminine and **das** for neutral. When we give words as "**der Lehrer**" and "**die Lehrerin**", our students have problems with understanding. Who is der Lehrer and who is die Lehrerin. In Uzbek language "der Lehrer" means "o`qituvchi", "die Lehrerin" means "o`qituvchi" too. But in German language two words for this word. First word is for masculine, next word is for feminine. But it is easy to teach and describe. Indefinite article is same with the word "ein". It means in English "one" or in Uzbek language "bir". Uzbek pupils don't learn this grammar themes difficult. But they make many mistakes in early learning German language. When I give some sentences for translating in German language as "Dort sitzt ein Mann". They translate this sentence as "U yerda bir kishi o`tiribdi." But here we don't need the word "bir". Next example is maybe "Ich habe ein Buch gekauft". They translate this sentence as „Men bir kitob sotib oldim.“ But we must translate this sentence as only "Men kitob sotib oldim." And they make mistakes in translating sentences from Uzbek into German language. They translate sentences as "Men qiziqarli kitob o`qidim", "Ich habe interessantes Buch gelesen." Here we must put "ein" before "interessantes". So our sentence must be write as "Ich habe ein interessantes Buch gelesen."

We can see grammar lacunas in word order too. In Uzbek language comes subject in first position, in German language too. But after subject comes predicate in German language, in Uzbek language comes object. For example:

Ich lese Buch jeden Tag.

Men har kuni kitob o`qiyman.

*Ich* is subject in German language, *Men* is subject in Uzbek language. *lese* is predicate in German language and *o`qiyman* is predicate in Uzbek language. Predicate is always at the second position in German language and at the end of the sentence in Uzbek language.

## **The role of the learners and teachers in a task-based language learning**

*B. X. Matkarimova,*

*teacher of Fergana Polytechnic Institute*

Both the students and the teachers have different roles during task-based learning. Although far from being exhaustive, Richards and Rogers explains the roles of the teachers and the students in task-based learning:

**Selector and sequencer of tasks:** The teacher has an effective role in selecting, adjusting, and creating tasks and then shaping these tasks in keeping with learner needs, interests, and language skill levels.

**Preparing learners for tasks:** Some training for pre-task is important for learners. These training activities may contain topic introduction, describing task instructions, helping students learn or recall useful words and phrases to make the task completion easy, and providing partial display of task process.

**Consciousness-raising:** The teacher uses a mixture of form-focusing techniques, which include attention-focusing pre-task activities, studying the given text, guided exposure to parallel tasks, and use of highlighted material.

As Nazenin Ruso considers, the teacher's role here is that of a language adviser. Learners plan their reports effectively and maximize their learning opportunities. As Willis puts, "tasks remove teacher domination". As a teacher my role was nothing more than a guide whereas my students' roles were highly active. Nowadays the methodology requires a change in the traditional teacher's role. The teacher does not initiate and 'present' language or 'help' during the task phase. The teacher is an observer during the task phase and becomes a language informant only during the 'language focus' stage.

Teacher and students' roles change within a task-based approach. TBL presents learning and teaching as collaborative work. Classes are student-centered. Teachers address students' needs and interests by becoming facilitators. According to Willis and Willis, teachers who engage in Task-Based Learning promote real language use; when doing so, they become leaders and organizers of discussion, managers of group or pair work, motivators to engage students in performing a task and language experts to provide language feedback when needed. The main issues here are the degrees to which the teacher is responsible for content. The teacher's role is to train students in revision skills so that students could become perceptive editors of their own work and their

classmates' work too. Teachers who want to help their students gain confidence in writing should try to follow a writing process that takes the student from insecurity to success.

Teachers can also allow or even encourage students to use the same techniques themselves for example, by accepting and responding to students' queries about form.

The teacher's role is to act as a chairperson and to encourage the students. The reports can be oral or written. Willis' examples make it clear that the reports should primarily focus on summarizing the outcome of the task. However, it would also be possible to ask students to reflect on and evaluate their own performance of the task. For example, they could be invited to comment on which aspect of language use (fluency, complexity or accuracy) they gave primacy to and why, how they dealt with communication problems, both their own and others, and even what language they learned from the task i. e. to report what all right has called 'uptake'. Students could also be invited to consider how they might improve their performance of the task. Encouraging students to reflect on their performance in these ways may contribute to the development of the metacognitive strategies of planning, monitoring and evaluating, which are seen as important for language learning, O'Malley and Chamot.

Teacher roles and learner roles are two sides of a coin. Giving the learners a more active role in the classroom requires the teacher to adopt a different role. Problems are likely to arise if there is a mismatch between the role perceptions of learners and teachers. According to Breen and Candlin the teacher has three main roles in the communicative classroom. The first is to act as a facilitator of the communicative process, the second is to act as a participant, and the third is to act as an observer and learner.

If the learners see the teacher as someone who should be providing explicit instruction and modeling of the target language, and the teacher sees him or herself as a facilitator and guide, then conflict may arise. In such a situation the teacher may need to strike a balance between the roles that she feels appropriate and those demanded by the students.

The best way of exploring the interplay between roles and tasks is to go to where the action is: the classroom itself. The two extracts that follow were taken from tasks designed to facilitate oral interaction. However, the roles of both teacher and learners are quite different.

*Extract 1*

T: Stephen's Place, OK. So Myer's is on the corner. Here's the corner, OK. One corner is here and one corner is here. Two corners, OK. Can you all see the corners? Understand the corner? Can you all see the corners? This is a corner, and this is a corner here. OK? One, two.

And here is the corner of the table.

S: And here?

T: Corner, yes.

S: Corner, yeah?

T: OK, Maria, where is the corner of your desk?

S: Desk?

T: Your desk.

S: This one, this one.

T: Corner? Your desk, yes, one corner.

S: Here.

T: Four corners.

S: Oh, four.

T: Yeah, four corners. Right, one...

S: One, two (two), three (three), four.

T: Four, four corners, yeah, on the desk. Good. OK. And where's one corner of the room? Point to one corner. Yeah, that's one corner. Yes.

Another one – two, yeah. Hung, three? Francey, four. Down on the ground. Yeah, four corners.

Learners take a central role in TBLT. This leads the teacher to take on a role of a guide. The teacher has a more passive position and often listens rather than speaks. It is the teacher's responsibility to monitor and help the students when needed. [Yu, 2007, pg. 39] The main role of the teacher is to select and prepare tasks. In doing this the teacher needs to be aware of the students' linguistic and cognitive needs and therefore needs to adapt tasks, or create tasks in order to address these needs. Teachers are also responsible for creating a pre-task, so that the class can develop the theme surrounding the task. This will help students to identify and use key vocabulary as well as activate higher thinking skills. Learners generally task on an active role in task-based learning. They can take on the role of a group participant, a monitor, and an innovator. These roles will require students to actively participate within a group, focus on form and function of the task, and develop cognitive skills such as skimming, scanning, summarizing, clarifying and stating the main idea. [Richards and Rodgers, 2011, p. 235] Materials are an important part of task-based activities and can come from a wide variety of sources. Authentic materials are considered to be valuable resources and teachers should use a wide variety of realia including newspapers, television, films, and the internet.

## **O'qituvchi kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o'rni**

*Asrayev Muhammaddullo*

*Abdullajon o'g'li*

*TATU Farg'ona filialiassistenti*

O'qituvchilik – inson jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq e'zozlab kelingan kasbdir. O'tkir Hoshimov o'zining “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida o'qituvchining jamiyatdagi o'rniga baho berib, quyidagi fikrlarni alohida ta'kidlab o'tadi: Dehqon nobop urug' sepsa, achchiq “hosili”ni bir o'zi “o'rib oladi”. O'sha yili. O'qituvchi bolaning qalbiga nobop urug' sepsa, achchiq “hosili”ni butun jamiyat o'rib oladi. Yigirma yildan keyin... Muallim moddiy boylik yaratmaydi, deydiganlar jamitni ichidan portlatuvchi bombadir!

Shuningdek, adib o'qituvchilik kasbining qadriyatga yo'nalgan jihati sifatida quyidagi fikrni ham alohida ta'kidlab o'tadi: "Ustoz otangdek ulug', deganlari bejiz emas. Ota hayot beradi. Ustoz esa yashashga o'rgatadi. Tug'ilishdan ko'ra yashash qiyinroq".

O'qituvchilik kasbining tarixiy taraqqiyoti tahlili o'qituvchining ham o'qitish, ham tarbiyalash faoliyati hamma davrlarda ham o'zaro aloqadorlikda ko'rib kelinganligi haqida fikr yuritish imkonin beradi. "O'qituvchi, – deydi Al Forobiy, - aql-farosatga, chiroylik nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmqochi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur." U o'z fikrini davom ettirib: "O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, o'quvchilarga aytmqochi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi", - deb ta'kidlaydi.

Abu Ali ibn Sinoning fikricha "...O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloqqoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim".

Nosiriddin Tusiy o'zining "O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida" degan asarida shunday deydi: "...O'qituvchi munozaralarni olib borishni, rad etib bo'lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim... O'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin..."

Qoshg'ariy: "...Men a'zolar kasalligini davolashdan oldin odamlarning ruhiyatini davolashni zarur deb topdim. Bunga men o'qituvchilik yo'li bilanerishaman, bunga mening ishonchim komil. Chunki a'zolar kasalligi bilan yuzlarcha, minglarcha odamlar halok bo'lsalar, nodonlik, bilimsizlik tufayli o'n ming va yuzminglarcha odamlar halok bo'ladilar..."

Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy ham o'qituvchi mehnatini xolisona baholab: "Agar shogird podsholikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluqqilsa arziydi", "Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila" kabi satrlar bitgan.

O'qituvchining o'rni va uning vazifalari o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi bilan aniqlanadi.

Mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni hayotga tatbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda jamiyat oldidagi javobgarligi yanada ortib boraveradi.

O'qituvchi– odobli, adolatli hamda "bola qalbining injeneri"dir. Bolaning ijobiy va salbiy xususiyatlari ba'zan murabbiydan o'tishini psixolog olimlar ta'kidlab o'tishgan. Chunki o'quvchi o'qituvchining yurish-turishi, kiyinishiga, gapirishiga taqlid qiladilar. Bola garchi yosh bo'lsa-da,

uning inson ekanligini yoddan chiqarmaslik kerak, uni ko'pchilik oldida obro'sizlantirmaslik, g'ururini toptamaslik kerak.

Pedagog olim Komil Zaripov o'qituvchining kasbiy mahorati mazmun va mohiyatini "Ilg'or o'qituvchi", "Ijodkor o'qituvchi", "Novator o'qituvchi" timsolida asoslaydi va shunday ta'riflaydi:

"Ilg'or o'qituvchi" avvalo boshqa o'qituvchilarga qaraganda o'z ishiga mas'uliyat bilan qaraydi. Shu sohadagi ijobiy tajribalarni o'rganib, o'z darklarida, ta'lim muassasidan va guruhdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo'llaydi. Shu orqali u ta'lim va tarbiya sohasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritadi.

## **The importance of grammar in learning a foreign language**

*N. M. Akramova*

*A senior teacher of "Teaching Languages" department, FerPI*

Language is the chief means by which the human personality expresses itself and fulfills its basic need for social interaction with other persons. Robert Lado wrote that language functions owing to the language skills. A person who knows a language perfectly uses a thousand and one grammar lexical, phonetic rules when he is speaking. Language skills help us to choose different words and models in our speech. The ability to talk about the grammar of a language, to recite its rules, is also very different from ability to speak and understand a language or to read and write it. Those who can use a language are often unable to recite its rules, and those who can recite its rules can be unable to use it. Grammar organizes the vocabulary and as a result we have sense units. There is a system of stereotypes, which organizes words into sentences. But what skill does grammar develop?

First of all it gives the ability to make up sentences correctly, to reproduce the text adequately. The knowledge of the specific grammar structure helps pupils point out the differences between the mother tongue and the target language. The knowledge of grammar develops abilities to abstract systematize plural facts.

In order to understand a language and to express oneself correctly one must assimilate the grammar mechanism of the language studied. Indeed, one may know all the words in a sentence and yet fail to understand it, if one does not see the relation between the words in the given sentence. And vice versa, a sentence may contain one, two, and more unknown words but if one has a good knowledge of the structure of the language one can easily guess the meaning of these words or at least find them in a dictionary. No speaking is possible without the knowledge of grammar, without the forming of a grammar mechanism. If learner has acquired such a mechanism, he can produce correct sentences in a foreign language.

It is certainly possible to teach aspects of grammar - indeed that is what language teachers have been doing for centuries - but language is a difficult

business and it is often used very inventively by its speakers, In other words real language use is often very untidy and cannot be automatically reduced to simple grammar patterns. Students need to be aware of this, just as they need to be aware of all language possibilities. Such awareness does not mean that they have to be taught each variation and linguistic twist, however. It just means that they have to be aware of language and how it is used. That is why reading and listening are so important, and that is why discovery activities are so valuable since by asking students to discover ways in which language is used we help to raise their awareness about the creative use of grammar - amongst other things.

As teachers we should be prepared to use a variety of techniques to help our students learn and acquire grammar. Sometimes this involves teaching grammar rules; sometimes it means allowing students to discover the rules for themselves. Our job at this stage of the lesson is to present the pupils with clear information about the language they are learning. We must also show them what the language means and how it is used; we must also show them what the grammatical form of the new language is, and how it is said and/or written.

What we are suggesting here is that students need to get an idea of how his new language is used by native speakers and the best way of doing this is to present language in context. The context for introducing new language should have a number of characteristics. It should show what the new language means and how it is used, for example. That is why many useful contexts have the new language being used in a written text or dialogue. A good context should be interesting for the children. This doesn't mean that all the subject matter we use for presentation should be wildly funny or inventive all of the time. But the pupils should at least want to see or hear the information.

Often the textbook will have all the characteristics mentioned here and the teacher can confidently rely on the material for the presentation. But the textbook is not always so appropriate: for a number of reasons the information in the book may not be right for our students in such cases we will want to create our own contexts for language. In conclusion, we should realize the importance of training exercises and the role of the individual approach to teaching the children. Besides, the teacher must have a clear idea of the grammar of the language, its structure and usage; everything he teaches must be based on it; he should always be conscious of introducing or practicing some point of grammar.

### **Chet tillarni o'rgatishda oddiydan murakkabga tomon yondashish masalalari**

*O. S. Tursunova,*

*Farg'ona politexnika instituti assistenti*

Har qanday chet tili o'qituvchisi o'z o'quvchi/talabalarining berilayotgan ma'lumotlarni oson o'rganib olishlarini istaydi. Shuning uchun ham chet tilini o'rgatishda oddiydan murakkabga tomon yondashib borish masalasi dolzarbdir.



Dastlab oson mavzularni o'rgata boshlash va sekin-asta murakkab mavzularga o'tish chet tillarni o'rgatish va o'rganish jarayonining muvaffaqiyati kalitidir.

Tasavvur qiling, siz nemis tilini o'rgatmoqchisiz yoki o'rganmoqchisiz. Dastlab qaysi mavzularga murojaat qilgan bo'lardingiz. Men quyida nemis tilini o'rganishni boshlaganda dastlab qaysi mavzularga murojaat qilishimiz mumkinligini izohlab o'tmoqchiman. Albatta siz o'rganmoqchi bo'lgan tilingizdagi turli so'z turkumlarini o'rgatish yoki o'rganishni boshlashingiz kerak. Aytaylik bu tartib quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Son so'z turkumidan: bu chet tilida 1 dan 100 gacha qanday sanaladi?

- Ot so'z turkumidan: otlarning ko'plik shakli qanday yasaladi? Bu tildagi otlar turlanadimi? Ha bo'lsa, kelishiklarda qanday o'zgarishlar bor?

- Artikllar: bu tilda aniq artikllar (masalan nemis tilida *der, die, das*) yoki noaniq artikllar (masalan nemis tilida *ein, eine, ein*) bormi? Bor bo'lsa, ular bilan otlar orasida qanday aloqalar mavjud?

- Sifat so'z turkumidan: Sifat so'z turkumiga oid so'zlar qaerda keladi (masalan o'zi bog'lanib kelgan so'zning oldidanmi yoki orqasidan). Sifatlarning bu tildagi tuslanish darajalari til o'rganuvchilarning ona tilisiga o'xshashmi yoki yo'qmi?

- Fe'l so'z turkumidan: bu tildagi fe'llar tuslanadimi? Bu tilda hozirgi zamon, o'tgan zamon yoki kelasi zamon qanday yasaladi? Ikki tilda ham zamonlar soni bir xilmi? Bu tilda qaysi fe'llar eng ko'p qo'llaniladi? Bu tilda yordamchi, to'g'ri yoki noto'g'ri fe'llar mavjudmi?

- Olmosh so'z turkumidan: Bu tildagi kishilik olmoshlari qanday? Egalik olmoshlari qanday yasaladi? Bu tildagi olmoshlar tuslanadimi?

- Gap tuzilishi: Bu tilda sodda gap qaysi qoidalarga asosan yasaladi? Bu tilda gapning inkor va so'roq shakli qanday yasaladi?

Agar siz shu savollarga chet tilida javob bera olsangiz, shu narsalar qo'lingizdan kelsa, siz shu tilda umumiy bilimlarga egasiz deb hisoblash mumkin.

Masalan nemis tilini o'rgatishga mo'ljallangan *Themen Aktuell I/Kursbuch* darsligida yuqoridagi mavzulardan biri bo'lgan son mavzusiga oid quyidagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin:

#### 6. Zahlen: Null bis Hundert

0	null	10	zehn	20	zwanzig		100	hundert
1	eins	11	elf	21	einundzwanzig			
2	zwei	12	zwölf	22	zweiundzwanzig			
3	drei	13	dreizehn	23	dreiundzwanzig	30	dreißig	
4	vier	14	vierzehn	24	vierundzwanzig	40	vierzig	
5	fünf	15	fünfzehn	25	fünfundzwanzig	50	fünfzig	
6	sechs	16	sechzehn	26	sechszwanzig	60	sechzig	
7	sieben	17	siebzehn	27	siebenundzwanzig	70	siebzig	
8	acht	18	achtzehn	28	achtundzwanzig	80	achtzig	
9	neun	19	neunzehn	29	neunundzwanzig	90	neunzig	

[1. 11]

100	hundert
200	zweihundert
300	dreihundert
400	vierhundert
500	fünfhundert
600	sechshundert
700	siebenhundert
800	achthundert
900	neunhundert
1000	tausend

101	hunderteins
102	hundertzwei
103	hundertdrei
104	hundertvier
105	hundertfünf
106	hundertsechs
107	hundertsieben
108	hundertacht
109	hundertneun
110	hundertzehn

111	hundertelf
112	hundertzwölf
113	hundertdreizehn
114	hundertvierzehn
115	hundertfünfzehn
116	hundertsechzehn
117	hundertsiebzehn
118	hundertachtzehn
119	hundertneunzehn
120	hundertzwanzig

[1. 27]

Ko'rib turganingizdek darslikning 11-sahifasida 1 dan 100 gacha bo'lgan sonlar, 27-sahifasida 100 dan keyingi sonlar o'rgatilyapti.

**Berliner Platz** darsligida esa fe'l so'z turkumi uchun quyidagi ma'lumotlar keltiriladi:

## Grammatik

### 3 Verbs Konjugation

Infinitiv	heiß-en	kom-m-en
ich	heiß-e	komm-e
er/sie	heiß-t	komm-t
Sie	heiß-en	komm-en

### 4 W Fragen und Antworten

Fragewort	Verb		Verb	
• Wie	heißt	Sie?	• Ich	heißt
• Woher	kommen	Können Sie?	• Er	kommt

Tolkiq, Avastli, tay Ushabta.

[3. 9]

## Grammatik

### 3 Konjugation: regelmäßige und unregelmäßige Verben

Infinitiv	Regelmäßige Verben		Unregelmäßige Verben		
	kochen	lernen	lesen	schlafen	fahren
ich	koch-e	lern-e	les-e	schlaf-e	fahr-e
er/sie	koch-t	lern-t	les-t	schlaf-t	fahr-t
Sie/Sie	koch-en	lern-en	les-en	schlaf-en	fahr-en

**TIPP** Unregelmäßige Verben mit Lernkarten lernen.



[3. 21]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, chet tili grammatikasini o'rgatishda avvalo „Bu meni qo'limdan kelyaptimi?“ degan savolni o'zimizga berib ko'rishimiz kerak. Albatta har qanday tilda juda ko'plab grammatik qoidalar mavjud bo'lib, ularni albatta egallashimiz kerak. Ammo shu bilan bir qatorda unchalik muhim

bo'lmagan narsalar ham mavjud. Ayniqsa chet tili grammatikasini o'rganishda va o'rgatishda oddiydan murakkabga tomon o'rganib orish juda ham muhimdir.

## **Yii framework haqida**

*Xashimov Axmadjon Anvarovich*

*TATU FF katta o'qituvchisi*

Yii – bu ko'p tarmoqli web ilovalar qurish uchun yuqori sifatli komponentlar asosidagi PHP – framework strukturasi. U katta kodlardan qayta va qayta foydalanishda moslashuvchanlikni va web ilovani tezkorligini oshirishiga imkon beradi. Qisqa qilib aytganda oddiy, samarali va keng ko'lamli php – framework. PHP frameworklarning o'zaro imkoniyatlarini chamalangan holda ko'rib chiqaylik.

Hozirgi kunga Respublikamizda kompyuter texnologiyalari, internet kirib bormagan birorta ham shahar yoki aholi punktlari qolmagan. Joylarda qurilayotgan zamonaviy umumta'lim maktablari, kasb-hunar kolejlari va akademik litseylar internet tarmog'iga ulangan kompyuterlar bilan ta'minlangan. Ushbu ta'lim maskanlarida bilim olayotgan talaba yigit va qizlar katta qiziqish bilan ushbu texnologiyalar asoslarini o'rganmoqdalar. Davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan AKT sohasini rivojlantirishga bo'lgan diqqat-e'tibor sababli Respublikamizda internet xizmati hajmi, internetdan foydalanuvchilar soni, xalqaro kanallarga chiqish tezligi yildan-yilga o'sib bormoqda.

Hozirgi vaqtga kelib, yoshlar o'rtasida Web-dasturlash tillariga qiziqish kuchayib bormoqda. Shu ma'noda, yosh dasturchilar oldida katta Web-loyihalarni amalga oshirish uchun qaysi Frameworkdan foydalanish kerak degan savol ko'ndalang turadi. Frameworklar nima?

Web-dasturlash sohasida ish yurituvchilar PHP dasturlash tili bilan bir vaqtning o'zida HTML, CSS, JavaScript kabi dasturlash tillaridan ham foydalanadilar. Biroq so'nggi 10 yillikka kelib, ish unumdorligini oshirish, vaqtni maksimal darajada tejash, loyihaning xavfsizligini oshirish, mijozning talabini tez va sifatli bajarish maqsadida web-dasturlash sohasida yangi Framework tushunchasi paydo bo'ldi.

Framework — bu PHP tilida yozilgan va uning ishlashi MVC konsepsiyasi asosida qurilgan (MVC — Model-View-Controller).

Model — Frameworkning bu qismi MB (ma'lumotlar bazasi)ni ulash, ular bilan ishlashga mo'ljallangan.

View — saytning bizga ko'rinib turadigan qismidir.

Controller — Frameworkni nazorat qiladi va chaqirilgan yo'l bo'yicha ruxsat oladi (View, Model va boshqa), fayllarni ulash uchun xizmat qiladi.

**MVC:** Model-View-Controller arxitekturasi bo'yicha qurish imkoniyatiga ega.

**Multiple DB's:** Bir ma'lumotlar omboridan boshqa bir qancha ma'lumotlar omboriga o'zgartirishsiz amalga oshirilishi xususiyatiga ega.

**ORM:** ActiveRecord da ma'lumotlar obyektini bog'lanishi arxitekturasini amalga oshirish.

**DB Objects:** Ma'lumotlar ombori bilan ishlash xususiyatiga ega. ( Insert, Delete, Update kabilar)

**Templates:** Qurilgan shablonlar mexanizmi frameworkiga ega.

**Caching:** Berilgan obyektlarni keshlash yoki shu kabi boshqa uslubdagi keshlashga ega.

**Validation:** Ma'lumotlar oqimini tekshirish yoki filtrlash xususiyatiga ega.

**Ajax:** Frameworkda ajax texnologiyasi orqali ishlash xususiyatiga ega.

**Auth Module:** Foydalanuvchilarni authentication qilishda o'zining maxsus moduliga ega.

**Modules:** Frameworkning o'zida maxsus komponentlarga ega (misol uchun: PDF moduli, RSS moduli). Ya'ni foydali komponentlar jamlanmasi

**EDP:** Event Driven Programming. Eventlar bilan ishlash xususiyatiga ega. Misol uchun jquery kutubxonasining click, dbclick eventlari kabi.

Har bir framework o'zining biznes logikasiga ega va bu logika frameworkning qaysidir qismida yotadi. Yilning biznes logikasi Modelda joylashgan. Biznes logika deganda - qurilayotgan web ilovaning asosiy qismini tashkil qiluvchilari tushuniladi. Masalan: Validation, beforeSave, afterSave kabilar shular jumlasidan.

Yii da URL lar bilan ishlash

Yii da URL larga oid 3 ta tushuncha.

1. module. id — client so'roviga mos keladigan modulni nomini saqlaydi. Agar NULL bo'lsa asosiy (protected/controllers dagilar) qo'llaniladi

2. controller. id — bu klass (sinf) nomi bo'lib, application (protected/controllers) yoki module/controllers dagi ishlatilishi kerak bo'lgan nomni saqlaydi

3. action. id — bu klient so'roviga mos holda controller dagi action nomini saqlaydi. Misol uchun: Agar siz sayt/index. php?r=site/index deb kirsangiz, demak Yii r dagi o'zgaruvchini quyidagicha qayta ishlaydi: module. id = NULL, controller. id = site, action. id = index. Bulardan kelib chiqib: protected/SiteController. phpdagi actionIndex metodi chaqiriladi.

Agar sayt/index. php?r=admin/users/add ga kirsangiz: module. id = admin, controller. id = users, action. id = add. Bunda Admin moduledagi protected/modules /admin/controllers/UsersControllers dagi actionAdd metodi chaqiriladi.

## **Mehnat nizolari komissiyalari faoliyatini tashkil qilishning huquqiy asoslari** *J. Umarov*

Mehnat kodeksining 262-moddasida mehnat nizolari komissiyalarini tuzish tartibi belgilangan. Jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi o'rtasidagi kelishuvda mehnat nizolari komissiyalarini tuzish nazarda tutilishi mumkin.

Mehnat nizolari komissiyalari ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tomonidan tenglik asosida tuziladi.

Komissiyaga kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organidan ajratilgan a'zolar tegishli organing qarori bilan, ish beruvchining vakili esa, uning buyrug'i bilan tasdiqlanadilar.

Mehnat nizolari komissiyalarining son tarkibi va vakolat muddati jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlar boshqa vakillik organining kelishuviga binoan belgilanadi.

Mehnat kodeksining 263-moddasida mehnat nizolari komissiyasining vakolati ko'rsatilgan.

Basharti xodim kelishmovchilikni mustaqil ravishda yoki kasaba uyushmasi qo'mitasi yoxud xodimlarning boshqa vakillik organi ishtirokida ish beruvchi bilan bevosita olib borgan muzokaralarida hal eta olmagan bo'lsa, mehnat nizosi mehnat nizolari komissiyasida ko'rib chiqiladi.

Mehnat nizolari komissiyasi yakka mehnat nizolarini ko'radi, ko'rib chiqishning o'zgacha tartibi belgilangan mehnat nizolari (269, 276-moddalar) bundan mustasno.

Mehnat kodeksining 264-moddasida yakka mehnat nizolarini komissiyada ko'rib chiqish tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra, mehnat nizolari komissiyasi mehnat nizosini ariza berilgan kundan e'tiboran o'n kun muddat ichida ko'rib chiqishi shart. Nizo ariza bergan xodimning ishtirokida ko'riladi. Xodimning ishtirokisiz nizoni ko'rib chiqishga uning yozma arizasi bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi. Basharti xodim uzrsiz sabab bilan komissiya majlisiga kelmasa, mazkur arizani ko'rib chiqishni kun tartibidan olib tashlash xususida qaror qabul qilinishi mumkin, bu esa xodimni takroran ariza bilan murojaat etish huquqidan mahrum qilmaydi.

Xodim, kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi mehnat nizosi ko'rib chiqilishida ishtirok etish uchun advokat taklif qilish huquqiga ega.

Majlisda komissiyaning ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlar boshqa vakillik organi vakillaridan iborat teng miqdordagi a'zolari ishtirok etishlari kerak.

Mehnat nizolari komissiyasining har bir majlisida raislik vazifasini ish beruvchining va kasaba uyushmasi qo'mitasining yoki xodimlar boshqa vakillik organining vakillari navbatma-navbat bajaradilar. Bunda bir majlisning o'zida raislik va kotiblik vazifasini bir tarafning vakillari bajarishi mumkin emas.

Komissiyaning har bir majlisida taraflar tomonidan keyingi majlisning raisi va kotibi tayinlanadi, ularga majlisni tayyorlash va chaqirish vazifasi yuklatiladi.

Mehnat nizolari komissiyasining majlisida bayonnoma yuritiladi. Mehnat kodeksining 265-moddasida mehnat nizolari komissiyasining qarori qabul qilish tartibi berilgan bo'lib, mehnat nizolari komissiyasining qarori ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoxud xodimlar boshqa vakillik organining vakillari o'rtasidagi kelishuvga binoan qabul qilinadi.

Komissiyaning qarori dalillar bilan isbotlangan hamda mehnat to'g'risidagi

**qonunlar** va boshqa normativ hujjatlarga, mehnat shartnomasiga asoslangan **bo'lishi kerak.**

Komissiyaning pul undirish talablariga oid qarorida xodimga tegishli **summa** aniq ko'rsatilishi lozim.

Qaror majlis raisi va kotibi tomonidan imzolanadi. U majburiy kuchga ega **bo'lib**, biron-bir tarzda tasdiqlanmaydi.

Komissiya qarorining nusxasi qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch **kun** ichida xodimga, ish beruvchiga va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organiga topshiriladi.

Mehnat kodeksining 266-moddasiga ko'ra, mehnat nizolari **komissiyasining** qarorini bajarish asoslari belgilangan.

Mehnat nizolari komissiyasining qarori bu qaror ustidan shikoyat qilish **uchun** belgilangan o'n kunlik muddat o'rgandan keyin uch kun ichida ish **beruvchi** tomonidan bajarilishi kerak.

Basharti ish beruvchi belgilangan muddat ichida komissiya qarorini **bajarmasa**, mehnat nizolari komissiyasi tomonidan xodimga ijro varaqasi **kuchiga** ega bo'lgan guvohnoma beriladi.

Agar xodim yoki ish beruvchi belgilangan muddat ichida fuqarolik ishlari **bo'yicha** tuman (shahar), tumanlararo sudiga mehnat nizosini hal etish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etsa, guvohnoma berilmaydi.

Mehnat nizolari komissiyasi bergan va olinganidan keyin ko'pi bilan uch oy ichida fuqarolik ishlari **bo'yicha** tuman (shahar), tumanlararo sudiga taqdim etilgan guvohnoma asosida sud ijrochisi mehnat nizolari komissiyasining qarorini majburiy tarzda ijro ettiradi.

Xodim belgilangan uch oylik muddatni uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborgan taqdirda, guvohnomani bergan mehnat nizolari komissiyasi o'tkazib yuborilgan muddatni tiklashi mumkin.

Mehnat kodeksining 267-moddasida mehnat nizosini ko'rishni fuqarolik ishlari **bo'yicha** tuman (shahar), tumanlararo sudiga o'tkazish va mehnat nizolari komissiyasi qarori ustidan shikoyat qilish tartibi belgilangan.

Basharti mehnat nizolari komissiyasi o'n kunlik mudda ichida mehnat nizosini ko'rib chiqmasa yoki hal etmasa, manfaatdor xodim ushbu nizoni ko'rishni fuqarolik ishlari **bo'yicha** tuman (shahar), tumanlararo sudiga o'tkazishga haqlidir.

Mehnat nizolari komissiyasining qarori ustidan manfaatdor xodim yoki ish beruvchi komissiya qarorining nusxasi topshirilgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddat ichida tuman (shahar) sudiga shikoyat qilishi mumkin.

## **Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish tushunchasi**

*S. Dadajonov, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: J. Umarov*

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish sari intilmoqda. Bunday yuksak maqsadga erishishda oilaga bo'lgan munosabat muhim o'rin egallaydi. Chunki oila jamiyatning asosiy

bo'g'ini bo'lib hisoblanadi. Har bir oilaning farovonligi, oiladagi naslning sog'lomligi, barkamolligi jamiyat farovonligida, davlatning yuksalishida kafil bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda ijtimoiy va davlat qurilishining muhim bir poydevori – kuchli ijtimoiy siyosat yurgazishga qaratilgan. Shu ma'noda davlat va jamiyat yetim bolalarni, ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi.

Har bir inson, har bir oila, jamiyatning muqaddas vazifasi, eng avvalo, qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Shuning uchun ham mustaqil O'zbekistonimizning birinchi Konstitutsiyamizda “oila-jamiyatning asosiy bo'g'ini, onalik va bolalik davlat tomonidan himoyalanaadi, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar ota-onalariga g'amxo'rlik qilishlari shart”<sup>78</sup>, deb ko'rsatib o'tilgan. Bu ishonchli, huquqiy kafolatlarda xalqimiz bosib o'tgan uzoq va yorqin tarixiy yo'lining betimsol sabog'i, qadim ana'analarimiz aks etib turadi. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi huquqiy munosabat, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-oqibati birinchi navbatda oilada namoyon bo'ladi. Aksari hollarda, ayrim oilalarda maishiy buzuq, spirtli ichimliklar yoki giyohvandlik moddalarini suiiste'mol qiluvchi, shuningdek boshqa salbiy sabablari bilan ota-onalik nomiga dog' tushirayotganlar ham yo'q emas. Bu kabi noxushliklarning oldini olish yoki ularga muayyan ta'sir choralari ko'rish maqsadida qonunchiligimizda bir qator tarbiyaviy choralar nazarda tutilgan. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlarini himoya qilish qilish ana shunday choralar jumlasiga kiradi.

Ota-onalar bolalarining jismonan va ruhan yetuk, barkamol bo'lib yetishlari uchun ularga hech qanday tayziq, ruhan ta'sir yetkazishlari mumkin emas. Aks holda, voyaga yetmagan, muomalaga layoqatsiz bola ota-onaning unga bo'lgan qo'pol munosabatidan, uning huquqi poymol etilishidan aziyat chekib bir umrga ruhan nosog'lom bo'lib qolishi mumkin”<sup>79</sup>. Bolaga yetkazilgan ma'naviy azob uchun ota-onalar qonun oldida javobgar bo'lib hisoblanadilar. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 148-moddasida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish asoslari aniq qilib belgilab qo'yilgan. Unga binoan:

–ota-ona vafot etganda, ota-onalik huquqidan mahrum etilganda, ularning ota-onalik huquqlari cheklanganda, ular muomalaga layoqatsiz deb topilganda, kasal bo'lganda, uzoq muddat bo'lmaganda, ota-ona bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganda, shu jumladan ota-ona tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga o'xshash boshqa muassasalardagi bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga

<sup>78</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston. 2016 yil.

<sup>79</sup> Nechaeva A.M. Pravonarusheniya v sfere lichnykh semeynykh otnosheniy. –M.: 1991 g.

yuklatiladi. Ota-onalar o'zlarining voyaga yetmagan farzandlarini to'laqonli moddiy jihatdan ta'minlab, ularning ma'nan va ruhan sog'lom bo'lib voyaga yetishlarida bevosita ishtirok etishlari lozim. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi-ning qonunlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar bir taraflama holatni ochib bersa ham, uning mazmun-mohiyatida asosiy e'tibor – bolaning har taraflama yetuk, to'laqonli shaxs bo'lib yetishishini kafolatlashdan iboratdir.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquqlarini himoya qilinishiga yana bir sabab shuki, ota-onalarning o'z ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishlari yoinki bo'lmasa, aliment to'lashdan bo'yin tovlashlari hisoblanadi. Ushbu holat bo'yicha, qator mutaxassis olimlar o'zlarining fikr-mulohazalarini, takliflarini berib o'tganlar. Jumladan, rus olimasi, Antokolskaya M. V. ning fikricha, ota-onalar ota-onalik huquqidan mahrum qilinib, bolalari bilan birga yashayotgan (aksari holarda ota yoki ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'ladi) va farzandi uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklarni moddiy ta'minot bilan ta'minlamasa, aliment to'lashdan bo'yin tovlasa, ushbu holat bo'yicha ota-onalik majburiyatlarini suiste'mol qilish bo'lib hisoblanadi<sup>80</sup>. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar ota(ona)ning, prokurorning, shuningdek voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning da'vosiga binoan ko'riladi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar prokuror hamda vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko'rib chiqiladi. Sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rishda bolaning ta'minoti uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onadan aliment undirish masalasini hal qilishi lozim bo'ladi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan undan ta'minot olish, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqidan mahrum bo'ladi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning bundan keyin bola bilan birgalikda yashash-yashamaslik masalasi sud tomonidan uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilinish ota-onani o'z bolasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod etmaydi. Aslida esa, oilaviy munosabatlarda qonun bola manfaatlarini ustuvor deb biladi.

Shuningdek, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onalar yoki ulardan biri o'z xulq-atvorini yaxshi tomonga o'zgartirganda yoxud mutassil ichkilikbozlik yoinki giyohvandlik qusurlarini tashlagandan keyin ota-onalik huquqidan mahrum qilingan deb topilgan shaxslarni qayta asl huquqiy holatiga qaytarish qiyin kechmoqda. Ushbu holatlarni chuqur ilmiy tahlil qilish, uni xorijiy munosabatlarning turdosh munosabatlari bilan solishtirib, uning oqilona yechimini topishdan iborat, deb o'ylaymiz.

<sup>80</sup> Antokol'skaya M.V. Semeynoe pravo. -M.: 1997 g.



Bugungi kunda O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati barpo etilmoqda va insonparvar demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan borilmoqda. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan ximoya qilinadi. Inson huquq va erkinliklari faqat milliy konstitutsiya va normalar bilangina kafolatlanib qolmaydi, ular jaxon xamjamiyati tomonidan tan olingan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va normalari bilan qo'riqlanadi va tartibga solinadi. Konstitutsiyamiz O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati ya'ni, xalqning o'zi bevosita boshqaradigan jamiyat va insonparvar demokratik huquqiy davlat qurishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Jamiki dunyoviy nematlar orasida eng ulug'i "inson" degan g'oya ulug'langan.

Insonni ulug'lash, uni huquqlarini uni muxofaza qilish va xar tomonlama kamol toptirish konstitutsiyamizning asosiy g'oyasiga aylantirilgan. Konstitutsiyamiz inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro huquqiy me'yorlar asosida ishlab chiqilgan va aytish mumkinki uni yanada to'ldirilgan. Konstitutsiyamizning aynan 13-moddasi fikrimiz dalilidir. Unda shunday deyiladi "Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat xisoblanadi"<sup>1</sup>. Ushbu moddada inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida e'lon qilingan umuminsoniy huquqlar oliy qadriyat darajasiga ko'tarilganini ham ko'rishimiz mumkin. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi insonlarning ajralmas va daxlsiz huquqlarini e'lon qilib quyidagilarni belgilaydi.

"Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarida teng bo'lib tug'ilganlari" (1-modda); "Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega" (3-modda); "Xech kim qullikda yoki qaramlikda saqlanishi mumkin emas, qulchilik va qul savdosining barcha turlari taqiqlanadi" (4-modda).

O'zbekistonda inson huquqlarini uning millatiga, diniga, ijtimoiy axvoliga, siyosiy va boshqa e'tiqodiga qarab cheklashlar yo'q. Qomusimiz o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, u faqat fuqarolarni ya'ni davlatimizga mansub kishilargina emas, balki O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha millat vakillarini muqaddas va daxlsiz huquqlarini himoya qiladi. Chunki bizda inson hamma narsadan muqaddas va daxlsizdir. Qonunda ko'rsatilgandan tashqari xech kim uni huquqlaridan maxrum etish mumkin emas. Inson erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini oliy qadriyat ekanligi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan ham kafolatlangan.

Har bir inson erkin bo'lib tug'iladi. Xoxlagan joyida istiqomat qilish huquqiga ega. Lekin, qaerda yashasa ham o'sha davlatning qonunlariga bo'ysunishi lozim. Xech kim insonning shaxsiy va oilaviy xayotiga o'zboshimchalik bilan aralashishi, oilaviy sir-asrorlarini oshkor qilishi insonning

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., 2008 y.

uy-joy daxlsizligiga tajovuz qilishi mumkin emas. Insonni kamsitish, obro'sizlantirish, xaqorat qilish, taxqirlash qonunga xilof xatti-xarakat hisoblanadi va bunday xarakatlar uchun qonun bo'yicha tegishli javobgarlik belgilanadi. Inson xayotiga tajovuz qilish esa eng og'ir jinoyat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan har yili Konstitutsiya qabul qilingan kun munosabati bilan o'tkaziladigan tantanada kelgusi yilga nom beriladi. Yillarga nom berishda insonlarning turli qatlamlarini e'zozlash va qadrlash nazarda tutiladi va mentalitetimizdagi insonlarni qadrlashni yanada takomillashtirish va avlodlarga yetkazish nazarda tutiladi. Bu yil ham "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" hisoblandi. Xalqimizning tarixiy an'analari, insonni e'zozlash, keksalarni ma'naviy yuksaltirish yilning asosiy maqsadi bo'ladi. Chunki, inson ulug'langan yurt buyuk va mustahkam bo'ladi.

### **Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati**

*J. A. Umarov*

*Nam DU, katta o'qituvchisi*

Ma'lumki, davlat tasarrufidan chiqarish - davlat korxonalarini jamoa, ijara korxonalariga, aksiyali jamiyatlarga, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, davlatga qarashli mulk bolmagan boshqa korxonalariga aylantirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish (yoki xususiylashtirish) davlat korxonasi asosida xususiy va aralash mulk shakllarini vujudga keltirishda namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish iqtisodiy islohotlar borasidagi dastlabki qadamlardan biri bo'ldi. Samarali, ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish maqsadida davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarishning tashkiliy - huquqiy asoslari belgilab berildi va ular O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida" (1991 y. 19 noyabr. ), "O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida"gi (1991 y. 15 fevral) qonunlarida va ular asosida chiqarilgan boshqa qonun hujjatlarida o'z aksini topdi.

Mamlakatdagi mavjud davlat mulki ob'yektlari to'liq yoki qisman davlat tasarrufidan chiqarilishi (yoki xususiylashtirilishi) mumkin. O'zbekistonda yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, boshqatabiiy resurslar, madaniyat boyliklari, tarixiy yodgorliklar davlat tasarrufidan chiqarilmaydi. 1990 yilning 31 oktyabrida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi sohasida muhim voqea yuz berdi: O'zbekiston Respublikasining "Mulchilik to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Bu Respublikamiz tarixida mulk to'g'risidagi birinchi yaxlit va mukammal qabul qilingan qonun bo'ldi.

1991 yil 19 noyabrda "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida" qonun qabul qilindi. Qonunning muqaddimasida belgilanganidek, u samarali, ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi davlat mulkini o'zgartirishning tashkiliy-

huquqiy asoslarini belgilab beradi. Darhaqiqat, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bozor munosabatlarining eng zaruriy shartidir.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish yangi mulkdorlarda mulk huquqi vujudga kelishining tsivilistikada qaror topgan hosila usuliga tegishli bo'lib, unga ko'ra ushbu mulkning egasi (mulkdori)-davlat o'z organlari orqali qaysi mol-mulkini o'z tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni o'zi hal qiladi.

Xususiylashtirish jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki ob'ektlarini yoki davlat aktsiyali jamiyatlarining aktsiyalarini davlatdan sotib olishidir.

Ko'rinib turibdiki, davlat mol - mulkini boshqa mulkdorlarga berishning har ikki shakli - davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish mazmun - mohiyatan bir - biriga juda yaqin. Faqat davlat tasarrufidan chiqarishda mol-mulk allaqanday guruh (kooperativ) boshqaruviga o'tsa, xususiylashtirishda esa yakka jismoniy shaxslar ham uni qo'lga kiritishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining davlat mulki ob'ektlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida qaror qabul qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan davlat boshqaruvi idoralariga, kommunal mulk ob'ektlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida qaror qabul qilish huquqi mahalliy hokimiyat boshqaruvi idoralariga beriladi.

Iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblangan mulkka davlat hukmdorligini tugatish va xususiylashtirish jarayonini muayyan dastur asosida bosqichma - bosqich amalga oshirish ko'zda tutildi.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishda quyidagi tamoyillarga asoslanilishi belgilab olindi:

- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish shakllarini mehnat jamoasining o'zi mustaqil tarzda belgilashi;
- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish vaqtida mulkni pulli va pulsiz topshirishni qo'shib olib borish;
- pulsiz va pulli xususiylashtiriladigan mulkdan ulush olishda fuqarolarning huquqlari tengligi;
- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish sharoitida barcha fuqarolar ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlash;
- oshkoralik, ya'ni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tadbirlarini amalga oshirish ustidan davlat va jamoat nazoratini yo'lga qo'yish;
- monopoliyaga qarshi qonunlar talablariga rioya etish.

Davlat mulkini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun keng yo'l ochib berdi. Zero, xususiylashtirish tadbirkorlik milliy iqtisodiyot va davlat taraqqiyotiga, shu bilan birga, milliy farovonlikka erishish yo'lidagi ishlar samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu soxaning afzallik tomoni - moslashuvchanlik, tez orada faoliyat yo'nalishini o'zgartira olish xususiyatidir. Davlat qaramligida yashab, ongiga boqimandalik kayfiyati qattiq o'mashib qolgan odamlarga mulkdorlik hissini uyg'otish oson kechmaydi. Lekin, mamnuniyat bilan ta'kidlash mumkinki, hozir vaziyat 25 yil

ilgarigidan ancha boshqacha - ko'pchilik mulkka egalik hissini anglab yetdi, mulkdorlar sinfi kengayib borayotir. Aynan shu mulkdor sinfining kengayishiga mos ravishda yurtimizda rivojlangan davlatlardek o'rta tabaqa shakllanib, o'z ko'lamini oshirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyatini yuksaltirishda mulkiy mustaqillik muhim ahamiyatga ega bo'lib, tadbirkor iqtisodiy jihatdan mustahkam bo'lsa, jamiyat yanada rivojlanishiga zamin yaratiladi.

### **Milliy Istiqlolchilik harakati**

*Saydullayev Azamat,*

*Nam DU 101-guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: katta o'qituvchisi Sh. Abdullayev*

Har qanday davlatning mustaqillikka erishishida juda ko'p vatanparvarlar katta ro'l o'ynagan. Bugun biz fikr yuritadigan mavzu ham aynan shu haqida. 1917-yil 7-noyabrda podsho Rossiyasida davlat to'ntarilishi bo'ldi<sup>81</sup>. Bu voqea o'zbek xalqi uchun ham e'tiborga molik hodisa edi. Chunki o'sha paytda biz Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lganmiz. Davlat to'ntarilishi natijasida hokimiyat Lenin boshchiligidagi kommunistlar qo'liga o'tdi. Ular barcha mustamlaka xalqlarga ozodlik va farovon hayotni vada qildi. Natijada aholining katta qismi kommunistlarni qo'llab quvvatladi. Biroq tez orada bu vadalar quruq safsata ekanligi ayon bo'lgach barcha hududlarda sovetlarga qarshi harakatlar boshlanib ketdi. Sovetlarga qarshi harakat Turkiston hududida milliy istiqolchilik harakati deb ataldi. Bu harakatning kelib chiqishiga sovet mutasaddilarining adolatsizligi sabab bo'ldi. O'zbekiston hududida Milliy Istiqolchilik harakatining markazlaridan biri Farg'ona vodiysi bo'lgan. Kommunistlar ilgari surgan tenglik, ozodlik va farovon hayot singari g'oyalarga ishongan vodiy yo'l boshchilari 1917 -yilning 26-noyabr kuni Qo'qon shahrida muxtoriyat tuzishdi. Biroq oradan 72 kun o'tib bu muxtoriyat qonga botirildi. Sovetlarning haqiqiy basharasi ochildi. Adolatsizlikka qarshi xalq qo'zg'aldi. Farg'ona vodiysi istiqolchilik harakatining taniqli namoyondalari Madaminbek, Shermuhammadbek, Omon polvon, Parpi qo'rboshi, Katta va Kichik Ergash kabi yurt fidoyilari muqaddas jangga otlandi. Ular ichida Madaminbek (1892-1920) alohida sifatleri orqali ajralib turardi<sup>82</sup>. U kuchli jangovor sifatiga ega shaxs, qo'rqmas va uddaburon inson bo'lgan. Sovet mutasaddilaridan biri Garamatovich Madaminbek haqida fikr yuritib u kuchli sarkarda bo'lib o'zining General shtabi, Sudi, Qonun chiqaruvchi organi bo'lgan degandi. Madaminbek bizning hatolarimizdan unumli foydalana olgan. Madaminbek dastlabki paytlarda sovetlar bergan vadalarga ishonib ularga hizmat qila boshladi. Lekin tez orada sovetlarning faoliyati boy va qashshoq odamlarni talashdan nariga o'tmasligi, xatto hudo yo'q deb jar solishlari, boylikka o'chligini bilgandan so'ng ularga qarshi muqaddas urushga otlandi. Farg'ona vodiysidagi

<sup>81</sup> Jo'rayev U. Jahon tarixi Toshkent 2014 y. 132-bet.

<sup>82</sup> Usmonov Q. O'zbekiston tarixi Toshkent 2011 y. 38-bet.

istiqlolchilik harakatining avj olishida bu yerda sovet hokimiyati tomonidan yuritilayotgan o'ziga xos mustamlakachilik siyosati muhim o'rin tutdi. Masalan Farg'onada din peshvolari qamoqqa olindi. Marg'ildonda esa musulmonlarning muqaddas kitobi Quroni Karim yoqib yuborildi. Andijondagi jome masjidi esa otryad qo'nalg'asiga aylantiriladi.

Qizil askarlar masjidlarga hujum qilib namoz o'qiyotgan eshon va ulamolar ustiga bombalar tashladi. Bundan tashqari Moskvada Leninga uyushtirilgan suiqasd ham aynan Farg'ona istiqolchilaridan ko'rildi. Sovetlarning vaxshiligining oxiri yo'q edi. Samarqandda jazo organlari mutasaddilari kechqurunlari kim ko'p odam o'ldirish bo'yicha musobaqalar o'tkazardilar. Istiqolchilik harakatining boshdan oxirigacha bir ustuvor g'oya butun Turkiston mintaqasining Milliy Istiqolli va mustaqilligi tashkil etadi. Sovet mutasaddilardan biri Frunze Milliy Istiqolchilik harakati haqida quyidagi fikrlarni bildirdi. Farg'onada sovet hokimiyati ilk tuzulish davrida rus va yerli ishchi dehqon ommalarini o'ziga tortish o'rniga mexnatkash xalqni o'zidan uzoqlashtirish uchun qo'lidan kelgancha harakat qildi<sup>83</sup>. Ishlab chiqarishni milliy lashtirishda faqat burjuaziyaning mulki emas balki o'rtahol dehqon mulklari ham tortib oldi. Natijada Milliy Istiqolchilik harakati paydo bo'ldi, bu oddiy g'alayon emas agar u oddiy chiqish bo'lganda biz uni allaqachon bostirgan bo'lar edik. Farg'ona vodiysidagi istiqolchilik harakatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, chorikorlar, hunarmand va kosiblar bo'lgan. Bundan tashqari ularga shahar aholisining aksariyat qismi, o'ziga to'q va badavlat oilalarining vakillari, savdogarlar, islom dini arboblari bo'lgan mulla va eshonlar, bazi boy- badavlat vatanparvarlar qo'shildi. Sovet mutasaddilari Turkiston hududidagi barcha paxtazorlarni musodara qilib yubordi. G'allaning narxi oshirib yuborildi. Natijada Turkistonda aholi ishsiz va och qola boshladi. Birgina 1917-1918 yillarda Farg'ona vodiysida aholining 30% ochlikdan qirilib ketdi. Sovetlarga qarshi nafaqat o'zbeklar balki rus va boshqa millat vakillari ham kurash boshladi. Istiqolchilik namoyondasi Madaminbek vodiydagi rus aholisiga murojat qilib o'z armiyasiga qo'shilgan oddiy askarga 1000 rubl, ofitser uchun 2000 rubl maosh vada qildi. 1919-yil 1-sentabrda Madaminbek va rus krestyanlari boshlig'i Monstrov bilan birlashdi. Bundan ko'rinib turibdiki sovetlarga qarshi nafaqat Turkistonda balki Rossiyaning o'zida hammuholifat kuchlarning faolligi sovet gazandalarining adolatsiz siyosati oqibati edi. Madaminbekning rus zobitlarini o'z qo'shiniga jalb etishdan maqsadi harbiy taktikani yaxshi egallagan bu shaxslar qo'shinga katta nafi tegishi edi. Tez orada Farg'ona istiqolchilarining jang qilish taktikasi rivojlandi. Ularning safida mahalli sharoitni ipidan ignasigach biladigan yo'lboshchilar paydo bo'ldi. Istiqolchilarning o'ziga hos kurash usullari, ularni xalq tomonidan qo'llab quvvatlanishi qizil askarlarning g'azabini qo'zg'atdi. Natijada sovet jangchilari butun shahar va qishloqlarning kulini ko'kka sovurar, havodan bambardimon qilar, tinch aholini qirib tashlardi. Bunday xunrezliklarni ko'rib sovetlarni odam deyish ham qiyin. Ular odam qiyofasidagi maxluqqa o'xshaydi, qon to'kmasdan

<sup>83</sup> Q.Usmonov O'zbekiston tarixi Toshkent 2011 y. 39-bet.

turolmaydi va bundan rohatlanadi. Istiqlolchilik harakati nomoyondalarining shaxsiy sifatлари haqida soʻz yuritadigan boʻlsak Katta va Kichik Ergash kabi istiqolchilik namoyondalarining amalga oshirgan ishlari bu harakatda tutgan oʻrni ahamiyatga molikdir. Jumladan Kichik Ergash uning boʻyi kalta boʻlganligi uchun shunday nom olgan. U 7 yil davomida Qoʻqon atrofida erkin harakat qilib dushmanga qarshi mardonavor kurashgan Kichik Ergash adolatgoʻy chin musulmon boʻlgan. 1913-yil Kichik Ergash qamoqqa olindi va 20 yil ozodlikdan mahrum qilindi. U 1915-yil Andijondagi qamoqxonadan qochishga muaffaq boʻldi. Kichik Ergash Rossiya imperiyasiga qarshi muqaddas urushlarda ishtirok etdi. Jumladan 1918-yil 10-yanvar Xakent yaqinida, 12-yanvar Toshat qishlogʻida boʻlgan janglarda qatnashdi. 1918-yil 27-fevral kuni Bachqir qishlogʻidagi boʻlib oʻtgan janglarda shaxid ketdi.

Istiqlolchilik namoyondalaridan keyingisi Madaminbek boʻlgan. Madaminbek istiqolchilik harakatining eng zoʻr boshligʻi boʻlgan. Uning bir akasi va ikki opasi boʻlgan. Madaminbek kuchli va bilimli inson edi. Bunga sabab ota-onasi ham ziyoli kishilar edilar. Madaminbek Rossiya imperiyasiga qarshi kurashgani uchun 1914-1917 yillarda Sibirga katorgaga yuborildi. 1917-yil siyosiy maxbus sifatida ozod etildi. Margʻilonga kelgandan soʻng u Shoʻroyi Ulamo tashkiloti tashabbusi bilan shahar mirshablar boshligʻi lavozimini egalladi. 1918-yil bahoridan boshlab Madaminbek uzil-kesil istiqolchilar safiga qoʻshildi. Oʻsha vaqtda uning qoʻl ostida 1000-1500 nafar yigitlar bor edi. Milliy ozodlik harakati safiga Madaminbek kabi salohiyatli sarkardaning qoʻshilishi bu harakatni yanada kuchaytirdi, chunki Madaminbek boshqa sarkardalarga nisbatan oʻz davri shart-sharoitlarini yaxshi tushunar edi. Qizil armiya bilan boʻlgan bir qator janglarda magʻlubiyatga uchragan Katta Ergash qoʻl ostidagilarning koʻplari Madaminbek qoʻl ostida birlashdi. 1919-yil Madaminbek qoʻl ostidagi askarlar soni 25000ga yetdi. Madaminbek qoʻshini safida istiqolchilarning barcha tabaqalariga mansub kishilar bor edi.

Shermuhammadbek oʻziga Nosirxon Toʻrani pir deb biladi va sovetlar haqida undan malumotlar olib turadi. Bundan tashqari Turkiston respublikasi va Buxoro Xalq Jumxuryatidagi jadidlarning bir qismi bu paytda sovet tashkilotlarida faoliyat yuritishsa-da milliy mustaqillik toʻgʻrisidagi oʻz gʻoyalaridan voz kechishmagan edi. Bu davrda tashkil topgan Milliy Ittihad va Milliy Istiqlol firqalari Istiqolchilik harakatining keyingi rivojlanishida muhim oʻrin tutadi. Milliy Ittihad firqasi 1920-yilning oxiridayoq Fayzulla Xoʻjayev boshchiligida Buxoroda tashkil topdi. Milliy Ittihad firqasi Buxoro Jumxuriyati 1920-yilda tuzilganini huquqshunos Fayzullo Qilichev ham oʻz tadqiqotlarida tasdiqlaydi. U Buxoroning soʻngi amiri Sayid Olimxonning jiyani boʻlib taqdir taqazosi bilan Oʻzbekiston Respublikasi Prokraturasida masul lavozimlardan birida ishlagan. Andijon uyezdidagi Istiqolchilardan Umarali Boyvachcha Umarboyev, Ashur Aliyev kabi namoyondalari boʻlgan. Bundan tashqari 1920-yil dekabrda Buxoroga kelgan taniqli arbob Zakiy Valdiy Buxoro, Xorazm, Turkistondagi butun istiqolchilik guruhlariga siyosiy jihatdan rahbarlik qiluvchi markaz tuzish uchun harakat qildi. U Buxoro rahbari Fayzullo Xoʻjayev, Usmon Xoʻjayev, Abdulqodir Muhiddinovlar bilan oʻz rejalarini maslahatlashdi.

Buxoro shahrida 1921- yil 23-oktyabrda Turkiyalik Anvar poshsho bilan uchrashdi. 1921-yil 2-5-avgust kunlari O`rta Osiyo Milliy Jamiyatlar Federatsiyasi keyinchalik Turkiston Milliy Birligi deb atalgan tashkilot tuzuldi.

Samarqanddagi kongresda jamiyatning 24 banddan iborat ustavi va Turkiston bayrog`i qabul qilindi. Farg`ona vodiysidagi Milliy Ozodlik harakatining g`oyaviy jihatdan birlashtirishda mashhur qirg`iz millatparvari To`raqul Jonuzqulov ham muhim ro`l o`ynadi. U 1921-yilning ohirida shiddatli janglarning birida halok bo`ldi. Bir so`z bilan aytganda Milliy Istiqlolchilik harakatida ham harbiylar ham ziyoli shaxslar katta ro`l o`ynadi. Ularning ko`plari muqaddas urushda halok bo`ldi. Milliy Istiqlolchilik harakati mag`lubiyatga uchragan bo`lsa-da ularning muqaddas orzusi avlodlar uchun namuna maktabiga aylandi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug`aniyevich Karimov tashabbusi bilan 1991-yil 31-avgust kuni O`zbekiston mustaqillikka erishdi. Biz kelajak avlod Milliy Istiqlolchilik namoyondalarining muqaddas orzulariga munosib voris bo`lishimiz lozim.

### **Bola tarbiyasida milliy o`yinlarning pedagogik asosi**

*Rahmatullayeva Mehribon,*

*Nam DU BT 48-2014-guruh talabasi*

Hozirgi davrdagi fan va texnika sohasida erishilgan yutuqlar birdaniga hosil bo`lmagan. Ilm-fan sohasidagi bu yutuqlar uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli bo`lib, unga dunyodagi ko`plab xalqlarning ulushlari qo`shilgan. Bu orada O`rta Osiyo xalqlari ham munosib o`ringa ega.

Insoniyat madaniyati rivojiga munosib hissa qo`shgan O`rta Osiyo mutafakkirlarining ilm-fan sohasidagi yutuqlari yaqin vaqtlargacha to`g`ri baholanmadi, ularning asarlari, ta`limotlari to`la-to`kis o`rganilmadi, yaroqsiz meros sifatida qoralanadi. Ajdodlarmiz Xorazmiy, Farg`oniy, Beruniy, Ibn Sino ilmi, Ulug`bek koinoti parda ortida qoldi, deyarli unutilmadi.

Mustaqillik tufayli O`rta Osiyo va Sharq xalqlarining o`tmishida fan sohasida yaratgan boy milliy merosini o`rganish va xalqimizga etkazish borasida katta imkoniyatlar yaratildi, o`lkamizda ilm-fan, ma`rifat gullab-yashnaganligi, G`arbdagi uyg`onish davri uchun milliy zamin yaratib berganligi inkor etib bo`lmaydigan dalillar asosida isbot qilindi.

Birinchi Prezidentimiz I. Karimov ta`kidlaganidek, millat, davlat, jamiyat taqdiri hal bo`layotgan pallada o`zligimizni anglash, ma`naviy ildizlarimizni unutmashlik katta ahamiyatga ega.

“Biz, - deydi Prezidentimiz, - jahon maydonida kuni kecha paydo bo`lgan xalq emasmiz”. O`zbek xalqi tarixi betakrordir. Bizning tarixiy hayotimiz, madaniyatimiz ildizlari shuni ko`rsatadiki, barcha turkiy xalqlar bilan tilimiz b<sup>84</sup>ir-biriga yaqin, dinimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz bir ekanligi, madaniyatimiz mushtarak bo`lganini e`tirof etadi.

---

I. Karimov I.A. “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch”. T. “Ma`naviyat”, 2008 y. 280 bet.

“Biz ular bilan ajdodlarimizni har tomonlama rivojlantirish taraʼdorimiz, deb taʼkidlaydi Prezidentimiz I. A. Karimov. – Bunga tarixiy, milliy, madaniy asoslarimiz bor. Butun dunyo hamjamiyati bizning buyuk tariximiz va madaniyatimizni eʼtirof etib, bugungi kunda... bizni taniydi va hurmat qiladi”<sup>85</sup>.

Demak, bizning oʻz tariximiz va madaniyatimiz boʻlgan. Buning uchun bizning tarixiy, milliy, madaniy asoslarimiz bor. Biz oʻz hayoti, madaniyati, tarixiga ega xalqimiz.

Milliy oʻyinlar tarixini oʻrganishda Mahmud Qoshgʻariyning “Devoni lugʻotit turk” asarining oʻrni beqiyos. Asarda xalq oʻyinlarining bir yuz ellikdan ziyod turi tilga olingan. Jumladan, “qorangʻuni” (qorongʻida qoʻrgʻon olish), “bandol” (asir olish), “oʻtish-oʻtish” (davra oʻyini), “chavgon” (toʻp oʻyini), “oʻt bandal” (tayoq oʻyini), qilichbozlik, nayzadorlik va boshqa oʻyinlar haqida ham maʼlumot beriladi. Lugʻatda izoh berilgan oʻyinlarning bir nechtasi hozirgi kunda ham oʻquvchilari uchun qiziqarli mashgʻulot sanaladi. “Alpomish” dostoni xalq oʻyinlarini oʻrganishda muhim manba hisoblanadi. Unda kurash, ot, poyga, uloq, nayza sanchish, kamondan oʻq otish, qilichbozlik, merganlik kabi oʻyinlar negizida mardlik, jangovarlik, oriyat, matonat, maʼnaviy va jismoniy komillik kabi fazilatlar oʻz ifodasini topgan. Doimiy oʻtkaziladigan oʻyinlar bilan birga har bir faslga xos oʻyinlar ham mavjud. Masalan, bahorda daraxtlar uygʻonib, tollar kurtak chiqarganda – “tol bargak”, dala gullari ochilganda – “gul oʻyini”, pishiqchilik paytida danak, yongʻoq oʻyinlari, argʻimchoq uchishlar sevib oʻynalgan. Kech koʻz, qishda yogʻingarchilik boshlanib, yer yumshaganda qoziq, oshiq, tosh oʻyinlar odat tusiga kirgan. Qor yoqqanda “qorxat”, “qorboʻron”, yomgʻir yoqqanda “yomgʻir yogʻaloq”, kuchli shamol esganda “boʻron-boʻron”, sovuq oʻz kuchini koʻrsatganda barcha sandal atrofida yigʻilib, “topishmoq top”, “tez aytish”, “kim aytdi” kabilar oʻynalgan. Kech koʻzdan to bahorgacha “uloq-koʻpkari” musobaqalari oʻtkazilgan. Qadimdan yurtimizda toʻy-tomoshalar, bayramlar xalq oʻyinlari bilan yanada fayzli, koʻtarinki ruhda oʻtgan. Xususan, eng ommaviy boʻlgan milliy oʻyinlardan uloq-koʻpkari va kurash toʻy va bayramlarning sevimli tomoshasiga aylangan.

Xalq orasida kurash tushuvchi kuchli odamlar juda hurmat qilingan, atrofdegilar ularga havas bilan qaragan. Shuning uchun belini bogʻlab kurash tushadigan polvonlar xalq shodiyonalarining ardoqli mehmoni sanalgan. Kurashda polvonning ori, mahorati sinovdan oʻtgan, – deydi surxondaryolik Abdugʻani Toshmurodov. Hozirgi kunga kelib kurash yanada takomillashtirildi. Shu bois unga qiziquvchilar tobora koʻpaymoqda. Kurash bayramlarda, xalq sayillarida muntazam oʻtkazilayotir. Xalqimiz har yili Navroʻz ayyomini katta shodu xurramlik bilan kutib oladi. Ana shu bayram kunlari anʼanaga koʻra koʻpkari, varrak uchirish, halinchak uchish kabi turli oʻyinlar oʻynaladi. Dalayu qirlarda, bogʻu rogʻlarda xalq sayillari qizigandan qiziydi.<sup>86</sup>

5.Karimov I.A. “Yuksak maʼnaviyat yengilmas kuch”. T. “Maʼnaviyat”, 2008 y. 280 bet.

<sup>86</sup> . kitob.uz



Mustaqillik yillarida urf-odatlarimiz nafaqat asl qiyofasiga qaytdi, balki mazmunan boyidi va yanada sayqal topdi. Ayni vaqtda bayramlarimizda kuy-qo'shiqlar, folklor-etnografik jamoalarning chiqishlari, lapar, o'lan, alla ohanglari, milliy xalq o'yinlari uyg'unlashtirilib ijro etilmoqda.

Demak, kurash uch ming yildan buyon xalqimiz udumi bo'lib kelmokda. 1247-yilda Xorazmda Pahlavon Mahmud ismli farzand dunyoga kelgan edi. U insoniy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan ajoyib shoir va mutafakkir bo'lib etishadi. Shu bilan birga ul zot o'zbek kurashini dunyoga targ'ib etganlardan biridir. Bu zot 40 yildan ortiq davrda keng mintaqada, xususan Movorounnaxr, Xuroson, Hindiston, Eron va boshka yurtlarda «elkasi erga tegmagan» polvon bo'lgan. Ayni paytda Pahlavon Mahmud sog'lom turmush tarzini targ'ib etib, nafsni tiya bilish muhimligini qayta –qayta takidlagan. O'zi esa sakson yil umr ko'rgan. Aytishlaricha, Pahlavon Mahmud hind polvoni bilan bir necha kunga cho'zilgan olishuvda g'olib chiqqan va buning evaziga uning asirlikdagi o'n ming nafar yurtdoshlari ozod qilingan. Darvoqe, oradan deyarli uch asr o'tib Alisher Navoiy Pahlavon Mahmudga bag'ishlab maxsus asar yaratadi, uning xayotini o'ta ibratli deb hisoblaydi. O'quvchilar ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirishda dastlab ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish orqali mazkur qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar tarkibiga kiruvchi milliy urf-odatlar, an'ana va udumlar, bayram va marosimlar avlodlar kamolotida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Xalqimiz asrlar davomida shu qadriyatlarga sodiq qolgan, ulardan farzandlar tarbiyasida foydalana olgan.

### **Video texnologiyalarni ta'minlovchi kompyuter vositalari**

*Asraev Muxammaddullo Abdullajon o'g'li*  
*TATU Farg'ona filiali assistenti*

Foydalanuvchi bilan kompyuter orasidagi axborot almashinuvini monitor ta'minlab beradi. Birinchi mikrokompyuterlar indikatsiya vositalariga ega bo'lmagan blok ko'rinishida bo'lgan. Zamonaviy standartlarga nisbatan birinchi kompyuter monitorlari ancha sodda: matn faqat bir xil rangda (odatda faqat yashil) bo'lar edi. Keyin rangli monitorlar ishlab chiqildi, ekran o'lchami kattalashdi va suyuqkristalli panellar portativ kompyuterlardan foydalanuvchining ishchi stoliga chiqarildi.

Monitorlar axborotni aks ettirishning juda muhim qurilmalaridir. Katta sondagi videostandartlar bo'lgani kabi hozirgi vaqtda mavjud monitorlar tiplari ham rang – barangligi bilan ajralib turadi.

Raqamli (TTL) monitorlar. TTL inglizcha Transistor Transistor Manic atamasining qisqartmasi bo'lib, o'zbekchada tranzistor-tranzistor manikasini anglatadi. TTL atamasi elektron texnikasida qo'llaniladigan raqamli mikrosxemalar standart talqinini anglatadi. Har doimgidek, raqamli texnikada, signallar faqat ikkita: mantiqiy "1" va "0" holatga ega.

Monoxromli monitorlar (MDA). TTL -monitorlar haqida soʻz borganida, koʻpincha monoxromli monitorlar koʻzda tutilib, ularni boshqarish signallari MDA yoki Hercules kartalari tomonidan shakllantiriladi. Monoxromli deganidan tushunarliki, ekrandagi nuqta faqat yorqin yoki qora rangli boʻlishi mumkin.

Rakamli RGB – monitorlari (CGA, EGA, VGA). RGB – raqamli monitorlar (Red/Green/Blue - qizil/yashil/koʻk) asosan EGA standartdagi kartaga ulanish uchun moʻljallangan. Bunday tuzilmalar 16 ta raqamlarni gradatsiyasini aks etishga imkon beradigan monoxrom rejimda ham ishlaydilar. Shaxsiy kompyuterlar paydo boʻlganidan beri, bir necha standartlar oʻzgaradi: MDA (monoxrom), CGA (4 ta rang), EGA (16 ta rang), VGA (256 ta rang). Hozirgi kunda qator standart qiymatlardan ekran kengaytmasini toʻgʻri tanlash imkoniyatiga ega boʻlgan, 16, 7 mln ranglarni tasvirlay oladigan SVGA monitorlari ishlatilmokda.

Rastr shakllanishi. Elektron – nurli trubka asosidagi monitorni ishlash tamoyili oddiy televizorning ishlash tamoyilidan ozgina farq qiladi. Katod (elektron toʻplari ) orqali otiladigan elektronlar toʻplami lyuminofofor bilan qoplangan ekranga tushib nurlanish hosil qiladi. Elektronlar toʻplami yoʻlida odatda qoʻshimcha elektrodlar joylashgan boʻladi: elektronlar toʻplami tezligini va u bilan bogʻlik tasvir yorugʻligini toʻgʻrilovchi modulyator va toʻplam yoʻnalishini oʻzgartirish imkoniga ega boʻlgan, ogʻdiruvchi tizim. Kompyuter monitori (hamda televizor) ekranida har qanday matnli yoki grafik tasvir **piksel** deb ataluvchi tasvir (rastr) ining minimal elementini ifodalovchi lyuminoforming koʻplab diskret nuktalaridan iboratligiga eʼtibor beramiz. Bunday monitorlar rastrli deb ataladi. Bu holatda elektron nur butun ekranni doim skanerlab turadi va yoymaning yaqin joylashgan qatorlarini hosil qiladi. Modulyatorga uzatiladigan videosignal qatorlari boʻyicha nurni harakat qilishi yorugʻlik ravshanligini oʻzgartiradi va baʼzi bir koʻrinadigan tasvirni tashkil etadi. Monitor qobiliyati gorizontol va vertikal boʻyicha aks eta oladigan tasvirlarning elementlari soni bilan aniqlanadi, masalan: 640x480 yoki 1024x768 piksellar. Rastrni shakllantirish uchun monitorda maxsus signallar ishlatiladi. Skanerlash davrida nur sinik chizik tarzidagi traektoriya boʻyicha chap yuqori burchakdan oʻng quyi burchakgacha harakat qiladi. Gorizontol boʻyicha nurning toʻgʻri yurishi qatorli yoyma signali bilan, vertikal boʻyicha esa kadrli yoyma signali bilan amalga oshiriladi.

Nur qatorni chetdagi oʻng nuqtasidan, keyingi qator chetdagi chap nuqtasiga (nurni gorizontol boʻyicha qayta yurishi) oʻtishi va ekranni oxirgi qatorini chetdagi oʻng holatida birinchi qator chetdagi chap holatiga (nurni vertikal boʻyicha qayta yurishi) oʻtishi maxsus qayta yurish signallari bilan amalga oshiriladi. Shunday qilib, monitor uchun eng muhimi quyidagi koʻrsatkichlar hisoblanadi:

- vertikal yoymaning (kadrli) chastotasi;
- gorizontol yoymaning (qatorli) chastotasi;
- videosignalni oʻtkazish chizigʻi kengligi.

## O'quvchilardagi tezkorlik sifatlarini tarbiyalash

*U. Quchqorov,  
Nam MTI o'qituvchi*

Tezkorlikni tarbiyalash maqsadida alohida o'quvchilarga harakatlarning tezkorligini, harakat reaksiyasiga bog'liq bo'lgan mahsus mashqlardan foydalaniladi. Tezkorlik deganda o'quvchilardagi harakatlarning tezkorlik xarakteristikasini, shuningdek, harakat reaksiyasining vaqtini bevosita va asosan belgilovchi funksional hususiyatlar kompleksi tushuniladi. Tezkorlik namoyon bo'lishining uchta asosiy (yoki elementar) formalari mavjud.

- 1) harakat reaksiyasining latent (yashirin) vaqti (signalni eshitgan vaqtdan harakatni boshlangacha bo'lgan davr);
- 2) ayrim harakatlar tezligi (tashqi qarshilik kichik bo'lganda);
- 3) harakatlar chastotasi.

Tezkorlik namoyon bo'lishining elementar formalari bir-biriga nisbatan bog'liq emas. Bu ayniqsa harakat reaksiyasining harakat tezligi ko'rsatkichlariga ko'pincha aloqador bo'lmaydigan vaqt ko'rsatkichlariga taalluqlidir. Ko'rsatib o'tilgan uchta formaning birgalikda kelishi tezkorlik namoyon bo'lishining barcha xollarini belgilaydi. Masalan, sprinter yugurishdani natija start olishdagi reaksiya vaqtiga, ayrim xarakatlarning (depsinish, sonni oldinga o'tkazish va b. k. ) tezligiga va qadamlar surxatiga bog'liq. Amalda esa tezkorlik namoyon bo'lishining aytib o'tilgan elementar formalari emas, balki yaxlit xarakatlarning (yugurish, suzish va xokazolarning) tezligi katta axamiyatga ega, albatta. Biroq murakkab – koordinatsion yaxlit xarakterdagi tezlik faqat tezkorlik darajasiga emas, balki boshqa sabablarga xam bog'liq. Masalan, yugurishda ilgarilab ketish tezligi qadam uzunligiga bog'liqdir, qadam uzunligi esa o'z navbatida, oyoqning uzunligi va depsinish kuchiga bog'liq. Shuning uchun yaxlit harakat tezligi kishining tezkorligini faqat bevosita karakterlaydi, mufassal taxlil qilishda esa faqat tezkorlik namoyon bo'lishining elementar formalirigina axamiyatliroqdir. Tezlikni aniqlash uchun qulay model qisqa masofalarga yugurishdir. Bunda barcha 3 ta komponent harakat reaksiyasi tezligi- start signali berilishi bilan yugurishni tez boshlash imkoniyati, masofa bo'yicha yugurish va yugurishda har bir qadam tezligi kompanenti namoyon bo'ladi.

Tezlikni 10-12 yoshdan tarbiyalash juda maqsadga muvofiq bo'ladi, boshqa yosh davrlarida tezkorlik sekin rivojlanadi. Harakatlar tezligi kuch imkoniyatlari oshganda ancha o'sadi. Agar muskullarning muloyimlik xususiyatlaridan oqilona foydalanilsa harakatlar tezligi oshadi, chunki o'ta cho'zilgan muskullar katta kuch va tezlik bilan qisqaradai. Muskullar muloyimligini yaxshilash uchun bo'shashgan va kuchlangan ishlovchi muskullarni chuzishga mo'ljallangan maxsus mashqlarni bajarish lozim. Aniqlik va tsiklik harakatlar tezligi ko'p jihatdan ulardan foydalanish texnikasi bilan belgilanadi (25, 30). Qisqa vaqt 5-20 soniya ichida bajariladigan harakatlar tezkorlik bilan bajarish qobiliyatini tarbiyalashning samarali vositalari bir maqomdagi musiqa, tovush signallari, qarsaklar va shu kabilar ostida berilgan tezlikda va musobaqalar sharoitida

tezlikni asta-sekin oshirib boruvchi umumiy tezlik va maxsus mashqlardir. Tezlikni boshqa turlari kabi ayrim harakat tezligini tarbiyalashda yuxshiroq bajarishga qaratilgan vazifaga ega musobaqa va o'yin usulini qo'llash alohida ahamiyatga ega. Tezkorlik paydo bo'lishining elementar shakllari va boshqa qobiliyatlari yig'indisidagi majmuaviy texnika malakasi bilan taxdaqlanishi tezlik layoqatini jadal murakkab aktlarda ko'rinishi alohida sport turlariga xosdir.

Majmuaviy shakllarga taalluqli bo'lgan holatlar:

◆ *startda maksimal imkoniyatlarcha bo'lgan tezlikni olish qobiliyati.* (start tezlik qobiliyati) sprinterga yugurishdagi start tezligini oshirish, konxkida yugurish va eshkak eshish sportida, futboldagi, sakrash, tennisdagi koptokni olish;

◆ *masofa tezligida yuqori darajalarga erishish qobiliyati* (masofa tezlik qobiliyati) yugurishda, suzishda.

◆ *bir harakatdan boshqasiga tez o'tishi qobiliyati.*

Tezkorlik qobiliyati darajasini rivojlantirish omillari:

1. Asab jarayonining harakatchanligi, yaxni asab markazining hayajonlanish holatidan tormozlanish holatidagi o'tish tezligi.

2. Turli mushak to'qimalari egiluvchanligi va cho'ziluvchanligining o'zaro munosabati.

3. Ichki va o'rta mushaklarning muvofiqlash samaradorligi.

4. Harakat texnikasining mukammaligi.

5. Iroda fazilatlarini, kuchlarini, muvofiqlash qobiliyat-lari, egiluvchanligini rivojlantirish darajasi.

6. Mushaklardagi ATFning miqdori, uning resintezi va parchalanish tezligi (tiklanish).

Tezkorlik sifatlarining hosil bo'lishi tashqi muhitdagi haroratga ham bog'liq. Harakatning maksimal tezligi +20-22\* haroratda kuzatiladi va +16da\* 6-9% ga tushib ketadi, shuning uchun inson tezlik qobiliyatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uncha baland bo'lmagan tezkorlik masofasida yaxshi start tezkorligini egallagan holda, bir harakatni boshqasiga nisbatan sekin bajarish yoki buning aksi bo'lishi mumkin. Bu bilimlarni o'rganish amaliyot uchun foydalidir. Basketbolchilar, futbolchilar, tennischilar uchun start tezligi muhim bo'lgan mashqlar tanlanadi. Asosiy diqqatni masofa bo'ylab yugurishga emas, balki turli holatlarda start tezligining harakat yo'nalishini tez o'zgartirishga qaratiladi.

Tezkorlik qobiliyatlarining alohida shakllari o'rtasidagi nisbiy erkinlik harakat vazifalari yuqori tezlikka xatosiz erisha olmasligini ko'rsatadi. Tezlik qobiliyatining to'g'ridan - to'g'ri ko'chish harakatlari muvofiqlash - o'xshashligida kuzatiladi. Mashg'ulotlardagi oyoqlarni bukish tezligi yadro uloqtirishda, sprintercha yugurishda, joyidan turib sakrashda yaxshi natijalarni egallashda muhim ahamiyatga ega, lekin suzishda, boksda bu harakat ahamiyatsiz. Tezlik qobiliyatining turli muvofiqlash harakatlardagi ko'chishi jismonan zaif tayyorlangan sportchilarda kuzatiladi.

Umuman, o'rta ta'lim jismoniy tarbiya amaliyotini umumlashtirish natijasida shu narsa aniqlandiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarning tezkorlik sifatlarining rivojlanishi uchun moyillik paydo bo'ldi va balog'atga yetish har xil bolalarda tezkorlik turli davrlarda (8-9 yoshlilarda) sodir bo'ladi. Bu qonuniyatlar o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligiga taxsir ko'rsatadi. Tezkorlikni rivojlantirish uchun 1-2 sinf o'quvchilarida mashqlarning davom etish vaqti, 3-7 soniya, bir seriyadagi takrorlashlar soni 2-3 marta, dam olish oralig'i 7-20 soniya, seriyalar soni 2 ta, seriyalar o'rtasidagi dam olish oralig'i 70-90 soniyaga teng. 3-4 sinf o'quvchilarning davom etish vaqti 4-8 soniya, 1 seriyadagi takrorlashlar soni 2-3 marta. Takrorlash orasidagi dam olish oralig'i 8-25 soniya seriyalar soni 2 ta, seriyalar orasidagi dam olish vaqti 70-90 soniyaga teng. Ochiq havoda o'tkaziladigan mashg'ulotlarda 60 foiz, maktab sport zalida 40 foiz tezkorlik mashqlarini taqsimlanganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini farqli ravishda yaxshilanadi, o'quv materiallarini o'zlashtirish sifati yaxshi tomonga o'zgaradi.

### **Global axloqning namoyon bo'lish xususiyatlari va yoshlar axloqiy madaniyati**

*Muhiddinjon Teshaboyev,  
TATU Fargona filiali*

Insoniyatning hozirgi rivojlanish bosqichida global axloqni shakllantirishga ehtiyoj bor. Negaki buning bir necha sabablari bor: birinchidan, insoniyat hayoti texnologiya sharofati bilan farovonlasha boshladi, bunda to'qlikka sho'xlik qilishning kelib chiqishi ehtimoli bor; ikkinchidan, insoniyatning farovonlikda yashovchilar va qashshoqlikda kun kechiruvchilarga bo'linib yashashi davom etmoqda; uchinchidan, biznes axloqni buzadi, - mazmunidagi qarash u qadar noto'g'ri emasligi ma'lum bo'lmoqda, chunki milliarder (dollar hisobida) boylar insoniyatning tinchligi va hayotiga daxl qiluvchi xatti-harakatlarga ham qo'l urmoqda (masalan, irqiy kamsitish, giyohvand moddasi bilan shug'ullanish va h. k. ); to'rtinchidan, qudratli davlatlarning gegimonlikka intilishi hamon saqlanib qolmoqda; beshinchidan, Yer sharining Sharq qismida notinchlikning mudom davom etishini istovchi siyosiy kuchlar saqlanib qolmoqda; oltinchidan, Yer sharining G'arb qismida axloqiy aynish davom etmoqda; yettinchidan, global isish va global ekologik xatarlar insoniyatning ma'naviy birlashishini taqozo etmoqda. Bizning nazarimizda, global miqyosdagi birlashish "bir xil odatlar, umumiy prinsiplar bo'yicha yashash, umumiy qadriyatlarga asoslanish, bir xil an'analarga va axloq normalariga bo'ysunish, qoidalarni birxillashtirishga intilish"[1] milliy axloqiy me'yorlarning yemirilishiga olib kelmoqda. Ushbu vaziyatda milliy o'zlikni saqlash instinkti, ko'p hollarda, milliy mahdudlikka, o'zga qadriyatlar tizimini yoppasiga, ko'r-ko'rona inkor etilishiga yoki milliy nigilizm kuchayishiga olib kelmoqda.

Global axloqni shakllantirish jarayoni muayyan muddat davom etadigan va sermehnat ishdir. Lekin, bundan cho'chimaslik lozim. Insoniyat hayoti farovonlashib borgan sari inson qadri masalasi dolzarblashib bormoqda. Xalqaro

huquq me'yorlari amalgacha qanchalik tatbiq etilmasin, jaholatparast kuchlar o'z maqsadlari yo'lida insonga zo'rovonlik qilishdan qaytmayapti. Chunonchi: aqidaparastlar hech o'ylamasdan insonni xudkushlikka (kamikadzelikka) chorlaydi, hech bir achinmasdan odamlar gavjum joyda bomba portlatadi. Yoki, tuppa-tuzuk qudratli davlatning rahbari muayyan xalqlar sha'niga haqoratli gaplarni aytadi. Yoxud, vannasigacha tilla zarhal bilan ziynatlangan millardlar ochlikdan ko'zlari mo'ltirab turgan bola yonida qilt etmasdan o'tib ketadi.

Insonni qadrlash irq, til, millat yoki e'tiqod tanlamaydi. Kim bo'lishidan qat'iy nazar inson qadrlanish haqqiga ega. Insonni qadrlash tuyg'usi dunyoga bir marotaba keladigan insonning ongida yashil chiroq misol yonib turishi kerak. Har bir kishining ongiga singdirilishi kerakki, "birovni qadrlasang - o'zing qadr topasan." Shu ma'noda o'zga xalqlarni qadrlash shu xalqqa cheksiz shon-shavkat keltirishi aniq. Hech bir xalqni qoloqlikda, ma'naviy sustlikda yoki tafakkur tarzini pastlikda ayblab bo'lmaydi. Zero, insonni qadrlash tamoyilining asosi "insonni qadrlash bilan xalqlarni qadrlashga" borishdir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, globallashuv jarayoni oqibati o'laroq, mavjud stereotip va qadriyatlarining shiddat bilan qadrsizlanishi va yangilarining shakllanishi sikli tobora qisqarib bormoqda. Oqibatda millionlab kishilar bir necha xil qadriyatlar tizimi oralig'ida, e'tiqod qo'ygan qadriyatlarining qadrsizlanishi sharoitida o'z ma'naviy-ruhiy o'zligini qayta va qayta kashf etishdek ruhiy azoblar girdobida qolmoqda. Mazkur jarayon ma'naviy-ruhiy begonalashuv tendensiyasining avj olishiga, alal-oqibat, o'z milliy qiyofasidan mahrum, deviant xulq-atvoriga moyil jamoalarning shakllanishiga zamin hozirlamoqda. Mazkur holat ham jamiyatdagi milliy munosabatlar barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirishi muqarrar.

Globallashuv jarayoni bilan bog'liq ziddiyatlar avvalo madaniyat sohasida yaqqol namoyon bo'lib, millatlarning ma'naviy - axloqiy qadriyatlariga tahdid solishida, g'oyaviy ta'sir ko'rsatishida o'z aksini topmoqda. Ma'lumki g'oyaviy tarbiya sust bo'lgan yoki to'g'ri olib borilmaganda inson ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lib, bu bo'shliqni shu millatning tabiatiga yot g'oyalar egallab olishi va turli mafkuraviy tazyiqlar o'z zararli ta'sirini o'tkazishi muqarrar. Bu holat ayniqsa hozirgi globallashuv davrida "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi xavf-xatarning keng tarqalib borayotganligi masalasiga jiddiy e'tibor qaratushimizni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov "Yuksuk ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida bu xavfning mohiyatini quyidagicha ta'riflaydi: "Tabiiyki "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida ahlokiiy buzuvchilik va zo'rovonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa shuning hisobidan boylilik orttirish, boshqa halklarning necha ming yillik un'anni va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishiga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi"[2]. Darhaqiqat, ommaviy madaniyat umumiy iste'molchilik ehtiyoji bilan bog'liq bo'lib, buning asosida talab, iste'mol va tovar sifatida xarakterizatsiya bo'lish maqsadi yotadi. Ommaviy madaniyat yosh, millat, jins, makom tanlamaslik xususiyati bilan insonni milliylik, o'ziga xoslikdan uzoqlashtiradi. Inson ehtiyoj va istaklarini, xis-tuyg'u va hattoki fikrlarini ma'lum bir

“standartlar”ga bog‘lab, yagona qolipni shakllantiradi. Ommaviy madaniyat inson didiga aks ta’sir ko‘rsatib, uni sayozlashtiradi. Ko‘pincha axloqsizlik, behayollikni tarannum etadi. Bu haqida Prezident Islom Karimov quyidagicha yozadi: “... keyingi yillarda ko‘plab namoyish etilayotgan jangarilik filmlarini olaylik, - deydi U. - Bu filmlarni ko‘pchilik, ayniqsa, yoshlar maroq bilan ko‘radi, chunki odamzot tabiatan mana shunday to‘polonlarni tomosha qilishga moyil... Afsus bilan ta’kidlashimiz lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko‘ra vaxshiylik, ur-yiqit instinktlari, ya’ni xatti-harakatlarini qo‘zg‘atib yuborish osonroq. Ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yosh tomoshabinlar bunday filmlardan ko‘pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizliklarni o‘rganadi, xolos. Natijada ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag‘irlik, zo‘ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o‘zi ham sezmay qoladi. Hatto shunday tomosha va filmlarning qahramonlariga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishni istaydigan yigit-qizlar ham topiladi. Chunki ular bunday uydirma talqinlar ta’sirida qo‘l urayotgan ishi qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini tushunib yetmaydi.”[3] Bizning nazaramizda, ommaviy madaniyatning zararli ta’siriga qarshi kurashish uchun avvalo uning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish zarur.

Yangicha axloq uchun insonlar tengligi va hamkorligi, mehnat va uning natijalarini hurmat qilish, shuningdek, ijtimoiy va shaxsiy hayotda o‘zini to‘la namoyon qilish tamoyillari xos. Har bir odamning erkin rivojlanishi barchaning erkin rivojlanishi shartiga aylanishi juda muhimdir. Ayni shu ma’noda Prezidentimiz Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” ma’ruzasida jamiyatimizni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarini, shu jumladan, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta’minlash, O‘zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish borasidagi islohotlarni davom ettirish yuzasidan ustuvor vazifalarni belgilab berdi. [10] Bu islohotlarning bari - bizning ongimiz, axloqiy madaniyatimizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilish xususiyatiga egaligini ko‘rsatadi. Chunki axloqiy madaniyat ko‘rsatkichi fuqaroning boshqalarga ziyon yetkazmasdan, o‘z vijdoni bilan kelishib yashash istagi va imkoniyati hisoblanadi. Yaxshilik qilishni tanlash oqillik belgisi hisoblangan jamiyatda axloqiy madaniyat darajasi yuqori bo‘lishi muqarrar.

Xullas, globallashtirish asosida mamlakat yoxud millatning istiqboli bunyodkorlikka asoslangan g‘oyalar negizida shakllanadigan axloqiy madaniyatdan bahramand bo‘lmas ekan, bunday manzara jamiyatda yoshlar ongi va qalbidan joy olmaganicha o‘zining ijtimoiy-tarixiy mohiyati va ma’naviy ahamiyati bilan yer qatridagi oltin zahiralarni tarzida yotaveradi. Jamiyatning axloqiy madaniyati milliy ideallar, nazariya va tamoyillar negizida

yoshlarning muayyan maqsadlarini amalga oshirar ekan, jamiyatdagi dialektik aloqadorlikning hayotiyiligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Shuning uchun har bir yosh avlod ma'naviy-axloqiy hayotdagi sog'lom muhit bilan qurollantirish, bunyodkorlik ishlariga jalb qilish lozim.

### **Milliy qadriyatlarning jamiyat hayotida tutgan o'rni**

*Xamidov Ulug'bek,*

*Nam DU 1-kurs 72-16-guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: Chuboyeva Ozodaxon*

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ko'plab yutuq va natijalarni qo'lga kiritdi, jumladan, erkin so'zlash va fikrlash, iste'dodi hamda iqtidorini ochiq va erkin namoyon etish, eng asosiysi, tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analarning, muqaddas dinimizning jamiyatni ma'naviy yuksalishdagi o'rni va ahamiyatini qayta tiklanganligi bo'ldi. Bu esa yurtimizning har tomonlama yuksalishida, farovon hayot barpo etishilishida muhim ro'l o'ynadi. Negaki, inson ongida milliy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, mamlakat istiqbolini tasavvur etish qiyin. Ayniqsa, Sharqda xalqning asrlar osha yashab kelayotgan milliy qadriyatlari, uning uchun qudratli ma'naviy manbaa vazifasini o'taydi. Sharqqa xos mehmondo'stlik, andisha, mehnatsevarlik, shukronalik, mehr-oqibat, ro'stgo'ylik kabilar ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan o'lmas qadriyatlarimizning ko'rinishlaridir. Prezidentimiz I. A. Karimovning: *"Albatta, biz tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-ntilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalarni qadriyat deb bilamiz"*<sup>87</sup>, – deya ta'kidlagani ayni haqiqat. O'tmishda bo'lib o'tgan har qanday mafkuraviy tazyiqqa qaramay xalqimiz ushbu merosni saqlashdi, avaylashdi va unga sodiq qolishdi.

*Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush-tarzi, tili, madaniyati, urf-odat va an'analari, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir.*<sup>88</sup> U kishilarning bir maqsad yo'lida birlashtiruvchi, jipslashtiruvchi ma'naviy kuchdir. Har bir inson o'z ishini sitqidildan bajarsa, unga halollik, to'g'rilik, adolat bilan yondashsa, albatta, o'sha joy, joy orqali millat, millat orqali jamiyat, jamiyat orqali esa butun bir davlat rivojlanadi. Bu esa qadriyatlarimizning jamiyat hayotidagi o'rini belgilaydi. Markaziy Osiyo xalqlarida kattalarni hurmatlash, kichiklarga izzatda bo'lish, qarindosh-urug'lar, do'stlar bilan yaqin aloqada bo'lish, saxiylik, halol

<sup>87</sup>Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat; – 2008. – B.38.

<sup>88</sup> O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Davlat; 344. – B.12.



bilan xaromni farqlash yuksak qadrlanadi. Ota-onaga bo'lgan hurmat esa boshqa xalqlarga nisbatan ustundir. Hashar yo'li bilan uy-joy qurishda, ta'mirlashda bir-biriga yordam ko'rsatish, yetim-yesirlar va beva-bechoralarga muruvvatli, oqibatli bo'lish ham qadriyatlarimizning ko'rinishlaridir. Afsuski, bugungi kunda bu kabi qadriyatlarimizning yo'qolishiga sabab bo'layotgan salbiy illatlar ham yo'q emas. Jumladan, qo'ni-qo'shnichilikda mehr-oqibat o'rnini loqaydlik, beparvolik; shukronalik hissi yo'qolib, qing'ir yo'llar orqali boylik orttirish, ishonchning suiiste'mol qilinishi, to'y marosimlardagi isrofgarchilik – bularning hammasi qadriyatlarimizga bo'layotgan hurmatsizlik, yoki ularning poymol etilishiga yo'l qo'yilishidir. Ushbu salbiy holatlar natijasida milliy qadriyatlarimiz hisoblangan rostgo'ylik o'rnini yolg'onchilik, ishonch o'rnini ikkiyuzlamachilik, halollik o'rnini poraxo'rlik, shukronalik o'rnini isrofgarchilik, mazmun o'rnini shakl-shamoyil egallamoqda. Bu esa butun bir jamiyatga salbiy zarar yetkazmay qolmaydi. Axir millatning tanazzuli – milliy qadriyatlarining tanazzuli emasmi? Shu kabi salbiy oqibatlar ba'zi qadriyatlarimizning yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shuni unutmazlik kerakki, halollik, ishonch, insoniylik, mehnatsevarlik, rahbarga, ota-onaga, xullas, kattalarga hurmat tuyg'usi bor ekan, tartibli, yuksalish hamda barqarorlik bardavomdir.

O'tmishdan ma'lumki, sohibqiron nomi ostida butun bir mamlakatni birlashtirib, markazlashgan davlatga asos solgan A. Temur ham o'sha paytda xalqning qadriyatlarini tushungan va ularga hurmat bilan qaragan. Uning siyosatining mazmunini tashkil etuvchi quyidagi jumladan anglash mumkin: "Kuch-qudrat, iqtidor-adl – insofda". Bu esa buyuk sarkardaning yetuk aql sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilish mumkinki, qadriyatlar jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan ma'naviy boyliklar majmuidir. Milliy ma'naviy qadriyatlar - ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir.

## **Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy uslublar**

*Tohirjon Qozoqov*

*Tarix fanlari nomzodi, dotsent*

Milliy g'oya va milliy mafkura haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali – hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no – mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi. Milliy mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'nu sharafi, or – nomusi, ishonch – e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda mutassil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir.

Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari biralashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt – saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashiga chorchash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiyligni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkuramizning bosh maqsadidir.

Shu bilan birga, milliy g'oya bugungi tez sur'atlar bilan jadal o'zgarayotgan tahlikali dunyoda o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga, bu boylikni asrab – avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon tarqqiyoti yutuqlari bilan oziqlanib, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog'i zarur va shart. Hozirgi sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib – unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamisoli yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo'l bilan amalga oshirish lozim.

Istiqlol tufayli odamlar ongi, dunyoqarashida yangilanish boshlandi. Tarixiy milliy qadriyatlar, urf-odatlarining tiklanishi xalqning milliy ruhiga kuchli ta'sir etdi. Ona tilimiz va dinimizga bo'lgan yangicha munosabat, vatanga va istiqlol g'oyalari sadoqat milliy g'urur, iftixor tuyg'ularining o'sishida katta rol o'ynaydi. Vatan tushunchasi, vatanparvarlik tuyg'usi yangicha ma'no kasb etdi.

Mamlakatimizda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining bunyodkori barkamol avlod tarbiyasi bilan bog'liq.

Bugungi kunda milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirish bevosita yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq ekan, bu albatta ta'lim tizimi bilan aloqador holda amalga oshiriladi. Ta'lim tizimida milliy g'oya targ'iboti va umuman targ'ibot-tashviqot texnologiyalarida bir qancha usullar mavjud bo'lib, ulardan biri-“**Modelli mashg'ulot**” usuli hisoblanadi. Ushbu usul ko'p ilmiy manbalarda “keys usuli” deb ham yuritiladi. Bu usulning umumiy manzarasi quyidagicha: mashg'ulot o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ilmiy munozaraga asosida tashkil qilinadi. Bu jarayon davomida bir-birlarining(o'qituvchi va talaba) fikrlari rivojiga ikki taraf ham motivatsion xatti-harakatlar bilan ta'sir o'tkazishadi. Bu jarayonlar, debat, munozara, fikrlar xilma-xilligi asosida amalga oshirilib, ikki taraf ham bir-birlaridan turli yangiliklarni o'zlashtiradilar va dars oxirida kerakli tavsiyalar berilgan holda xulosa qilinadi. Milliy g'oya targ'iboti davomida qanchalik turli g'oyalarga nisbatan mustaqil fikr yurita olish xususiyatini shakllantirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Targ'ibot texnologiyalari ichida yana keng tarqalgan usullardan biri-“**Sinkveyn**” ya'ni axborotlarni yig'ish usuli hisoblanadi. Metodni qo'llash jarayonida talabalardagi tarqoq axborotli jarayonlar asta-sekin bosqichma-bosqich yo'naltirilgan axborotli jarayonga aylantirib boriladi. Ya'ni o'rganilmagan bilimlar mavzuni o'rganish davomida o'rganiladi, muayyan obektiv voqelik to'g'risida yakdil fikrga kelinadi. Odatda, sinkveyn mavzu

bo'yicha biror muammoli vaziyatni yechish yoki alohida o'quv elementlarini mukammallashtirishda talaba tafakkurini charxlash uchun tuziladi.

Milliy g'oya fikrlar xilma-xilligiga asoslanadi va turli tazyiq va fikrlarni "ideallashtirish" kabi xususiyatlardan yiroq. Va me'yoriylik holati bilan alohida ajralab turadi. Uning mazmuni aksil targ'ibotni keltirib chiqaradigan, hayotdan uzilib qolishiga olib keladigan balandparvoqlik, rasmiyatchilik va takrorlanishlariga yo'l qo'ymasligi bilan ajralib turadi.

### **The implementation of cefr in the educational system of uzbekistan**

*D. Sarimsakova (teacher, NamSU)*

*Sh. Rashidova (student, NamSU)*

Mastering a foreign language is one of the keys to access the new period of globalization in education, science, economy, politics, and social life. Education is becoming global and both learners and teachers are now able to pursue their further education and academic careers throughout the world. All these changes have brought the international world of educators together and they are creating global programs which are comparable from one country to another. In order to provide effective higher education, Uzbekistan accepted significant reforms by performing use of the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) and National Qualifications Framework (NQF) in the country. CEFR standards provide effective learning of foreign language EFL classes. Both projects will take part in the implementation of Presidential Decree № 1875 of December of 2012 in enhancement of the teaching and learning of foreign languages in order to strengthen the communication skills and international effect of future Uzbekistan specialists in all fields. The mentioned Decrees of the President criticize the teaching of foreign languages under unsuited conditions and, as a result, university graduates are not always erudite enough in using the foreign language in everyday life. There are many causes for this: partly, it is because of inadequate time allocated for language instructions; mixed-ability classes as a result. teachers often have a difficult time provision the appropriate level of instructions in such classes and some others. It is important to point out that from the current academic year foreign languages are taught beginning in the first grade at schools. Up to now, foreign languages were taught from the fifth grade.<sup>89</sup>

The CEFR expresses foreign language qualification at six levels: A1 and A2,

B1 and B2, C1 and C2. It also describes three "plus" levels A2+, B1+, and B2+.

Based on experiential research and prevalent consultation, this scheme makes it potential to contrast tests and examinations across languages and national boundaries. It also be responsible for a basis for recognizing language

<sup>89</sup>*Dr. Feruza.M.Rashidova*  
*international-conference-2015*

<http://heyevent.com/event/903496136356575/uztea-annual->

proficiencies and thus facilitating educational and occupational mobility. Whereas they have been experientially authenticated, some of them still have significant gaps, e. g. at the lowest level A and at the top of the scale the C2 levels. Confident contexts are less well-elaborated, e. g. young learners.

The CEFR is not an international standard or seal of approval. Most test suppliers, textbook writers and curriculum designers now claim connections to the CEFR..

The CEFR is not language or context specific. It does not attempt to list specific language grammatical rules, vocabulary, etc. and cannot be used as a curriculum or checklist of learning points. Users need to adapt its use to fit the language they are working with and their specific context. One of the most important ways of adapting the CEFR is the creation of language-specific Reference Level Descriptions. Reference Level Descriptions are already available for several languages.

Moreover, implementing of CEFR causes to alteration of traditional approaches to recent approaches. To changing methods means elaboration of language syllabuses and curriculum guidelines, design teaching and learning materials, the assessment of language proficiency.

Fundamentally new in the national standards is that now the foreign languages are taught from the first grade. Another innovation is that now the necessities for the foreign language skills at each grade are balanced to the requirements of the Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, and Assessment (CEFR). Consequently, the highest level of foreign language facility will be required be possessed by bachelor and master's graduates of language faculties, C1 level on CEFR, an effective operational proficiency in a foreign language.

The new standard provides for foreign language command, which requires the requirement for knowledge of phonetics, vocabulary and grammar, and speaking skills. The new standard pays great attention to sociolinguistic competence, which describes the requirements for the skills of students in choosing the right linguistic forms and methods of expression, depending on the situation and communication goals.

The new steps to transform training system are taken, so we only need to wait for the practical results. There is every reason to believe that they will be expressed in the economic stability and prosperity of the country.<sup>90</sup>

According to F. MacDuff and others this statement serve to motivate the students in: a) providing students with an opportunity to recognize their own accomplishments; b) encouraging students to take initiative in their learning, particularly when they are able to formulate their own "I can do" statements; c) providing students with a visual means of proudly sharing their progress with others d) being applicable for students of all ages and all levels of language proficiency from primary through college; e) being possible as a systematic

---

<sup>90</sup>Source: "Uzbekistan Today" newspaper

means of rallying one's own progress; (f) Can be a means by which students gauge their own perceived level of language proficiency.

We agree with the opinions of many leading specialists when they say that learners want to know how they are progressing, and want some formal feedback. Parents want to know that their children are receiving effective instructions, stakeholders and other government organizations want to know that teachers are not wasting precious resources by self-indulgence or laziness. Another very important point here is: teachers and teacher educators will look for the best available information on successful teaching styles, procedures and curriculum organization.

Implementing of CEFR in educational system of Uzbekistan improving step by step. And it effects productively providing of learning English in different stages of educational establishment.

### **Building cultural awareness in efl classes**

*Sh. Rashidova (NamSU)*

Language is a means of expressions. We can express our feelings, emotions, thoughts, needs, and desires etc. in words, symbols and gesture which are considered as a language. Language can be defined as verbal, physical, biologically innate, and a basic form of communication. Culture is the characteristics of a particular group of people, defined by everything from language, religion, cuisine, social habits, music and arts. Thus, culture finds its expression in language, learning a new language without familiarity with its culture remains incomplete. For this reason, today it is very crucial task for EFL teachers to have a through and profound grasp of language and culture in order to develop our students' intercultural awareness in their own culture and target culture and to develop teaching techniques. It is observed that many students, who have excellent academic performance in English subject, sometimes, find it very difficult to correspond with native speakers or in real life situations. This might be the result of learning English without proper awareness of its culture. Admittedly, it is not easy task to teach culture knowledge. First of all, teachers must have cultural background knowledge with the differences between cultures around the world. They can provide cultural information, and teach students to express themselves correctly in different occasions. The key point is how to perform different ways in teaching different cultures. One of the very effective techniques of building cultural awareness in the classroom is that teaching and learning cultures with case-studies which focus on one issue or problem, and have a clear problem statement. As a good case study we may take the following case: (DUET, 2009)

#### **1. Case study**

Respond to the case in writing. The following points may guide you:

- What kind of culture clash is described?
- Why do you think this situation has happened?

- What suggestions can be made to resolve the conflict?

John Palmer was travelling by train from Tashkent to Samarkand in a small compartment with two young men and an elderly gentleman. John was trying to read *The Times*, the elderly man was sleeping and the boys were talking and laughing. They could hardly hear each other because the radio was playing some very loud pop music. Then one of the boys shouted in English: 'How are you doing, mister? Where are you from? America?' 'Thank you, I'm from Britain', said John and kept on reading. The boy laughed and asked: 'Are you married?' 'No, I'm not', said John. 'Really? Why?' John smiled and shrugged his shoulders. 'It's a long story. Could you turn the music down, please?' 'You don't like this music?' asked the boy. 'Well, it's rather nice but it's just too loud... Thank you.' For about two minutes they kept silent, and then the boys started talking again. By that time the elderly man woke up, produced a big bag full of samosas and offered them to the boys and to John. 'Eat, mister', said the boy, biting into his samosa. 'Thank you very much', said John, 'maybe later. Thank you. *Rahmat*.' The boys and the man looked surprised. 'Why? You should eat. It's a long journey. Take it!' John felt uneasy and said: 'It's very kind of you, but really, I'm not hungry... and I'm a vegetarian, but thank you anyway.' The boy frowned. 'Vegetarian? You mean you don't eat *meat*? Why? Are you ill?' 'No, I'm fine, I just don't. Sorry.' 'Strange', said the boy and translated the conversation into Uzbek to the other boy and the elderly man. They were surprised and did not attempt to speak to John for the rest of the journey.

Taken from DUET Trainer's Notes. Book 2, p. 87

Since one of the goals of building students' cultural awareness with a case is to monitor students' ability to apply knowledge and principles to real experiences, there are also a number of techniques that can be useful for developing intercultural competences. For instance: below, cultural quizzes can be effective way of increasing cultural awareness in EFL classrooms.

1. When do Japanese people say *kampai*?
  - a. before they sleep
  - b. before they eat
  - c. before they drink
2. "Have you eaten?" is a popular way to greet someone in which country?
  - a. India
  - b. China
  - c. Russia
3. Why is it a bad idea in Taiwan to give a knife as a gift?
  - a. it represents cutting off a friendship
  - b. people think it will bring bad luck
  - c. no many people use knives
4. In which European country is it acceptable to eat in streets?
  - a. Finland

b. Scotland

c. Germany

5. In Germany how do men greet each other when they meet?

a. kiss each other on cheeks

b. bow

c. shake hands

Answers: 1. c; 2. b; 3. a; 4. b; 5. c;  
Taken from "Quizzes» by M. Kraven

Use of culture teaching materials is rewarding and stimulating for both learners and teachers and should be used as far as possible in EFL classrooms. Besides using case studies and quizzes, we can use authentic materials including traditional songs, rhymes, riddles, and other children's lore that are ideal for younger children. Authentic materials not only include newspapers and literature but also materials such as web pages, TV broadcasts, films, posters, basically anything written in the target language and used unedited in the classroom. The same material can be used in classes of various levels provided that the task is graded to learner's abilities and interests. Using authentic materials is relatively easy and convenient way of improving learner's general skills as well as confidence in real situations.

### **Milliy mafkuramizning tarixiy ildizlari**

*Aripova Mahbuba, Farg'ona birinchi tayanch  
Tibbiyot kolleji o'qituvchisi*

Tarixda ko'plab g'oya va mafkuralar bo'lgan. Ular muayyan maqsadni ifodayotgan. Bunday maqsad odamlarni ushbu g'oyaga ishontiradi, uning atrofida uyushtiradi, uni amalga oshirish uchun safarbar qiladi.

Har qanday g'oyaning vazifasi xalqni birlashtirish, ma'naviy-ruhiy jihatdan rag'batlantirish, g'oyaviy tarbiyalash, unda mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda harakat dasturi bo'lishdan iboratdir.

G'oya insonni biror bir maqsad sari da'vat etadi va shu orqali unda yashashga, faol bo'lishga, kamchiliklarga qarshi kurashga ishtiyiq uyg'otadi. Bu ishtiyiq, oxir-oqibatda, insonning hayotiga yangicha ma'no-mazmun baxsh etadi. Chunki insonni biror narsaga ishontirmoq, uning qalbi va shuuriga ta'sir etmoq hayotining ma'nosini o'zgartirmoqdir. Shuning uchun biror bir g'oyani targ'ib etuvchi kishi fidoyi, bilimli, malakali va mohir notiq bo'lmog'i zarur.

Demokratik jamiyatda amal qiladigan plyuralizm (fikrlar xilma-xillig va qarashlar rang-barangligi) tamoyili kishilarga o'z maqsad-muddoalariga mos g'oyalarni tanlash, himoya qilish va rivojlantirish imkonini beradi.

Milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning asriy orzu-intilishlarini ifoda etadi. Shuning uchun ham u bunyodkor g'oyadir. U ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishni har bir yurtdoshimizning e'tiqodiga aylantiradi. Xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbi vaongidamustaqil e'tiqod va dunyoqarashni shakllantirish, ularni yangi jamiyat barpo etish jarayonining faol

ishtirokchilariga aylantirish milliy istiqloq g'oyasining asosiy maqsadlaridan biridir. Buning uchun odamlarga mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni hayotiy dalillar asosida aniq va lo'nda qilib tushuntirish zarur. Milliy istiqloq g'oyasining asosiy tushuncha vatamoyillarini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish, birinchi navbatda, rahbar kadrlar, ziyolilar, ommaviy axborot vositalari xodimlarining fuqarolik burchidir. Milliy mafkura masalalariga loqaydlik umummilliy manfaatlarimizga butunlay yot bo'lgan mahalliychilik, to'rachilik, urug'-aymoqchilik singari illatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Odamlarni biror bir g'oyaga ishontirish uchun, awalo, uni targ'ib etuvchi kishining o'zi unga ishongan bo'lishi lozim. Ana shu sababdan ham milliy istiqloq g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini amalga oshirish jarayonida har bir kishi bunyodkor kuchga aylanadi. Chunki bu g'oyaning ma'no-mazmuni bunyodkorlik ruhi bilan yo'g'rilgan.

Jamiyat hech qachon faqat o'z shaxsiy manfaatini ko'zlaydigan odamlar toifasidangina iborat bo'lib qolmaydi. Aslida, kishilar umumiy manfaatlarini teran anglash natijasida jamoat bo'lib uyushadi va shu tariqa o'zlari shakllantirgan ijtimoiy talab hamda me'yorlarga asosan faoliyat ko'rsatadi. Bu haqiqatni anglash, ayniqsa, hozirgi o'tish davrida nihoyatda muhimdir. Shu bois jamiyat a'zolarini umumiy maqsad va manfaatlar asosida birlashtirish milliy istiqloq g'oyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» konsepsiyasiga yozgan so'z boshlarida: «Oldimizga qo'yagan olijanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot g'oyalarning hurujidan himoyalanih, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda»<sup>91</sup>. Haqiqatan ham ma'naviyat qanchalik yuksak bo'lsa, inson qalbida johillik, yovuzlik, xudbinlik, yalqovlik kabi salbiy illatlarga o'rin qolmaydi, uning o'rnida yoshlarimiz ongida vatanparvarlik, yaratuvchanlik tuyg'ulari yuksak darajaga ko'tariladi, o'zaro munosabatlarda samimiylilik, birdamlik, mehr-oqibat, e'tiqod, imon, masuliyat va boshqa bir qator ijobiy fazilatlar xalqimiz turmush tarzining ajralmas boyligi darajasida yana ham mustahkam o'rin olib boraveradi.

Inson qalbida Vatan deb atalmish ulug' bir oilaga, tabarruk bir maskanga mansublikni his etish, ya'ni yurtga muhabbat tuyg'usi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki izchil yo'lga qo'yilgan tarbiya natijasidayuzagakeladi. Shu ma'noda, milliy istiqloq g'oyasi jamiyat a'zolari ongiga teran singib borgani sari ularning barchasi umumiy maqsad yo'lida o'zaro hamkor va hamjihat bo'lib harakat qiladigan maslakdoshlarga aylanadi.

<sup>91</sup> Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. «O'zbskiston», 2000, 5-bet.



## Darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyat

### *Yuldasheva Mahliyo, Farg'ona birinchi tayanch Tibbiyot kolleji o'qituvchisi*

Tarbiya jarayonining mazmuni bolalarga beriladigan ma'naviy axloqiy bilimlar tizimi, ishonch, e'tiqod, intizom, xulq-atvorni bir butun holatini tashkil etadi. Mustaqil O'zbekistonning, istiqolol va istiqboli uchun fidoiylik ko'rsatuvchi avlodni tarbiyalash mazmuni tamoman o'zgacha xarakter kasb etmoqda:

- fuqarolik demokratik jamiyatni barpo etish mohiyatini anglab oluvchi;
- vatanini har doim turli oqimlardan himoya etuvchi;
- diniy bag'rikenglik va mehr-muravvatli bo'lish;
- davlat siyosatini tushunish unga fidoiy bo'lish;
- o'zligini anglash, ajdodlar merosini qadrlash;
- yuqoridagi komil insonga xos sifatlarni tarbiyalashda;
- maqsadni aniqligi va uni to'g'ri yo'naltirish madaniyati;
- tarbiyachi-o'qituvchi va tarbiyalanuvchini hamkorlik faoliyati;
- o'zini anglash, mustaqil fikrlovchi e'tiqodligi va ixtiyorlik.

Tarbiyaviy ishlarining mazmunida bir butun yondashishdan bosh maqsad, "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamojyillari dasturi"dagi g'oyalarni bolalarning ongida o'ziga xos va mos ravishda singdiradi.

-Xalqimizning boy ma'naviy, an'ana, udum, urf-odatlar va ajdodlarimiz merosidan foydalanish.

-O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, adolat, haqiqat va erkinlikni, ishonch-e'tiqodni tarbiyalash.

- Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi mohiyatini izohlash.
- Mehrli-muruvvatli va bag'ri kenglik.

Ayniqsa kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ta'limiy- tarbiyaviy faoliyatlari o'ziga xos xususiyatga ega: o'quvchilarda hayotiy tajribalarning kamligi, o'quv-tarbiya jarayonida hodisalarga qiziqish, «yaxshi», «yomon» harakatlarga chuqur munosabat bildirsa olmasligi kabilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish o'ziga xos qoidalarga egadir:

1. Har bir sinf jamoasining tarbiyalangan darajasini o'rganish.
2. O'quvchilarning oilaviy hayoti, ota-onaning farzand tarbiyalashdagi burchi va vazifasini qanday his etishi.
3. Kundalik o'zgarishlarga o'quvchilarning munosabati.
4. O'quvchilarning sharqona milliy urf-odat, an'analar haqidagi bilim darajasi.
5. Qomusiy ma'rifatparvar, mutafakkirlar hamda hozirgi zamon shoir, yozuvchilarning ijodiyotidan namuna bilishlari. Mazkur qoidalar boshlang'ich sinflarda sodda holda qo'llaniladi.

Yuqoridagilarni aniqlashda suhbat, anketa usullaridan foydalanish o'rindir. Shundagina har bir o'qituvchilarning betakror, bir-biriga o'xshamagan tarbiyaviy tadbir rejalari bunyodga keladi. Bunday rejalalar tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lib maqsadga erishtira oladi.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur

faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi.

### **Globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri**

*G'. Yoqubov,*

*Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Tillayev*

Juda ko'p murakkablik va ziddiyatlarga an'anaviy ijtimoiy-siyosiy institutlarga munosabati qay darajada uyg'un bo'lmokda, mustaqil jamiyat, suveren davlatning yosh fuqarolari nima bilan yashayapti, nafas olyapti, ularning dunyokarashi, tafakkuri qaysi qadriyatlar hisobiga tom ma'noda boyitilmoqda, yoki to'ldirishi zarur.

Bugungi globallashuv davri ko'p jihatdan yoshlarning dunyoqarash tafakkuri, ongi va salohiyatiga benihoya katta ta'sir ko'rsatadi.

Globallashuv jarayoni xayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obektiv tan olish kerak bugungi kunda xar qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jaxon miqyosida boshqa mintaq va xududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

XX-asrning siyosiy jarayonlar tarixiga va uning bugungi kundagi davomiga nazar tashlar ekanmiz, xozirgi davrda mamlakatimiz naqadar murakkab va ma'suliyatli tarixiy davri boshidan kechirayotganligiga yana bir-bor amin bo'lamiz. Shu jihatdan har bir xalq millat doimo o'z taraqqiyot yo'li bilan yangi jamiyat barpo etishga kirishiladi. Yangi jamiyat bunyod etishga o'z andozasini ishlab chiqarishga xarakat qiladi, tabiiyki, bular qatorida ushbu jarayondagi moxiyatini ochib berish nixoyatda muhim ekanligini ta'kidlash zarurdir<sup>92</sup>.

Liberallashayotgan jamiyatimizni demokratik hususiyati sifatida kechagini bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Parlamentga bo'lib o'tgan saylovida yoshlarni ishtirokiga katta e'tibor berilgani va yoshlarni jamiyatdagi o'rni masalasi va respublika yoshlarini dunyo yoshlari qatoriga qo'shilishi va zamon ruhi bilan xamnafas yashashi va o'z fikri bilan siyosiy hayotda ishtirok etishi zamonaviy yoshlarni shakllanishi imkoniyatini bermoqda.

Ayni paytda xayot haqiqati shuni, ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki hil maqsadda-ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko'zdan

<sup>92</sup> To'raev Sh. Demokratik jarayonlar va milliy g'oya. – "Ma'naviyat", T.: 2008. b. 17

kechiradigan bo'lsak, xayotda insonni kamolotga yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz.

Darhaqiqat, bizning bugungi jamiyatimiz ko'p jixatdan o'zgarib yoshlarning dunyoqarashida ham yuzaga chiqyapti. Bu ayniqsa ularning madaniy ko'rinishlarida namoyon bo'lmokda. Yoshlarning xayotda ijtimoiylashuvi tubdan o'zgarib bormokda.

Bu jarayon G'arb mamlakatlaridan kirib kelgan «Ommaviy madaniyat» deb atalmish murrakab hodisa bilan bevosta aloqadordir.

«Ommaviy madaniyat» xar-xil ko'rinishlarda yoshlar ongi va dunyokarashini o'zgartirib yuborishi, bugunning salbiy oqibati sifatida talqin etishimiz mumkin.

Bugun milliy qadriyatlarimiz va urf – odatlarimizni yanada yoshlar ongiga singdirish orqali ma'naviyatlarimizni saqlab qolishimiz va shu bilan bir qatorda o'zligimizni anglashda va tarixni o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kerak deb o'ylayman. Bugungi kun yoshlarini zamon ruxi bilan xamnafas holda tarbiyalash va ularga ota – bobolar o'g'itlari, pand-nasixatlariga amal qilgan xolda, ijtimoiy xayotni barcha soxalarida ishtirok etishlari mumkin.

## **Yuksak minbar**

*A. Ibrahimov,*

*Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Tillaev*

Ma'lumki, ommaviy axborot vositalari siyosiy-g'oyaviy, ma'naviy-ruhiy kommunikatsiyaning asosiy tayanchi sifatida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy faolligiga kuchli ta'sir etib, davlat institutlariga nisbatan jamoatchilik nazoratining kuchayishi uchun yangidan-yangi imkoniyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Demak, ommaviy axborot institutlarining jamiyat hayotidagi ma'naviy-siyosiy salohiyati qanchalik kuchli bo'lsa, jamiyatda shu darajada faollik va rag'bat, bunyodkorlik hamda g'oyaviy uyg'oqlik tuyg'ulari kuchli bo'ladi. Ommaviy axborot vositalari institutlari orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish fuqarolarga konstitutsiyaviy asosda o'zaro birlashish, uyushish huquqini ro'yobga chiqarishga imkon beradi. Aholi turli guruh va qatamlarining ijtimoiy manfaat va qiziqishlarini ifoda etadi. Qolaversa, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalarining yuksak g'oyaviy minbar va odamlar qalbu shuuriga tez ta'sir etuvchi vosita singari imkoniyatlaridan samarali foydalanish – odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash va aholining ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, eng avvalo insonning o'zini o'zi tushunishi va fuqarolararo munosabatlarni yuksak ma'naviy-ma'rifiy mezonlar asosida shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari institutlari zamonaviy insonparvar tafakkurni, fuqarolardan ijodkorlik ruhini, yaratuvchilik qobiliyatini, bunyodkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ya'ni,

kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, boshqarish, hozirgi zamon me'yorlari asosida kishilik taraqqiyotini ta'minlashning yangi usul va uslublarini qidirib topish zarurligidan kelib chiqib, OAVning siyosiy-huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik axborot tizimini boshqarish kabi qator, bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan imkoniyatlarini yanada kengaytirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalarini boshqarish va tashkil etishning eng maqbul shaklini joriy etish zarur. Uning bevosita davlat hokimiyati va o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabat, o'zaro ishonchni, jamiyat va davlat taraqqiyotini, fuqarolar yakkilligini, ma'naviy va g'oyaviy jihatdan birligini ta'minlovchi kuchli vositalar sifatida imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarur bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalari instituti, avvalo, milliy manfaat, jamiyat va shaxs erkinligini hisobga olgan, axborot olish va uni tarqatish kafolati hamda majburiyati bilan bog'liq jarayonlarning bevosita shaxsiy, mahalliy, urug'-aymoqchilik manfaatlaridan ustun turadigan, umummilliy manfaatga daxldor bo'lgan qadriyatga aylanib bormog'i lozim. Ana shunday sharoitda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga yo'naltirilgan har qanday mazmundagi axborotni tarqatishdan oldin jamiyatning ma'naviy - ruhiy holatiga salbiy ta'sir etuvchi, ijtimoiy, milliy, etnik, diniy tafovut va kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi, zo'ravonlik va urushni targ'ib etuvchi, pornografiya, maishiy buzuqlik, shaxslar mavqeiga, obro'siga va sha'niga salbiy ta'sir etuvchi axborotlarni chegaralashning norasmiy, vijdon bilan bog'liq bo'lgan, sog'lom aql va yuksak tafakkurga tayangan ma'naviy-ruhiy me'yorlari vujudga keladi.

O'zbekistonda demokratik tamoyillarni yanada rivojlantirish va kuchli fuqarolik jamiyatini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar mustaqillik yillarida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish choratadbirlarining izchil va qonuniy tus olganiga bevosita bog'liq. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida huquqiy demokratik davlat tamoyillarini amalda ro'yobga chiqarish - davlat organlari, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat faoliyati ustidan ommaviy axborot vositalari orqali jamoat nazoratini o'rnatish zarurati kuchayib bormoqda.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatini erkinlashtirish - jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarning ochiqligini ta'minlaydigan demokratik prinsiplarni hayotga joriy etuvchi vositadir. Fuqarolarning ijtimoiy faolligi va siyosiy madaniyatini oshirishda ommaviy axborot vositalarining roli tobora oshib bormoqda. Bu, hatto, davlat tizimi faoliyatining barcha jabhalarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida raqobat muhitini qaror toptirish va hammaga barobar bo'lgan shart-sharoitlar yaratishga qaratilishi, davlat boshqaruvi idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazish masalasida aks etadi.

## Milliy-ma'naviy tarbiyada ziyolilarning o'rni

*N. Qodirxonov,  
Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Tillaev*

Bolaning oiladagi tarbiyasi ota-ona, bobo-buvi zimmasida bo'lsa, maktabga borgach, ular safiga muallimlar qo'shiladi. Ammo ota-ona va muallimlarning o'zini kim tarbiya qiladi? Keng ma'noda olganda, millat tarbiyasi ziyolilar toifasi qo'lidir.

Yevropa tillarida "intelligent" deyilganda, ko'proq o'sha shaxsning bilim doirasi, tafakkuri, qolaversa, madaniylik darajasi nazarda tutiladi. Zero "intelligent" atamasi "intellekt", ya'ni aql bilan bog'liq va, demakki, aslida o'zbeklarning "oqil", "aql egasi" degan so'zlari bilan muqobildir. Ammo chinakam ziyoli faqat aql va bilim emas, qalb va ehtiros egasi ham bo'lmog'i zarur.

U orif va oshiq bo'lsagina butun vujudi, xatti-harakati, ijodiy faoliyati bilan atrof-muhitga ziyo, ezgu nur tarata oladi. Ziyoli - teran aql va hassos qalb egasi - Ma'rifat va Muhabbat yog'dularining sarchashmasidir. Biz 70 yillik yo'qsillar istibdodi davomida murakkab ichki qurilishli insonlar jamoasini zo'rlik bilan jo'nlashtirdik, mohiyatan siyqalashtirdik. Savdogarni yo'qotib, o'rniga olibsotarni shakllantirdik, kosib-hunarmandni fabrika-zavodning bezabon quliga, "parragi" va "vinti" ga aylantirdik, erkin sanoatchi o'rniga qog'ozbozlikni do'ndirib, yo'qni og'izda yo'ndiruvchi lo'ttiboz "rahbar"lar silsilasini vujudga keltirdik. Bizning jamiyatimiz rasman uch ijtimoiy guruhdan iborat bo'lib qoldi: ishchi, dehqon, "xizmatchi". Ya'ni ziyoli asl mavqeini yo'qotib, tahdid va tazyiq ostida majburan proletar diktaturasining "xizmatchi"sig'a aylantirildi. U endi "xalq nomidan" o'z hushiga kelganini amalga oshiruvchi mustabid davlatning dastyori, udaychisi, malayi bo'lishga mahkum etildi. Bu "taqdirga" o'zi "tushunib" bo'yinsunmaganlar otildi, kesildi, tomiri quritildi. Va ziyolisini yo'qotgan xalq asta-sekin manqurtga aylana bordi.

Ziyoli Haqiqatni sevishi, yoniq dil bilan tinimsiz unga talpinishi, uning xayoli bilan yashamog'i lozim. Shundagina o'zidan ziyo taratib, insonlar yo'lini yorita oladi.

Ba'zi o'qiganlar bu so'zlarni mubolag'a deb bilar, "ja oshirib yuboribdi-ku" der. Asli unday emas. Forobiy va Ibn al-Arabiy hayotda yashab o'tmaganmi? Alisher Navoiy xayolimizdagi shaxsmi? Albatta, bular - nihoyatda buyuk siymolar. Ammo ko'ngliga Ziyo ahlidan aqalli bir uchqun sachragan inson o'ziga quloq solib ko'rsin - sira yuragi orziqib ulug' bir mohiyat sari intilmaganmikan? Oliy bir Haqiqatni izlamaganmikan? Agar bunday xayol ko'ngil ko'chasidan loaqal bir marta o'tmagan bo'lsa - u suymasdan uylangan ayolini uyida behuda bandi qilib o'tirmasin, boshqa kasb qilsin, Ziyoliman, demasin. Oliy ma'lumotli bo'lsa - ming rahmat, tirikchiligiga yaratsin, ammo kun kechirishning boshqa yo'lini qidirsin, ishbilarmon bo'lar, malakali ishchi bo'lar, xizmatchi bo'lsa ham ixtiyori.

Ziyoli bu - vrach, muhandis, muallim, tadqiqotchi, tarbiyachi, yer ilmining bilimdoni. Agar uning qalbidan Haq joy olmagan bo'lsa, Haqiqatga mehri

tovlanib turmasa, u bemorga shifo ato eta olmaydi, murg'ak aqlga bilim ziyosini singdira olmaydi, odob bera olmaydi. Uning muhandisligi ham bir pul, yerni esa u o'ldiradi. Oliy Haqiqatni izlamay turib kichik haqiqatlarni topib bo'lmaydi, chunki Haqiqat - bitta, biz esa uning ba'zi juz'iy qirralarinigina payqay olamiz, agar astoydil asl Haqiqatni qidirsak.

Tadqiqotchi yoki muallim bo'lish uchun tabiiy iste'dodning o'zi kifoya qilmaydi, muayyan bilimlar majmuini o'zlashtirish talab etiladi. Masalan, dehqon yoki hunarmand sifatida yuksak ma'naviy fazilatlar egasi bo'lgan odam muallimlik yoki tadqiqotchilikka da'vo qilaboshlasa, bunda o'tish jarayoni oson kechmaydi. Hayotda shunday hodisalar kuzatilganki, yaxshi pedagog yoki olim o'z sohasida sal yuqori lavozimga ko'tarilishi bilan ma'naviy qusurlar paydo qila boshlaydi. Olim yoki ustoz sifatida hamma unga havas bilan qaragan bo'lsa, rahbar sifatida odamlarda norozilik uyg'onishiga sabab bo'ladi. Yoki juda yaxshi xonanda tadqiqotchilik da'vosi bilan chiqib, mutaxassislarning ensasini qotirishi mumkin. Bunday holatlar hayotda ko'p uchraydi. Qisqasi, har bir insonning ma'naviyati uning tabiati, kasbi, ijtimoiy mavqei bilan bevosita bog'liq va shu ma'noda betakroridir. Inson o'z tabiiy kamolotida yoshi o'tgan sari ulg'ayib, o'zgarib borganidek, o'z kasb sohasini, yo'nalishini o'zgartirmoqchi bo'lsa, buning uchun muayyan tayyorgarlik ko'rmog'i, yangidan yangi sifatlar, fazilatlar kasb etib bormog'i taqozo etiladi. Inson tug'ilgandan ulug' alloma yoki mumtoz adibga aylanib qolmaydi. U oddiy ishchi yoki dehqon sifatida hayot yo'lini boshlashi mumkin. Agar yoshi ulg'aygan sari o'zida iste'dod, ichki quvvat va intilish sezsa, ilmiy yoki badiiy ijod yo'liga asta-sekin o'tib boradi. Ammo har qancha qobiliyat bo'lmasin, bugungi ishchi ertaga jiddiy tadqiqotchiga yoki dehqon bir yo'la mumtoz adibga aylanib qolishi qiyin. Buning uchun muayyan bilimlar, ko'nikmalar hosil qilish, shunga yarasha muayyan fazilatlar sohibiga aylanish talab etiladi. Bu oddiy jarayon emas.

### **Milliy g'oya – jamiyat taraqqiyotining garovi**

*A. Nosirjonov,*

*Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Ibragimov*

Milliy taraqqiyotimizning hozirgi davridagi bosh vazifa mustaqillikni mustahkamlashdir. Jamiyat hayotining barqaror bo'lishida yurt tinchligi, millatlar va elatlar orasidagi hamjihatlik, ijtimoiy hamkorlik asosiy o'rinni egallaydi. Chunki yurt turli kelishmovchiliklardan, to's-to'polonlardan holi bo'lmas ekan, taraqqiyot to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi.

Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo hamjihatlik, diniy bag'rikenglik tushunchalarini tahlil qilar ekanmiz, ularning barchasi O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mustaqillik yillarida olib borayotgan oqilona siyosati tufayli amalga oshayotganini qayd qilishimiz zarur.

Mamlakatimizda tinchlikni barqarorlashtirish, olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, tarbiyaviy ishlarni

yuqori bosqichga ko'tarish borasida erishilgan muvaffaqiyatlar Vatan ravnaqini ta'minlaydi. Ravnaq topayotgan mamlakat fuqarolarining hayotigina farovon bo'lishi mumkin. Farovon hayot esa har bir shaxsning va umuman, butun jamiyat a'zolarining jismoniy va intellektual kamolini ta'minlaydi.

Bularning barchasi mamlakatimizda komil insonlarni tarbiyalashga yordam beradi. Ma'lumki, komil inson tushunchasi nisbiy xarakterga ega. Uning barcha xususiyatlari, xulq - atvori, fe'li, tashqi va ichki go'zalligi, bizning zamonamizga xos ishbilarmonligi, faolligi, yangilikka tashnaligi, vatanga va millatga munosabati takomillashib boraveradi.

Inson o'z milliy xususiyatlari bilan umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda yashasa, ajdodlarining hamjihatlik, hamkorlik, o'zaro hurmat, sabr-toqat, sahovat va mchribonlik kabi olijanob fazilatlarini, uning uchun hayotiy mezon bo'lib qoladi. Zero, komil insonigina bag'ri keng, o'zga xalqlarga hurmat bilan qaraydigan bo'ladi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun qayg'uradi. Bu yo'lda faol mehnat qiladi va o'zgalarga o'rnak bo'la oladi.

Tarix vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishdagi eng buyuk qurollardan biri. O'tmishda Ona Vatan himoyasi, yurt tinchligi uchun jonini fido qilishga tayyor turgan Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi kabi shaxslar bo'lganligi faktining o'zigina kishilarda kelajakka ishonch ruhini mustahkamlaydi.

"Umuman vatanparvarlik:

- o'z xalqining tarixini yaxshi bilish va undan g'ururlanish;
- buyuk ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy merosni ko'z qorachig'idek asrab, kelgusi av-lodlarga yetkazish;
- ajdodlar urf-odat, rasm-rusum va udumlarini, merosini o'rganib, uning qadriyatga aylangan qismini davom ettirish;
- davlatimiz kelajagi, istiqlolning barqarorligi, kelajakning buyukligini chin dildan his etish;
- shunday kelajakni bargto etishga astoydil ko'maklashish;
- yuzlab fazilatlar kabi xususiyatlarni anglatadi.

Vatanparvarlik shaxsning chinakam e'tiqodiga aylanamog'i uchun bilimning o'zi – dunyo va ilm sirlaridan boxabarlik, naqadar chuqur bo'lmasin, baribir kamlik qiladi. Vatan haqida gap sotib, u qiyin ahvolda qolganda cho'chib, ikkilanib, loqaydlik, befarqlik qilib, irodasi, sadoqati zaiflashadigan kishilar Vatanga noloyiqsir.

## **Ta'lim islohoti va jamiyat taraqqiyoti**

*Aripova Mahbuba, Farg'ona birinchi  
tayanch Tibbiyot kolleji o'qituvchisi*

Ta'limni isloh qilishdan ko'zlangan bosh maqsad-o'sib kelayotgan yosh avlodni qat'iy e'tiqod va qarashlar ruhida, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sirlarga qarshi turaoladigan milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat

ruhida tarbiyalashdan iborat. O'zbekiston mustaqillikka erishgan paytdayoq 1992 yili 2 iyulda "ta'lim to'g'risidaga qonun"ni, 1991-1996 yillarda Prezident tomonidan 30 dan ziyod farmon qabul qilinib, uning asosiy diqqat-e'tiborida ta'lim samaradorligi va yoshlar masalasi turib, qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Maorif va madaniyat barkamol insonni shakllantirishning eng muhim vositasidir. Bizning mamlakatimizda kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatlari-mizdandir.

Biroq, 1992 yilgi ta'lim to'g'risidagi qonunning bir qator kamchiliklari ko'zga tashlandi, xususan ta'lim tizimi, kadrlar tayyorlash jamiyatda bo'layotgan demokratik o'zgarishlar, bozor islohotlari talablari bilan bog'lanmaganligi, o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi qoniqarsiz ahvolga tushib qolganligi, ta'lim muassasalarida zamonaviy o'quv adabiyotlari va didaktik materiallar hamda yuqori malakali pedagoglar yetishmayotganligi, ishlab turgan murabbiy-o'qituvchilar kattagina qismining bilim va kasb saviyasi yetarli darajada emasligi, kabi muaamolar girdobida qolganligi edi. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I. Karimov shunday degan edilar; "Eng muhimi shuni anglab yetishimiz kerakki, kadrlar masalasini hal etmas ekanmiz, sa'y-harakatlarimiz kutilgan natijalarni berishi, hayotimiz, ma'naviyatimiz o'zgarishi qiyin kechadi. Demakki zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yish faoliyatimizning bosh yo'nalishi bo'lmog'i darkor".

Shu kabi muammolarni yechimini hisobga olgan davlatimiz parlamenti 1997 yil 29 avgust kuni "*Ta'lim to'g'risida*"gi yangi qonun hamda *Kadrlar tayyorlash milliy dasturini* qabul qilinishi bu borada tarixiy yangi qadam bo'ldi. Mazkur qonunning 3-moddasida ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy printsiplari, xususan, ta'limning uzluksizligi va izchilligi, shuningdek, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi belgilandi.

Qonunda ko'rsatilganidek, mamlaktimizning rivojlanib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini yuqori malakali kadarlar bilan ta'minlashning uzluksiz ta'lim tizimi yaratildi. Shu asosda yurtimizda 12 yillik umumiy majburiy bepul ta'lim tizimi joriy etildi. Amalga oshirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar tufayli hozirgi kunga qadar respublikada 1549 ta zamonaviy ta'lim muassasalari, shundan 1406 ta kasb-hunar kolleji va 143 ta akademik litsey barpo etildi. Ta'lim olishning huquqiy poydevori birinchi o'rinda bosh qomusimiz Konstitutsiyamizning 41-moddasida har kuni bilim olish huquqiga egaligi, bepul ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanishi va maktab ishlari davlat nazoratida bo'lishi belgilab qo'yildi. Ta'lim va tarbiyaning asosiy diqqat-markazida komil inson tarbiyasi turganligi tufayli bu masala davlat siyosatining ustivor sohasiga aylanganligi bejiz emas albatta. *Komil inson- deganda biz, avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli ma'rifatli kishini* tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. Ta'limni amalga oshirish bilan barobarida bizning eng muhim jihatlarmizdan biri bu tarbiya masalsidir.



Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek; "Tarbiya-bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo-saodat, yo falokat masalasi-dir". Shunday ekan, ta'lim jarayonini amalga oshirishda milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy tarbiyani yo'lga qo'yish jamiyatimizda sog'lom muhitni saqlash barobar ekanligini anglashimiz darkor. 2012 yilning 16-17 fevral kunlari poytaxtimiz Toshkentda "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash-mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusida xalqaro konfrentsiya bo'lib o'tdi. Ushbu konfrentsiyada BMT, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, va 40 ziyod mamlakat vakillari ishtirok etdi. Konfrentsiya ishida ishtirok etgan Prezidentimiz I. Karimovning ochilish marosimida " ta'lim tizimini tubdan isloh qilish odamlarimizning ong-tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirish, ularning siyosiy va fuqorolik faolligini, o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylanadi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi" deya so'zlagan fikrlari ta'lim borasida olib borilayotgan ishlarimizning maqsad vazifasini ifoda etib berdi. Konfrentsiyada ishtirok etgan xorijiy mamlakat vakillari O'zbekistonning ta'lim borasidag yutuqlaridan hayratlangan holda o'zlarining ommaviy axborot vositalari vakillariga bergan intervyularida buni e'tirof etishdi.

Bugungi kun yoshlarini ta'lim olishlarini yanada takomillashtirish va zamonaviy innavatsion pedogik texnologiyalar asosida bilimlarini mustahkamlash maqsadida yurtimizda olib borilayotgan islohotlar va uni amalga oshirishda beparvolikka yo'l qo'yimaslik eng asosiy masalalardan biridir. Zeroki, beparvolik va loqaydlik o'z manfaatini jamoat manfaatidan ustun qo'yishdan, xudbinlikdan, kelajak haqida qayg'urmaslikdan, o'ziga ham, o'zgalarga ham ishonmaslikdan, qo'rqqoqlikdan kelib chiqadi. Jamiyat kelajagini o'ylaydigan inson hech qachon tevarak-atrofidagi hodisalarga beparvo, loqayd bo'lmaydi. Zararli, yot jarayonlarni fosh qiladi, ularga qarshi fidoyilik bilan kurashadi. Shuning uchun birinchi Prezident I. Karimov bu masalani alohida ta'kidlaydi: «Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zi bo'larlilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qaerda hushyorlik va jonkuyarlik yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi».

### **Komil inson tarbiyasining asosiy mezonlari**

*Yuldasheva Mahliyo, Farg'ona birinchi  
tayanch Tibbiyot kolleji o'qituvchisi*

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi tarixiy bosqichi kelajakda buyuk davlat egasi bo'ladigan komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishni ma'naviyatimiz zimmasiga yukladi. Komil insonni voyaga yetkazish oson emas. Odob-axloqli, madaniyatli komil inson birinchi navbatda o'z Vatanini, milliy tili, urf-odatlarini, tarixi, marosimlarini sevmog'i, avlod-ajdodlari yaratgan ilmu hunar javohirlarini

egallamog'i, umuminsoniy qadriyatlardan xabardor bo'lmog'i lozim. Bu nihoyatda murakkab va ancha qiyin ish, albatta.

O'zbekiston bugungi kunda o'zi tanlab olgan taraqqiyot yo'lida ildamlab borayotgan mustaqil mamlakatdir. Mamlakatimiz taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan joy olishimizga to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni o'zi hal etish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Milliy-ma'naviy tiklanish yo'lidagi harakatlarni xalqimiz to'g'ri tushunib, tanlab olgan taraqqiyot va yuksalish yo'limizni ongli ravishda qabul qildi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, komil insonlarni voyaga yetkazishga bo'lgan intilishlar insoniyat tamadunining ma'no-mazmunini tashkil etganligini ko'rib o'tsak bo'ladi. Insoniyat tarixining barcha davrlarida komillikning eng asosiy ko'rsatkichi insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga bo'lgan intilishida namoyon bo'ladi, ya'ni jamiyatning umumiy rivojiga, insoniyat tamaduniga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi komillik mezonini shaxsning barkamolligi orqali jamiyatni baht-saodatli qilishdan iborat bo'lib kelgan. Insondagi komillik, eng avvalo uning fikri, tafakkuri, amaliy faoliyatda ekanligini anglatiradi.

Komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishda ajdodlarimizning axloqiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Axloqiy meros hamma zamonlarda ham o'zida jamiyatga xos bo'lgan barcha o'zgarish va ziddiyatlarni aks ettirib kelgan. Axloqiy meros ijtimoiy turmushning oddiy yoki kundalik qoidalari bo'lib, ular bir necha ming yillar mobaynida shakllanib vujudga kelgan. U bir ijtimoiy tuzumdan boshqasiga "sof" holda o'tmagan. Ulardan ba'zilari yangi sharoitda yashay olmasliklarini ko'rsatgan. Boshqalari esa o'z navbatida salbiy rol o'ynagan. Ayrimlari zamonlar almashuvi bilan o'z mohiyat va mazmunini yo'qotgan. Ayrimlari esa, davr ruxi ta'siri ostida qayta o'zgarib, takomillashib, xalq ma'naviy-madaniyatining mustahkam xazinasini boyitgan.

Donishmandlar peshvosi Zardo'sht tomonidan yaratilgan "Avesto"da o'z davri uchun muhim bo'lgan ma'naviy-axloqiy tamoyillar, pandnomalar, hikoya va rivoyatlar bayon etilgan bo'lib, ular hozirgi kunda mustaqillikni qo'lga kiritgan respublikamiz fuqarolarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim omillardan biriga aylangan.

Ma'lumki, O'rta Osiyoda falsafiy-axloqiy ta'limot asoschilaridan biri Abu Nasr Forobiydir. U fanning barcha sohalariga qiziqqan, nodir asarlarni yaratib, keyingi avlodlarga meros qilib qoldirgan.

Forobiy axloqiy merosining muhim xususiyatlaridan biri axloqiy kamolotni "baxt" tushunchasi orqali bayon etganligidir. "Baxt-saodatga erishishning birdan-bir yo'li barcha ezgu ishlarni xayrli niyatlar ila bajarish, fazilatli amallarga tayanish barobarida razolat va baxtsizlik kelib chiqarishi mumkin bo'lgan ishlardan o'zini tiya bilishdir... Fazilatning jozibasi uning xayrli amallar ildizidan kelib chiqqanligidir... Ushbu dalilga ko'ra, baxt-saodat xayrli amal va fazilat bilan uzviy bog'liqdir, "<sup>1</sup>- deb ta'kidlaydi mutafakkir.

---

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. Toshkent.: 2001, B. 12

Forobiy axloqiy merosining bu xususiyatlari keyingi davr mutafakkirlari axloqiy fikri rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Bu hol Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Pahlavon Mahmud kabi qator mutafakkirlar falsafiy-axloqiy merosida yaqqol ko'rinadi.

Beruniy axloqiy merosining muhim xususiyatlaridan biri, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni ulug'lashdir. U o'zining «Hindiston» asarida turli dinlarga e'tiqod qiluvchi musulmonlar va hindlarni do'st bo'lib yashashga chaqirdi. Alloma xindlarning urf-odati, turmush tarzi va marosimlarini chuqur o'rgandi, ularga hurmat bilan qaradi.

Barkamol insonni axloqiy tarbiyalash, ular ongiga singdirish shularga qaratilmog'i lozim. Busiz barkamol insonga xos bo'lgan axloqni shakllantirish og'ir kechadi. Shuning uchun barkamol insonning axloqiy tarbiyasi milliy g'oya va milliy g'ururga qaratilmog'i lozim. Ularda mustaqillikni mustaxkamlash milliy iftixor g'oyalarni shakllantirishga yo'naltirilmog'i kerak. Milliy g'oya va milliy g'ururi yuksak bo'lgan insonlar ma'naviyati xam yuksak bo'lib, ular xalqning yordamchi vakiliga aylanib, boshlariga qilich kelsa-da e'tiqodimonlarini sotmaydilar.

Barkamol inson ma'naviy kamoloti ijtimoiy hayotdagi eng murakkab soha hisoblanadi. Uning kamolot darajasiga ko'tarilishi uchun turli yo'llar va omillar taqozo etiladi. Ana shunday omillardan biri, Prezidentimiz aytganlaridek, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, axloqiy merosga ijobiy munosabatdir.

Kishilarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratayotgan mamlakatimiz uchun ham muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

### **Maktab va oila hamkorligi**

*S. Ismoilova, Namangan shahar 27-maktab*

*Boshlang'ich ta'lim ilmiy bo'lim mudiri*

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim-tarbiya ishlarini milliy andozalar asosida tashkil etish, uning samaradorligini oshirishga ham alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Chunki, buning o'ziga yarasha sabablari bor. Vatan kelajagi, mamlakat taraqqiyoti yuksak bilimli, ma'naviyatli yoshlar qo'lida. Ozod va obod Vatan g'oyasi O'zbekiston zaminida kelajagi buyuk davlat, erkin va farovon jamiyat barpo etish uchun xalqimiz kuch-quvvatini jipslashtirishni, xalq irodasini bunyodkorlik ishlariga safarbar etishni, vatanparvar avlodni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Bu o'rinda maktab va oila hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bola tug'ilib o'sgan makon, oilada, ota-ona bag'rida voyaga etadi, aqlini taniydi. Maktab ostonasiga qadam qo'ygan bolalarning ta'limi va tarbiyasida keyingi navbatda o'qituvchining o'z o'rni bo'ladi. Bu jarayonda maktab va oila, ya'ni ota-ona va o'qituvchi hamkorligi g'oyat muhimdir.

Ota-ona birinchi navbatda tarbiya uchun mas'ul bo'lmog'i lozim. Chunki, yaxshi tarbiya ko'rgan bola ayni paytda yaxshi ta'lim ham oladi. Yomon tarbiya

ko'rgan bola na ilmni, na o'qituvchini qadriga etadi. Buyuk mutafakkir Abdul Avloniyning: "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo sadoqat - yo falokat masalasidir", - deb bejiz aytmagan.

Go'zal axloq va tarbiya bilan kamol topgan shaxs Vataniga, tug'ilib o'sgan yurtiga, hamyurtlariga muhabbatli bo'ladi. O'z Vataniga, tavallud topgan zaminga yuksak hurmatda bo'lgan ulug' ajdodlarimiz ismlari oxiriga tug'ilgan o'sgan joy nomini unutmaslik uchun qo'shib aytganlar: Xorazmiy, Buxoriy, Farg'oniy, Termiziy, Marg'inoniy, Farobiy, Qoshg'ariy, Nomongoni Samarqandiy va boshqalar. Bu kindik qoni to'kilgan erga, Turkistong O'zbekistonga, o'z Ona - Vataniga bo'lgan azaliy sadoqat timsolidir. Buyuk ajdodlarimiz shu yo'l bilan o'z Vatani, yurtini, madaniyatini, fanini, san'atini butun jahonga targ'ib qilganlar. Bu noyob vatanparvarlik namunasidan keli chiqib, har bir O'zbekiston fuqarosi o'z tug'ilgan joyini gullatib yashnatish Yagona Vatani bo'lmish O'zbekistonning buyuk kelajagi uchun fidokoror mehnat qilishi va Vatan ravnaqiga o'zining hissasini qo'shish lozim. Bu xislatlari tabiiyki, ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi.

Ayrim holatlarda ba'zi ota-onalarning "bolamni maktabga berdim, enduning ta'lim-tarbiyasi uchun o'qituvchi mas'ul", deb xotirjam yurishlari mutlaq noto'g'ridir. Qushning ham ikki qanoti bo'ladi, ta'lim-tarbiya samaradorligi ham shunga qiyoslash mumkin. Faqatgina maktab va undagi o'qituvchining jonfidologi etarli emas, bu borada. Ma'lumki, 3 yoki 4 ta bolaning nazorati 20-30 bolaning nazoratidan engilroq. Shu tufayli har bir ota - ona farzandini kundalik vaqt taqsimotini, bo'sh vaqtini qanday o'tkazayotganligini, darslarni o'zlashtirishini, uy topshiriqlarini bajarishini kuzatib bormog'i lozim.

Ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishish yo'lida Namangan shahar 13 umumta'lim maktabida ham sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. MAktal rahbariyati ota-onalar bilan uchrashuvlar, suhbatlarni muntazam tashkil etib bormoqda. Odob-axloq, bilim borasida namuna ko'rsatgan o'quvchilar va ularning ota-onalari ma'naviy rag'batlantirib borilmoqda.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo'lgan yo'li, bu namunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, ota-ona bolaga axloqiy namuna bo'lishi kerak. Maktabda muallimlarning ta'lim berish usullaridan tortib, to «maydachuyda» xatti-harakatlarigacha o'z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo'ylik yoshlar axloqiy tarbiyasi shakllanishini ta'minlovchi omillardandir.

Shu sababli ustoz-muallimlar ham o'z ustilarida tinmay ishlari lozim bo'ladi. Mustaqil Respublikamiz fuqarolari, xususan yoshlar ruhiyatida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularni rivojlantirish demokratik, adolatli va huquqiy jamiyatni barpo etishning muhim kafolati sanaladi. Shuning uchun vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish butun tarbiyaviy ishimizning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmog'i lozim.

## O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan geosiyosiy aloqalarida geografik omilning o'rni

A. G'aniyev, Nam DU talabasi

*Ilmiy rahbar: t. f. n. dotsent B. Talapov*

Globalashuv jarayonlari umumsayyoraviy axamiyat kasb yetmokda. Bunda davlatlarning o'zaro geosiyosiy jarayonlarga keng tortilishi tabiiy xol xisoblanadi. Ayniksa bu jarayonlarda davlatning geosiyosiy joylashuvi geografik o'rni muxim axamiyatga ega bo'ladi. O'zbekiston Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan qulay geografik va geosiyosiy imkoniyatlarga ega bo'lgan davlat xisoblanadi.

"O'zbekistonning va Markaziy Osiyodagi boshqa respublikalarning hozirgi jug'rofiy siyosiy tizimlardagi roli juda sezilarli va kattadir. Shu tufayli bu respublikalarda yuz berayotgan hodisalar jahondagi eng yirik davlatlar turli jug'rofiy siyosiy tuzulmalarning manfaatlariga dahldordir<sup>93</sup>" deb takidlydi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti. I. A. Karimov

O'zbekistonning qulay geografik makonda joylashganligi mamlakat hududini boshqarish va o'z siyosatini amalga oshirishda qulay imkoniyat yaratadi. Bu jihatdan u qo'shni respublikalarga nisbatan qulay imkoniyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Mamlakatning joylashuvi siyosatida muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat qanchalik tabiiy zaxiralarga boy bo'lsa, uning iqtisodiy yuksalishi ham birmuncha yuqori bo'ladi. O'zbekiston bir necha muhim savdo yo'llar kesishgan nuqtada joylashgan. Shu sababli bu hududga nisbatan dunyoning yetakchi davlatlari o'rtasida doimo raqobat bo'lib kelgani tarixdan ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston xududi janubda Hindiston, shimolda Rossiya, G'arbda Turkiya, Eron, sharqda Xitoyga olib boruvchi geostrategik muhim ahamyatga ega bo'lgan hudud hisoblanadi. Bu hududda doimiy ravishda Rossiya va AQSh manfaatlari to'qnash kelib turadi. Bunga birinchi navbatda AQSh ning bu mintaqa davlatlariga bo'lgan siyosati bo'lsa, boshqa tomondan Rossiyaning bu hududda bo'lgan ta'sirining kattaligi sabab qilib ko'rsatish mumkin. Bu davlatlar o'z siyosatini amalga oshirish jarayonida O'zbekiston bilan o'zaro kelishib ish yuritishga majburdirlar. Buning asosiy sababi mintaqadagi boshqa davlatlarga nisbat O'zbekistonning kuchli Iqtisodiy va Siyosiy salohiyatga egaligi bosh omil hisoblanadi<sup>94</sup>

Energetik resurslardan tashkari Markaziy Osiyoni Rossiya, Xitoy, Eron, Turkiya davlatlari bilan ko'shnichiligi dunyo davlatlarining nazarini o'ziga tortadi. Hozirgi kunda AQSh, Yevropa davlatlari va Yaponiya mintaqamizning iqtisodiy potentsialiga qiziqish bildirmokdalar. Bu esa Markaziy Osiyoda geosiyosiy rakobatni avj olishiga olib keladi. Albatta, har bir davlatning manfaatlariga va ayniksa geosiyosiy manfaatlariga ta'sir o'tkazish mumkin. Chet el davlatlarining Markaziy Osiyo siyosatida geosiyosat ma'lum o'rin

<sup>93</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXIsr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.:O'zbekiston, 1997. -B.228.

<sup>94</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXIsr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.:O'zbekiston, 1997. -B.228.

tutishini hisobga olgan holda, ularni manfaatlarini o'z manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda iqtisodiy tus yoki iqtisodiy raqobat darajasiga keltirmog'imiz lozim. Bu borada ham ma'lum darajada kelishilgan siyosat o'z ijobiy natijasini berishi muqarrar.

Ma'lumki, " O'zbekiston o'z yer osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi –bu yerda mashhur Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan<sup>95</sup>".

O'zbekiston oltin zaxiralari buyicha dunyoda 4- o'rinda turgan davlat hisoblanadi, ishlab chiqarish bo'yicha esa 7- o'rinni egallaydi. Shuningdek, O'zbekistonda boshqa nodir metallarning yirik zaxiralari mavjud"

Er ka'ridagi temir rudasi zaxiralarning 8% Qozog'iston hududiga to'g'ri keladi<sup>96</sup>.

O'zbekiston va Tojikistonda yirik uran rudasi konlari mavjud. Masalan O'zbekiston uran qazib chiqarish bo'yicha yer yuzida 7 o'rinda turadi<sup>97</sup>.

Paxta ham Markaziy Osiyoning katta boyligi hisoblanadi. Masalan, mintaqa bo'yicha 1995 yilda terib olingan 5, 9 mln. tonna paxta butun MDX hududida terilgan paxtaning 96%ni tashkil etadi. O'zbekiston paxta yetishtirish bo'yicha dunyoda 4-o'rinni, uni eskport qilish bo'yicha esa 2-o'rinni egallaydi.

Ana shunday ulkan imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining jug'rofiy jihatdan noqulay shart-sharoiti, aniqrogi, energetik zaxiralarning iste'mol bozoridan uzoqda joylashgani hamda ushbu bozorga chiqish yullarining murakkab geosiyosiy xarakteri tufayli mavjud geostrategik salohiyatdan foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Boshqacha aytganda, xozirgacha Markaziy Osiyoga, asosan, havo yo'llari orqaligina bemalol kirish mumkin. Mintaqaning Xitoy, Hindiston, Eron va Rossiya o'rtasida joylashgani yetakchi davlatlarning ushbu hudud markaziga yo'nalish uchun o'ziga xos murakkablik tug'diradi. Chunki tabiiy zaxiralardan foydalanish, neft va gaz quvurlarini biror bir yo'nalish orqali ochiq dengiz portlariga olib chiqish uchun bir nechta davlat hududidan o'tish va buning uchun yetakchi transmilliy kompaniyalari bilan shartnoma tuzgan xolda amalga oshirishga to'g'ri keladi. Qolaversa, bunday loyixalar yetakchi davlatlar manfaatlarining tuqnashuviga olib kelmagan taqdirdagina kutilgan samara berishi mumkin.

Boshqacha aytganda, xozirgacha Markaziy Osiyoga, asosan, havo yo'llari orqaligina bemalol kirish mumkin. Mintaqaning Xitoy, Hindiston, Eron va Rossiya o'rtasida joylashgani yetakchi davlatlarning ushbu hudud markaziga yo'nalish uchun o'ziga xos murakkablik tug'diradi. Chunki tabiiy zaxiralardan foydalanish, neft va gaz quvurlarini biror bir yo'nalish orqali ochiq dengiz portlariga olib chiqish uchun bir nechta davlat hududidan o'tish va buning uchun yetakchi transmilliy kompaniyalari bilan shartnoma tuzgan xolda amalga

<sup>95</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.:O'zbekiston, 1997. –B.230.

<sup>96</sup> Suyumbaev M. Mamsitova A. Prirodnye resursy kak faktor razvitiya T'Sentral'noy Azii/T'Sentral'naya Aziya i Kavkaz.-1998.-№1. –S.35.

oshirishga to'g'ri keladi. Qolaversa, bunday loyixalar yetakchi davlatlar manfaatlarining tuqnashuviga olib kelmagan taqdirdagina kutilgan samara berishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, mintaqaning geosiyosiy mavqei quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Markaziy Osiyoning geosiyosiy mavqei, avvalo, uning iqtisodiy imkoniyatlari bilan belgilanadi. Bu borada eng manfaatli hamkorlik bilan ish olib borish muhimligini ta'kidlab, mintaqada yetakchi davlatlar manfaatlarining shiddat bilan shakllanib borayotganini inobatga olish zarur.

Umuman olib boriladigan geosiyosat jarayonida tinchlik muhim masaladir.

Evropa davlatlari uchun Markaziy Osiyo mintakasida kuchli davlatlarning paydo bo'lishi va yukori darajadagi mintakaviy xamkorlikning yo'lga qo'yilishi Yevropa davlatlarining xavfsizligini ta'minlash yuzasidan juda muhimdir<sup>98</sup>.

O'zbekistonning birinchi raxbari, birinchi navbatda, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mintaqani barqaror xavfsiz xududga aylantirish mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yunalishi ekanligiga ypgy berdi. Bu maksadni amalga oshirish uchun kushni davlatlar bilan integratsiyalashuv jarayonlarini izchil davom ettirish, bozor islohotlarini rivojlantirishda mintaqaviy bozorni shakllantirishga alohida ahamiyat berish zarurligini e'tirof etdi<sup>99</sup>.

### **O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan geosiyosiy aloqalarida demografik omilning o'rni**

*O. Abdullayev, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: t. f. n., dotsent B. Talapov*

Jahon miqiyosida kechayotgan globallashuv jarayonlaridan mamlakatimiz chetda qolayotgani yo'q. O'zbekiston jahon hamjamiyatining to'la huquqli a'zosi sifatida bu jarayonlarning faol ishtirokchisi hisoblanadi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasi doirasidagi davlatlar o'rtasidagi integratsion jarayonlarda O'zbekiston o'zining milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda ushbu mintaqa davlatlari bilan geosiyosiy aloqalarga ustivor yo'nalish sifatida qaramoqda. Zero, mintaqa davlatlari o'zaro xududiy yaxlitlik, etnik yaqinlik va e'tiqod birligi va sobiq Ittifoq davrida shakllangan yagona xo'jalik tizimiga ega bo'lganligi boisdan, ular bir-birini to'ldiradi, o'zaro iqtisodiy jihatdan yaxlitlikka ega. Ma'lumki, geosiyosatda asosiy bo'lgan omillar ushbu aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda geosiyosatning asosini tashkil etuvchi omillar xususida to'xtalish o'rinli deb hisoblaymiz. Chunonchi, bular:

- geografik omil ( davlatning geografik o'rni, tabiiy resurslari);

<sup>98</sup> Jumaniyozov X. "Geosiyosat asoslari". O'quv-uslubiy majmua Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakul'teti Ilmiy kengashining 2012 yil 29 avgustdagi 1- sonli qarori

<sup>99</sup> Jalilov A. Geosiyosat asoslari. O'Quv qo'llanma.T., Toshkent davlat Axborot Texnologiyalari universiteti

- siyosiy( davlatning siyosiy tuzumi, davlat chegaralari, jamiyatning ijtimoiy tarkibi, asosiy erkinliklarning mavjudligi);
- iqtisodiy omil (ishlab chiqarish kuchlarining quvvati va tarkibi, aholining turmush darajasi);
- harbiy(qurolli kuchlarning kattaligi, quvvati, harbiy tayyorgarligi, harbiy kadrlarni tayyorlash holati);
- ekologik( cheklangan yoki tugaydigan va tiklanmaydigan) resurslarga bo'lgan demografik bosim, xomashyo resurslarining kamayishi va tugashi;
- demografik( aholi soni, o'sish surati, zichligi va tarkibi);
- madaniy – ma'rifiy omil (konfessalar, millat va elatlar, mehnat an'analari, ilm fan, sog'liqni saqlash).

Zero, yuqoridagi omillardan demografik omilga to'xtaladigan bo'lsak - har yili turli sabablarga ko'ra vafot etgan aholi o'rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to'ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy – tarixiy sharoitlarga bog'liq holda o'rganadi. Demografiya atamasini 1855 – yilda fransuz olimi A. Giyar qo'llagan. O'zbekistonda asosan 1960-yillardan qo'llanila boshlagan. Demografiyaning maqsadi muayyan hudud, mamlakat, dunyo aholisi va millatning takror paydo bo'lishi jarayoni va omillarini o'rganish jarayoni, muamolarni belgilab, yechimlarni aniqlash va istiqbolini ko'rsatib berishdan iborat. O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazini egallagan hamda muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy salohiyati hamda demografik imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi boshqa davlatlardan ajralib turadi. Jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasi aholisining 40% O'zbekistonda istiqomat qiladi. O'zbekiston bugungi kunda Markaziy Osiyoda joylashgan boshqa respublikalar qatori aholi ko'payishi yuqori suratlarda davom etmoqda. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy salohiyatini yanada oshirishga imkon yaratadi.

Aholi sonining ko'payishi mamlakat uchun mehnat resurslari salohiyatini ko'tarilishiga yordam beradi. Bu omil o'z navbatida Markaziy Osiyoda joylashgan boshqa davlatlardan farqli jihatda O'zbekiston uchun muhim ahamyat kasb etadi. Chunki bunday imkoniyatga ega bo'lish mintaqada geosiyosiy ustunlikni ta'minlashga imkon yaratadi. Aholi sonining o'sishi keyingi 150 yil ichida deyarli 10 barobarga oshdi. Bu quyidagi holatda ko'rish mumkin: 1865-yil 3. 3mln, 1900-yil 4. 0mln, 1939-yil 6. 4mln, 1950-yil 6. 3mln, 1959-yil 8. 1mln, 1980-yil 15. 8mln, 1900-yil 20. 3mln, 2000-yil 24. 4mln, 2008-yil 27. 1mln, 2017-yil esa 32, 121, 100 kishini tashkil etdi. Aholining 81. 7% dan ko'prog'i- 24, 15 mln kishi o'zbeklar. Har biri 1 mln dan ortiq ruslar qozoqlar, tojiklar, 500 mingdan ortiq tatarlar, qirg'izlar, qaraqalpoqlar, forslar 500ming, koreyslar 200ming, ukrainlar 150 ming, turkmanlar 150 ming, armanlar 100 ming, arablar va lo'lilar 500 ming va boshqalar. <sup>100</sup> Bulardan ko'rinish turibdiki, aholi sonining o'sishi dastlabki 100 yil mobaynida juda sekinlik bilan amalga oshgan, faqatgina mustaqillikdan keyingina o'sish sur'ati ma'lum darajada oshganini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston siyosatida

<sup>100</sup>Musaev P. O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi. –T.:Sharq., 2014- B



demografik omillar bu o'z navbatida tashqi siyosatga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki chegara yaqinida ko'plab o'zbeklar istiqomat qiladi. Misol uchun Qirg'iziston bilan chegarada 2. 5 mln, Tojikiston bilan chegarada 500 ming, Turkmaniston bilan chegarada 100 ming, Qozog'iston bilan chegarada 2 mln, Afg'oniston bilan chegarada esa 5 mln o'zbeklar istiqomat qiladi. <sup>1</sup> Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'zbeklar Markaziy Osiyoda olib borilayotgan siyosatda muhim ahamyat kasb etadi. Lekin bu o'z navbatida boshqa muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bularga o'zbek millatiga mansub aholining boshqa davlat hududida qolib ketishi, buning asosiy sababi Sobiq Sho'rolar zamonida amalga oshirilgan milliy hududiy chegaralanish sabab bo'ladi. Bu muammo davlatlar o'rtasida ma'lum bir nizolar keltirib chiqarishi mumkin. O'zbekiston o'z hududida yashayotgan boshqa millat vakillarining huquqlarini qonun bilan kafolatlab qo'ygan. Bu narsa asosiy qonunimizning 8-moddasida ko'rsatib o'tilgan. <sup>101</sup>

Davlat siyosatini amalga oshirayotganda aholining milliy etnik tarkibini hisobga olish ham muhim ahamyat kasb etadi. Agarda davlatda shovinizm g'oyasi kuchli bo'lsa, bu davlat albatta bir kun kelib siyosiy inqirozga uchrashi aniq. Davlatimiz ko'p millatli bo'lgani uchun aholining etnik tarkibi xilma - xildir. Buni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin : o'zbeklar 82. 9%, qoraqalpoq 2. 5%, tojiklar 4. 8%, ruslar 2, 7%, qozoqlar 2, 7%, boshqa millatlar 4, 4% ni tashkil yetadi. <sup>102</sup>

Mehnat resurslarining sifat taraqqiyoti jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot darajasiga, davlatning aholi bandligi bo'yicha olib borilayotgan siyosatiga bog'liq. Mintaqadagi boshqa respublikalarga qaraganda mamlakat aholisining savodli darajasi ancha yuqori. Misol uchun respublikamiz aholisining 99. 9% savodli hisoblanadi. O'zbekistonda 16-54 yoshdagi ayollar va 16-59 yoshdagi erkaklar mehnat resurslariga kiritiladi. Mehnat yoshidagi aholi 2 guruhga ajratiladi: 40 yoshgacha bo'lgan; 40 yoshdan yuqorilar. Mazkur toifa mehnat resurslarining ayollar 51%, erkaklar esa 49% ni tashkil etadi. Ularning 13% sanoatda , 26. 7% qishloq xo'jaligida, 9, 3% qurilishda, 5. 2% transport va aloqada, 10. 9% savdo va umumiy ovqatlanishda 13. 4% fan, ta'lim, madaniyat va san'atda, 0. 5% moliya, kredit, sug'urtada, boshqa sohalarda esa 9. 9% mehnat qilmoqda.

Fuqarolarning ish va yashash joyini erkin o'zgartirish haqidagi huquqlariga mos ravishda mamlakatimiz aholisining muayyan qismi xorijiy davlatlarda mehnat qilayotir, bu tabiiy xol. Biroq, chet ellarda ishlayotgan hamyurtlarimizning ko'pchilik qismi oddiy mehnat turlarida faoliyat olib bormoqdalar. Bugun mamlakatimizning xorijga mehnat resurslarini chiqarishdan manfaatdor bo'lgan tashkilotlarining oldida turgan asosiy vazifa yuqori malakali mehnat resurslarini tashkiliy jihatdan uyushgan holda xorijga yuborishdan iborat. O'zbekistonda mehnat yoshidagi aholi salmog'i katta hamda mehnat resurslari tez ko'payib bormoqda. O'zbekiston qudratli mehnat resursiga

<sup>101</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2014.- B.

<sup>102</sup> www.vikipedia.uz

ega: mehnat zahiralari jami aholining 55, 4% ni mehnat resurslari tashkil etadi va har yili 300-350 ming kishiga ko'paymoqda Qishloq joylarida aholining zich joylashganligi, qishloq xo'jaligida ortiqcha ishchi kuchi mavjudligi hamda haydaladigan yerga to'g'ri keluvchilar soni kattaligini hisobga olaganda O'zbekistonda mehnat resurslariga muhtojlik bo'lishi kutilmaydi. Ba'zi iqtisodiy, demografik va geografik xususiyatlarini etiborga olgan holda aholi bandligi tizimini o'zgartirish lozim bo'ladi. Shu maqsadda 1992 –yil yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida” gi qonuni asosida aholini ish bilan ta'minlash davlat xizmati tashkil etildi. Mazkur vazifani amalga oshirishda samarali faoliyat ko'rsatuvchi mehnat bozorlari, mehnat birjalari muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda mehnat birjalari ishsizlarni ro'yhatga oladi, ularni kasbga yo'llaydi, ishsizlik nafaqalari to'laydi. Har yili o'rtacha 300 mingga yaqin aholi mehnat birjalari orqali ishga joylashtiriladi. Siyosiy sahnaga yangi mustaqil davlatlarning chiqishi nafaqat Yevroosiyo xaritasiga, balki mafkuraviy siyosiy, iqtisodiy va xalqaro munosabatlar tizimlarida keskin o'zgarishlarga olib keldi.

## **Yoshlarga ko'rsatilayotgan g'amho'rlik**

*X. Eshmatova, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Ibrahimov*

Xalqimiz o'zining iste'dodli farzandlari bilan, ularning xalqaro fan olimpiadalari, jahon sport maydonlari, madaniyat va san'at olamida erishayotgan ulkan yutuqlari bilan haqli ravishda faxrlanadi. Yurtimizda yashayotgan har bir bolaning o'ziga xos qobiliyati va iste'dodini o'z vaqtida payqash, tarbiyalash va ro'yobga chiqarish doimiy e'tiborda.

Bugun yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini mamlakatimizning kelajagi bilan bog'liq holda ko'radigan yangi avlod vakillari hayotga dadil kirib kelmoqda. Yoshlarimiz siymosida va texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan, mustaqil inson sifatida shakllangan, bir so'z bilan aytganda, el-yurt xizmatiga shay, yuragi yonib, ko'zlaridan o't chaqnaq turgan navqiron yigit-qizlarni ko'rib muayyan kasb, ba'zan bir necha yo'nalish bo'yicha diplom olgan, bir necha xorijiy tilni o'rgangan, zamonaviy texnika, qalbingizda ishonch, g'urur-iftixor tuyg'ulari jo'sh uradi.

Bugungi globallashuv davrida demokratik tamoyillar asosida yangilanayotgan, o'zgarayotgan hayot yoshlarimizni o'ziga xos sinovdan o'tkazmoqda. Jamiyatning kelajagi yoshlar bilan bog'liq va ular taraqqiyotning asosiy kuchi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni kuchayib bormoqda. Yoshlarga doir olib borilayotgan davlat siyosati va bu borada mavjud qonunchilik, yangi qarorlarni qabul qilinishi hamda islohotlarning amalga oshirilishi mustaxkam kuchli tayanch bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasida samarali tarzda amalga oshirilib kelinayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlar jarayoni yoshlarni himoyalanganlik darajasini kuchayishiga hamda mustaxkamlanishiga

sabab bo'lmoqda. Ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo'lib, bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat'iyatlilik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turganini yana bir marotaba uqtirib o'tmoq lozim.

Yoshlarimizning zamon va texnikaviy taraqqiyot bilan baravar odimlayotgani qalbimizga g'urur bag'ishlansa, ularning ongu tafakkurini dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlardan, «ommaviy madaniyat»ning zararli ta'siridan himoya qilish mas'uliyati bizni yanada hushyor, sezgir va ogoh bo'lishga undaydi.

Yurtimizda iqtidorli yoshlarni moddiy rag'batlantirish va ma'naviy qo'llab-quvvatlashning samarali tizimi yaratilgan. Oliy o'quv yurtlarida bakalavr, magistr va aspirantlar uchun davlat stipendiyalarining turli shakllari joriy etilgan. Shuningdek, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida respublika olimpiadalari, tanlovlar, sport musobaqalari o'tkazish, ana shu tadbirlarda va xalqaro miqyosdagi olimpiada, tanlov va musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan yosh ishtirokchilarni moddiy rag'batlantirish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi aholisi 2008 yilda 27302700 kishini tashkil etgan bo'lsa, shundan xotin-qizlar soni 13732064 kishini tashkil qildi. Aholining 1 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlari soni 17080000 ming nafar bo'lib, shundan qariyb 9 mln. nafarini xotin-qizlar tashkil etdi. Yoshlarning 6 milliondan ortig'i shaharlarda, 11 millionga yaqini esa qishloqlarda istiqomat qiladilar<sup>103</sup>. 2011 yilga kelib O'zbekiston Respublikasi aholisi 28, 5 million kishini tashkil qilayotgani va yoshlar asosiy kuch ekani muhim ahamiyat kasb etmoqda<sup>104</sup>.

Yoshlar haqida fikr yuritganda, I. A. Karimovning quyidagi fikrlarini ta'kidlash o'rinli: "Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 10 million 360 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 17 million 80 ming nafarni yoki umumiy aholining 64 foizini tashkil etadi. O'z-o'zidan ayonki aholining aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarning yechilmagan muammolariga e'tiborimizni jalb etish, ularni hayotimizda haqiqatdan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchilikning diqqat markazida turishi shart"<sup>105</sup>.

Bundan ko'rish mumkinki, jamiyat ijtimoiy demografik holatida yoshlar katta va shijoatli kuchdir. Bu kuchni mamlakatning chinakam suyanchi va tayanchiga aylantirish uchun yoshlarga g'amxo'rlik hamda e'tibor davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Mustaqillik davrida o'zining tarixiy-madaniy o'rni, demografik xususiyatlari va ijtimoiy harakatchanligi nuqtai-nazardan yoshlar qatlami jamiyatda alohida o'rin

<sup>103</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining joriy arxivi. 1991-2008 yil ma'lumotlari. <http://www.stat.uz>.

<sup>104</sup> Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik nutqi. // Xalq so'zi, 2011, 1 sentyabr'.

<sup>105</sup> Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. 16-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 163.

tutayotganligi ijobiy holdir. Yoshlarning bugungi jamiyatdagi o'z o'rnini belgilashi, maqsad va orzularini aniqlashida milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar mezoni muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ularning maqsad va orzularini to'g'ri belgilab olishga yordam berish, bu jarayonni ilmiy va rejali tashkil etishga alohida e'tibor berish lozim.

### **Dolzarb vazifa**

*S. Xojiboyev, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: M. Mamashayeva*

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, uni mustahkamlash va shuning asosida yangi huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo'liga o'tdi. Mustaqillik tufayli respublikamiz ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy hayotida juda katta tub o'zgarishlar ro'y berdi. Istiqloq xalqimizning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Yurtimiz tarixi, qadimiy madaniyatimiz tiklanmoqda va oliy qadriyat nufuziga ega bo'lmoqda.

Ayniqsa, mustaqillik yillarida respublika hukumati tomonidan yosh avlod ta'lim tarbiyasi va ma'naviy kamolotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada 1998 yilning oila yili deb, 1999 yilini – Ayollar yili deb, 2000 yilni – Sog'lom avlod yili deb, 2001 yilni Onalar va bolalar yili deb, 2008 yilni Yoshlar yili deb, 2010 yilni esa Barkamol avlod yili deb nomlanishi ham tahsinga sazovordir.

Yosh avlodning ma'nan barkamol bo'lib tarbiyalanishida shubhasiz oilaning o'rni beqiyosdir. Oilada bola ma'naviyatining shakllanishida onalarning alohida o'rinlari bor. Etuk bilimga ega onagina farzandiga etarli darajada bilim bera oladi. O'tmishimizda o'tgan buyuk allomalarimizning tarixlariga nazar solsak avvalombor ularning onalari bilimlik bo'lganliklarining guvohi bo'lamiz.

Shu bois oilalar mustahkamligini ta'minlash uchun biz tarixchilar o'tmishimizdagi buyuk allomalarimizning oilaviy hayotlaridagi ibratli voqealarni o'rganib, tahlil qilib, uni yosh avlodga etkazishimiz kerak. Bu kabi tadbirlar shubhasiz oilalar mustahkamligi ta'minlash va qo'ydi-chiqdilar sonining kamayishiga xizmat qiladi.

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila - haqiqiy ma'naviyat uchog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga avvalo o'sha muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibratini, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Prezidenti o'zining bir qator maqola va risolalarida, nutqlarida, ma'naviyat va tarbiya masalalariga alohida to'xtalib o'tdi. Jumladan: "... Bugungi murakkab, ziddiyatli, turli larzalar chiqib turgan va mojarolar bo'lib turgan vaziyatda ziyolilarimizning oqilona so'zlari, xayrli ishlari odamlar va xalqlar o'rtasida insonparvarlik va ma'naviy normalarni saqlab qolishda eng

muhim shartdir<sup>106</sup>, degan edi prezident. Shubhasiz buning uchun dastlabki ish avvalo oiladan boshlanadi.

Oila, uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, iymon, e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik insonparvarlik ilmga ishtiyoq va madaniyat ko'nikma shakllanadi. Zero, har bir fuqaro oilaning jamiyatdagi o'rni vazifasini, Vatanni ostonadan boshlanishini tushunmasdan turib, o'zini mukammal inson deb his qila olmaydi.

Bolalarda yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylilik tuyg'usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o'rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab, uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an'analarimizga xos shakllarini qO'llash lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot bo'lgan «jangari» o'yinchoqlar, multfilmlar, kinofil'mlardan imkon qadar foydalanmasliq Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o'yinlar, o'yinchoqlar, rasmiy kitobchalar, milliy ertaklar asosida yaratilgan mul'tfil'mlar bolalardagi ilk yoshlikdan mafkuraviy qarashlarning to'g'ri shakllanishida qo'l keladi.

Inson ma'naviyatining dastlabki kurtaklari oilada shakllanadi. Oila mustahkamligi ahloqiy, huquqiy barqarorligi komil insonni tarbiyalashning birinchi zaminidir.

Oila ijtimoiy tabiiy omillar asosida shakllangan kichik jamoa bo'lib, ikki jinsga mansub bo'lgan shaxslar o'rtasida munosabatlar natijasida nasl qoldirish extiyojidan kelib chiqqan shaklidir. Nasl qoldirish deganda faqat farzandni dunyoga keltirishgina emas, balki uni ma'naviy va jismoniy kamol toptirishdan ham iboratdir.

Oilani boshqarish jamiyat xayotini boshqarishning kurtagi xisoblanadi. Oila a'zolari O'rtasidagi yaqinlik bog'liliq ishonch, xurmat samimiylig burch va mas'uliyatni xis qilish, talabchanlik muloyimlik bolalar ichki dunyosini shakllantirishga ta'sir etadigan ruxiy omildir<sup>107</sup>.

Oilani mustahkamlash ota-onalar va bolalarning huquqini himoya qilishga jahondagi nufuzli tashkilotlar katta ham hissa qo'shmoqdalar.

Sog'lom avodni tarbiyalash va voyaga etkazishda milliy g'oyaning o'rni va roli beqiyosdir. Tarbiya muammolari insoniyat tarixining barcha davrlaridagi g'oyalar va mafkuralar tizimidan ham katta o'rin olgan. Inson ongi va e'tiqodi uchun bo'lgan kurashlar yoshlar tarbiyaviy yo'llar bilan ta'sir etilgan.

## **Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy va ma'naviy negizlari**

*S. Abdullayev, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Tillayev*

Fuqarolik jamiyatining tuzilishi, deganda uning o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sirda bo'lgan tarkibiy qismlarining majmui tushuniladi. Ijtimoiy tizim

<sup>106</sup> Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-Toshkent: O'zbekiston, 2011.-B.89.

<sup>107</sup> Oila ma'naviyati. Ma'ruzalar matni.-Toshkent, 2008.-148 b.

kishilarni oiladagi, ishdagi, jamoat tashkilotlaridagi va ijtimoiy tabaqalardagi munosabatlari bo'yicha birlashtiradi. U fuqarolik jamiyatining birlamchi negizi bo'lib, fuqarolik jamiyatining boshqa tizimlariga ham ta'sir ko'rsatib turadi.

Ijtimoiy tizimda bosh rolni oila o'ynaydi, chunki aynan oilada o'sib kelayotgan yosh avlodga tarbiya beriladi, aynan oilada keyinchalik butun jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadigan psixologik iqlim shakllanadi. O'zbekistonda oilaga katta e'tibor qaratilmoqda, yoshlarga va ko'p bolali oilalarga yordam berilmoqda. 1998 yilning O'zbekistonda "Oila yili", 1999 yilning esa "Ayollar yili", 2000 yilning "Sog'lom avlod yili" deb e'lon qilinishi ham buning yorqin isbotidir.

Huquqiy davlatchilikning asosiy poydevorlari mutaqqil ishlab chiqaruvchi, erkin iste'molchi (haridor) va ozod fuqaro.

Avval boshdanoq hususiy shaxs ham, shu qatori har qanday jamoa ham mustaqil ishlab chiqaruvchi bo'lishi mumkinligini qayd etamiz. Barcha hozirgi zamon mamlakatlarida teng asoslarda davlat mulkchiligi ham mavjud.

Aynan xususiy mulkchilik jamiyatida muxtojlikda yoki hoxishiga ko'ra, uning istalgan a'zosi qonun doirasida davlatga "yo'q" deb, ayni paytda hayoti uchun zarur mablag'lardan ajralmay qoladigan holatni shakllantiradi.

Agar ishlab chiqaruvchilar ko'pchilik bo'lmasada, ular jamiyatning bir qismi bo'lib qolaversa, hamma – iste'molchi hisoblanadi. Moddiy va ma'naviy ne'matlar iste'molchisi hisoblangan fuqaro tanqislik bo'lmagan holatdagina o'zini nisbatan hotirjam his qiladi. Ana shundagina jamiyat va davlat barqarorlikka ega bo'ladi.

Zarur mollar va xizmatlar tanqisligi imtiyozlar va ijtimoiy adolatsizlikni keltirib chiqaradi; mollar va xizmatlarni egallangan lavozimning katta kichikligiga qarab, taqdim etish boshlanadi. Shu tariqa mollar hajmining harakati ustidan nazoratni ma'muriy hokimiyat butunlay o'z qo'lga oladi va iste'molchi unga haddan tashqari tobe' bo'lib qoladi. Bunday holatda endi gap fuqarolik emas, balki totalitar jamiyat haqidagina borishi mumkin. Fuqarolik jamiyatining siyosiy tavsifi endilikda huquqiy davlat tushunchasida a'lo tarzda jamlangan.

Ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyati siyosiy hayotning muhim qismidir. Ular fuqarolik jamiyati hayotiyiligining, uning atrof-muhit bilan moslashish qobiliyatining muhim shartlaridan biri bo'lgan qaytar aloqani amalga oshiradi.

Umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi – ma'naviy hayot sohasidagi fuqarolik jamiyati alomatlarini ana shu iborada o'z ifodasini topgan. Ozodlik, qonun oldida tenglikka, ijtimoiy adolatga izchil yo'nalganlik fuqarolik jamiyatida teng sharoitlarni ta'minlaydi. Bu esa, juda muhim deb ta'kidladi, – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov "Islohotlar davomida kishilar o'z mehnat va aqliy imkoniyatlarini amalga oshirishlari uchun Konstitutsiyada ko'zda tutilgan ijtimoiy kafolatlar va imkoniyatlarni ta'minlash

zarur. Tashabbuskorlik va omilkorlik butun choralar bilan rag'batlantirilishi lozim"<sup>108</sup>.

Fuqarolik jamiyati sharoitida huquq faqat iqtisodiy va siyosiy hukmronlik qiluvchi sinf irodasinigina emas, balki o'z davri insonparvarlik asoslari, uning axloqiy yo'nalishlarini ifodalaydi. Kantning fikricha, fuqarolik huquqiy holati quyidagi tamoyillariga asoslanadi: "jamiyat har bir a'zosining inson sifatidagi erkinligi; fuqaro sifatida uning har bir boshqa odam bilan tengligi; jamiyat har bir a'zosining fuqaro sifatida mustaqilligi".

Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat ziddiyatlardan xoli emas. Zero, ko'pchilik jarayonlar hokimiyatlar tomonidan kuchli ehtiyot choralari ko'rilmay, erkin tartibda kechadi. Fuqarolik jamiyatida, chamasi, boshqa har qanday jamiyatdagidan ko'proq kambag'allarning yanada kambag'al, boylarning yanada boyroq bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi mumkin. Shuning uchun ham bu yerda davlatning o'z vaqtida vaziyatni tuzatib, to'g'rilab borishi juda muhim ahamitga ega. Biroq, u muayyan afzalliklarga ega bo'lsa, ham, bu afzallikni taqsimot munosabatlari sohasida emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlarning shiddatli rivojlanish qobiliyatidan izlash kerak. Hozircha chuqur ilmiy idrok etishni talab etuvchi fuqarolik jamiyatining qandaydir bir qiyofasi tarkib topgan xolos.

Fuqarolik jamiyati – shaxsiy hokimiyat rejimiga, o'zboshimchalikka, sinfiy nafratga, totalitarizmga, odamlar ustidan zo'ravonlikka o'rin bo'lmagan, qonun, axloq, insonparvarlik va adolat tamoyillarini hamma hurmat qiladigan erkin, demokratik, huquqiy tsivilizatsiyalashgan jamiyat. Bu – aralash iqtisodiyotga ega bo'lgan ko'p ukladli raqobatli bozor jamiyati, tashabbuskor tadbirkorlik, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarining oqilona muvozanati ta'minlangan jamiyatdir.

### **Tarbiyaviy ishlarda oila va mahallaning o'rni**

*Sh. Hasanova, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Tillayev*

Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida inson kamolotida tarbiyaning roli alohida takidlab shunday degan edi: "Janobi haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyati, yaxshiila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'lardir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'lsa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon johil rasvoi olam bo'lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar tabib kapidurki, Tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi

<sup>108</sup> Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. -Toshkent: O'zbekiston, 1996.-B. 302-303.

tarbiyani bolaning vujudidagi jalb maroziga –“yaxshi xulq” degan davomi ustidan berib, katta qilmog’i lozimdir.”

Inson aslida baxt va ezgulik uchun dunyoga keladi; shu orzu–umid bilan yashaydi, lekin bu bilan ish bitmaydi, u shu niyatiga yetishi uchun harakat qilishi, mehnat qilishi, yaxshilik ko’rishi uchun yaxshilik qilishi lozim. Insonning inson bo’lib yetishuvida, hayotda o’z o’rnini topishida, el–yurt ichida izzat–hurmatga sazovor bo’lishida, yuksak axloq–odob qoidalarini o’zida mujassam etishida oila asosiy o’rinni egallaydi. Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini ta’minlashi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf–odatlar, axloqiy–ma’naviy rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va ma’naviy hayot poydevori qo’yiladi va mustahkamlanadi.

Qizlarni tarbiyalash ular tug’ilgan vaqtdan boshlanadi. Tarbiya ma’lum bir maqsadni ko’zlab, ongli va rejali tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat. Tarbiya kattalarning, keksa avlodning hayot tajribasini yoshlarga o’rgatishdan iborat. Tarbiya o’sib–rivojlanayotgan shaxsda ma’lum ijtimoiy–qimmatli fazilatlar, xislatlarni shakllantirish uchun maxsus tashkil etilgan pedagogik ta’sir o’tkazish jarayonidir. Tarbiyaviy ta’sirni o’sib–rivojlanayotgan shaxs ijobiy qabul qilsagina, uning rivojlanishi shakllanishi samarali bo’ladi.

Tarbiya davomida qiz bolalarning qarashlari, hayotiy nuqtai nazari asta–sekin tarkib topib boradi. U qiz bolalarning xulq–atvori hamda tevarak–atvordagi muhitning hilma–xil ta’sirlariga uning munosabatlarini belgilaydi. Shaxsning bu tutgan yo’li qancha aniq va izchil bo’lsa, tevarak–atrofdagi hayot sharoitlarining turlicha salbiy ta’siri shuncha kuchsiz bo’ladi.

Oilada tarbiyaning negizlariga asos solinadi. U bolada shakllanishi lozim bo’lgan barcha insoniy munosabat va fazilatlarini tarbiyalovchi hayot maktabi hisoblanadi. Oilada qizlar ular tug’ilganidan boshlab tarbiyasi uchun alohida katta e’tibor boshlanmog’i zarur.

Oilada farzand tarbiyasida oilaning har bir a’zosi, ya’ni, bobo, buvi, ota–ona, opa, uka, aka, ammo, xola, tog’a, qo’ni–qo’shni, mahalla, maktab, jamoatchilik birdek ma’sul deb hisoblansada qizlar tarbiysai uchun esa faqatgina ona ma’sul hisoblangan. Xalqimizda “Bir bolaga yetti qo’shni ota–ona”, “Mahallang – otang–onang” kabi maqollar bejiz aytilmagan. Shuning uchun bola tarbiyasida barchaning talabi, munosabati bir xil bo’lmog’i zarur.

Oila va mahalla har tomonlama bir–biri bilan bog’liq. Zero, mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag’rida kamol topganlari kabi oila ham mahalla ichida ravnoq topadi, nurli kelajak sari intiladi. Kerak bo’lsa, mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisi, tog’day tayanchidir.

Mahalla –tarbiya o’chog’idir. Mahallada o’sayotgan har bir yigit–qizning axloq–odobi uchun butun mahalla ahli mas’uldir. Shuning uchun ham “Bir bolaga yetti qo’shni ota–ona”, “Bir bola tarbiyachiga yetti mahalla ota–ona” kabi naqlar bejiz paydo bo’lmagan. Yoshlarning har bir hatti–harakati barchaning diqqat markazida bo’ladi.

Mahalladoshlarning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat qilishi barkamol insonni tarbiyalab yetishtirishning negizidir.



Xulqi–odobi yaxshi, har tomonlama namunali farzand mahallaning obro’sidir, noqobil, axloqan nobaqbul farzand esa mahalla uchun qora dog’dir. Abdurauf Fitrat aytganidek: “Qizlarni voyaga yetkazish uchun uning tarbiyasiga oilagina javobgar bo’lmasdan butun jamiyat a’zolari javobgardirlar, chunki yoshlar har tomonlama yetuk inson bo’lib tarbiyalansa jamiyatning kelgusi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo’ladi.

## **Vatanparvarlik - ma’naviyat mezonlari sifatida**

*A. To’xtaboyev, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: O. Mamatov*

Yurtning o’tmishi va hozirgi kuni uchun, mamlakat rivoji uchun intilishdan iboratdir. Vatanparvarlik ota-bobolarimizdan meros qolgan zaminni sevish, xalq urf-odatlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish, Vatanni nopok niyatli kimsalar, yot begona g’oyalardan himoya qilish, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamalik nazarda tutiladi.

Shuni ta’kidlashimiz lozimki, vatan inson uchun eng qadrlil va serqirra tushuncha bo’lib xizmat qilish joizligini har bir kishi qalban his etmog’i kerak. Albatta ushbu so’zni eshitishimiz bilanoq har birimizni ko’z oldimizga tug’ilib o’sgan tuprog’imiz, ona zaminimizning biz uchun qadrlil bo’lgan jabhasi - yurtimiz ko’z oldimizda namoyon bo’ladi. Tug’ilib o’sgan joyimiz uning har bir srahadi biz uchun qadrlilidir. Chunonchi vatanni sevish uni himoyasiga doimo tayyor turish uchun har bir kishi o’zida vatanparvarlik, insonparvarlik kabi tuyg’ularni namoyon qila olishi o’zini o’tmishi, (tarixini) teran anglashida yuksak ma’naviyat egasi bo’lishi deb qaraladi. Vatanparvarlik deganda - Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, vatan ravnaqi uchun faol bo’ladigan unga undaydigan ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy fazilat tushuniladi. uning mazmunini Vatanga sadoqatli va mehr-muhabbatli bo’lishdir.

Insonparvarlik ham xuddi shu ma’noda yaqinroq talqin qilinadi. Odamlarning qadri, erkinlik va qobiliyatlarining har tomonlama namoyon bo’lishi uchun kurashish, kishilarni baxt saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotga ta’min etishdagi intilishini ifodalaydigan g’oya va qarashlar tizimiga aytiladi. (Milliy g’oya: targ’ibot texnologiyalari va atamalar lug’ati. –T. : Akademiya, 2007. 108-155 bet. )

Albatta bularsiz kishi o’zini qandaydir bir kerakli narsasini yo’qotib qo’ygandek o’zini his etadi. Bu tuyg’ular bo’lsa undan kuchliroq va undan baxtliroq kishi bo’lmaydi. Inson ushbu tuyg’ularni o’zida jamlashi va o’z-o’zicha o’zini hayotini boshqarmoqchi bo’lsa, u ma’naviyatli, yuksak hissiy tuyg’u egasi bo’lmog’i shart hisoblanadi. Yuksak ma’naviyat egasiga o’zida ushbu mezonlarni jamlashi o’tmishi va turmush chorrahalari bosib o’tishda doimiy ravishda o’zini ko’rsata bilishi uchunbarcha imkoniyatlardan keng foydalangan holda harakat qilmog’i shartligini ko’rsatdi. Vatanparvarlik, insonparvarlikni ma’naviyat mezonlari deyishimizga sabab, bular uzoq tariximizda ham o’zining o’rniga egadir. Forobiy, Beruniy, Buxoriy, Ibn Sino, Yassaviy,

Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy, bobur, keyinchalik esa sho'rolar ya'ni sovet hukumatining qattiqqo'llik bilan olib borgan siyosatiga qarshi chiqqan ozodlik va mustaqillik uchun kurashgan: Behbudiy, Avloniy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy kabi qator ajdodlarimizning inson erkinligi, uning burch va ma'suliyati kabi masalalrni o'zining falsafiy va badiiy yechimini topishi uni ro'yobga chiqarilishini istab doimiy ravishda harakat olib borishganliklarini ularning ko'rsatgan jasoratlari, qilgan bunyodkorliklarida ko'rishimiz hamda Vatan va inson doimo qadrlanishini o'zlarini hatti harakatlari ko'rsatgan jasoratlariyu, ma'naviy meroslarida ko'rishimiz mumkin.

Biroq hozirgi globallashuv asrida ko'pincha yoshlarni ma'naviy ozuqa olishiga to'sqinlik qiluvchi ulardagi bunyodkorlik g'oyalarini o'rniga vayronkorlik g'oyalarini singdiruvchi turli xil ekstremistik, hamda axborot tizimidagi oldi qochdi fikrlar orqali yoshlarni va katta yoshdagi kishilarni ma'naviyatini buzilishigacha va hatto o'zini ota-onasi, vatani va o'zi barpo etgan hamda o'zi yashayotgan muhitni yo'q qilishga aniq boradigan, vayronkorlik g'oyalari ilgari suruvchi kishilar hamda ular faoliyatiga duch kelishimiz mumkinligi namoyon bo'lmoqda va ular o'zlarini qora niyatlarini ba'zi-ba'zida ko'rsatib ham olishmoqda.

## **Ma'naviy kamolotning yuksaltirish masalalari**

*I. Rahimov, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Tillayev*

Sotsiologik tadqiqotlar natijasidan malumki, insonda manaviyatni egallashga, uni rivojlantirishga imkon beradigan tug'ma estedod va imkoniyatlar mavjud, lekin bu irsiy imkoniyatlar tarbiya, mexnat, xayot tajribalari va jamoatchilik bilan aloqalari asosida sayqal topadi, nixoyat etiqodga, ruxiy moxiyatga aylanadi va inson ongida o'rnashadi. Demak, yuksak ma'naviyat o'z moddiy kurtaklarini xayot tajribasi, avlodlar merosi, axloq va odob xamda ijodiy tafakkurdan oladi. Manaviyat faqat insonga xos bo'lgan ichki ruxiy zamin bo'lmay, balki jamiyat, davlat, millat, shaxs, tarqqiyot va kamolotining asosiy omili xamdirdir. Binobarin insoniyat jamiyati taraqqiyoti taqdirini manaviy jixatdan yetuk insonlar xal qiladi.

Bugungi kunda hayotimizning barcha soxalarida amalga oshirilayotgan keng kulamli isloxatlarimizning samaradorligi avvalo xalq manaviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur urganilishi, anana va urf-odatlarimizning saqlanishi fan va talimning rivojlanishi, eng muximi jamiyat tafakkurining o'zgarishi yuksak manaviyatimizning shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir. Ma'lumki uzbek xalqining manaviy madaniyati rang-barang va juda qadimiydir. Lekin uzbek xalkining moddiy va manaviy, madaniyatining rivojlanishi bir tekis kechgan emas. Unda bir necha bor yuksak chuqqilarga kutarilish, aksincha tushkunlik davri ham bo'ldi. Mustaqilligimiz bularning hammasiga chek quymoqda. Bugungi kunda xayotimizning barcha jabxalarida, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va manaviy soxalarda tup o'zgarishlar ruy hermoqda. Jumladan, xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftihori usib, manaviy

dunyosi kundan-kunga yuksalib bormoqda. Bu jarayon tufayli yuksak manaviyatimiz shakllanib, ijtimoiy barqarorligimizni mustaxkamlashga poydevor yaratilmoqda. Manaviyat bu taqdirning ehsoni yoki insonning tug'ma xususiyati emas, balki u insonga xos xususiyat bo'lib, uning jamiyatdagi xayotiy jarayonida shakllanadi. Takidlash joizki, yuqorida qayd etilgan barcha manaviy omillar avvalo insonning ijodiy tafakkurida shakllanadi, so'ngra ijtimoiy xayotga yo'nalish oladi. Pirovard natijada, manaviyat insonlarni xamkorlikka, xamjixatlikka, axillikka, muloqatga chorlaydi. Bir so'z bilan aytganda u insonga barqarorlik bag'ishlaydi va uning irodasini mustaxkamlaydi. Manaviyat shaxs va jamiyat faoliyatida turli kurinishda namayon bo'ladi. Jumladan, manaviyat, madaniyat, manaviy kamolat, ananaviy meros, manaviy extiyoj, manaviy sog'lomlik va boshqalar...

Yuksak manaviyatning ijtimoiy barqarorlikni mustaxkamlaydigan omillaridan yana biri shaxs va jamiyatning manaviy kamolatidir. Binobarin, shaxs va jamiyatning yuksak manaviyatini shakllantirish bugungi kunning muhim nazariy muammosidir. Shuni alohida takidlash kerakki, shaxs ma'naviy kamolati avvalo, jamiyat a'zolari urtasidagi kup kirrali munosabatlar, sungra jamiyat xayotidagi sharoitlar va imkoniyatlar zamini asosida shakllanadi. Ma'naviy kamolotni yuksalishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iktisodiy, siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy islohatlar bilan boglikdir. Islohatda ta'kidlangan barcha maksadlar ommaning ongiga singmasa, unig amaliy faoliyatiga dasturi-amal bulmasa, islohat uz natijalarini bermaydi. Xullas, anglangan ongli faoliyat asosida amalga oshiriladigan islohatlar omma ma'naviy kamolatining yuksalishi shakllanayotgan milliy kadriyatlar darajasi Bilan chambarchas boglikdir. Chunonchi milliy kadriyatlar ma'naviyatning tarkibiy kismidir.

Yuksak ma'naviyatimiz kamol topishida milliy kadriyatlar, an'analarimiz katorida ilmu-islom xam muxim axamiyatga ega. Uning afzallik tomonlaridan biri shundaki, uning goyalari, insonning ichki dunyosi, ichki kayfiyati, ma'naviyatini shakllantirishiga yaratilgandir. Shaxs va jamiyat ma'naviy kamolatini yanada yuksalishida ta'lim-tarbiyaning axamiyati bekiyosdir. Ma'naviyat xalkning, shaxsning axlokiy, odobi barcha va ma'suliyat tuygusi, ilmi, amaliy mexnati va ijod manbasi, iste'dod va kobiliyati, dunyoviy iymoni, e'tikodi, vijdoni, dunyokarashi, mafkuraviy karashlari tizimning yaxlit birligidir. Ma'naviy yuksalish shaxs uchun xam, jamiyat uchun xam xavo, xam suvdek zarurdir.

### **O'quvchi yoshlar orasida milliy g'oya targ'ibotining o'ziga xos xususiyatlari**

***Mahbubaxon Irgasheva, Farg'ona birinchi tayanch Tibbiyot kolleji o'qituvchisi***

Tarixda ulkan ijtimoiy –siyosiy o'zgarishlar va misilsiz kashfiyotlar davri bo'lsin XX asr nihoyasiga yetib, mana 12 yildirki XXI – asrda yashamoqdamiz. Bu misilsiz o'zgarishlar ichida biz uchun eng mo'tabari O'zbekiston xalqini o'z

o'z mustaqilligini qo'lga kiritish bo'ldi. Mana 22 yildirki o'zbek xalqi mustaqil taraqqiyot yo'lidan rivojlanib bormoqda. Bolajonli xalqimiz ozod va erkin rivojlanishning markaziga kuchli, bilimili, dono va baxtli avlod tarbiyasini maqsad qilib qo'ygan. Bu ulug'vor maqsadni amalga oshirishda maktab o'quvchilari orasida milliy g'oya, uning asosiy tushuncha va tamoyillarini keng targ'ib etish, ularni yoshlar ongi va qalbiga singdirish alohida muhim ahamiyatga ega.

Milliy g'oyani insonparvarlik mohiyatini ko'rsatish asosida mustaqillikning muqaddas qadriyatligi, uni har bir keksayu-yosh avlod astab-avaylash muqaddas burch ekanligini o'quvchi va talabalarning qalbi ongiga singdirish. Millat o'z kuchini, taraqqiyoti zaminlarini avvalo yosh avlod orqali topadi va rivojlanadi. Jamiyatning eng o'zgaruvchan va harakatchan qatlamini jamoaga va jamiyatga xos qilib tarbiyalash, intellektual salohiyatini oshirish, milliy ana'analarimiz, qadriyatlarimizni asrab-avaylashning asosiy tashuvchilari yoshlar hisoblanadi.

O'zbekistonda ular aholining 64% (17 mln.) ni tashkil qilib, juda katta strategik kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Milliy g'oyani aynan shu qatlam orasida targ'ib qilish, ularning ongiga singdirib, ishonch va e'tiqodga aylanib borishining bir qancha o'ziga xos jihatlari mavjud. Bu jihatlarda davlatimizning kelajakdagi taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy manbalaridan biridir. Birinchidan, milliy g'oya bir tomondan yoshlarni o'zini ob'ekti sifatida qarasa, ikkinchi tomondan yoshlar milliy g'oyani asosiy tashuvchilari va bir paytning o'zida keyingi avlodga yetkazib beruvchilari hisoblanadilar. Uchinchidan, yoshlar qanchalik darajada milliy g'oya bilan qurollangan va uning mazmun mohiyatini anglagan bo'lsalar, bugungi kunda avj olgan "mafkuraviy ta'sirlar"ning oldi olingan bo'ladi. Aynan yuqoridagi holatlar milliy g'oya va yoshlarni o'zaro bog'liqligini belgilab beradi. Boshqacha qilib aytganda, milliy g'oya qanchalik mazmunli, har bir kishining uzoqqa mo'ljallangan maqsad va manfaatlarini, pirovardida esa, millatning istiqbolini belgilashga xizmat qiladigan bo'lsa, uni yoshlar shunchalik tez qabul qiladi va unga nisbatan ijobiy munosabati shakllandi.

Demak, targ'ibot texnologiyalari milliy g'oya orqali yoshlarda qanday g'oya va fikrlarni taklif etsa, shunga mos ravishda g'oyaviy jihatdan chiniqqan, vatanparvar, zamonaviy bilimlarni egallagan yoshlarga ega bo'ladi. Eng asosiy shundaki, yoshlar boshqa aholi qatlamlariga nisbatan, tashabbuskor, ishonuvchan, tez qabul qiluvchi tashabbuskor hisoblanadilar. Jamiyatda qanday maqsadga qaratilgan bo'lmasin, turli g'oya va mafkuralarga o'zining shaxsiy nuqtai nazarini qaratadi.

Milliy g'oyani yoshlarni safarbar etish, ilhomlantirish, buyuk kelajak sari chorlash uchun ahamiyati, ta'lim va tarbiyada tutgan o'rni va roli hayot xaqiqatlariga, real borliqqa, xalq turmushiga qanchalik mos va muvofiqligiga qarab belgilanadi.

## **Kelajak avlodni tarbiyasi ma'naviyatning o'rni**

*Shahnoza Qodirova, Farg'ona birinchi  
tayanch Tibbiyot kolleji o'qituvchisi*

O'zbek xalqi asrlar mobaynida avaylab saqlanib, sayqal topib kelgan o'z milliy urf-odatlari, rasm-rusm, udum va ananalari, g'ururi, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, huquqiy ongi, etiqodi, bir so'z bilan aytganda, madaniy-manaviy dunyosi bilan ajralib turadi. Biroq ajdodlarimiz umumbashariyat marifatparvarligini yaratishda bevosita ishtirok etganlar, ular jahon tsivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shganlar. Ularning boy madaniy merosidan foydalanish milliy istiqolol mafkurasining shakl-shamoyillarini yaratish uchun xizmat qilishi shubhasizdir.

Milliy mafkuramizda vatanparvarlik asosiy o'rinni egallashi tabiiydir. Bu mafkura tom manoda xalq mafkurasi, yani O'zbekistonda istiqomat qilayotgan o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar, ruslar, ukrainlar, xullas, respublikamizni o'zining jonajon Vatani deb bilgan, O'zbekiston fuqorosi ekanligidan g'ururlanadigan barcha millat vakillarining mafkurasi bo'lishi kerak.

Milliy mafkuramizda oilaga alohida ahamiyat berilishi ham maqsadga muvofiqdir. Qadimdan sharqda birinchi o'rinda oila va uning manfaatlari qo'yilgan. Bu qadriyatimizni ezozlash xalqimiz manaviyatimizni boyitishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi huquqiy davlat qurishga azmu qaror qilgan ekan, yuksak huquqiy davlat qurishga madaniyat, qonunga xurmat, itoatgo'ylik milliy istiqolol mafkurasida muhim o'rin egallashi lozim. Milliy istiqolol mafkurasi har qanday partiyaviy mafkuradan ustun bilishi zarur.

Zero, u o'zida xalqimizning eng ardoqli fazilatlari- imon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillik, uyat va andisha, or-nomus, o'zaro hurmat, yuksak vatanparvarlik, eliga va xalqiga sadoqat kabi qadriyatlar va g'oyalar mujassamlashi lozim.

Shunday mafkuragina turli siyosiy partiyalar, ijtimoiy guruhlar, olim-u muhandislar, ishchiyu-dehqonlar, barcha vatanparvar fuqorolarning dunyoqarashini, g'oyalarini, kechinmalarini yakdillik, hamdo'stlik nuqtai nazariga keltirish imkonini beradi.

Milliy mafkura davlatimizni barcha fuqorolarini ulug' maqsad yo'lida qalban jipslashtirishga xizmat qilishi kerak. Mamlakatimiz fuqorolari O'zbekiston mustaqilligini mustaxkamlash uchun ongli ravishda qat'iy kurash olib borgan taqdirdagina oldimizga qo'yilgan maqsadlarning uddasidan chiqamiz.

Milliy mafkurani yaratishda avvalo yaqin tarixiy o'tmishimizdagi hamma narsadan ham voz kechaverish to'g'ri bo'lmaylidi. Urush va mehnat faxriylarimizdagi vatanparvarlik tuyg'ularini yoshlarga o'rgatish g'oyat muhimdir.

Yoshlarimizga xalqimizga xos bo'lgan hislat-mehnatsevarlikni singdirishning ahamiyati kattadir. Vatan mustaqilligini mustaxkamlash, xalq farovonligini taminlash yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan kishilar rag'batlantirilishi, eng avvalo, manaviy jihatdan rag'batlatirilishi zarur. Biz

fuqorolarimizda mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirmasdan hozirgi inqirozdan chiqishimiz oson bo'lmaydi. Bola oilada mehnatsevarlik, kamtarlik ruhida yahshi tarbiyalanmasa, maktab ham, jamoat tashkilotlari ham buning uddasidan chiqishlari mushkul. Shu boisdan, ayniqsa, jamiyatimizda onalar obro'sini oshirishga etibor kuchaytirilishi lozim. Bizda ko'pincha "Yapon mo'jizasi" haqida gapiriladi. Haqiqatda ham, bu mamlakat xalqining mehnatsevarligini namuna qilib keltirish mumkin. Yaponiyada mehnat tatilida asosan bir haftadan oshmasligiga qaramasdan, xodimlar ham dam olishga chiqishga shoshilmaydilar. Ularga yoshlikdan boshlab biror firmaga mansublik uchun faxrlanish his- tuyg'usi singdiriladi. Shu sababli ular o'z firmalarining shon-shuhrati uchun bilim va istedodlarini ayamaydilar.

O'tgan bobokalonlarimiz Ahmad al-Farg'oni, Abu Nasr Farobiy, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ismoil al-Buxoriy, At-Termiziy, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab va yuzlab hali bizga nomalum bo'lgan alloma va donishmand mutafakkirlarni puxta va chuqur o'rganishimiz zarur. Manaviy poydevorimizni atroflicha o'rganish kelajak avlodni tarbiyalashda asos bo'ladi.

### **Suqrotoning falsafiy qarashlari**

*D. Turg'unboyev, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: T. Qozoqov*

Suqrot (eramizdan oldingi 469-399 yillarda yashagan) buyuk yunon faylasufi, insoniyat tarixida o'z falsafiy g'oyasi uchun o'limga tik bora olgan donishmand sifatida nom qoldirgan mashhur tarixiy shaxs. Qadimgi Yunonistonda falsafani sof mantiqiy kombinatsiyalar orqali inkor etib bo'lmaydigan haqiqat (xulosa)larni keltirib chiqarish san'ati deb hisoblaydigan sofistlarning qarashlari keng tarqala boshlagan edi. Sofistlar uchun falsafa maqsad emas, balki bahs jarayonida ilgari surilgan tezisni asoslash uchun zarur bo'lgan vositadir. Lekin ular ham mantiqiy yo'llar bilan muhim falsafiy haqiqatlarni kashf eta olgan edi. Masalan, sofist faylasuf Protagorning yaxshilik va yomonlikning nisbiy ekanligi, haqiqatni bilish mumkin emasligi to'g'risidagi yoki Kallikl Frazimoxga mansub deb hisoblangan "adolat - bu qudratli shaxs uchun foydali bo'lgan narsalar" va boshqa shu kabi fikrlar falsafaning jamiyat va inson hayotidagi amaliy o'rni masalasini qo'yishga olib kelar edi.

Suqrot bunday qarashlarga qarama-qarshi o'larok falsafa-ning markaziga muayyan manfaatga ega bo'lgan, axloqiy norma-larning sub'ektiga aylangan insonni qo'yadi. Falsafada insonning o'z-o'zini anglashga bo'lgan intilishi ham shundan boshlangan. Uning "O'z-o'zingni angla" shiori, insonni axloqiy mezonlar va ijtimoiy munosabatlarning mahsuli sifatida bilib olishga bo'lgan intilishi faylasuf faoliyatining asosiy yo'nalishini belgilaydi. Bilish - insonning bosh maqsadi qobiliyat darajasini belgilab beruvchi mezon bo'lib, bu yo'l muqarrar tarzda umum ahamiyatga molik bo'lgan ob'ektiv haqiqat deb hisoblangan bilimlarni egallashga olib keladi. Bunday bilimlar sirasiga ezyllik,

go'zallik, insoniy baxt va boshqa shu kabi umuminsoniy ahamiyat kasb etuvchi tyshynchalar, tasavvurlar kiradi. Suqrot falsafaning bosh maqsadi va jamiyatdagi bajaradigan vazifasi deb shuni tushundi. U falsafaning jamiyat va inson hayotidagi amaliy ahamiyati ko'rsatdi.

Suqrotgacha axloq qudratli, aqlli, boy aslzoda-zodagonlarning manfaatlarini o'zida aks ettirgan. Suqrot birinchi bo'lib barcha odamlar uchun umumiy axloq qoidalarini ishlab chiqishga urindi. Keyinchalik bu axloq me'yorlari xristian diniy ta'limoti tomonidan buzib tashlandi.

Qadimgi Xitoy falsafasi avvalo ijtimoiy muammolarga qarab mo'ljal olgani bois, unda inson borlig'iga, shuningdek ijtimoiy borliqqa ko'proq e'tibor berilgan. Ayni vaqtda, tabiatning birinchi asoslari ham e'tibordan chetda qolmagan. Bu qiziqish, xususan, narsalar va hodisalarning butun rang-barangligini belgilovchi besh stixiya (suv, yer, daraxt, temir, olov) haqidagi ta'limotda o'z aksini topgan. Keyinroq «O'zgarishlar kitobi»da borliqning butun rang-barangligini tashkil etuvchi bunday birinchi asoslarning sakkiztasi qayd etiladi.

Xudolarning kelib chiqishi, ularning hayoti, ishlari, o'zaro kurashi haqida hikoya qiladigan va shu tariqa qadimgi odamlarning dunyoning vujudga kelishi va evolyutsiyasi haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan kosmogonik miqlar Suqrotga qadar avvalo tabiat falsafasi sifatida yuzaga kelgan va rivojlangan yunon falsafasining birinchi manbai bo'lib xizmat qildi. Ilk yunon faylasuflari o'z asarlarini odatda «Tabiat haqida» deb nomlaganlari, ularning o'zlari esa naturalistlar, «fiziklar» deb atalishi bu fikrni tasdiqlaydi.

## **Milliy mafkura va umuminsoniy qadriyatlar**

*S.Meliboyev, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: O.Mamatov*

Milliy g'oya umuminsoniy tamoyillar va milliy an'analarimiz, tariximiz, qadriyatlarimiz uyg'unligiga asoslangan. Shuningdek, shu Vatanning barcha fuqarolarining maqsad-intilishlarini o'zida mujassamlashtirgan bosh g'oya: "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishni pirovard maqsadimiz deb e'lon qildik.

Milliy g'oya O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot stragiyasini, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad va muddaosini hisobga olgan holda yoshlar qalbi va ongiga singdirishning muayyan tizimi va ustuvor yo'nalishlari mavjud. Bunga jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Milliy g'oya-har qanday "ideallashtirish", birovlarini o'z "izmiga" bo'yunsindirish, bir millatning ustunligini, oriyligini (oriy-toza nasl) targ'ib etish xususiyatlaridan ancha yiroqda ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatni mavjud bo'lishining bir qancha shartlari bo'lib, bularga hudud, chegara, aholi kabi omillar bo'lishi bilan, balki, uning bardavomligini ta'minlab beruvchi, milliy g'oyasi bo'lishi mamlakat to'la qaror topishining amaliy ifodasi

hisoblanadi. O'zbekiston ham mustaqilligining dastkabki kunlaridanoq, milliy manfaatlarimizni umummilliy miqyosda himoya qilish xususiyatiga ega bo'lgan, mukammal qarashlarimiz va tariximizni o'zida namoyon qiladigan milliy g'oyasini e'lon qilar ekan, avvalo dunyoning hech bir mamlakatidan kam bo'lmagan demokratik qadriyatlarga asoslangan xuquqiy demokratik davlat qurajagini e'lon qildi.

Endigi muhim masala xalqparvar g'oyani targ'ib etish, keng jamaotchilikka tushuntirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lib, bu milliy g'oyaning takomilida muhim va asosiy bosqich hisoblanadi. Jamiyat a'zolarini milliy g'oya asosida birlashtirish, va unga bo'lgan e'tiqodini shakllantirish O'zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyoti nuqtai nazaridan alohida strategik ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning axborot madaniyatida mafkura jiddiy rol o'ynaydi. Axborot har qanday sharoitda ham muayyan mafkura bilan singdirilgan bo'ladi va undagi g'oya, qarashlarni tarqatishga xizmat qiladi. Shu o'rinda mafkura va axborot vazifalari o'zaro uyg'unlashib ketadi. Ammo, ularning butunlay aynanlashtirish mumkin emas. Umuminsoniy g'oyalarga asoslangan mafkuralar bor va ayni paytda ayrim ijtimoiy, siyosiy guruhlariga xizmat qiluvchi g'oyalardan oziq olib shakllangan mafkuralar bor. Axborot madaniyati mafkuralarda qanday qadriyatlarning tan olinishi yoki tan olinmasligi, ular umuminsoniy, umummilliy yoki ijtimoiy guruhlarining manfaatlariga xizmat qiladigan qadriyatlarni qadrlashlari bilan o'lchanadi. Shaxsni axborot madaniyati darajasi, sifati, yo'nalishi mafkura maydonida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining asarlarida, nutq va ma'ruzalarida, ayniqsa ommaviy axborot vositalari muhbirlari bilan qilgan suhbatlari va muloqotlarida qayta-qayta alohida e'tibor bilan ta'kidlanganligi bejiz emas. Axborot madaniyati insoniy ma'naviyatga, teran ishlab chiqilgan mafkuraga, ilmiy dunyoqarashga asoslangandagina kuchli g'oyaviy ta'sir qilish qobiliyatiga ega bo'ladi, turli ma'naviy tahdidlarga, mafkuraviy hurujlarga qarshi tura oladi.

Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning globalitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaqtda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim kasb etmoqda".

Axborot madaniyati o'zining asl mohiyati va mazmuni bilan insoniyat yaratgan ma'naviy-madaniy boyliklarni umuminsoniy qadriyatlarga aylanishiga, fan, adabiyot, san'at, texnika kabi sohalarida yangilikka intilish, ijodkorlik, inson va uning manfaatlarini ustuvor deb bilish kabi jihatlarini ma'naviy boylikka aylanishiga xizmat qiladi. Ayni bir vaqtda, axborot madaniyati globallashuv sharoitida keng ildiz otayotgan xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm, narkobiznes kabi illatlarga, axloqsizlik, tubanlik va yovuzlikni targ'ib qiladigan vositalarning har qanday ko'rinishlariga qarshi murosasiz kurash bilan baholanadi.



## **G'oyaviy ta'sirlarning oldini olishda mafkuraviy tarbiyaning o'rni**

*F. Turg'unboev, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: A. Abdullayev*

Dunyoda g'oyaviy hamda informatsion xurujlar, turli mafkuraviy, ma'naviy tahdidlar avj olayotgan bugungi kunda yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirish, tafakkurida sog'lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Buning eng samarali usuli mafkuraviy tarbiyani to'g'ri tashkil etishdir. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha: Mafkuraviy tarbiya - inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayon. Jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o'z manfaat va maqsad-intilishlarini ifoda etuvchi g'oyalar tizimini yaratgach, boshqa guruhlarni ham o'z g'oyalar ta'siriga tortishga harakat qiladi. G'oyalar adolatli va haqqoniy bo'lib, ko'pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta'sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoiy bo'lsa ko'zlangan maqsadga erishiladi. Jamiyat, xalq hali o'z manfaatlarini anglab yetmagan, o'z mafkurasini shakllantirib, maqsad sari safarbar bo'lmagan hollarda begona va zararli g'oyalar ta'siriga tushish ehtimoli ortib boradi. Bu esa g'oyaviy tarbiyani yo'lga qo'yish, sog'lom mafkura tamoyillarini aholi ongi va qalbiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Aslida shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi - bu g'oyaviy tarbiyadir. Bu inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir.

Mafkuraviy tarbiya insonning ijtimoiy hayot haqidagi muayyan bilimlar, baholar va ular zamirida yuzaga keladigan maqsadlar tizimi sifatida chiqishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham, mafkura shaxsning ijtimoiy tasavvurlari, bilimlari, qadriyatlarini tizimi, hayotiy mo'ljallarining shakllanishiga kuchli darajada ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, mafkuraviy tarbiya, ya'ni shaxs jamiyat hayoti, uning taraqqiyot qonunlarini, kuzatilayotgan hodisa, jarayonlarni nechog'li to'g'ri va to'liq tushunishi, o'rinli va adolatli baholashi, qanday maqsadlarni ko'zlab faoliyat olib borishi masalasi ma'naviy tahdidlarning oldini olishda eng dolzarb va ahamiyatli bo'lib hisoblanadi.

## **Mutafakkirlar merosi va komil inson tarbiyasi masalalari**

*J. Tumanov, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: B. Tillayev*

Yuksak madaniyatli, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash muammosi insoniyat ma'naviy-mutafakkirlar merosiining eng ko'hna mavzularidan. U shaxs kamoloti va barkamol insonning ijtimoiy, siyosiy madaniy, ruhiy hamda axloqiy sohalari bilan bog'liq bo'lgan muammolar yechimini topish uchun harakat qilib kelgan.

Bashariyat tarixiga nazar tashlasak, inson va uning hayoti, ma'naviyati, axloqi, barkamollik darajasi odamlar o'rtasidagi turli xildagi ijtimoiy

munosabatlar majmuasidan iborat ekan. Ijtimoiy hayot va jamiyatning barqarorligi, go'zalligi, sermazmunliligi, insonning ijodiy mehnat faoliyati, odobi, xatti-harakati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir. Shu jihatdan qarasa, insonni yuksak martabaga eltadigan vosita faqat mehnat va ijtimoiy faollikgina bo'lib qolmasdan, balki uning odobi, axloqi, barkamolligi, kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqoti bilan bog'liq ijtimoiy muhit hamdir.

Hozirgi bizning yangilanish jarayonini o'tayotgan jamiyatimizda ham hayotning hamma sohalarida hukm surayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy barqarorlikni ta'minlash muammosi hamda uning yechimini topish zarurati yuqorida qayd etilgan muammolar asosida vujudga kelgan.

Demak, yangilanish davrini boshidan kechirayotgan mustaqil respublikamiz fuqarolari ongi va qalbida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik g'oyasini singdirish eng muhim vazifalardan biri. Zero, umuminsoniy qadriyatlar barkamol inson tarbiyasi uchun barcha zamonlarda ham ahamiyati cheksiz bo'lgan. U jamiyat ma'naviy extiyojini qondirish uchun zaruriyat bo'lib kelgan. Hayotiy zaruriyat bo'lib kelgan qadriyat azal-azaldan xalq og'zaki ijodida, ertaklarida, pandnomalarida, dostonlarida asosiy mavzulardan biri hisoblangan. Shuning uchun bo'lsa kerak, uni nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga kiritib, barkamol inson axloqiy tarbiyasi uchun muhim bo'lgan vosita deb bilganlar.

Masalan, Forobiy qadriyatni odamlarning bir-biriga o'zaro yordam ko'rsatishi va insoniy burchni bajarishi kishilarni saxovatli qiladi, inson boshqalar yordamida ular bilan hamjihatlik aloqalarini rivojlantirgan taqdirdagina kamolotga erishish mumkin, deb ta'kidlar ekan, bu kishilarning birlashishi, ularning o'zaro yordami va hamkorligidadir, degan fikrni ilgari suradi.

Bu mavzu, ayniqsa, jamiyat bir bosqichdan ikkinchisiga o'tayotgan, ijtimoiy-siyosiy tartiblarga kishilar "ko'nikib" qolgan zamonlar o'zgarib borayotgan davrda dolzarb muammoga aylanadi. Bunday davrlarda fuqarolarning qadriyatlarga munosabati, ular bilan bog'liq maqsad va ideallari o'zgaradi. Eski qadriyatlar fuqarolar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirmay qo'yadi. Bunda yangi qadriyatlarga ehtiyoj tug'iladi va uni shakllantirish zaruriyatga aylanadi. Qadriyat - qadr-qimmat degan tushunchani anglatadi.

### **Konstitutsiyamiz –huquqiy islohotlar poydevori**

*E.Hoshimov, Nam DU talabasi*  
*Ilmiy rahbar: B.Tillayev*

O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li Konstitutsiyaga asoslangandir. Bizning konstitutsiyaviy siyosatimiz o'z milliy davlatchiligimizni, iqtisodiyotimizni va ma'anviyatimizni kamolot cho'qqilariga olib chiqishga qaratilgan.

O'zbekistonning asosiy qonuni- Konstitutsiyadir. Chet mamlakatlarning va xalqaro tashkilotlarning mutaxassisleri bizning Konstitutsiyamizni, qabul

qilingan qonunlarimizni eng ilg'or, progressiv qonunlar sirasiga dadil kiritish mumkin, deb tasdiqladilar.

Konstitutsiyaviy qonunchilikni va huquq tartibotni qaror toptirishning boshqa jihati ham bor. U mamlakatimizda o'tkazilayotgan demokratik va iqtisodiy islohotlar uchun barqaror huquqiy zamin yaratishdir.

Konstitutsiyamiz xalqimizga milliy, demokratik huquqiy davlat soyasida yashash uchun huquqiy sharoit yaratib berib, ularni bozor iqtisodiyotiga va bu yo'ldan yangi hayot ufqlari tomon yo'llab boradi hamda O'zbekiston Respublikasiga jahon miqiyosida buyuk demokratik davlatlar qatorida yuksak va e'tiborli o'rin tutish uchun yordam beradi.

O'zbekistonda izchil ravishda, bozor iqtisodiyotiga o'tila borgan sari huquqiy institutlar ham shakllanmoqda, bozor munosabatlarini madaniy shaklda joriy etishga imkon beradigan, soxta bozor iqtisodining ildiz otib ketishiga qarshi qaratilgan qonunlar majmui yaratilmoqda. Vazifa faqat xalqaro normalarga mos keladigan qonunlar ishlab chiqish va qabul qilishdagina emas, balki ularga so'zsiz rioya etilishidan ham iboratdir.

O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini tanlab olgan, bu yo'l bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishga asoslangan. Shu narsani alohida ta'kidlamoq lozimki, tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va maqsadi – bu soxta revolyutsion sakrashlarsiz, fojiali oqibatlar va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yo'l bilan, madaniy ravishda normal taraqqiyotga o'tishdir.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida ikkita asosiy vazifa ustuvor hisoblanadi.

Birinchisi – iqtisodiy bazasi ijtimoiy yo'naltirilgan yangi davlatning, yangi tuzumning modelini yaratish.

Ikkinchisi – bozorga o'tishni tashkiliy jihatdan ta'minlash, yangi kadrlar korpusini shakllantirish. Islohotga aloqador kishilar va avvalo, mas'ul xodimlar uning mohiyatini tushunib yetgan, respublika va xalq ehtiyojlari to'g'risida o'ylaydigan, islohot kim uchun va nima uchun o'tkazilishini tushungan, haqiqiy vatanparvar bo'lgan taqdirdagina islohotlar yurishib ketadi. Ular maqsad va vazifalarimizni aniq tasavvur etishlari, o'ylab qo'yilgan rejalarni amalga oshirishga layoqatli bo'lishlari kerak.

Bunga yoshlarimiz o'zlarining intellektual saloxiyati, bilimi, turli soxadagi yutuqlari, halqaro fan olimpiadalari hamda sport musobaqalarida erishgan muvaffaqiyatlari bilan javob berishmoqda.

### **Barkamol avlodni tarbiyalashda mahallaning roli**

*R.Mirzarahimova, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: R.Zamilyeva*

Komil inson g'oyasi va uni amalga oshirishga bo'lgan intilishlar insoniyat tsivilizatsiyasining ma'no mazmunini tashkil etadi.

Tarixga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning asosiy ko'rsatkichi insonini ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, gumanistik g'oyalarga munosabatda hamda ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Ya'ni jamiyatning umumiy rivojiga insoniyatning tsivilizatsiyasiga ijobiy ta'sir

ko'rsatuvchi komillik mezoni insonini, shahsni barkamol qilish orqali jamiyatni baxtli, saodatli qilishdan iborat bo'lib kelgan.

Insondagi komillik, eng avvalo, uning fikr tafakkur va amaliy faoliyat erkinligini anglashdir. Shu ma'noda buyuk Yunon faylasufi Suqrotning «O'z-o'ziningni bil» degan da'vati ham insoning o'z nasl-nasabini, hayot mazmunini, kishining kelajak avlodlar oldidagi ma'suliyat va majburiyatlarini anglashga qaratilgan chaqiriqdir.

Oilaning farovon va har tamonlama rivojlanishiga Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida mahallaning o'rne katta. Zero o'smirlar odobni muomila madaniyatini dastlab oilada, keyin mahallada o'rganadilar. Komil inson tarbiyalanar ekan, avvalo, jamiyatning quyi bo'g'ini bo'lmish mahallaning komil inson tarbiyasida roli kattadir. Maxalladagi sharoit, qarshi va yosh o'rtasidagi muomila madaniyati, insonlar o'rtasidagi munosabat orqali tarbiyalanadi.

Mustaqilik yillari mahallaning obro'-e'tibori kuchaymoqda. Davlatimiz tomonidan O'zbekistonda Oqsoqollar Kengashi «Mahalla» jamg'armasi tuzildi. 2003 yilning «Obod mahalla yili» deb e'lon qilindi, «Obod mahalla yili» davlat Dasturi qabul qilindi. Mahallaning qabul qilindi. Mahallada shaxsni tarbiyalashda jamoatchilikni o'rni katta. Dono xalqimizda «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona» degan ibrotamuz maqol bor. Va bu albatta bejiz emas. Qadimda ota-bobolarimiz farzand tug'ilganidanoq unga birgalikda tarbiya berishgan. Shuning uchun ham bola mahallada o'zidan katta inson ish buyursa, yo'q demagan. Bu mahallaning sog'lom muhit ekanligidan darak beradi.

Endilikda ilg'or fikrli kishilar boshchilik qilayotgan mahalalardagi jamoatchilik fikri muayyan ma'naviy kuch bo'lib qolmoqda. O'z o'zini boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an'analariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajarmoqda.

Shu ma'noda mahallaning «demokratiya darsxonasi» deb ham atash mumkin. Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarning samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, El yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o'rni beqiyos.

Komil inson jamiyatda yashar ekan, unda milliy g'urur, milliy mentalitet kabi g'oyalar o'sib boradi. «Milliy g'urur- ijtimoiy guruxning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmat, obro-e'tiboridan fahrlanish hissini ifodalaydi».

Bu g'urur tuyg'usi hozirgi kunda quyidagi ko'rinishlar bilan namoyon bo'lmoqda: millatning yutuqlari, obro-e'tibori bilan fahrlanish, uning muamolariga befarq qarab turmaslik; o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish; o'z millatining moddiy ma'naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari; an'anulari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o'z millatiga mehr muhabbatini amaliy faoliyatida namoyon qilishlarida ko'rishimiz mumkin.

Komil inson sog'lom milliy g'ururi o'zga millatga mansub kishilarga hurmat ehtirom ko'rsatishni taqazo qiladi. Bunday tuyg'uga ega ma'naviy yetuk kishi milliylikni millatchilikni farq qila oladi, boshqa millat vakillarining izzat nafs va g'ururini kamsitmaydi. Mustaqillik komil insonlarni milliy g'ururni oshirib, xalq, vatan, hotirasi oldidagi ma'suliyatini his qilishdek mazmun bilan boyitmoqda.

Milliy g'urur bilan birgalikda milliy mentalitet tuyg'usini komil inson tarbiyasida singdirish lozim. Mustaqillik, boshqa xalqlar qatori, o'zbek xalqi oldidagi ham o'z mentalitetini o'rganish, uni tiklash va boyitish uchun ulkan imkoniyatlar yaratib bermoqda, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlarora totuvlik, dinlararo bag'rikeng g'oyalarni insonlar ongida qalbiga jo qilish, ularda zamonaviy, milliy mentalitetni hosil qilishning eng asosiy sifatlardan biridir.

Uchulosa qilib aytganda, O'zbekiston erkin fuqarolik jamiyati kurar ekan bu jamiyatda komil inson va mahalla o'rtasida doimiy bog'lanish bo'ladi. Bu jamiyatda insonlar o'rtasida totuvlik, xalqlar totuvlik, xalqlar o'rtasida hamjihatlik O'zbekistonning kelajagi buyuklikda dalolat beradi.

### **Jamiyat taraqqiyotida yoshlar tashkilotining o'rni**

*F.Asqarov, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: R.Zamilyeva*

O'zbekiston Respublikasi yoshlarining «Kamolot» jamg'armasi respublikadagi eng yirik jamoat birlashmalaridan biri sifatida, uning asosiy maqsadi O'zbekistonda kelajagi buyuk davlat barpo etish, demokratiyani rivojlantirish, yoshlar qalbida milliy ma'naviyatimiz, madaniy merosimiz va umuminsoniy qadriyatlar zaminida sog'lom ruh hamda dunyoqarashni shakllantirishdek hayrli ishlarni amalga oshiradi.

Mustaqil davlatimiz hududida faoliyat ko'rsatib kelayotgan aholining ko'pchilik qismini yoshlar tashkil qiladi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarning tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyati barpo etishga qaratilgandir.

Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko'rsatadi. Ularni shartli ravishda davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlarga ajratish mumkin. Bu tashkilotlarga siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jamg'armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla qo'mitalari va boshqalar kiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarda yoshlarning ham o'z ulushlari bor. Bu borada "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati yoshlarning chinakam madadkori va tayanchiga aylanmoqda.

Mustaqillik davrida jamoat tashkilotlari jamiyatni demokratlashtirish talablari va qoidalari asosida, shuningdek, ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini

ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ifoda etish umuminsoniy qadriyatlarga amal qilishning milliy qadriyatlarni yuksaltirish jarayonlariga uyg'unlashtirish kabi tamoyillar asosida shakllandi.

2001 yil yanvarda Toshkentda yoshlar masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimiz rahbari yoshlarning boshini qovushtiradigan, «ularning chinakam suyanchi va tayanchi bo'la oladigan» yangi tashkilot tuzish g'oyasini ilgari surdi. Prezident I.A.Karimov bu tashkilot «Kamolot» nomini saqlab qolishi, uning ish yuritish uslubi jamg'armanikidan farqli bo'lishini ta'kidlab, yangi tashkilotni yoshlarning ijtimoiy harakati shaklida tuzish maqsadga muvofiq bo'lardi, dedi.

Shuningdek, bu yangi ijtimoiy harakatning joylarda tashabbuskor guruhlari tashkil etildi. «Kamolot» jamg'armasi negizida faoliyat yuritadigan bu guruh viloyatlar, tumanlar, shahar va qishloqlarga chiqib, yoshlarning yangi harakat borasidagi fikrini o'rganishi, ularning xohish-irodasi asosida Nizom loyihalari ishlab chiqishi belgilandi.

O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-ruhiy kamolotida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati sezilarni ishlarni amalga oshirmoqda.

Masalan, 2008 yil mamlakatimizda “Yoshlar yili” deb e'lon qilinishi munosabati bilan “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Andijon, Farg'ona, Namangan va Toshkent viloyatlari bo'limlarining 100 nafar yetakchilari orasida “Yoshlarning kiyinish madaniyati - 2008” mavzusida 51 ta parametрни o'z ichiga olgan sotsiologik so'rov o'tkazildi. Kundalik hayotda yoshlar to'g'risida quyidagi iboralar ko'p ishlatiladi. Yoshlar bizning tayanchimiz, ishonchimiz va kelajagimiz. Darhaqiqat, shunday. Bu so'zlarning zamirida katta ma'no yotadi. Xoh oilada bo'lsin, xoh jamiyatda, xoh davlatda bo'lsin, uning ravnaqini kelajagini, demokratik huquqiy davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish borasida shaxdam qadamlar qo'yib ilgarilab borayotgan mustaqil respublikamizni kelgusidagi rivojini, taraqqiyotini yoshlarimizsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Huquqbuzarlikka moyil voyaga yetmaganlar bilan ishlashda ichki ishlar idoralari, kam ta'minlangan oilalar farzandlari va noqobil oilalar bilan ishlashda mahalla faollari, bolalarning o'zini o'zi boshqarish tuzilmalarini rivojlantirishda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, bilan hamkorlik ishlari muvofiqlashtirilgan holda olib borilmoqda.

Huquqiy savodxonlikka erishish huquqiy-demokratik davlatning eng katta yutug'i qisoblanadi. Bunda davlatning har bir fuqarosi o'z huquq va burchlarini yaxshi bilmog'i va unga amal qilmog'i, qonun oldida o'z mas'uliyatini his qilish majburiyati yotadi. O'zbekistonda huquqiy savodxonlikni oshirish uchun turli chora-tadbirlar yo'lga qo'yilgan.

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan tashkillashtirilgan “Siz qonunni bilasizmi?” deb nomlangan ko'rik-tanlov yoshlar o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan tadbirlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda yoshlar maktabda va oliy o'quv yurtlarida rus, ingliz, nemis, frantsuz, ispan tillari bilan bir qatorda bizgu qadimdan madaniyati, dini, tarixi va urf-odatları yaqin bo'lgan Sharq xalqlari

tillarini ham kata qiziqish bilan o'rganmoqdalar. Muhimi "Kamolot" yoshlarni vatanga muhabbat, buyuk kelajakka ishonch ruhida tarbiyalashda ularga tayanch va madadkor bo'lmoqda.

## **Huquqiy davlat va uning mohiyati**

*N.Qo'chqorov, Nam DU talabasi*

*Ilmiy rahbar: A.Abdullayev*

